BAXTIYOR MENGLIYEV
O'RAL XOLIYOROV

O‘ZBEK TILIDAN UNIVERSAL QO‘LLANMA

abituriyent va talabalar uchun

(Qayta ishlangan 2-nashri)

Toshkent
O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
«Fan» nashriyoti
2008

Dars jamlanmasini tuzishda o'rta maktab, akademik litsey, oliy ta'lim va mustaqil shug'ullanuvchi uchun o'zbek tili bo'yicha yaratilgan turli darslik va manbaga tayanildi. Shuning uchun qo'llanmani tuzuvchilar o'zlarini muallif emas, balki musannif sifatida e'tirof etishadi.

Qo'llanma o'rta maktab o'quvchisi, akademik litsey, kasb-hunar kolleji va oliy maktab talabasi, ona tili o'qituvchisi, oliy o'quv yurtiga kirish uchun mustaqil tayyorlanuvchi hamda qiziquvchilar uchun mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir: **Basharat BAHRIDDINOVA,**
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Taqrizchilar: **Odil BEGIMOV,**
filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Otabek SHUKUROV,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Ushbu nashr haqidagi mulohazalaringizni quyidagi elektron manzillarga yo'llashingiz mumkin: **akademnashr@mail.ru, sanjarnazar@mail.ru**

ISBN 978-9943-09-248-8

O'zR FA «Fan» nashriyoti,
«Akademnashr» NMM», 2008 yil.

1- DARS
TIL – ENG MUHIM ALOQA VOSITASI. TILNING PAYDO BO'LISHI VA TARAQQIY ETISHI

Til – eng muhim aloqa vositasi. Til yordamida suhbatlashib savol-javob qilamiz. Til yordamida fikrni ifodalab, tushuntiramiz. Ajdoddan ma'lumot olib, avlodga uzatamiz. Tilning eng muhim aloqa vositasi ekanligi shunda namoyon bo'ladi.

Insonning eng asosiy, uni boshqa jonzotdan farqlab turuvchi belgisi – ong va tilga egaligi. Til faqat insonga va u mansub jamiyatga xos bo'lgan hodisa. Til bir kishi tomonidan emas, balki kishilik jamiyati tomonidan uzoq davr mobaynida yaratilgan. Shuningdek, u ayrim shaxsga emas, balki jamiyatga xizmat qiladi. Shuning uchun **til ijtimoiy hodisa** deyiladi.

Til – yaxlit bir butunlik. Butunlikdagi barcha narsa qismdan tashkil topganligi kabi til ham gap, so'z birikmasi hosil qilish va so'z yasash qoidasi, so'z qo'shimcha va tovushdan iborat. Ana shu qismlar ko'lami bilan turli qonun-qoida, tartib asosida birikib butunlikni, ya'ni tilni hosil qiladi. Til qismi til birligi hisoblanadi. **Maktab darsligida gap, so'z birikmasi, so'z, qo'shimcha va tovush til birligi sifatida qaraladi.**

Tilning paydo bo'lishi. Tilning paydo bo'lishi masalasi - azaliy mavzu. Biror tilning qachon paydo bo'lganini taxminan aytish mumkin. Masalan, manbalarda o'zbek tili XV asrda shakllanib bo'lgan, boshqa turkiy tillardan ajralib chiqqan deyiladi. Biroq, umuman insoniyatga xos tilning qachon paydo bo'lganini aniqlab bo'lmaydi. Chunki ma'lum bo'lgan tilimizning yozuv tarixi 10–15 ming yildan narigga bormaydi. Olimlar esa tilning paydo bo'lishini yozma manba asosida belgilaydi.

Olimlarning tilning paydo bo'lishi haqidagi fikrini umumlashtirib, shuni aytish mumkinki, til bizga in'om etilgan so'zlash imkoniyati asosida kishilarning birga mehnat qilishi jarayonida o'zaro muloqotda bo'lish zaruriyati, ehtiyoj natijasida paydo bo'lgan. Til kishining bir-birini tushunishiga, yashash vositasini topish va yaratishda birlashishiga yordam bergan.

Tilning taraqqiy etishi. Til uzoq davr o'tishi bilan kishining ehtiyojiga muvofiq ravishda o'zgarib, boyib borgan. Kishi fikrini taraqqiy ettirishi bilan birga uning mukammallashib borishi ham kishi bilim va tajribasining takomillashishiga hamda ajdoddan avlodga o'tishiga imkon bergan. Natijada fan, madaniyat, texnika vujudga kelgan va taraqqiy etgan, ya'ni kishilik jamiyati rivojlangan.

Tilning taraqqiy etishi deganda lug'at boyligining oshishi, ichki qonun-qoidasining qulaylashib borishi, tushuniladi.

Jamiyat taraqqiyoti til rivojiga ta'sir ko'rsatgan. Chunki ijtimoiy taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq.

Til taraqqiyotiga qo'shni xalq bilan bo'lgan turli munosabat — savdo-sotiq, madaniy aloqa, chet ga borib urush ham ta'sir qiladi. Masalan, hozirgi ingliz tili lug'at boyligidagi so'zning taxminan 30 foizi, shuningdek, ingliz tilida 57 foiz so'z turkiy qatlamga mansub, qolgani cheldan o'z oshgan.

Tilda o'zlashma so'z asosida yoki qo'shimcha yordamida yasalgan so'z ham shu tilning boyligi sanaladi.

Mustahkamlash uchun savollar

1. Til nega eng muhim aloqa vositasi deb ataladi? 2. Til nega ijtimoiy hodisa deyiladi? 3. Til funksiyalarini sanang. 4. Tilning paydo bo'lishi haqida gapiring. 5. O'zbek tilining paydo bo'lishi haqida gapiring. 6. Tilning taraqqiyoti qanday kechadi? 7. Tilning so'z lug'at boyligi deganda nima tushuniladi?

DUNYO TILLARI

Dunyo tillari. Dunyoda taxminan **3000** dan (ba'zi adabiyotlarda ular **3000** dan **7000** gacha sanaladi) **ortiq til bor.**' Bu tilning ayrimlari bir necha o'n, hatto yuz millionlab kishi gaplashsa, ba'zilaridan bir necha ming kishigina foydalanadi, xolos. Masalan, **Kongoda** aholi **500 tilda**, **Indoneziyada 250 tilda, Sudanda 117 tilda gaplashadi. Xitoy tilida hozir bir milliardga** yaqin kishi so'zlashsa, **chukot** va **vefe tilida** bor-yo'g'i **bir necha ming kishi** muloqotda bo'ladi. **Kavkaz** tog'ida joylashgan **Dog'istonda 1** mln.dan **ortiq kishi** bo'lib, **ular 40** ga yaqin **tilda so'zlashadi.** Yangi Gvineyada deyarli har bir qishloq aholisi o'z tiliga ega.' **Dunyodagi 200** tilning har birida **1** mln.dan **ortiq. 70** tilning **har** birida **5** mln.dan ziyod. **Faqat 13** tilning har birida **50** mln.dan **ortiq kishi so'zlashadi. Qolganining** har **birida** esa **1** mln.dan **kam kishi gaplashadi.**

Angliya, AQSH, Kanada kabi mamlakat fuqarosi, asosan, ingliz tilida, Ispaniya, Kuba, Chili, Meksika fuqarosi asosan ispon tilida gaplashadi. Demak, tilning tarqalish, ishlatilish doirasi va namoyon bo'lishi har xil. Jahon tillari orasida nomi bir joyidan chiqqan til ham mavjud. Bu **I** tilidir. Uni Xitoyning Sinszian, Yunnan, Guyjou viloyatlarida tarqalgan.

Juda ko'p til hozirgi kunda qo'llanilib kelishi bilan bir qatorda ba'zi bir tillar shunday iste'moldan chiqib ketgan va bizga yozma yodgorlik orqali ma'lum. Shu asosda til **tirik** va **o'lik** tilga bo'linadi.

Hozir kishilar gaplashadigan til tirik til hisoblanadi. Masalan, o'zbek tili, ukrain tili, nemis tili, qozoq tili va hokazo.

Qadimda qo'llanib, shu tilda gaplashgan xalqning turli sabab bilan yo'q bo'lib yoki boshqa xalqqa qo'shilib, o'zga tilda gaplashib ketishi natijasida iste'moldan chiqib, muomalada ishlatilmaydigan bo'lib qolgan, bugungacha faqat yozma manba orqali yetib kelgan **til o'lik** til deyiladi. Masalan, **lotin, qadimgi hind** yoki **sanskrit, qadimgi slavyan, qadimgi xorazmiy, qadimgi arab, qadimgi fors, so'g'd** tili va boshqalar shular jumlasidan.

Lotin tili qadimgi Rim imperiyasining rasmiy tili sifatida mavjud bo'lgan. Imperiya yemirilgandan keyin asta-sekin o'lik tilga aylana borib, hozirgi davrda qolgan ilmiy atama sifatida uchraydi. Lotin tili o'rta va oliy o'quv yurtlarigacha o'qitiladi. Lekin bu uning muomalada ekanligini ko'rsatmaydi.

Eroniy tilning sharqiy turkumiga kirgan qadimgi xorazmiy tilida qadimgi Xorazm aholisi gaplashgan. Bu til XI asrgacha muomalada bo'lgan. So'ngra iste'moldan chiqib, o'lik tilga aylangan.

Dunyoda qo'llanish doirasi juda keng, boshqa til egasi ham foydalanadigan til xalqaro til yoki jahon tili deyiladi. Hozir rasmiy tan olingan 6 ta xalqaro til mavjud: ingliz, ispan, rus, xitoy, arab va fransuz tili. Ko'p qo'llanadigani – ingliz tili.

Turli davrda turli til xalqaro vazifani o'tagan. O'rta asrda Sharqda arab tili, Yevropada esa lotin, undan keyingi davrda fransuz tili katta ahamiyatga ega bo'lgan. XX asrda ingliz va nemis tili xalqaro til darajasiga ko'tarildi. Xalqaro til shu til amal qiluvchi davlatning xalqaro maydondagi nufuzi bilan belgilanadi.

BMT tashkil topishi bilan rasmiy xalqaro til masalasi hal bo'ldi. 1946-yil rasmiy xalqaro til sifatida ingliz, fransuz, rus, ispan, xitoy tili belgilandi. 1973-yildan arab tili ham jahon tili sifatida tan olindi.

Qadim zamondan xalqaro tilga talab sun'iy til yaralishiga ham sabab bo'ldi. 1880-yilda Germaniyada I.M.Shleyer tomonidan "volyapuk" degan ixtiyoriy e'lon qilindi. 1887-yilda esa polshalik vrach-poliglot Zamengof "esperanto" tilini yaratdi va u ko'pchilikka ma'qul bo'ldi, tez orada turli mamlakatga tarqaldi. Hatto badiiy asar yozildi yoki bu tilga tarjima qilindi. Ayni paytda esperanto tilida gazeta-jurnal chop etilib, radioeshittirish uzatiladi, xalqaro tashkilotlar ish yuritadi.

Dunyo tillari tasnifi. Olimlar tillar orasidagi o'xshashlikni ko'rsatuvchi dalilni o'rganib borishgan. O'zbek tilidagi **ona** so'zining ruscha **мать**, bulg'orcha **moyka**, polyakcha **matka**, litva tilida **mamina**, nemischa **mutter**, fransuzcha **mere**, tojik tilida **modar** kabi muqobilga o'xshashligi bunga misol bo'la oladi.

Kuzatish va qiyoslash tasnifga olib kelgan.

Tilni o'xshashlik va farqqa ko'ra guruhlash til tasnifi (klassifikatsiyasi) deyiladi. Tilshunoslikda tilni tasniflashda, odatda, ikki belgi qo'llanildi:

morfologik va genetik. Bu uchun genetik (genealogik) tasnif muhim. **Genetik tasnif** tilni **o'zaro qarindoshligi asosida guruhlaydi.**

Bir tildan tarqalgan **deb taxmin qilinuvchi, tuzilishi va boshqa** xususiyati bir-biriga **yaqin, o'xshash bo'lgan tillar bir butun holda til** oilasi deyiladi. Bir til oilasiga asos bo'lgan til **bobo til** ham deb yuritiladi.

Til qancha ko'p bo'lsa-da, sanoqli til oilasi mavjud. Ma'lumotga ko'ra, hozirgi kunda **20** dan ortiq **til oilasi** bor. **Har bir til oilasi,** o'z navbatida, **qarindoshlik darajasiga** ko'ra **bir necha guruhga ajralishi mumkin. Guruh tildan tashkil topsa, oila guruhning birlashuvidir.** Ba'zi oila avval tarmoqqa ajralib keyin guruhga bo'linadi.

Til oilasidan keng tarqalganini ko'rib o'tamiz:

1. **Hind-Yevropa oilasi.** Bu oilaga **slavyan guruhi** (belorus, rus, ukrain, slovak, chex, polyak, makedon, serb, xorvat, sloven tili), **german guruhi** (ingliz, nemis, shved, norvegi, dat, island, golland tili), **roman guruhi** (fransuz, ispan, portugal, italyan, rumin, moldavan tili) **boltiq guruhi** (litva, latish, latgal tili), **eron guruhi** (fors, afg'on, osetin, kurd, lojik tili), **hind guruhi** (hind, urdu, bengal, panjob, gujarat tili) kiradi.

2. **Oltoy oilasi.** Bu oilaga **turk, mo'g'ul, manchjur, yapon, koreys va boshqa til tarmog'i** kiradi.

Turkiy tarmoq o'z navbatida quyidagi guruhga bo'linadi: **o'g'uz guruhi** (turkman, gagauz, ozarbayjon, turk, qrim-tatar va bolqon turklari tili), **qipchoq guruhi** (qo'm q, qoraim, bolqar, tatar, boshqird, no'g'ay, qoraqalpoq, qozoq tili), **qorluq-uyg'ur guruhi** (o'zbek va yangi uyg'ur tili), **uyg'ur-o'g'uz guruhi** (tuva, lo'q, yoqut, xakas, shor, sariq uyg'ur va hoshqalar), **qirg'iz-qipchoq guruhi** (qirg'iz va oltoy tili) kiradi.

3. **Fin-ugor oilasi.** Bu oilaga **fin guruhi** (fin, estan, karel, komiziryan, komi-permyak, udmurd, mariy, mordva va boshqa) **ugor guruhi** (vengar, mans, xatniy til) kiradi.

4. **Xom-som oilasi.** Bu oilaga **semit (yoki som) guruhi** (arab, axmar, xarari, tigrin, ivrit), **qushit guruhi** (galla, somali, saho, bejat), **berber guruhi** (kabil, shilx, m, tamazisli), **chat-xom** guruhi (xausa, kotoko, angas, karakare, sura, chadjgu, mubi), **adal) guruhi** (qadimgi misr) ni kiradi.

5. **Kavkaz oilasi.** Bu oilaga **g'arbiy guruhi** (abxaz, abazin, adigey, kabardin, cherkes tili), **nax guruhi** (chechen, ingush, batsbiy tili), **dog'iston guruhi** (avar, dargin, lezgin, lak, karatin, gunzib tillari), **janubiy guruhi** (megrel, chan, gruzin, kartali, svan, guny va boshqa tillar) kiradi.

6. **Xitoy-tibet oilasi.** Bu oilaga **tay-xitoy guruhi** (xitoy, dungan, lay, laos, shan, vetnam tili), **tibet-birma guruhi** (tibet, birma tili) kiradi.

Bundan tashqari, **dravid, malay-polinez, avstraliya, papua, afrika** oilasi ham ajratiladi.

Eslatma

Ayrim darslik va qo'llanmada turkiy tillarni ba'zan alohida olib, ba'zan guruh sifatida ham berishadi. Umuman olganda bu masalada bir xillik yo'q. Shuning uchun o'quvchi amaldagi maktab darsligi bergan ma'lumotga tayangani ma'qul.

Mustahkamlash uchun savollar

1. Dunyo tillari soni nechta? 2. Tillarning qo'llanish ko'lami qanday? 3. Tirik til qanday til? 4. O'lik tillarni sanang. 5. Xalqaro til nima? 6. Xalqaro tilning rasmiy tan olinishi deganda nimani tushunasiz? 7. Sun'iy til qanday til? 8. Til tasnifi nima? 9. Tillarni genetik tasniflang. 10. Til oilasi nima? 11. Bobo tilni tushuntiring va unga misol keltiring. 12. Til oilasi soni nechta? 13. Eng ko'p tarqalgan til oilalari qaysilar? 14. Hind-Yevropa oilasiga kiruvchi tillar qaysilar? 15. Oltoy oilasiga kiruvchi til tarmoqlari qaysilar? 16. Turkiy tarmoqqa kiruvchi guruhlar va tillarni sanang.

Topshiriq

1. Dunyo tillari daraxtini chizing. 2. Oltoy til oilasi shajarasini chizing. 3. Dunyo til oilalarini, Hind-Yevropa va Oltoy oilasiga kiruvchi tarmoq hamda tillarni yod oling. 4. Daftaringizda turkiy tarmoqqa kiruvchi tilni alfavit tartibida joylashtiring va yoddan aytib berishga tayyorlaning.

2- DARS
TURKIY TIL TARMOG'I VA O'ZBEK TILI

Turkiy til tarmog'i. Oltoy oilasining turkiy tarmog'i 100 ga yaqin (ba'zi adab yolda 24 ta) jonli tilni qamrab oladi. Butun dunyoda bir necha yuz million kishi turkiy tilda so'zlashadi. Turkiy aholi Uzoq Sharqdan Markaziy Yevropagacha, Taymir yarim orolidan Bolqon yarim oroligacha yoyilgan.

Hozirgi turkiy tillar so'z boyligi va grammatik qurilishi jihatidan bir-biriga juda yaqin turadi. Shuning uchun bu tilda so'zlashuvchilar bir-birini tarjimonsiz tushunadi.

Turkiy tillar uzoq tarixiy yozuv madaniyatiga ega. Bu tillarda bitilgan dastlabki yodgorlik bo'lgan Xuastuanifi (V asr), V–VII asrga oid O'rxun-Enasoy yodgorliklari – buning yorqin dalili.

O'zbek tili. Turkiy tarmoq bir necha guruhga bo'linadi. Unda o'zbek va uyg'ur tili **o'zbek-uyg'ur** guruhini tashkil etadi.

O'zbek tili O'zbekiston, Tojikiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Afg'oniston hududida keng tarqalgan. Hozirgi kunda o'zbeklar Afg'oniston, Saudiya Arabiston, Turkiya, Eron va boshqa davlatlarda ham istiqomat qiladi. Bugungi kunda butun dunyo bo'yicha 25 mln.dan ortiq, ba'zi manbalarda ko'rsatilishicha 40 mln dan ortiq kishi o'zbek tilida gaplashadi. O'zbek tili rivojlangan tillar qatoriga kiradi.

Turkiy tillar orasida faqat o'zbek tili bo'lovchi tildir. Chunki o'zbek tilida boshqa turkiy tillarga xos, ana, afmoq, bash, bola, qazan kabi ko'plab so'z dagi a lovushli o'rnida o lovush ishlatiladi.

O'zbek tili davlat tili sifatida. Asrlar mobaynida o'zbek tili taraqqiyotida ko'p o'zgarishlar yuz berdi. 1989-yil 21-oktabrda o'zbek tiliga davlat tili maqomi berildi va 1990-yil 13-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroni bilan «Davlat tili to'g'risida»gi 30 moddadan iborat Qonun qabul qilindi. Bu haqda O'zbekiston Asosiy Qonunining 4-moddasida, «Davlat tili to'g'risida»gi Qonunning 1-moddasida shunday deyilgan: «O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir». Shuning uchun ham mamlakatimiz hayotidagi har yili 21-oktabrni til bayrami sifatida nishonlaydi.

«Davlat tili» deganda shu davlat hududida rasmiy aloqa-aralashuv vositasi bo'lgan til tushuniladi.

Barcha davlat hujjatlari davlat tilida yoziladi, yig'in, anjuman va qurultoylar shu tilda olib boriladi.

Qonun O'zbekiston Xalqi sobiq Sho'ro tarkibida bo'lgan vaqtda qabul qilingani hamda sobiq mustamlakachilik qo'liga kirib qolgandan keyin uni qayta ko'rib chiqish zarurati paydo bo'ldi. Shuning uchun 1995-yil 21-dekabrda yangi tahrirdagi «Davlat tili to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi. Avvalgi 30 moddadan iborat Qonunning 11 moddasi chiqarilib, 5 modda yangidan qo'shildi. Natijada u 24 moddadan iborat bo'ldi.

Mustahkamlash uchun savollar

1. *Turkiy tillar haqida gapiring va uning qamrovi qanday? 2. Turkiy xalqning yozuv manbalari haqida gapiring. 3. O'zbek-uyg'ur guruhi qaysi tillarni o'z ichiga oladi? 4. O'zbek tilining tarqalishi va qamrovi haqida gapiring. 5. O'zbek tili nega bo'lovchi til deyiladi? 6. "Davlat tili to'g'risida"gi Qonun va uning yangi tahrirdagi farqini bayon qiling.*

O'ZBEK ADABIY TILI VA SHEVA. O'ZBEK ADABIY TILINING TARAQQIYOT BOSQICHI

Umumxalq tili va adabiy til. Umumxalq til ma'lum bir xalqning so'zlashuv tili bo'lib, uzoq vaqt davomida shakllanadi. **Bir tilga mansub barcha sheva va lahja umumxalq tilini tashkil qiladi. O'zbek umumxalq tili uch lahjadan tashkil topgan.**

Umumxalq tili milliy til ham deyiladi. Adabiy til esa umumxalq tilining olim va adiblar tomonidan qayta ishlangan, me'yorga solingan, hamma uchun umumiy bo'lgan, yuqori darajada sayqallashgan shakli. Davlat muassasasi, matbuot, radio, televidenye va ta'lim, madaniyat va ilmda adabiy tildan foydalaniladi. Adabiy til umumxalq tilidan tashqarida bo'lmaydi.

Adabiy til bo'lishi uchun umumxalq til:

– **yozuv bilan ta'minlangan bo'lishi;**

– **qonun-qoidasi aniqlangan bo'lishi;**

– **mutaxassislar tomonidan qayta ishlangan** bo'lishi lozim.

Dunyodagi ko'pgina tilning hozir ham adabiy shakli yo'q.

Adabiy tilning **og'zaki** va **yozma** ko'rinishi mavjud. Og'zaki shakli so'z tovush, gap, ohang, pauza (to'xtam) bilan, yozma shakli esa harf, yozuv, tinish belgisi bilan ish ko'radi. Adabiy tilning og'zaki va yozma shakli o'z me'yorga ega. Uning **og'zaki shakli kishi uchun bevosita, yozma adabiy til esa bilvosita aloqa vositasi.** Chunki yozuvda qog'oz, ruchka, yorug'lik bo'lishi kerak. Og'zaki muloqotda bu shart emas.

Lahja va sheva. Adabiy til lahja va sheva negizida umumlashtirish, qat'iy me'yorni ishlab chiqish yo'li bilan hosil qilinadi va undan oziqlangan holda muttasil rivojlanib boradi. Shuning uchun adabiy til xalq shevasidan uzilmagan. **Adabiy til uchun sheva boyishning ichki manbasi hisoblanadi. Boshqa tildan so'z olib rivojlanish tashqi manbadir.**

Faqat muayyan hududga xos til shakli sheva, bir-biriga yaqin bo'lgan sheva yig'indisi lahja deb yuritiladi. Dialekt so'zi gohida **sheva**, gohida **lahja** atamasi o'rnida keladi: Toshkent dialekti (shevasi), qipchoq dialekti (lahjasi) kabi.

Adabiy til shevadan, shuningdek, bir lahja ikkinchi lahjadan, bir sheva boshqa shevadan fonetik, leksik va grammatik jihatdan ozmi-ko'pmi farq qiladi.

Fonetik farq deganda tovush jihatidan (pabrika – fabrika, man – men, jila – yig'la kabi), leksik farq deganda so'z jihatidan (kalapo'sh – do'ppi, go'sala – buzoq kabi), grammatik farq deganda so'z shakli yoki qo'shimchadagi (borayapti – borvotti – boruti kabi) farqlanish tushuniladi.

Shevaning faqat og'zaki shakli mavjud.

O'zbek umumxalq tili tarkibida uchta lahja bor:

1) **qarluq lahjasi (janubiy-sharqiy guruh)**;

2) **qipchoq lahjasi (janubiy-g'arbiy guruh)**;

3) **o'g'iz lahjasi (shimoliy-g'arbiy guruh)**.

Qarluq lahjasi, asosan, shahar shevasini o'z ichiga oladi (Toshkent, Andijon, Farg'ona, Samarqand, Buxoro). Bu lahja shevasining muhim fonetik va grammatik belgisi quyidagi:

– so'z oxiridagi **k** tovushi **y** tarzida aytiladi: **elak – elay, terak – teray** kabi.

– **o** lashish yuz beradi: **aka – oka, Akram – Akrom, bahor – bohor, boramiz – borovuz**.

– qaratqich kelishigi yo'q va uning o'rnida ham tushum kelishigi qo'shimchasi **-ni** ishlatiladi: **ukamni(ng) daftari**.

Qipchoq lahjasi shevasi O'zbekistonning barcha viloyatida mavjud, asosan qishloqda tarqalgan (Samarqand, Jizzax, Qashqadaryo, Surxondaryo, Qoraqalpog'iston, Shimoliy Xorazm viloyati, Turkmanistonning Toshhovuz viloyati shevasi). Belgisi:

– **y** o'rnida **j** ishlatiladi: **yo'l – jo'l, yo'q – jo'q**

– **g'** o'rnida **v** ishlatiladi: **tog' – tov, sog' – sov**;

– **k, q** tushiriladi: **oshi(k), sari(q), quru(q)**

O'g'iz lahjasi janubiy Xorazmdagi (Urganch, Xiva, Xonqa, Hazorasp, Qo'shko'pir, Shovot tuman) bir qancha shevani o'z ichiga oladi. Belgisi:

– unli qisqa va cho'ziq aytiladi: **at** (hayvon), **aad** (ism);

– **t** tovushi **d**, **k** tovushi esa **g** tarzida aytiladi: **tog' – dog', keldi – geldi**

– **-ning** qo'shimchasi **-ng** tarzida, **-ga** qo'shimchasi esa **-a, -na** tarzida aytiladi: **akaning – akang, yorimga – yorima, qo'lga – qola**.

Hozirgi o'zbek adabiy tili uchun qarluq lahjasiga kiradigan Farg'ona-Toshkent shevasi (ya'ni Toshkent shevasi fonetik tomondan; Farg'ona shevasi morfologik tomondan) asos qilib olingan. Lekin bu qipchoq va o'g'iz lahjasi xususiyati adabiy tilda yo'q degani emas.

O'zbek atamasi haqida. O'zbek qavmi ham o'z nomiga ega bo'lguncha turli nom ostida yashagan. Eng qadimgi turkiy qavm davrida tarixan shakllangan bir guruh qabiladan tashkil topgan. Garchand o'zbek nomi bo'lmasa-da, o'zbek xalqining birinchi qatlami IX-XII asrda qoraxoniylar davrida qarluq-chigil-yag'mo qabilasi hozirgi zamonda nasl bo'lgan. O'zbek tili mustaqil til sifatida XI asrdan shakllana boshlagan. XX asrning boshigacha **turk, sart, chig'atoy, o'zbek** atamasi bilan nomlanib kelgan.

Manbalarda **turk** atamasining urug', el at: "bahodir", "qalpoq", "bo'ri", "kuchli", "qudratli", "qurolsiz", "dubulg'a" ma'nosida ishlatilgani yozilgan. **Turk**

nomi o'tmishda turkiy tilning umumiy nomini bildirishi bilan birga o'zbek xalqi va tiliga nisbatan ham ishlatilgan.

Sart atamasi XVII asrdan o'zbek bo'lgan shahar aholisiga nisbatan qo'llangan. **Sart** so'zi sanskrit tilida "karvonboshi", "savdogar", "shaharlik" kabi ma'noda qo'llangan.

Chig'atoy atamasi mo'g'ul istilosidan keyin paydo bo'lgan. Chingizxonning o'rtancha farzandi bo'lgan Chig'atoy O'rta Osiyo va Afg'onistonda hukmronlik qilgan. Natijada **Chig'atoy yurti, Chig'atoy ulusi, chig'atoy adabiyoti, chig'atoy til**i degan atamalar iste'molga kirgan.

O'zbek so'zi urug', qabila, elat, "saxiy", "odamiy", "dil tortuvchi", "sevgili" ma'nosida Lutfiy, Atoiy va Navoiy ijodida uchraydi.

O'zbek tilining taraqqiyot bosqichi. O'zbek tili hozirgi ko'rinishiga qadar uzoq tarixiy jarayonni boshidan kechirgan. Bu jarayonni davrlashtirishda har xillik mavjud, lekin ko'pgina adabiyotlarda o'zbek tili taraqqiyoti quyidagi bosqichga bo'lingan:

1. Qadimgi turkiy adabiy til (VII asrdan – XIII asrgacha)
2. Eski o'zbek adabiy tili (XIII–XIV asrdan – XIX asrning ikkinchi yarmigacha)
3. Hozirgi o'zbek adabiy til (XIX asrning ikkinchi yarmidan hozirgacha).

O'rta maktab darsliglarida quyidagicha:

1. **Qadimgi turkiy til** miloddan oldingi davrlardan X asrlargacha. Bu tilda qadimgi turkiy yozma yodgorligi, ya'ni O'rxun-Enasoy yodgorligi "Irq bitig" yaratilgan.

2. **Eski turkiy til** XI asrdan XIV asrlarda amalda bo'lgan. Bu tilda «Qutadg'u bilig», «Hibatul haqoyiq», «Devonu lug'otit-turk», «O'g'uznoma», «Muhabbatnoma», «Qissasi Rabg'uziy» kabi buyuk adabiy asarlar bitilgan.

3. **Eski o'zbek adabiy tili** XV asr boshlab XIX asrlarda amalda bo'lib Lutfiy, Sakkokiy, Durbek, Atoiy, Navoiy, Bobur, Muhammad Solih, Mashrab, Ogahiy, Gulxaniy, Abulg'ozi Bahodirxon, Feruz, Muqimiy, Furqat kabi buyuk ijodkorlar qalam tebratgan.

4. **Hozirgi o'zbek adabiy tilida** Furat, Cho'lpon, A.Qodiriy, A.Qahhor, G.afur G'ulom, H.Olimjon va boshqa adib asar yaratdi. Bu til XX asrdan boshlab shakllandi.

Eski turkiy til davrida yozilgan asar barcha turkiy xalqlarning umumiy yodgorligi hisoblanadi. Shuning uchun ham bu davr tili **umumturkiy adabiy til** sifatida qaraladi. O'rxun-Enasoy yodgorligi haqida ham shunday deyish murakkab.

Demak, o'zbek tili XI asrdan mustaqil til sifatida boshqa turkiy tildan ajrala boshlab, XV asrda eski o'zbek adabiy tili to'la shakllangan.

Mustahkamlash uchun savollar

1. Umumxalq tili nima? 2. Adabiy til haqida gapiring. 3. Milliy til nima? 4. Adabiy til belgisi qaysilar? 5. Adabiy til qanday shaklga ega? 6. Sheva nima? 7. Lahja nima? 8. O'zbek tili lahjalarini sanang. 9. Lahja va shevalarga farqni ayting. 10. Adabiy tilga asos bo'lgan lahja va sheva qaysilar? 11. Turk, o'zbek, sart, chig'atoy, o'zbek tilining taraqqiyot bosqichlarini ayting. 12. Qadimgi turkiy til haqida gapiring. 13. Eski turkiy til va unda ijod qilgan adiblar asarlari haqida gapiring. 14. Eski o'zbek adabiy til va unda ijod qilgan adiblar asarlari haqida gapiring. 15. Yangi o'zbek adabiy tili va unda ijod qilgan adiblar asarlari haqida gapiring. 16. Hozirgi o'zbek adabiy tili va unda ijod qilgan adiblar asarlari haqida gapiring.

O'ZBEK TILI FANI VA UNING BO'LIMLARI

Tilshunoslik haqida. Til so'zlash fikrni ifodalash vositasi sifatida ham o'ziga xos bir olam. Uning xususiyatini o'rganuvchi va o'rgatuvchi fan tilshunoslik (lingvistika) deyiladi. Tilshunoslik fani bir necha tarkibiy qism yani bo'limdan iborat.

Tilshunoslik fani umuman insoniyatga xos tilni yoki ma'lum bir xalq tilini o'rganish nuqtai nazaridan **umumiy** va **xususiy** turga bo'linadi.

Umumiy tilshunoslik tilning paydo bo'lishi, qarindoshlik doirasi va umumiy nazariy masalalarini o'rganadi.

Xususiy tilshunoslik esa muayyan bir til xususiyatini tekshiradi. Jumladan, o'zbek tilshunosligi xususiy tilshunoslik bo'lib, o'zbek tilining tovush tizimi, leksikasi, grammatik qurilishi, yozuvi, shevalari, imlo va talaffuz qoidasi, uslublarini o'rganadi.

Xususiy tilshunoslik fani bo'limlari. O'zbek tilshunosligi fani quyidagi bo'limlarni qamrab oladi:

1. **Fonetika. 2. Orfoepiya (talaffuz). 3. Grafika (yozuv). 4. Orfografiya (imlo). 5. Leksikologiya. 6. Frazeologiya. 7. Leksikografiya (lug'atshunoslik). 8. Morfemika (so'z tarkibi). 9. So'z yasalishi. 10. Morfologiya. 11. Sintaksis. 12. Punktuatsiya (tinish belgilari). 13. Uslubiyat. 14. Dialektologiya (shevashunoslik). 15. Etimologiya (so'zlarning kelib chiqishi). 16. Til tarixi. 17. Sotsiolingvistika.**

Bu bo'limlar har biri tilning alohida-alohida tomonini tekshirish va, o'z navbatida, kichik bo'limga ham bo'linishi mumkin. Quyida ularning o'rganish sohasi, ya'ni o'rganish obyektini izohlaymiz.

Fonetika tilning tovush tizimi, tuzilishi, nutq organi, bo'g'in va urg'u turi, so'zda tovush o'zgarishi, shuningdek, urg'u va uning o'rni kabilarni o'rganadi.

Orfoepiya (talaffuz) adabiy tilda nutq tovushi va so'zni to'g'ri aytish me'yori hamda qonun-qoidasini o'rganadi.

Orfoepiya adabiy tilning faqat og'zaki shakliga xos.

Grafika (yozuv) yozuv tarixi va alifboni o'rganadi. Grafika tarixda qanday yozuvdan foydalanilgan, harf va harflarning shakli, tovushning ifodasi, harflar alifboda joylashtirish, tovush va harf orasidagi munosabat masalasi bilan shug'ullanadi.

Orfografiya (imlo) – so'z asosi va qo'shimchani yagona tarzda to'g'ri yozish masalasi bilan band bo'ladi. Bo'g'in ko'chirish, chiziqcha bilan yozish qoidasi, qo'shib yoki ajratib yozish tartibini belgilaydi.

Leksikologiya so'zning lug'aviy ma'nosi, lug'aviy ma'no turi, ma'no munosabati, so'zning shakl va ma'no munosabati lug'at tarkibidagi faol va nofaol so'z, tarixiy jihatdan o'zlashgan til leksikasi, so'zning hissiy va uslubiy xususiyatlarini o'rganadi. Umuman olganda, so'zda qanday lug'aviy ma'no munosabati bo'lsa, barchasini leksikologiya tekshiradi.

Frazeologiya ibora va frazeologik bog'lanish, iboraning ma'no tarkibi, turlari bilan shug'ullanadi.

Leksikografiya (lug'atshunoslik). Ma'lum bir yoki bir nechta til so'zini yig'ib, tizimlashtirgan holda lug'atda berish lug'atchilik deyiladi. Leksikografiya, ya'ni lug'atshunoslik lug'at va uning turi, turli lug'at yaratishning nazariy masalasini o'rganadi.

Morfemika (so'z tarkibi) so'zning ma'noli qismi – o'zak va qo'shimcha, uning xususiyati va turi, qo'shimchaning vazifasi, tuzilishi, joylashish tartibini tekshiradi.

So'z yasalishi bir qanday usul bilan bo'lsa ham, yangi so'z hosil qilish yo'li va uni o'rganishni o'rganadi.

Morfologiya grammatikaning bir qismi. So'zning grammatik ma'nosi, grammatik shakllari, so'z turkumlarining xususiyatiga ko'ra guruhlanishi – so'z shakllari, hosil, grammatik o'zgarish, grammatik qo'shimcha haqidagi ta'limot.

Sintaksis ham grammatikaning bir qismi bo'lib, so'zning o'zaro erkin bog'lanishi. Bu erkin bog'lanish natijasida hosil bo'lgan so'z birikmasi va gap, uning turi va xususiyatini o'rganadi.

Punktuatsiya tinish belgisini ishlatish qoidasini o'rgatadi.

Uslubiyat nutq uslubi va uning turi, til vositasining nutqda qo'llanish imkoniyati, leksik, frazeologik va grammatik sinonimiya masalasini tekshiradi.

Dialektologiya umumxalq tilini tashkil etgan sheva va lahjaning fonetik, leksik va grammatik xususiyati, tarqalish doirasini o'rganadi.

Etimologiya so'zning kelib chiqish izidi, tarix masalasi bilan shug'ullanadi.

Til tarixi tilning tarixi, tarixning ma'lum bir davridagi holati va rivojlanishi masalasi bilan mashg'ul bo'ladi.

Sotsiolingvistika til va jamiyat muammosi, tilning jamiyatdagi turli tabaqa, bo'la, yosh, kasb va jinsdagi kishi nutqida o'ziga xos tarzda voqelanishi masalasini tekshiradi.

Adabiy tilning har qaysi shakli o'z qonun-qoidasiga ega. Bu til me'yori deyiladi.

O'zbek tilshunosligi tarixi. O'zbek tilshunosligi fanida quyidagi tarixiy bosqichni bosib o'tgan:

- **eski turkiy tilshunoslik (XI–XIII asr);**
- **eski o'zbek tilshunosligi (XIV–XIX asr);**
- **zamonaviy o'zbek tilshunosligi (XX asrning 20- yillaridan hozirgacha).**

Eski turkiy tilshunoslik. O'zbek tilshunosligi fani Mahmud Koshg'ariyning "Devon lug'at it turk" asari bilan boshlanadi. Asar XI asrda yaratilgan bo'lib, 1914- yilda Turkiyaning Bayazid shahrida topilgan.

«Devonu lug'at it turk» uch tomdan iborat bo'lib, 1915–17- yilda Istanbul shahrida nashr etilgan. Shu nashr asosida V.Brokkelman bu asarni 1928- yilda nemischa tarjimada nashr qildi. 1939- yilda Anqarada Bosim Atalay tarjimasida turk tiliga hosil qildi. Olim S.Mutalibov devon tarjimasi ustida samarali ish olib, 1960–63- yillar davomida uch tomdan o'zbek tilida nashr qildi.

Mahmud Koshg'ariyning asari kirish va lug'at qismidan iborat. Kirish qismida muallif «Devon»ning yaratilish sababi, o'z ish uslubi, asarning tuzilishi, turkcha so'zning tuzilishida qo'llaniladigan harf, kitobda aytilgan va aytilmagan narsa, turkiy tabaqa va qabilalarning bayoni, turkiy tilning xususiyati, til va lahjadagi farq haqida fikr yuritadi.

Asarning lug'at qismida 7500 so'z sakkiz holatda izohlanadi. Asarda so'zlar ism, fe'l, yordamchi so'z turkumiga ajratilgan.

Mahmud Koshg'ariyning hozirgacha topilmagan turkiy tilshunoslikka bag'ishlangan «Kitob ul-muqaddimat al-luug'atil turk» asarini yozgani ham manbalarda qayd etilgan.

Mahmud Koshg'ariy turkiy tillarni qiyoslashda qiyosiy usuldan foydalanib, tilshunoslikda qiyosiy-tarixiy metodning asoschisidan biri bo'lib qoldi.

Ilm-fan xazinasiga bebaho durdonalar qo'shgan Mahmud az-Zamaxshariyning eski turkiy tilshunoslikda ham o'ziga xos o'rni bor. Zamaxshariy yirik tilshunos sifatida arab tilshunosligining rivojiga ulkan hissa qo'shgan olim hisoblanadi. Biroq uning lug'atlarida turkiy so'zga ham alohida e'tibor berilib, unda XI-XIII asr Markaziy Osiyo turkiy adabiy tilining leksikasi ham o'z

aksini topgan. Mahmud az-Zamaxshariyning 'Muqaddimatul-adab» asari – ko'p tilli lug'at.

XIII-XIV asrda yashab ijod etgan Abu Hayyon al-Andalusiyning eski turk y tilshunoslikda tutgan o'rni o'ziga xos. U turkiy va arab tili muqoyasasiga doir ko'plab asar yaratgan bo'lib, muhimi «Kitob al-idrok li l sonal-atrok» lug atidir Asar 1312- yilda Qohirada bitilgan lug at va grammatikadan iborat. Asarda qipchoq unsuri juda kuchli bo'lib, shu bilan birga, o'g'uz unsuri ham uchrab turadi

Eski turkiy tilshunoslik taraqqiyotida mashhur tilshunos Jamoliddin Muhammad Abdulloh Turkiyning ham o'ziga xos o rni bor. Uning taxminan XIII–XIV asrda yozugan «Kitobul lug'at al-mushtoq fi lug'at-it turk val-qatchoq» («Turk va qipchoq tiliga mushtoqlarni qiziqtiruvchi kitob») asari arab, fors, turk, mo'g'ul tili qiyosiga bag'ishlangan bo'lib, u turkiy tilning tarixiy taraqqiyotini o'rganishda qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi

Eski o'zbek tilshunosligi. Eski o'zbek tilshunosligining shakllanishi va taraqqiyotida Alisher Navoiy Zahiriddin Bobur, Aloy Sirrni Muhibiy, Mirza Mahdixon, Shoqxon Ibrat kabilarning lingvistik qarashi va asari muhim ahamiyatga ega

XIX asrning oxiriga kelib o'zbek tilshunosligida chor bosqinchilarning mahalliy xalq madaniyati, urf-odati va tilini o'rganish ehtiyoji natijasida bir qancha amaliy ahamiyatga ega grammatika vujudga keldi. M.A Terentyevning «Turk, fors, qirg'iz va o'zbek tili grammatikasi» (1875)ni A.Starlevskiyning «Rus kishisining O'rta Osiyodagi yo ldoshi» (1878) asarini, Z.A.Alekseyev va V.V.Shneyderskiyning «Sart tili samouchitel» (1894) M.Andreyevning «Sart tilini birinchi bor o'rganuvchilar uchun qo'llanma» (1896)sini F.Mashkovtsevning «Sart tili darsi» (1899)ni, V.P.Nalivkinning «Sart tilini amaliy o'rganish uchun qo'llanma» (1898)sini, N.Budrinskiyning «Sart tili darsligi» (1910) ni misol sifatida ko rsatish mumkin.

Zamonaviy o'zbek tilshunosligi. O'zbek tilshunosligi tom ma'nodagi fan sifatida XX asrning 20–30- yillarda shakllana boshladi va asrning oxiriga kelib o'zining yuqori cho'qqilaridan biriga erishdi

XX asr o'zbek tilshunosligining shakllanishida Abdurauf Fitrat, G'ozi O im Yunusov, Ulug Turs unov, Y.D.Polivanov, Qayum Ramazon, Faxr Kamo'ov va Ayyub G ulomovlarning xizmati beqiyos katta.

Bu davrda o'zbek tilining ichki qonunlari zamonaviy tilshunoslik yutug i asosida ishlab chiqildi va o'zbek tilshunosligi jahon zamonaviy tilshunosligining bir bo'lagi sifatida shakllandi. Imlo qoidasi yaratilib, o'rta, o'rta maxsus va oliy maktab uchun bu tildan me yoriy darslik, qo'llanma va ilmiy grammatika tuzildi. Tilshunoslikning mavjud barcha bo'limi bo'yicha ko'plab ilmiy-tadqiqot ishi vujudga keldi.

Lug'atshunoslik bo'yicha olib borilgan ish nihoyatda samarali bo'ldi. Bir tilli ko'p tilli va turli sohaviy lug'at yaratilib leksikografiya tilshunoslikning alohida, to'g'ri bo'lim sifatida namoyon bo'ldi.

Bu sohaning barchasi bo'yicha 1934- yil Toshkentda achilgan O'zbekiston Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti, universitet va pedagogika institutlarining tilshunoslari samarali mehnat qildi.

1975–76- yilda yaratilgan ikki tomli «O'zbek tili grammatikasi», 1980-yilda nashr qilingan «O'zbek til leksikologiyasi» nomli asar, ko'p tomli «O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi», ikki tomli «O'zbek tilining izohli lug'ati», o'zbek tili frazeologiyasi, terminologiyasi, kasb-hunar leksikasi, Navoiy asari til ning lug'ati va boshqa soha bo'yicha ham bir qator lug'at yuzaga keldi.

O'zbek o'quv lug'atchiligi. Bugungi kunda maktab o'quvchilari uchun "Ona tili" darsligiga yordamchi manba sifatida yaratilib, "Yangi asr avlodi" nashriyotida chop etilgan "O'zbek tilining ma'nodosh so'zlar o'quv izohli lug'ati" "O'zbek tilining zid ma'noli so'zlar o'quv izohli lug'ati", "O'zbek tilining so'zlar darajalanishi o'quv lug'ati" "O'zbek tilining so'z tarkibi o'quv lug'ati", "O'zbek tilining so'z yasalishi o'quv lug'ati", "O'zbek tilining o'zlashma so'zlar o'quv izohli lug'ati" "O'zbek tilining so'zlar omonimcharligi o'quv lug'ati", "O'zbek til ning eskirgan so'zlar o'quv izohli lug'ati", "O'zbek til iboralarining o'quv izohli lug'ati". "O'zbek tilining o'quv etimologik lug'ati", "O'zbek tilining o'quv lahjalarini lug'ati" "O'zbek tilining talaffuzdosh so'zlar o'quv izohli lug'ati" kabi o'nlab o'quv lug'ati ham o'zbek lug'atchiligi yutug'idir

Mustahkamlash uchun savollar

1. Tilshunoslik qanday fan? 2. Lingvistika haqida gapiring. 3. Umumiy tilshunoslik nimani o'rganadi?4.Xususiy tilshunoslik nimani o'rganadi? 5.Xususiy tilshunoslik qanday bo'limlarga ega? 6. Fonetika nimani o'rganadi? 7. Orfoepiya (talaffuz) nimani o'rganadi? 8. Grafika (yozuv) nimani o'rganadi? 9.Orfografiya (imlo) nimani o'rganadi? 10.Leksikologiya nimani o'rganadi? 11 Frazeologiya nimani o'rganadi? 12.Leksikografiya (lug'atshunoslik) nimani o'rganadi? 13 Morfemika (so'z tarkibi) nimani o'rganadi? 14 So'z yasalishida nima o'rganiladi? 15 Sintaksis nimani o'rganadi? 15 Punktuatsiyada (tinish belgilari) nima o'rganiladi?17 Uslubiyat nimani o'rganadi? 18 Dialektologiya (shevashunoslik)da nima o'rganiladi? 19 Etimologiya (so'zlarning kelib chiqishi) nimani o'rganadi? 20 Til tarixida nima o'rganiladi? 21.Sotsiolingvistikada nima o'rganiladi? 22. Eski turkiy tilshunoslik va uning vakillari kimlar? 22.Eski o'zbek tilshunosligi va uning vakillari haqida gapiring 23.Zamonaviy o'zbek tilshunosligi va uning vakillari kimlar? 24 Zamonaviy o'zbek tilshunosligi yo'nalishlari nimalarda ko'zga tashlanadi? 25.O'zbek o'quv lug'atchiligi yutuqlari haqida gapiring

Topshiriq

*1. **bog'**, **sog'**, **bo't**, **o'tir**, **yil**, **yog'**, **ayt**, **yuqori**, **etak** so'zini turli jahjada yozishga narakat qiling. 2. Shevangizdagi adabiy tildan har xil (fonetik, leksik, grammatik) jihati bilan farqlanuvchi o nta so'zni daftaringizga yozing va farqini ko'rsating. 3. Shevangiz va adabiy tilda bir xil talaffuz etiluvchi so zga misol keltiring. 4. Tilning turk bo'limida **Men kitob sotib oldim** gapidagi **kitob** so'zining qaysi jihati o'rganilishini aniqlab, daftaringizga yozing.*

3- DARS
FONETIKA HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT. NUTQ A'ZOSI

Fonetika haqida umumiy ma'lumot. Fonetika so zi grekcha **phone** so'zidan olingan bo'lib, "tovush" degan ma'noni bildiradi. Fonetika – nutq tovushi haqidagi ta'limol, fan sohasi.

Tabiatdagi tovush uch xil **fizik, biologik** va **nutq tovushi**. Fizik tovush jonli va jonsiz mavjudotning barchasiga xos bo'lib, havoning siqilishidan hosil bo'ladi. Biologik tovush jonli mavjudotga xos va tiriklik belgisidan biri. Hayvon va parrandaning ovozi, kishining gap hosil qilmaydigan tovushi (yig'i, kulgi, yig' ovozi).

Nutq tovushi faqat insonga xos bo'lib, uch xil xususiyati bor:

1) ijtimoiy tabiatga ega;

2) ma'no farqlaydi;

3) nutq hosil qiladi.

Nutq tovushi kishilik jamiyati bilan bog'liq ravishda vujudga kelganligi va uning uchun xizmat qilganligi bois ijtimoiy tabiatga ega deyiladi.

Ma'no farqlash xususiyati deganda bir tovush o'rni boshqa tovushga berilsa, so'z va qo'shimcha ma'nosi farqlanishi, ya'ni boshqa so'z va qo'shimcha vujudga kelishi tushuniladi: **bosh – besh – bo'sh, ko'r – so'r – bo'r; ko'l – ko'r – ko'z; -chi – -ni – -gi** kabi. Bir tovushning ikki xil varianti bo'lishi mumkin. Masalan, **maktab** so zidagi **a** tovushini u oldi, **qalam** so'zidagi birinchi **a** ni orqa talaffuz etiladi. Lekin bunday til oldi tovushini til orqa tovushi bilan almashtirsak, baribir o'sha so'z, ma'no qolaveradi. Demak, o'zbek tilida ikkita – til oldi va til orqa **a** tovushi yo'q. Ular variantdir.

So'zdan tashqarida alohida olingan nutq tovushi **fonema** deyiladi.

Tovush nutq hosil qilishi uchun. Bir qarashda bir-ikki oylik chaqaloq **a, b, d** kabi tovushni talaffuz etgandek tuyuladi. Lekin u nutq, ya'ni so z, gap hosil qilishga ishtirok etmaganligi bois nutq tovushi emas, biologik tovush hisoblanadi.

623978

TDPU
Kutubxonasi

Fonetika – tilshunoslikning nutq tovushi tizimi, uning tuzilishi, nutq jarayonida o'zgarishi, almashishi, nutqiy holat bilan aloqador bo'lgan bo'g'in va urg'u haqida nazariy va amaliy ma'lumot beradigan sohasi.

Fonetika garchi nutq tovushi bilan shug'ullansa ham, tilshunoslikning leksika va grammatika sohasiga ham bog'liq. Chunki, nutq tovushi so'z va qo'shimchalarning ma'nosini farqlaydi. So'zning bu xususiyati bilan leksikologiya ham shug'ullanadi. Shuning uchun fonetika va leksika (leksikologiya) bir-biri bilan aloqador. Grammatika ham so'z va uning tarkibi o'zgarishi (bu fonetik hodisa – tovush tarkib va tovush o'zgarishi ham) bilan shug'ullanganligi sababli ham leksika, ham fonetika bilan bog'lanadi. Buning barchasi bir-biri bilan chambarchas aloqador bo'lgan, biri ikkinchi sisiz yashay olmaydigan tilshunoslik sohasidir.

Nutq a'zosi. Nutq tovushini hosil qilishda ishtirok etadigan a'zo nutq a'zosi. Bu a'zolarning barchasi esa nutq apparati deyiladi. Nutq apparati vazifasiga ko'ra 4 ga bo'linadi:

1. Nafas apparati	2. Bo'g'iz bo'shlig'i	3. Og'iz bo'shlig'i	4. Burun bo'shlig'i
o'pka, diafragma, bir juft bronx, nafas yo'li	halqasimon, piramidasimon, qalqonsimon tog'ay un paychasi	til, tanglay kichik til, lab tish	–

Tovush hosil qilishdagi faoliyatiga ko'ra 2 xil:

1. Faol a'zo	2. Nofaol a'zo
Tovush paychasi, kichik til, til, yumshoq tanglay, pastki jag', lab	Yuqori jag', tish, qattiq tanglay, burun bo'shlig'i

Har bir nutq a'zosining o'ziga xos xususiyati va vazifasi mavjud.

Mustahkamlash uchun savollar

1.Fonetika so'zining ma'nosi nima? 2.Tabiatdagi tovush turlari haqida gapiring. 3. Nutq tovushining belgilarini sanang. 4. Nutq a'zosi qaysilar? 5.Faol a'zolarni ayting. 6. Nofaol a'zolar haqida gapiring.

NUTQ TOVUSHI. UNLI TOVUSH

Nutq tovushi. Aytilganidek, **nutq a'zosi yordamida vujudga kelib, ijtimoiy ahamiyatga va ma'no farqlash xususiyatiga ega tovush nutq tovushi deyiladi.**

Hozirgi o'zbek adabiy tilida 30 tovush bor. Bu tovush, avvalo, ovoz va shovqinning ishtirok etish darajasiga ko'ra ikkiga bo'linadi: **unli tovush** va **undosh tovush.**

Unli va undosh tovush quyidagi xususiyati bilan farqlanadi.

1. Unli bo'g'izda, undosh og'iz bo'shlig'ida paydo bo'ladi.
2. Unli sof ovozdan, undosh ovoz va shovqindan iborat.
3. Unli og'iz bo'shlig'ida hech qanday to'siqqa uchramaydi. Undosh og'iz bo'shlig'ida qarshilikka uchraydi.
4. Unli uzoq cho'zilish va musiqiy xususiyatga ega. Undosh bunday xususiyatga ega emas.
5. Unli yakka holda bo'g'in hosil qila oladi. Yakka undosh bo'g'in hosil qila olmaydi.
6. Unliga urg'u tushadi. Undosh urg'u olmaydi.

Unli tovush. Bo'g'izda paydo bo'lib, biror qarshilikka uchramaydigan, sof ovozdan iborat, cho'zilish xususiyatiga ega, urg'u qabul qiladigan tovush unli tovush deyiladi. **i, e, a, u, o', o.**

Unli akustik (eshitilish) tomondan ovozning ustunligi bilan tavsiflansa, fiziologik (paydo bo'lish) tomondan og'izning ochilish darajasi bilan tavsiflanadi. Unli talaffuzida asosiy vazifani tovush paychasi, til va lab bajaradi (ya'ni talaffuzda og'iz, til va lab turli holatga o'tadi).

Unli tovush tasnifi. Unli tovush ikki tomonlama tasnif qilinadi.

I. Tilning vertikal (tik) harakatiga ko'ra 3 ga ajraladi:

1) yuqori tor unli: **i, u.**

2) o'rta keng unli: **e, o'.**

3) quyi keng unli: **a, o.**

Bunda **yuqori, o'rta, quyi** so'zi tilning og'iz bo'shlig'ining pastida, o'rtasida va yuqorisida turishini ko'rsatsa, **tor** va **keng** so'zi til bilan tanglay oralig'ining tor-kengligiga ishora qiladi.

II. Labning ishtirokiga ko'ra unli ikkiga bo'linadi.

1) lablanmagan unli: **i, e, a.**

2) lablangan unli: **u, o', o.**

Lablangan unlini talaffuz qilganda lab cho'chchayadi, lablanmagan unlida esa bunday hol kuzatilmaydi.

Ba'zan unlini tilning gorizontal (yotiq) harakatiga ko'ra ikki guruhga ajratishadi.

1) til oldi: i, e, a.

2) til orqa: u, o', o

Bu unlining doim y belgisi va tasnifi emas. Chunki bir unlini t orqa undoshi bilan kelsa, til orqa, til oldi undoshi bilan kelsa, til oldi unlisiga aylanadi. Masalan, **qachon** so'zidagi **a** til orqa, **mana** so'zdagi uni til oldi unlisidir. Yoki **paydo, tamanno** so'zidagi **o** til oldi, **gon. xotira** so'zida esa til orqadir

Mustahkamlash uchun savollar

1.Nutq tovushi nima? 2.O'zbek tilida nutq tovushi soni nechta? 3.Unli tovush haqida gapiring. 4.Undosh tovush haqida gapiring. 5.Unli va undoshning farqi nimada? 6.Unli tovush tasnifi turlari qaysilar? 7.Tilning vertikal (tik) harakatiga ko'ra unli tovush tasnifini bayon qiling. 8.Lab ishtirokiga ko'ra unli tovush tasnifini ayting? 9.Tilning gorizontal (yotiq) harakatiga ko'ra tasnifi masalasi va uning muammoliligi haqida gapiring

Topshiriq

*1. Bilish zarur tushunchalar bo'yicha savol-javobga tayyorlaning. 2. Nuqta o rniga unlini almashtirib qo'yib, so'z hosil qiling: **t...r, s...r, b...r.** Hosil bo'lgan so'zning turkumini aniqlang. 3. Bir xil undoshli, lekin unli bilan farqlanuvchi 10 ta so'z qator tuzing. 4. Bir xil unlili, lekin undosh bilan farqlanuvchi 10 ta so'z qatori tuzing. 5. **Sanat, tana, sava, surat, talat, qala** so'zining talaffuzdoshini topib, ularning qaysi turkumga mansubligini aniqlang. 6. Har bir unlining til oldi va til orqa talaffuziga bittadan so'z jami 12 ta) misol keltiring. 7. Unlining so z bosh, so'z o'rtasi va so'z oxirida kelishiga misol keltiring. Bunda so'z o'zak holda bo'lsin. Qaysi holda qaysi unli ko'proq ishtirok etishini va bu so'z qaysi tilga mansubligini aniqlang. 8. So'zlarni o'qing. i, u, a, e, o', o unlisidan qaysisi qisqa, qaysisi o'rtacha va qaysisi cho'ziq ekanligiga qarab so zlarni uch qatorga yozing. **bir, bur, ber, bor, tur, tor, to'r, tor, yiroq, yurak, yer, yoriq, yaqin, yorgin, birinchi, tilanchi, baringiz, boringiz, kurak, xo'rak** 9. **Bo'lim, gulim, boshim, so'lim, urish, kelin, bo'g'in, to'kin, o'rin, o'tin, ko'nik, o'rik, o'rin, uqish, qorin,** morin so'zining ayrimlari i unlisi u ga moyil talaffuz qilinishini aniqlang va buning sababini tushuntiring. 10. **Bugun, turmush, burun, butun, yurmuq, yumush. kuyuk, suyuq. tugun, tuyuq, udum, quruq** so'zidagi **u** unlisining talaffuziga e'tibor qiling. U qaysi unliga moyil talaffuz qilinayotganligi va buning sababini izohlang. Bunga e'tiborsizlik qanday xatoni keltirib chiqarishini bayon qiling. 11. So'z jufligi berilgan qatorni o'qing. **a, i, u, o'** unlisining talaffuziga e'tibor bering. Bir unlining ikki xil talaffuziga, farqning sababini tushuntiring: **taqa – taka, baqa – aka, qara – karra, barq – barg, chaqa -- chakka; qir**

kir. qirg'iz – kirgiz, tiq – tik; gul – kul, tugma – tug'ma, turq – turk; to'q – to'k, qor – ko'r, qo'l – ko'l, qo'rq – ko'rk.

4- DARS
UNDOSH TOVUSH VA UNING TASNIFI

Undosh tovush. Aytilganidek, undosh paydo bo'lish o'rni, lab bi va boshqa sifati bilan unli tovushdan farqlanadi. **Og'iz bo'shlig'ida paydo bo'lib, biror qarshilikka uchrab chiqadigan, uzoq cho'zilish xususiyatiga ega bo'lmagan, urg'u qabul qilmaydigan tovush undosh** deyiladi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida undosh tovush **24** ta: **b, d, f, g, h, j (jo'ja), j (jurnal), k, l, m, n, p, q, r, s, t, v, x, y, z, g', sh, ch, ng.**

Sirg'aluvchi **j, lab-lash f** tovushi boshqa tildan o'tgan so'zlarga xos: **gijda, ajdar, foyda, kift, fabrika** kabi.

Undosh tovush tasnifi. Undosh, asosan, to'rt belgiga ko'ra tasnif qilinadi:

1. Hosil bo'lish o'rniga ko'ra

Bunda undosh tovush o'pkadan chiqayotgan havo oqimi nutq a'zosining qaysi a'zosi yordamida hosil bo'lishiga, og'izning qaysi qismida to'siqqa uchrashiga ko'ra dastlab 3 ga bo'linadi.

1. Lab undoshi 5 ta: **b, p, v, f, m.**

U o'z navbatida 2 ga bo'linadi:

a) lab-lab: **b, v, p, m;**

b) lab-lash: **(v), f.**

Eslatma

v lab-lash undosh boshqa tildan kirgan so'zlarda uchraydi.

---

2. Til undoshi 15 ta: **t, d, l, n, s, z, sh, j (dj), r, ch, j, y, k, g, ng, q, g', x.**

Til undoshi til tanglayning qaysi qismiga undoshiga ko'ra 3 ga bo'linadi:

1) til oldi: **t, d, l, n, s, z, sh, j (dj), r, ch, j;**

Til oldi undoshi pastki lab va tanglayning ishtirokiga ko'ra 2 ga bo'linadi:

a) til-lash undoshi 6 ta: **t, d, l, n, s, z;**

b) til-milk undoshi 5 ta: **sh, j (dj), r, ch, j.**

2) til o'rta: 1 ta: **y.** Til o'rta undoshi tilning o'rta qismi tanglayga yaqinlash shi natijasida paydo bo'ladi.

3) til orqa undoshi 6 ta: **g, k, q, g', x, ng.** Til orqa undoshi – tilning orqa qismi yumshoq tanglayga yaqinlash shi natijasida paydo bo'ladi.

Til orqa tanglay hosil qilish vaqtida 2 ga bo'linadi

a) yopiq portlovchi undosh: g, k, g, ng;

b) sirg'aluvchi undosh: q, g', x.

3. Bo'g'iz undoshlari: h.

Bo'g'iz undoshi tovush paydo bo'layotgan bo'g'izning ochiq holatida talaffuz qilinadi. Bo'g'iz undoshi 1 ta: h

4. Burun undoshi. Tovushga uchragan havo ning burun orqali chiqishi ta'minlanishi natijasida tovush burun tovushi undoshi: m, n, ng

II. Hosil bo'lish usuliga ko'ra

Undosh tovushni talaffuz qilganda bo'g'izdan chiqqan havo ma'lum to'siqqa uchrab, portlab chiqish natijasida hosil bo'lsa, bunday undoshlar portlovchi undoshlar deyiladi. Portlovchi undoshlar 8 ta: b, p, d, t, k, g, ch, dj

Havo oqimi qisman to'siqqa uchrab, shovqin hosil qilgan holda chiqishi natijasida hosil bo'ladigan undoshlar sirg'aluvchi undoshlar deyiladi. Sirg'aluvchi undoshlar 11 ta: v, f, s, z, sh, y, x, h, r, j, gʻ

Havo oqimi to'siqqa uchrab, shovqin hosil qilgan holda chiqishi natijasida hosil bo'ladigan undoshlar portlovchi-sirg'aluvchi undoshlar deyiladi. Ular 2 ta: j, ch

Portlovchi undoshning qattiq, bo'g'izlangan muqobil undoshi bo'g'izdan chiqqan havo oqimi to'siqqa uchrab portlab chiqish natijasida hosil bo'lgan tovush **qorishiq tovush** deyiladi. Ular 2 ta: j, ch

Portlovchi undoshning qattiq, bo'g'izlangan muqobil undoshi bo'g'izdan chiqqan havo oqimi to'siqqa uchrab portlab chiqish natijasida hosil bo'lgan tovush **portlovchi tovush** deyiladi. Ular 6 ta: b, p, d, t, k, g

Sirg'aluvchi undoshlar talaffuz qilinganda havo oqimi to'siqqa uchrab, shovqin hosil qilgan holda chiqishi natijasida hosil bo'lgan undoshlar **sirg'aluvchi undoshlar** deyiladi. Sirg'aluvchi undoshlar 11 ta: v, f, s, z, sh, y, x, h, r, j, gʻ

Sirg'aluvchi bo'g'iz undoshiga tovushlar orasi bo'shroq bo'lgan bunday tovush kiradi: h

Tanglay undoshlari: r, j, h, y tovushi – o'ziga xos belgi tovush.

III. Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra.

Tovush paychasining harakati va holati natijasida paydo bo'ladigan undosh 1 va ovoz ishtirokiga ko'ra undosh 2 ga bo'linadi:

a) jarangli undosh.

b) jarangsiz undosh.

Talaffuzida tovush paychasi tebranglashadigan, ya'ni harakatga keladigan undosh jarangli deyiladi. Tebranglashgan tovush paychasi orasidagi havo oralig'idan o'tib chiqayotgan havo oqimini biroz to'sib qo'yadi. Demak, tovush paychasi tebranglashishi ovozni hosil qilsa, to'siq bo'lishi g'ayrioddiy shovqin yaratadi. O'zbek tilida jarangli undosh 14 ta: **b, v, g, d, y, j(dj), l, z, m, n, ng, l, r, g'.**

Jarangsiz undosh tovushini hosil qilishda tovush paychasi tebranglashmaydi. Keng oraliqdan o'tayotgan havo oqimi tovush paychasini titratmay o'tadi. Natijada ovoz, ya'ni jarang yuz bermaydi. To'siq yaratgan shovqin ng o'zi qoladi. O'zbek tilida jarangsiz undosh 10 ta: **p, k, t, f, ch, s, sh, q, x, h.**

Ayrim jarangsiz undosh jarangli undosh bilan bos. bo'lish o'rniga ko'ra bir xil bo'lib, juftlik hosil qiladi. Ular 6 ta: **b – p, d – t, z – s, v – f, g – k, dj** ishg'alituvchi – **sh, g' – x, dj – ch.**

Nutqda ba'zan jarang undosh jarangsizlashadi: **kitob – kitop, loz – los, dard – dart, tog' – tox** kabi.

IV. Ovozning miqdoriga ko'ra.

Undosh tovushining ba'zisida ovoz ko'p bo'lsa, ba'zi undoshlarda shovqin ko'p bo'ladi. Ana shu xususiyatiga ko'ra undosh 2 ga bo'linadi:

1) sonor.

2) shovqinli.

Ovoz shovqinga nisbatan ustun bo'lgan undosh - sonor (sonor lotincha "ovozdor" degan ma'noni bildiradi). Sonor talaffuzida tovush paychasi tebranglashib, ravon ovoz hosil bo'ladi. Shu sabab bilan sonor unlilarga yaqin turadi. Ammo og'iz bo'shlig'ida qisman shovqin qatnashganligi uchun undosh hisoblanadi. O'zbek tilida sonor 5 ta: **m, n, ng, l, r.**

Sonordan boshqa undoshda ovoz oz, shovqin ko'p bo'ladi. Bunday undosh shovqinli deyiladi. O'zbek tilida 19 ta undosh shovqinli: **b, v, g, d, y, j(dj), j, z, k, p, s, t, f, x, ch, sh, q, h, g'.**

Mustahkamlash uchun savollar

1.Undosh tovush nima? 2.Undosh tovush tuzilish soni va turini ayting. 3.Hosil bo'lish o'rniga ko'ra undoshlarni tasniflang. 4.Hosil bo'lish usuliga ko'ra undoshlarni tasniflang. 5.Ovoz va shovqin ishtirokiga ko'ra undoshlar tasnifini ayting. 6.Lab undoshlari va ularning hosil haqida gapiring. 7.Til undoshlari va ularning hosil haqida gapiring. 8.Bo'g'iz undoshlari haqida gapiring. 9.Portlovchi undosh

qaysilar? 10. Sirg'aluvchi undosh qaysilar? 11. Portlovchi-sirg'aluvchi undosh qaysilar? 12. Jarangli undosh nima va ular qaysilar? 13. Jarangsiz undosh nima va ular qaysilar? 14. Qorishiq undosh haqida gapiring. 15. Titroq undosh haqida gapiring. 16. Sonor nima va ular qaysi undoshlar? 17. Shovqinli undosh qaysilar?

Topshiriq

1. Berilgan tartibda undoshlarga savol berishga tayyorlaning. 2. Undoshni hosil bermoq'ingiz bilan qulaklaringizni berkitgan holda talaffuz aling. Uning qaysi birini talaffuz qilganingizda zarur muskullar ortiqcha zo'riqishini aytib bering. 3. b, d, g, g', z, v jarangli undoshlarni talaffuz qilganda qaysi muskullar ishlashini aytib bering. 4. Ovozli va shovqinli undoshlarni farqlang. 5. Quyidagi so'zlarni yozing: d, Ovozli va g, q va g', b va p bilan farqlanuvchi so'zlar juftligini tuzing. 6. Qaysi so'zning bir undosh tovushi talaffuz qilinsa, boshqa undosh paydo bo'lib qoladi va aksincha kuzatiladi: o'quvchi, payrov, qarib, sovg'a, sirli, sayla, sila, tinyk, zirak, norin, qidirmoq. 6. Portlovchi va sirg'aluvchi j tovushi qatnashgan so'zni alfavit tartibida qaling: yozuv, jo'ja, jurnal, jo'ra, juma, javob, jiyin, jon, jon, majburiyat, ajrlod, hoy, mujmal, bajarmoq, qijdu, juda, javob.

5- DARS
BO'G'IN VA URG'U

Bo'g'in So'zning **bir nafas zarbi** bilan **aytiladigan tovush yoki tovush birikmasidan iborat qismi bo'g'in** deyiladi. Masalan: otamiz so'zida uch bo'g'in bor: o-ta-miz. Birinchi bo'g'in tovushdan, qolgan ikkitasi tovush birikmasidan iborat. O'zbek tilida bo'g'in undan kuzilmaydi. So'zda qancha unli bo'lsa, shuncha bo'g'in bo'ladi. Bo'g'in sonini aniqlash uchun unli sanab chiqish kifoya.

Bo'g'in quyidagi ikki prinsip asosida hosil bo'ladi:

I. Unli yoki undosh bilan tugashiga qarab a) ochiq bo'g'in; b) yopiq bo'g'in farqlanadi.

Unli bilan tugagan bo'g'in **ochiq bo'g'in** deyiladi: **ona, ota, opa**

Undosh bilan tugagan bo'g'in **yopiq** bo'g'in deyiladi: **mak-tab, rah-bar, tex-nik.**

Bir bo'g'in o'zidan oldingi qismni so'zda boshlangacha tovushdan iborat bo'lsa: **ona, bosh, tekst.**

O'zbek tilida bo'g'inning quyidagi turi mavjud.

1. Bir unli tovushdan iborat: **u** (olmosh), **e**, **o** (undov so'z).
2. Bir unli va bir undosh: **un, uch.**
3. Bir unli va ikki undosh: **bur, daf-tar.**
4. Bir unli va uch undosh: **do'st, mard.**
5. Bir unli va to'rt undosh: **tekst, punkt.**

Eslatma

So'z o'zbekcha so'z o'zagidan ortiqcha bo'g'in bo'lishi mumkin. Boshqa bo'g'in tipi o'zlashma so'zga xos.

O'zbek tilida bo'g'in o'rgatish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Undan savod o'rgatishda, she'riy vazn o'lchovini belgilashda hamda yozuvda bir satrdan ikkinchi satrga ko'chirishda foydalaniladi.

Tilshunoslikdagi bo'g'in adabiyotshunoslikdagi hijo tushunchasiga har doim ham to'g'ri kelmaydi. Hijo ham arabcha bo'g'in demakdir. She'rdagi so'zning bir nafas zarbi bilan talaffuz etiladigan tovush yo'li she'r o'lchovidagi dastlabki ritmik birlik hijodir. Hijo ba'zan bo'g'indan farqli o'laroq undosh tovushsiz ham tuzilishi mumkin.

Vasl bog'ichra sandek shohi zolim ko'madur
Ishq kayfu o'zgalarg'a ofatu g'am ko'madur.
(Navoiy)

baytidagi **vasl, ishq** so'zidagi **l** va **q** undoshi mustaqil hijo tashkil etadi.

Urg'u. So'z bo'g'inlaridan yoki gapda ishtirok etayotgan so'zlardan birining boshqasiga nisbatan kuchliroq aytilishiga, shuningdek, ayrim so'zning ma'no va talaffuzini belgilab beruvchi fonetik hodisaga **urg'u** deyiladi. Urg'u zarb bilan aytiladi.

Urg'u avvalo ikkiga bo'linadi: 2 xil:

a) **so'z urg'usi;**

b) **ma'no urg'usi.**

So'z bo'g'inidan biriga tushib, uning ma'no va talaffuzini belgilab beradigan urg'u so'z urg'usidir. *zakovát – o'má – ot, ólma – fe'l.* Urli tovush urg'u oladi.

O'zbek adabiy tilida urg'u ko'pincha oxirgi bo'g'inga tushadi. O'zakka qo'shimcha qo'shilganda ham urg'u oxirgi bo'g'inga ko'chaveradi. Masalan: **paxtá, paxtakór, paxtakorlár.** Biror tovushning urg'u olishi urug a'zosining harakati va nafas kuchiga bog'liq. Masalan: **xizmátchi.**

So'z urg'usi so'zning qayerga tushishiga ko'ra 2 xil bo'ladi:

a) erkin urg'u;

b) bog'liq urg'u.

Bo'g'indan bo'g'inga ko'chib uning ma'nosini farqlash uchun xizmat qiladigan urg'u erkin urg'u deyiladi. Masalan: yuklamá – ot. yúklama – fe'l; qatlamá – ot. qátlama – fe'l; suzmá – ot. súzma – fe'l.

Urg'usini ko'chirib o'qiladigan so'zlarga misol keltiramiz:

agrotexnik (ot. *agrotexnika*) – agrotexnik (sifat. *agrotexnika bo'yicha*)
akadémik (ot. *akademiya a'zosi*) – akadémik (sifat. *akademiyaga tegishli*)
átlas (ot. *gazlama nomi*) – atlás (ot. *geografik atlas*)
banda (ot. *qurollangan kishilar guruhi*) – bánda (ot. *qo'l ostidagi kishi*)
bog'lár (ot. *bog'lovchi, birlashtiruvchi*) – bóg'lar (fe'l. *bo'g'ma bog'ma*)
baladá (ot. *xalq dostoni*) – bóla-da (ot. *-da – yuklamasi*)
bolagina (ot. *qandolat mahsuloti*) – bolágina (ot. *qush bolasi*)
bosmá (ot. *qurilish materiali*) – bósma (sif. *matni bosilgan*)
botín (ot. *o'lja*) – bótin (sif. *shu nomdagi qalpoqqa tegishli*)
batir (ot. *harbiy kema*) – bátir (sif. *qat'iyatli, mard*)
empirik (ot. *eksperimental bilimlarga asoslanuvchi*) – ampírik (sif. *mantiqqa emas, tajribaga asoslanuvchi*)
energétik (ot. *mutaxassis*) – énergetik (sif. *energiya bilan bog'liq*)
etik (ot. *kiyim, oyoq-kiyim*) – étik (sif. *axloq falsafasiga oid*)
fizik (ot. *fizika fani mutaxassisi*) – fízik (sif. *fizikaga oid*)
geofizik (ot. *mutaxassis*) – geofízik (sif. *geofizikaga asoslanuvchi*)
geoximik (ot. *mutaxassis*) – geoximik (sif. *geoximiyaga asoslanuvchi*)
gidrotexnik (ot. *mutaxassis*) – gidrotexnik (sif. *gidrotexnikaga asoslanuvchi*)
grafik 1 (ot. *chizma*) grafik 2 (ot. *matematik*) – grafik 3 (sif. *grafik haqida*)
gullár (ot. *qarmoq ko'rinishi*) – gúllar (fe'l)
hozir (ot. *shu vaqt*) – hozír (hozir bo'lgan)
ishlár (ot. *ishlamoq ko'nikmasi*) – ishlár (fe'l. *yaxshi ishlaydi*)
ishchi (ot. *mehnat bilan shug'ullanuvchi*) – ish-chi (ot. *ishi yo'q*)
klássik (ot. *antik adabiyot*) – klassik (sif. *mukammal, o'rnak bo'lgan*)
kredit (ot. *qarz*) – kredít (ot. *qarz*)
ko'zlár (ot. *ko'zning ko'rinishi*) – ko'zlar (fe'l. *mo'ljallaydi*)
lírik (ot. *shoir*) – lirik (sif. *lirik she'riyat*)
matemátik (ot. *matematik*) – matematik (sif. *matematikaga oid*)
metafizik (ot. *mutafizik*) – metafízik (sif. *metafizikaga oid, g'ayritabiiy*)
mexánik (ot. *mutaxassis*) – mexanik (sif. *mexanikaga oid*)
mistik (ot. *mistika*) – místik (sif. *sirli, tushunarsiz*)
modá (ot. *kiyim*) – móda (ot. *urf-odat*)
moslamá (ot. *kiyim*) – móslama (fe'l. *o'rnatmoq va shunga o'xshash*)

olmâ (*sf. Ayol*) – ólma (*fe'l. qo'lingga olmoq*)
orgânik (*sf. mumkinsizlik*) organik (*sifat. organizmga xos.*
oting (*sf. ilmiy oyoq.* oting (*sf. otlarni ezadigan qurol*)
optik (*sf. mutaxassis* optik (*sifat. optikaga oid*)
órgan (*sf. organizatsiya*
orgân (*sf. musiqa asbobi* – orgân (*fe'l. musiqa asbobi*
prozâik (*sf. nasr ustasi*) prozâik (*sifat. prozaga oid yozilgan*
qatlamâ (*sf. daraja* – qatlâma (*fe'l. ko'plab qatlama*
qishloqchâ (*sf. -cha*
suffiksini olgan) qishlóqcha (*zarrac. xorijiy yashash joyidan*)
sa'lâm (*sf. salomlashish ifodasi*) – sa'lâm (*sf. xushlashish ifodasi*)
samarâli (*sf. maqsadga muvofiq ishlash* – samarâli (*sifat. kam kuch sarflab, ko'p natija*
sayr (*sf. rasmiy yig'in*) sáyr (*sf. ...*)
summâ (*sf. mezon*) – summa (*...*)
taktik (*sf. mutaxassis*) – taktik (*sifat. harbiyga taalluqli*)
texnik (*sf. mutaxassis*) – texnik (*sifat. ...ishlatiladigan*)
tortmâ (*sf. stolning tortiladigan* – tórtma (*sf. ...*)
tóza (*sifat. ifloslangan* – toza (*sifat. ...*)
yangi (*sifat. yangi xonim*) – yàngi (*...*)
yigitchâ (*sf. kichik yigit*) – yigitcha (*...*)
o'quvchimiz (*...*) – o'quvchimiz (*...*)
(*...*)
chaqirâ (*...*) – chaqira (*...*)
chog'lâr (*sf. ...*) – chóg'lar (*...*)
chorâ (*sf. ...*) chóra (*sf. ...*)

Yuqoridagilar chet tili so'zlaridir).

So'z oxiriga tushgan urg'u **bog'liq urg'u** deyiladi. (Misol: - dalagâ - dalalâr

O'zbek tilida urg'u ... so'z, ... so'z ... (Misol: ... ishchilardán. Ammo ... so'z ... so'z ... hol bir ... so'z ... so'z ... so'z

bo'g'inga yoki bir nechta qismga tushadi. Bundan tashqari, tarkibida **o'n ikki, o'n besh, yi girma uch** kabi qo'shma son va **ko'makchi** fe'l so'z qo'shilmasida **sotib oldi, yozib oldi, berib yubordi** kabi; takror so'zlar **katta-katta, asta-asta** kabilarda urg'u so'zning bir nechi bo'g'iniga tushadi.

Turli so'zda urg'u kimchi so'zning oxirida bo'ladi: **ota-ona, bola-chaqa** kabi.

Urg'u olmaydigan qo'shimcha va yuklama ham mavjud.

-la, bésta.

-cha ruscha.

-tacha, o'ntacha.

-gina (-kina) (yuklama vazifasi) ukagina.

-dek, -day oldek, aday.

-ov, -ova, -yev, -yeva Alimjonov.

-ma bo'lishsizlik qo'shimchasi: kima, ishlama.

– shaxs ko'rsatuvchi o'timsiz qo'shimchasi **-man, -san, -miz, -siz** talabaman, talabasiz.

– qo'shimcha (affiks) yuklama:

-ku oldi-ku

-mi oldim-mi

-chi: sen-chi

-da kelsa-da

– **ko'makchi** (uchun, sari) kabi.

Avalgan qo'shimcha **so'z oxirida kelganda** urg'u olmaydi. **o'tirma – o'tirmaysan – o'tirmaysanmi**

O'zlashma so'zni to'g'ri talaffuz qilishga o'rnish natijasida o'zbek tilining urg'u tizimida ma'lum o'zgarish yuz bermoqda. Bu hol urg'uning o'zlashma so'zda erkin qo'llanishida shunga ko'ra urg'u orqali so'z ma'nosini farqlashda ko'rinmoqda.

Urg'u semantik (ma'no farqlovchi), morfologik (grammatik ma'no ifodalovchi), uslubiy vazifa bajaruvchi fonetik hodisa hisoblanadi.

Quyida urg'usini topish qiyin bo'lgan so'zdan misol keltiramiz:

alfavit	asir
anil	atom
atbalta	ayncha
astronomiya	bolamday
audiotoriya	brashyura
allaqachon	direktor
armiya	dorsent

dóim	murís
gazéta	nafís
gárchi	óbzor
hamísha	óbraz
hámma	óshiq
hár kim	óyday
hátto	póyezd
hóch kim	qánchа
izotóp	qáysi
kartína	qip-qizil
kélsin	rádio
kímdir	respúblika
konstitútsiya	romandán
küldir	rúchka
lámpa	sanatóriya
lékin	shamólday
léksiya	sílos
matematíka	tónna
máshq	tráktor
mudír	yám-yashil
muhím	závqm
muhít	zéro
mumkín	

Gapdagi so'zdan birontasi boshqasiga nisbatan kuchli ovoz bilan ajratib aytilishi ma'no (gap, logik, mantiqiy) urg'usi deyiladi.

Gapda ma'no urg'usi qaysi so'zga tushgan bo'lsa, so'zlovchi tinglovchining diqqatini shu so'zga jamlamoqchi ekanligini bildiradi. Ma'no urg'usi ko'pincha kesimdan oldingi so'zga tushadi:

Ertalab biz keldik. Biz ertalab keldik. Biz ertalab **keldik**.

To'liqsiz gapda, odatda, ma'no urg'usi olmagan bo'lak tushirildi. Masalan:

– Kim **keldi?**

– **Men**

Fonetik uslubiyat. Fonetik uslubiyatda nutq tovushining noto'g'ri qo'llanishi, urg'uning o'rinsiz berilishi e'tiborga olinadi.

Nutq tovushining uslubiy xususiyati. 1) **asir, devon** kabi so'zdagi tovushning noto'g'ri (**asr, divan** kabi) talaffuz qilinishi oqibatida nutqda tushunmovchilik yuzaga keladi; 2) **-da, -va, -qa (yoki -q)** kabi bo'g'indan keyin yana shunday tovush bilan boshlanadigan so'zni kelтirish nutq yengilligini keltirib chiqaradi: **So'zning gapda qo'llanishi va vazifasi,** kabi

Shuningdek, nutqda tovush tushirish, ortiqcha orttirish ham (**Saodat – sodat, muallim – malim, daraxt – daraxit** kabi). o'zga tildagi so'zni noto'g'ri talaffuz etish ham nutq go'zalligini buzadi. Masalan, **Moskva** so'zini **Maskva, morfema** so'zini **marfema, sintaksis** so'zini **sintiksis** tarzida talaffuz etish lozim.

Urg'uning uslubiy xususiyati. Urg'uni noto'g'ri qo'yish nutq ko'rkini buzadi va ko'pincha so'zning ma'nosini o'zgartirib yuboradi. Shuning uchun, ayniqsa, chetdan o'zlashgan so'zning urg'usini to'g'ri qo'yish lozim. Masalan, **rektor, direktor** kabi so'zning oxirgi bo'g'iniga urg'u berish nutqiy qo'pollikni keltirib chiqaradi.

Mustahkamlash uchun savollar

1. Bo'g'in nima? 2. Bo'g'inning qanday turi bor? 3. Ochiq va yopiq bo'g'in haqida gapiring. 4. Urg'u va uning xususiyati qanday? 5. Urg'u nima? 6. Erkin urg'u haqida gapiring. 7. Sog'liq urg'u haqida gapiring. 8. So'z urg'usi nima? 9. Mantiq urg'usi nima? 10. Urg'u almaydigan qo'shimcha qaysilar? 11. Urg'u olmaydigan yuklama va ko'makchi qaysilar?

Topshiriq

1. Bilish zarur tushuncha bo'yicha savol-javobga tayyorlaning. 2. ***Muomala, muattar, muallaq, matbaa, saodat, singil, ko'ngil, tong, rangin, zangor, qing'ir, gangumoq, sabrsiz, orksiz, Yangiariq, Yettisoy, gulbeor, O'rtaovul, zavqlanmoq, dangal, jangovar, qutbdan, baytni, ingichka, davr, xomashyo, asr, asir, fikr, toabad, foat, qanoat, menga, dengiz, ingliz, senga, nonga, tanga, tunga, qonunga, vaznga, guldonga, bo'stonga, bog'bonga, eto'ponga, mungan, singan, ungan, shartsiz*** *so'zini bo'g'inga ajratish va bo'g'in ko'chirish ustuniga joylashtiring. Namuna*

Bo'g'in ajratish	*Bo'g'in ko'chirish*
mu-o-la-lar	*muo-lar yoki mu-olar*
a-sir	

3. ***Albatta, astronomiya, auditoriya, afsuski, ahil, allakim, ammo, asio, atom, barcha, broshyura*** *so'zining har birida unda nechta bo'g'in bo'lsa shuncha marta talaffuz qilib, har bir talaffuzda urg'uni ko'chirib ko'ring. Namuna:* *albatta-albatta-albatta. Urg'usiz bo'g'inga urg'u tushirilsa, noqulay talaffuz yuz berishiga ishonch hosil qiling. 4. Oldingi topshiriqdagi tajriba asosida* ***direktor, Salimov, kommutator, kino, Sitora, Munira, Mengliyeva, Ergashevich, qip-qizil, zero, kimdir, shamolday*** *so'zining urg'usini qo'ying. 5.* ***Organ*** *(tashkilot) – **orgón*** *(musiqa asbobi), **prozaik*** *(ot) – **prozaik***

(sifat) romantik (ot) – romantik (sifat). sizsiz (sifat) – sizsiz (olmosh+sna.xs-son.). soyа (sabzi yoy) – soya (o'simlik). surmа (hayvon)– surma (ko'l) so'zining har bir ishtirokida gap tuzing. 6. Urg'usi oxirgi bo'g'inga tushmagan grammatik shaklsiz so'zga 10 ta misol yozing. 7. Urg'usi oxirgi bo'g'inga tushmagan grammatik shaklli so'zga 10 ta misol yozing. 8. Urg'u tushaydigan qo'shimchaning urg'u olishiga 10 ta so'z misol keltiring. 9. Urg'u oxirgi bo'g'iniga tushmaydigan so'zning urg'usi siljishiga 10 ta misol keltiring. 10. Quyidagi bo'g'in tipining har biriga 5 tadan misol yozing:

Bo'g'in tipi	*Misol*
Bir unli:	
Bir unli va bir undosh:	
Bir unli va ikki undosh:	
Bir unli va uch undosh:	
Bir unli va to'rt undosh:	

6- DARS
FONETIK O'ZGARISH

Tovush o'zgarishi haqida. Nutq jarayonida tovushni ketma-ket keltirish yo'li bilan turli ma'noli birlik hosil qilamiz. Masalan: **t-o-sh, b-o-sh, q-o-l**. So'z tarkibidagi tovush alohida-alohida emas, balki uzluksiz talaffuz qilinadi. So'z uzluksiz talaffuz qilinganda, uning tarkibidagi bir tovush hali to'liq talaffuz qilinmay turib, nutq a'zosi ikkinchisiga tayyorlanib turadi. Natijada tovush zanjiri vujudga keladi. Talaffuz qulayligiga intilish tufayli nutq jarayonida tovush zanjirida turli fonetik o'zgarish ro'y beradi. Masalan, **tog'** asosiga **-ga** qo'shimchasini qo'shsak, asos oxiridagi chuqur til orqa **g'** dan so'ng til orqa **g** undoshi kelib, chuqur til orqa tovushidan til orqa tovushiga birdaniga o'tish qiyinlashadi. Talaffuz noqulayligi vujudga keladi. Ana shu noqulaylikni bartaraf qilish uchun ikkinchi tovush ham chuqur til orqaga aylantiriladi va har ikkisi ham jarangsizlashadi.

Qiyoslang: **tog' + ga – toqqa**. **bog' + ga – boqqa** kabi.

Fonetik o'zgarish unliga ham, undoshga ham taalluqli.

Singarmonizm. Unli va undoshning o'zgarishi farqlanadi. Unlining nutq jarayonida o'zgarishi **singarmonizm** deyiladi. Singarmonizm unlining moslashishi, uyg'unligi demakdir. U faqat turkiy tillarga xos.

Singarmonizmning ikki asosiy ko'rinishi mavjud

a) til garmoniyasi.

b) lab garmoniyasi.

Til garmoniyasida unli tovush yumshoqlik yoki qattiq ik til oldilik yoki til orqalik jihatdan bir-biriga moslashadi. Singarmonizmning til garmoniyasi qonuniyatiga ko'ra, so'zning boshida til oldi unlisi kelsa so'z o'rtasi va oxirida ham shunday unli keladi. Boshqacha aytganda so'zning boshida undoshning hosil bo'lish (artikulyatsion) o'rniga bog'lic ravishda unli tovushda yuz bergan o'zgarish so'zning keyingi bo'g'inidagi unlida ham yuz beradi. Bu hol so'zning talaffuzida qulaylikka olib keladi. Masalan **qalam** so'zidagi q undosshi chuqur til orqa undoshi bo'lganligi bu s, birinchi bo'g'indagi a unlisi ham til orqalik xususiyatiga ega bo'ladi. Buning natijasida esa keyingi bo'g'indagi a tovushi ham til orqa unlisi sifatida namoyon bo'ladi. Demak, birinchi a unlisi q undoshiga, keyingi bo'g'indagi a esa oldingi bo'g'indagi a unlisiga moslashadi.

Lab garmoniyasida unlining moslashishi ikki tomonlama bo'ladi. Bunda unli ham til oldi-til orqalik jihatidan, ham lablanganlik-lablanmaganlik jihatidan boshqa unlilar va undoshga moslashadi. Bunga ko'ra, so'z boshidagi unli lablangan til oldi unlisi bo'lsa, so'z oxirida ham lablangan til oldi unlisi keladi. So'z boshidagi unli lablangan til orqa unlisi bo'lsa, so'z oxiridagi unli ham lablangan til orqa unlisi bo'ladi. Masalan, **boshqird, sog'in, bo'g'in** so'zidagi kabi.

Tovush o'zgarishi turi. Fonetik qonuniyat asosida yuz beradigan o'zgarish turini sanaymiz.

Tovush moslashishi (assimilyatsiya). Assimilyatsiya – lotincha **assimilare** – o'xshatib olish demakdir. Tovush moslashishi to'liq va to'liqsiz bo'lishi mumkin. Tovush moslashishida to'liq **(yoz + sin = yossin)** yoki qisman **(yoq + sa = yoxsa, tanbur + tamburi)** moslashish farqlanadi.

Moslashish hodisasi ikki xil

a) **progressiv moslashish**da oldingi tovush keyingi tovushni o'xshatib oladi. Masalan **otdan – ottan, ishdan – ishtan, soldat – sollat** va boshqalar.

b) **regressiv moslashish**da keyingi tovush oldingi tovushni o'ziga o'xshatib oladi: **shanba – shamba, ichsa – issa, oqshom – oxshom, tuzsiz – tussiz** kabi.

Tovush noo'xshashligi (dissimilyatsiya). Dissimilyatsiya lotincha **dissimlate** – noo'xshashlik degan, bu fonetik hodisada tovushning ta'siri natijasida noo'xshash tovush talaffuz qilinadi. Tovush noo'xshashligi hodisasi ham ikki xil bo'ladi.

a) **progressiv noo'xshashlikda** oldingi tovush ta'sirida keyingi tovush paydo bo'lish o'rni va usulini o'zgartiradi va tovushning sifatida o'zgarish –

noo'xshashlik yuzaga keladi. Masalan: **zarur – zaril, zarar – zalal, birorta – bironta, madad – madat, kabob – kabop, rubob – rubop** kabi.

b) **regressiv** noo'xshashlikda keyingi tovushning ta'sir bilan oldingi tovushda o'zgarish ro'y beradi. Masalan: **po'chta – po'shta, maqtanchoq – maxtanchoq, uchta – ushta** kabi.

Ba'zi so'zda har ikki hodisa (tovush moslashishi va tovush noo'xshashligi) ham uchraydi. Masalan: **uchdi – uchti – ushti, ichdi - ichti – ishti** kabi.

Metateza. Og'zaki nutqda ba'zan yonma-yon kelgan undosh tovushning o'rni almashishi mumkin. Nutqdagi bunday jarayon **metateza** deyiladi: **r – y: daryo – dayro; m – g': yomg'ir – yog'mir; b – r: tebratmoq – terbatmoq; m – l: yamlamoq – yalmamoq; h – v: ahvol – avhol; p – r: tuproq – turpoq, r – g: o'rganmoq – o'grarnmoq, g' – r: to'g'ramoq – to'rg'amoq, n – m: aylanmoq – aynalmoq** va boshqa.

So'z o'zagida yoki unga biror qo'shimcha qo'shilganda, o'zakdagi **a** unlisi **o** ga yoki **i** unlisi **u** ga almashadi va shunday yoziladi: **ong – angla, son – sana, ot – ata, yosh – yasha, sayla – saylov, to'pla – to'plov;** tara – **taroq, so'ra – so'roq, chanqa –chanqoq; o'qi – o'quv, to'qi – to'quv** kabi.

Ayrim so'zga egalik qo'shimchasi qo'shilganda so'z o'zagidagi **k** va **q** tovushi **g** va **g'** ga almashadi va shunday yoziladi: **bilak – bilagi, tilak – tilagi, buloq – bulog'i, tirnoq – tirnog'i** kabi. Ammo ayrim so'zda bunday tovush o'zgarishi bo'lmasligi mumkin: **nok – noki, toq – toqi, oq – oqi, zavq – zavqi** kabi.

Ba'zi so'zda yonma-yon kelgan tovush o'rni almashadi. Masalan: **sayram – saryam, daryo – dayro, tuproq – turpoq, to'g'ramoq – to'rg'amoq** kabi.

Yomg'ir so'zi **yog'mur** tarzida ayt'ilsa ham **yomg'ir** yoziladi (bu so'z aslida **yag'mur** shaklida bo'lgan).

Proteza. So'z boshida bitta unlining orttirilishi **proteza** hodisasi sanaladi. Odatda, aksariyat sonor r tovushidan oldin o', u unlisi orttiriladi: **ro'mol – o'ramol, ro'za – o'raza, rayhon – o'rahon, rozi – o'rozi, rais – o'rais, rang – o'rang, ro'zg'or – o'rzg'or, rustam** – urustam kabi.

Ayrim holatda so'z boshida sirg'aluvchi va portlovchi ikki undosh qator kelganda i unlisi orttirilishi mumkin: **shkaf – ishkaf, spravka – ispravka, stol – istol, stul – istul, shtraf – ishtaraf, stansiya – istansa.**

Epenteza. So'z boshida o'rtasida va oxirida ikki undosh qator kelganda, ular o'rtasida i, ba'zan **u** va **a** unlisi orttiriladi: **fikr – fikir, hukm – hukum, doklad – dakalad, klass – kilass.**

Epiteza. So'z oxirida bir o'rinda kelgan ikki undoshdan so'nggi tovushning qo'shilish hodisasidir. **disk – diska, bank – banka, tank – tanka, kiosk – kioska, otpusk – otpuska** kabi.

Tovush orttirish o'zbek tilining o'ziga xos talaffuz qoidasi asosida ro'y beradi. O'zbek tilida so'z boshi va oxirida, odatda, ikki undosh qator talaffuz qilinmaydi (**ost, ust, yurt** kabilar bundan mustasno) yoki ayrim tovush (h, r) bir-biri bilan so'z boshlanmaydi.

So'z boshida: **stakan – istakan, spirt – ispirt, shkaf – ishkaf, rus – o'rus, ro'mol – o'ro'mol, ro'za – o'ro'za, igna – yigna yoki yiyna** kabi.

So'z o'rtasida: **aql – aqil, fikr – fikir, ilm – ilm, shifr – shifir, hukm – hukum, doir – doyir, doim – doyim, foiz – foyiz, teatr – teyatr** kabi.

So'z oxirida: **bank – banka, tank – tanka** kabi.

Shuningdek, ba'zi olmoshga qo'shimcha qo'shilishi natijasida tovush orttirilishi ro'y beradi: **shu + ga – shunga, bu + da – bunda, u + dan – undan** kabi.

Prokopa. Bunda so'z boshida ba'zan unli yoki undosh tovush tushib qoladi: *yiroq – iroq, yigna – igna, yig'lash – ig'lash, yirik – irik, yuz – uz.*

O'zak va qo'shimcha qo'shilishi bilan ayrim tovush so'z boshi, o'rtasi va oxirida tushib qoladi. So'z boshida odatda qisqa talaffuz qilinuvchi **y** yoki **h** tovush tushadi: **yiring – iring, yiroq – iroq, yog'och – og'och** kabi.

So'z o'rtasida odatda qo'shimcha qo'shilganda o'zakdagi ayrim tovush tushib qoladi: **og'iz – og'zi, burun – burni, ikki – ikkov** kabi.

Qisqa (i) tovushli so'z o'zagida ham tushadi yoki juda qisqa aytiladi: **pishiq – pshiq, kishi – kshi, bilan – blan** kabi.

So'z oxirida odatda qator kelgan undoshning so'nggisi (t, d kabi) talaffuzda tushib qoladi: **Samarqand – Samarqan, sust – sus, do'st – do's, pisand – pisan, post – pos, xursand – xursan** kabi.

O'zbek tilida arab tiliga xos ayrim so'zlarda **ayn** (') (kirill alifbosida ayrimida va lotin alifbosida hozirgi belgisi) so'z o'rtasi va oxirida tushib qoladi, so'z boshida cho'zib talaffuz qilinadi: **ma'lum – malum, ma'mur – mamur, ta'lim – talim, 'ayb – ayb, 'ilm – ilm** kabi.

Sinkopa hodisasiga binoan so'z o'rtasidagi va oxiridagi keng unli tor unli kabi talaffuz qilinadi va ayrim holatda tushib qoladi: **valochka – valichka, traktor – traktir, avtor – avtir, direktor – direktir, generator – generatir** kabi.

Apokopa – so'z o'zagidagi oxirgi unli yoki undoshning tushish hodisasi: **do'st – do's, xursand – xursan, gazeta – gazit, smena – smen** va hokazo.

Sinerezis hodisasiga ko'ra so'z o'rtasida bir joyda kelgan ikki unlining bir xil kuchsizlanadi va qo'shilib tushib qoladi. Ikkinchi unli tovush esa cho'ziq talaffuz qiladi: **ma'orif – ma'rif, saodat – so'dat, qiroat – qirot, jamoat – jamo't.** Bu hodisa asli o'zbekcha so'zga xos emas.

Reduksiya – so'zning birinchi bo'g'inida biror unlining, ortalda, bir unlining kuchsiz talaffuz qilinishi. Masalan: **bir, bil,** til so'zlari bir bo'g'inli bo'lganligi

va urg'u shu so'zdagi i unlisiga tushgan ig. tufayli o'rni yordamidek talaffuz qilinadi va eshitiladi. Lekin shu so'zning oxiriga ikkinchi bo'g'in qo'shilishi bilan, urg'u ham ikkinchi bo'g'inga ko'chadi. Natijada birinchi bo'g'indagi i unlisi kuchsizlanadi va eshitilar-eshitilmas holda sust talaffuz qilinadi: **bilak, tilak, biroq.** Birinchi bo'g'indagi urg'uning ana shunday kuchsizlanib talaffuz qilinishi reduksiya hodisasiga misol bo'ladi (**reduksiya** so'zining lug'aviy ma'nosi «kuchsizlanish», «orqaga qaytish», «pastga tushish» demakdir). Reduksiyaga quyidagi so'zning birinchi bo'g'inida kelgan i urg kuchsizlanib talaffuz qilinishi ham misol bo'la oladi: **pishiq, shira, pishak, qiliq,** ichak kabi. Reduksiyaning ikkinchi bo'g'inda kelishi ham uchrab turadi. Bu hodisa so'zga uchinchi bo'g'in qo'shilganda sodir bo'ladi – ikkinchi bo'g'indagi unli tamoman kuchsizlanib, tushib qoladi. **Masalan, burun - burni, bo'yin - bo'yni, egin – egni, keyin – keyni** singari.

Eliziya - unli bilan tugovchi va boshlanuvchi ikki so'zning qo'shilishi natijasida undan birining tushib qolish hodisasi. Bunda bu necha holat kuzatiladi: a) birinchi so'z oxiridagi unli tushib qoladi: **yoza oladi – yozoladi, bora oladi – boroladi, qora ot - qorot.** b) unli bilan boshlanuvchi ikkinchi so'zning bosh unlisi tushib qoladi: **borar ekan – borarkan, borar emish – borarmish, yozgan ekan – yozgankan** kabi; d) **Abdusalom** so'zining **Absalom, Abdujabbor** so'zining **Abjabbor, olib kel** so'zining **opke** tarzida talaffuz qilinishi natijasida bir unli va bir undoshning tushib qolishi ham eliziyaning yuqori murakkablashgan shakli hisoblanadi. Eliziyaning murakkablashishi natijasida so'zning qisqargan shakli hosil bo'ladi.

Tovush o'zgarishi tasnifi. Aytilganlar asosida tovush o'zgarishini uch xil tasnif lash mumkin:

1. So'zning qaysi qismida ro'y berishiga ko'ra:

a) o'zakda yuz bergan tovush o'zgarishi: **hukm – hukum, stakan – istakan, og'iz – og'zi;**

b) qo'shimchada yuz bergan tovush o'zgarishi: **uchdi – uchti, bironta – bironta, itdan – ittan;**

d) ham o'zak, ham qo'shimchada yuz bergan tovush o'zgarishi: **bog'ga – boqqa, uchdan – ushtan.**

2. Yozuvda aks etishiga ko'ra:

a) yozuvda aks etadigan tovush o'zgarishi: **shu*ga = shunga, bironta – bironta, og'iz – og'zi;**

b) yozuvda aks etmaydigan tovush o'zgarishi: **hukm – hukum, stakan – istakan, bog'ga – boqqa, uchdan – ushtan;**

3. Tovush o'zgarishining tabiatiga ko'ra:

a) tovush tushishi: **mening – meng, muallim – malim, og'iz – og'zi;**

b) tovush orttirilishi: **hukm – hukum, stakan – istakan;**

d; tovush almashishi: **tanbur – tambur, bog'ga – boqqa, uchdan – ushtan**

Mustahkamlash uchun savollar

1.Singarmonizm nima? 2.Lab garmoniyasi va lil garmoniyasi haqida gapiring. 3.Tovush o'zgarishi nima? 4.Tovush moslashishi (assimilyatsiya) deganda nimani tushunasiz? 5.Progressiv moslashish nima? 6.Regressiv moslashishda tovush noo'xshashligi (dissimilyatsiya) haqida gapiring. 7. Progressiv noo'xshashlik nima? 8.Regressiv noo'xshashlik nima? 9.Tovush almashishi haqida gapiring. 10.Tovush orttirilishi nima? 11.Prokopa haqida gapiring. 12.Apakopa haqida gapiring. 13.Epenteza nima? 14.Eliziya haqida gapiring. 15.Reduksiya nima? 16. Metateza nima? 17. O'zakda yuz beradigan tovush o'zgarishi haqida gapiring. 18.Qo'shimchada qanday tovush o'zgarishi yuz beradi? 19. Ham o'zak, ham qo'shimchada yuz beradigan tovush o'zgarishi haqida gapiring va misollar keltiring. 20.Yozuvda aks etadigan tovush o'zgarishi haqida gapiring. 21. Yozuvda aks etmaydigan tovush o'zgarishiga misol keltiring.

Topshiriq

1. Berilgan qator harflarning birlaridan savol gapga foydalaning. 2. Berilgan gapning so'zlarining tovush o'zgarishini aniqlang: tovush o'zgarishining o'zakka qo'shimchada yuz berishiga ko'ra turini aniqlang; tovush o'zgarishining yozuvda aks etish/etmasligini aniqlang; tovush o'zgarishining ko'rinishi (tovush tushishi, orttirilishi, almashishi) ni aniqlang. 1) Boyvachcha g'azabdan otga ikki-uch qamchi qamchi bosdi. (S.Ahm.) 2) Oldan tushsa ham, oqardan tushmaydi. 3) Quyosh o'rmon tepasida milt-lab turgani bilan tafsir edi. (Rah.) 4) Yosh kelsa – ishga, qari kelsa – oshga. (Maqol) 5) Bolur xursand bo'ldi. 6) Odam odamdan bahra oladi. (A.Qah.) 7) Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo'lur chiroyli. (Maqol). 8) Bu mening o'g'lim bo'ladi. Sendandan olain shu uyda turgan. (O.Yog.) 3. Berilgan so'zni diqqat bilan o'qing va tovush o'zgarishining o'zakka qo'shimchada yuz berishiga ko'ra turini aniqlang; tovush o'zgarishining yozuvda aks etish/etmasligini aniqlang; tovush o'zgarishining ko'rinishi (tovush tushishi, orttirilishi, almashishi) ni aniqlang: ***yigitcha, kissa, uch so'm, spravka, yirik, fikr, hukm, doklad, stansiya, saodat, maorif, kiosk, bank, tuproq, tebratmoq, zarar, daryo, direktor, ketdi, yurakka, ittifoq, Oysara opa, bizni, uchta, gruppa, traktor, stol, stul.***

7- DARS
ORFOEPIYA

Adabiy tilning og'zaki shakli me'yor talaffuz va nutqiy ohangdan namoyon bo'ladi. Uni tilshunoslikning **orfoepiya** bo'limi o'rganadi.

Orfoepiya – grekcha **orphos** – to'g'ri, **epos** – nutq degan ma'noni bildiradi. To'g'ri talaffuz, avvalo, shaxsning madaniy saviyasini ko'rsatadigan darajada bo'ladi. Og'zaki nutqda har xil talaffuz uchrashi mumkin. Lekin ulardan faqat bittasi **to'g'ri talaffuz me'yori** hisoblanadi. Masalan, o'zbek shevasida bu so'z turlicha talaffuz qilinadi: *yo'l – jo'l, ko'z – go'z, ota – afa, aka – nka, amir – omar* kabi. Hozirgi zamon davom fe'li qo'shimchasi shevada *-yap(ti), -opti), -utti, -vat(ti)* shaklida qo'llanadi: *boryapti, borspti, borutti, borvotti* kabi. Adabiy tilda shulardan *yo'q, ko'z, ota, aka, amir, boryapti* variantlari adabiy talaffuz me'yori (orfoepik norma) sifatida saralangan.

Orfoepiyaning yuzaga kelishida orfografiya va xalq og'zaki nutqining talaffuzi asos qilib olinadi.

Adabiy talaffuz me'yorlarini o'rganish orfoepik qoida va orfografik lug'at orqali amalga oshiriladi.

O'zbek tilshunosligida V.Sodiqova, U.Usmonovalarning "O'zbek tilining orfoepik lug'ati" 1977- yilda va O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituti tomonidan "O'zbek adabiy talaffuz lug'ati" 1984- yilda nashr qilingan. Birinchi lug'atda o'zbek tilida faol qo'llanadigan 8000 ga yaqin so'z, ikkinchisida esa 20000 dan ortiq so'z va so'z shaklining adabiy-me'yoriy talaffuzi belgilab berilgan. Ba'zi so'z va grammatik shaklning talaffuzidagi noto'g'ri ko'rinishi inkor qilinib, uning to'g'ri aytilishi ko'rsatilgan.

Orfoepiya orfografiya bilan zich bog'langan. Biroq talaffuz hamma vaqt ham yozuv bilan teng kelavermaydi. Jumladan, yozuvda bo'g'in tovush sezilar-sezilmas aytilishi, umuman tushirilishi mumkin yoki, aksincha ortirilishi mumkin. Nutqda tovush almashtirilishi ham ko'p uchraydi. Masalan, *adabiyotchi* (adabiyotchi), *baxtsiz* (baxtsiz), *qo'shni* (qo'shni), *bo'sa* (bo'lsa), *kesak* (kesak) kabi. Bular yozuv bilan mos kelmasada, adabiy talaffuz me'yori hisoblanadi. Lekin *oshshi* (oshni), *ishshi* (ishchi), *yuzzi* (yuzim), *o'rta* (o'yerda), *aqqa* (o'yoqqa), *bayqa* (bu yoqqa) kabi so'zda adabiy me'yordan chekinish ro'y bergan.

O'zbek adabiy tilining asosiy orfoepik qoidalari: unli talaffuzi, undosh talaffuzi asosiy va qo'shimcha talaffuzi hamda boshqa tillardan o'zlashtirilgan so'z talaffuzi tarzida o'rganishi mumkin.

Unli tovush talaffuzi.

I unlisi: 1) bir bo'g'inli so'zda qisqa va ingichka talaffuz qilinadi: *il, tish, bit, sir* kabi. 2) **q, g', x** undoshlari bilan yondosh qo'llanganda yo'g'on talaffuz etiladi: *qish, g'isht, xil* kabi. 3) **y, ng** undoshidan oldin ingichka va bir oz cho'ziq talaffuz etiladi: *oliy, kuy, rang* kabi. 4) **l, r** undoshidan oldin kelgan i unlisi bilinar-bilinmas talaffuz qilinadi: *bram, broq, sira, tilak, gilam, qilos* kab..

U unlisi: 1) **k, g, y** undosh dan keyin ingichka *kul, etagul, yuk* kabi. 2) **q, g', x** undosh dan so'ng esa yo'g'on talaffuz qilinadi: *qul, qarg'a, xalq* kabi. 3) **-mоq, -uv** qo'shimchasi tarkibida cho'ziqroq eyiladi: *yozuvchi, o'quvchi, to'quvchi, ishlov, qo'shuv* kabi

O' unlisi: 1) bir bo'g'inli so'zda, shuningdek, ko'p bo'g'inli so'zning urg'usiz bo'g'inida qisqa talaffuz etiladi: *to'r, ko'r, so'mka, so'roq* kabi. 2) takroriy so'zning birinchi qismida (urg'uli bo'g'inda) cho'ziq talaffuz qilinadi: *ko'p-ko'p, to'g'ri-to'g'ri, ma'lum-ma'lum* kabi. 3) sayoz til orqa **k, g,** 1) o'rta **y** va bo'g'iz undoshi (h) dan so'ng biroz uni tarzida: *ko'l, go'r, ho'l, yo'l kabi*, chuqur til orqa **q, g', x** undoshlaridan so'ng kengroq uni tarzida talaffuz etiladi: *qo'l, g'o'r, xo'r, qo'r* kabi

E unlisi: so'z va bo'g'in boshida kengroq (*erkin, ekin, eslamoq* kabi), bo'g'in o'rtada bir oz torroq (*kecha, beda, tekin, sekin* kabi) talaffuz qilinadi. E unlisi *feruz, dehqon, telefon, adres* so'zlarida i tovushiga yaqin aytiladi

A unlisi: sayoz til orqa **k, g** undoshi bilan yonma-yon kelganda yumshoq va ingichka uni tarzida (*kam, kafe, gap, gul, gazlama, kayfiyat* kabi), chuqur til orqa **q, g', x** undoshi bilan yondosh qo'llanganda esa yo'g'on uni tarzida (*qalam, qang'a, qasida, g'am, g'alvir, xalq, xabar, xat* kabi) talaffuz etiladi

O unlisi: 1) quyi keng, kuchsiz lablangan uni tarzida talaffuz qilinadi: *tosh, bahor, somon, shamol* kabi. Shevada va jonli tilda bu unlining urg'usiz bo'g'inda **a**'ga yaqin talaffuz qilinish ham uchraydi: *samon, davon* kabi, ammo bu hol adabiy talaffuz (o'rfoepik me'yor) hisoblanmaydi; 2) sayoz til orqa **k, g** undoshlaridan so'ng yumshoq *kosib, kotib, gov, govmish* kabi; chuqur til orqa **q, g', x** undoshidan so'ng esa yo'g'on uni tarzida talaffuz qilinadi: *qo'shiq, qolip, qobil, g'ov, g'ovlamoq* kabi; 3) **y** va h undoshi bilan yondosh qo'llanganda ham o unlisi bir oz yumshoq, ingichka uni holda talaffuz etiladi: *yor, hokim* kabi

Ayrim so'z tarkibida uni **ua, oa, ao, ai, ia, aa** so'rinishida qator kelishi mumkin. Bunda ular yo bir unli tarzida talaffuz qilinishi, yoki orasiga undosh tovush qo'shib talaffuz qilinishi mumkin: *muallim – mavlim, soat – sobat* (Farg'onada), *soat – sog'at* (Toshkentda)

Undosh tovush talaffuzi

Undosh tovush artikulyatsion ko'proq fonetik hodisaga bog'liq bo'ladi. Xususan 1) **b, d** jarangli undoshi so'z oxirida jarangsiz **p, t** tarzida talaffuz etiladi, bu hol o'zbek adabiy talaffuzi uchun me'yor hisoblanadi *kitob>kitop, borib>borip, yozib>yozip, savod>savot, obod>obot* kabi. 2) **b, d** undosh jarangsiz undosh bilan yonma-yon qo'llanganda ass milyatsiyaga uchrab, **p, t** holida talaffuz etiladi, bu hol ham adabiy talaffuz me'yori hisoblanadi. *ibtidoiy>iptidoiy, kabdi>kepti* 2) **j, z** undoshi ning jarangsiz undoshlar ta'sirida **sh, s** deb talaffuz etilishi ham adabiy til uchun me'yor *ijtimoiy > ishtimoiy, mazkur > maskur* kabi. 4) **b, q** undoshlarning sirg'aluvchi **v, g'** undoshiga o'tishi ham adabiy talaffuz me'yoriga xilof emas *bora ber > boraver, kela ber > kelaver* kabi

V undoshi chetdan kirgan *avtobus, avtomat, kvartira* so'zida *f* kabi aytiladi **G** undoshi **k, q** bilan tugagan so'zda **k** va **q** tarzida aytiladi *ek+gan=ekkan, chiq+gan=chiqqan* **D undoshi** *obod, ozod* kabi so'zda kelganda **t** kabi aytiladi , *xursand, farzand* kabi so'zda undoshdan keyin kelganda esa tushib qoladi **J qorishiq-portlovchi undoshi** *avj, mavj* so'zida **ch** kabi aytiladi **J** sirg'aluvchi undosh chetdan kirgan *furajka, velejka* kabi so'zda **sh** kabi aytiladi . **Z** undoshi *sakkizta, fuzsiz* kabi so'zda yonidagi tovush ta'sirida **s** kabi aytiladi **N undoshi** *mashq, farbur, shamol* kabi so'zda **m** kabi aytiladi **F** undoshi *fakt, faol* kabi so'zda **p** kabi aytiladi **Q** undoshi *maqsad, taqsimot, to'qson, oqshom* kabi so'zlarda **x** kabi aytiladi

Asos va qo'shimcha talaffuzi.

1 **Q, k** bilan tugaydigan otning egalik qo'shimchasi bilan turlangan shakli quyidagicha talaffuz etiladi: a) ko'p bo'g'inli so'zda *qishloq>qishlog'imiz qishlog'ingiz qishlog'i; tolpak>tolpagim, tolpaging, tolpagi* kabi Bir bo'g'inli so'zlarda bunday o'zgarish bo'lmaydi: *o'q>o'qi, tok>toki* kabi (*yoq, yo'q* so'zlari bundan mustasno).

2 **Q, k, g** bilan tugagan otning jo'nalish kelishigidagi shakli quyidagicha talaffuz qilinadi: *qishloq – ga > qishloqqa, chorak + ga > chorakka, tog' + ga > tokka, pedagog + ga > pedagokka* kabi Boshqa barcha holatlarda a) jarangsiz undoshdan so'ng **-ka**, jarangli undoshdan va unlidan so'ng **-ga** talaffuz etiladi *oila, oshna, qopka, uyga, ovga, bolga, tomga, bolaga, ukaga* kabi

3 Fe'lda. a) *ing + la > ingla, sol + a > sana, yosh + a > yasha* kabi b) *ek + gan > ekkan, ket + gan > ketkan, uq + gan > uqqan, tush + gan > tushkan* kabi

4 Olmoshda *u – n + da > unda, bu + n + da > bunda, shu + n + da > shunda* (bir 'n' ortiriladi), *men – ning > mening, sen + ning > sening* (bir 'n' tushirib qoldiriladi)

5. Bir so'zidan dona son yasalganda, o'zakdagi "r" undoshi "t"ga o'tadi: *bir* > *to* > *bitta* kabi.

Boshqa tildan o'zlashgan ayrim so'z talaffuzi

1. Turk y tillarida, ma lumki, f undosh bo'lmagan, shuning uchun yonli so'zlashuvda arab, fors va rus tillaridan o'zlashgan so'zlardagi f ni p deb talaffuz qilish uchraydi: *pilol>filol, penersiya>fenersiya, forma>forma* kabi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida ularni f bilan talaffuz qilish me'yor holiga kelgan.

2. So'z yoki bo'g'in boshida undosh tovushlarning qatorlashib kelishi turkiy tillarga xos emas. Bu hol esa keyinchalik boshqa tildan o'zlashgan so'z talaffuziga ham ta'sir qilgan – jonli so'zlashuvda so'z yoki bo'g'in boshida yoxud bo'g'indagi ikki undosh orasida bir unli orttirilishiga olib kelgan: *emkal* > *ilol-kab, sfukon* > *isfokon, plon* > *pilon, frantsuz* > *farafuz* kabi. Bunday holat so'z oxirida ham uchraydi: *arp* > *arpa, fikr* > *fikr-im* > *fikrim, nokm* > *nokum* kabi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida bunday so'zni asl holicha (unli orttirmay) talaffuz qilish orfoepik me'yor sanaladi. Bunday me'yor shu tipdagi so'zning yozuvdagi shaklini (tuloshini) to'g'ri belgilashga ham yordam beradi.

3. Umuman turkiy so'zda ikki unli yonma-yon qo'llanmaydi, bu hol arab tilidan o'zlashgan *oila, dars, nais, maorif, saodat, muxtalaa* kabi so'z talaffuziga ta'sir qilgan: *sila, asr, rais* so'zlarida bitta y orttirilgan (*soyila, doyir, rayis kabi*), *maorif, saodat, muxtalaa* so'zi esa unlining diftonglashuviga – *mu'rib saodat, muxtoja* kabi talaffuz qilinishiga olib kelgan. Keyingi bir asr ichida rus tildan so'z o'zlashtirishning faollashganligi ruscha o'zlashmaning rus tilidagi talaffuz va imlo me'yorini o'zbek tiliga aynan singdirish an'anasining ustun bo'lganligi o'zbek tilida ikki unlining so'z tarkibida yonma-yon kelishi orfoepik va orfografik me'yorga aylantirdi. *biologiya, geomorfiya, geologiya, geodeziya* va boshqa. Bu hol arabcha o'zlashmada (*oila, dars, rais, maorif, saodat, muxbus, muhalaa* kabilarda) ham ikki unlining yonma-yon talaffuz qilinishi va yozilishini me'yor darajasiga ko'tardi.

4. Arab tilidan o'zlashgan *ta'rix, da'vo, ma'no, e'lon, me'mor, mu'tabar* kabi so'zlarning birinchi bo'g'indagi unli cho'ziqroq talaffuz etiladi.

5. Rus tilidan o'zlashgan so'zda i unlisi o'zbek tilining i unlisidan torroq va cho'zgroq talaffuz etiladi: *tish* (o'zb.) – *tip* > *t'p* (rus.), *fil* (o'zb.) – *fir* > *fi'r* (rus.) kabi.

6. Ruscha leksik o'zlashmaning urg'usiz bo'g'indagi e unlisi o'zbekcha e dan ancha tor (i ga yaqin) talaffuz etiladi: *telefon* > *tilifon, televizor* > *tivizir, adres* > *adris* kabi.

7. Rus tili orqali o'zlashgan so'z ca a unlisi o'zbekcha a dan yo'g'onoq talaffuz etiladi: *kanal* (o'zb.) – *kanal* (rus.) kabi.

8. Rus tilidan o'zlashgan so'zdagi o'rta keng talaffuz qilingan o unlisi urg uli bo'g'inda o zbek tilidagi o'rta keng, talaffuz qilingan o' dan kengroq talaffuz etiladi: *kon* (rus.) – *ko'n* (o'zb.), *rok* (rus.) – *rok* (o'zb.), *god* (rus.) – *ro'd* (o'zb.) kabi.

9. Jonli tilda r bilan boshlangan arabcha, forscha va ruscha so'zlarning hoshida bir o' tovushining orttirilishi ancha keng tarqalgan. ro'zg'or/roziza, rus.-fr. ris. ro'mol/ro'rmol kabi. Adabiy talaffuz me'yori sifatida r'o'z. rus. ro'mol shakllari sanalangan.

10. Rus tilidan o'zlashgan so'zning oxirida lab-tish v undoshi jarangsiz f larzida talaffuz qilinadi: *aktiv* > *aktif*, *passiv* > *passif*, *ustav* > *ustaf*, *kursiv* > *kursif* kabi. v ning jarangsizlanishi so'z ichidagi assimilyatsiya hodisasida ham yuz beradi: *avtomat* > *aftomat*, *stavka* > *stafka* kabi. Bunday talaffuz adabiy hisoblanmaydi.

11. Rus tilidan o'zlashgan so'zning ko'pchiligida urg'u erkin bo'ladi, bu hol o'zbek adabiy tili va talaffuziga ham singib bormoqda. *a'vtobus, trolle'ybus, ta'ksivoy* kabi.

12. O'zbek tilidagi urg'u asosan so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi, ammo ayrim o'zlashgan so'zlarda urg u so'zning oldingi bo'g'inlarida bo'lishi ham mumkin: *ba'mma, ja'mi, hami'sha, afsus'ki* kabi. Bunday holatlardan xabardor bo'lish adabiy talaffuz me'yoriga amal qilish imkonini beradi.

Mustahkamlash uchun savollar

1. Orfoepiya nima? 2. Talaffuz me'yori haqida gapiring. 3. "O'zbek tilining orfoepik lug'ati" haqida so'zlang. 4. "O'zbek adabiy talaffuz lug'ati" qanday lug'at? 5. Unli tovush talaffuzi haqida gapiring. 6. Undosh tovush talaffuzi haqida gapiring. 7. Boshqa tillardan o'zlashgan ayrim so'z talaffuzi qanday?

Topshiriq

So'zni to'g'ri talaffuz eting va qaysi qoidaga binoan talaffuz qilganingizni ayting: ***adabiyotchi, badbaxt, uch so'm, izsiz, xursand, go'sht, bo'lsa, kelsa, oshni, ishni, yuzni, u yerda, u yoqqa, bu yoqqa, til, tish, bil, qish, g'isht, xil, bilan, biroq, sira, tilak, gilam, gilos, kul, stirgul, yuk, kabi, qul, norg'ul, xulq, yozuvchi, o'quvchi, to'quvchi, oluv, qo'shuv, bo'r, to'r, ro'mol, qo'l, g'o'r, xo'r, qo'r, kam, katta, gap, gal, gazlama, qalam, qarg'a, qasida, g'am, g'alvir, xalq, xabar, xat, kotib, gov, govmish, qoshiq, qolip, qobil, g'ov, g'ovlamoq, muallim, soat, kitob, borib, yozib, savod, obod, ibtidoiy, ketdi, bora ber, ekkan, chiqqan, farzand, furajka, televizka, maqsad, taqsimot, to'qson, oqshom,***

qishlog'imiz, telpagim, angla. ulfat, faner, ferma, shkaf, stakan, oila, doir, rais, maorif. saodat, mutolaa, biologiya, geometriya, geologiya. geodeziya, ta'na, da'vo, ma'no, e'lon, me'mor, mo'tabar, telefon, adres aktiv, passiv, kursiv. shavkat, atlas, trolleybus, tramvay.

8- DARS
GRAFIKA

Yozuv haqida Yozuv – fikrning tashqi ifodasi. U orqali kishi o'z fikrini bir-biriga bildiradi, avlodga yetkazadi, yozuv orqali kishilar o'tgan voqea, shaxslar va urf-odat to'g'risida ma'lumot olib, madaniyat, fan, ijtimoiy hayotda bo'lgan voqealardan voqif bo'ladi.

Dastlabki yozuv rasm chizish (bu xil yozuv **piktografik yozuv** deyiladi. (**piktus** – "chizilgan", **graphe** – "yozaman" demakdir) bo'lgan. Bunda har bir rasm (yoki narsa) biror ma'noni ifodalagan (masalan, quyosh – kunduzni, oy – tunni, tepaga – baxtni).

Yozuvning keyingi davri – **ideografik** yozuvdir (grekcha "ideya" – "tushuncha", "graphe" – "yozaman"). Bunda bir yoki bir guruh tushuncha uchun bir xil ramziy shakl olinadi. Masalan, ko'z – O, asir – O, daraxt – Ж, oy – C kabi.

Piktografik va ideografik (uning birinchi bosqichi logografik – "so'z + yozaman") yozuv ancha murakkab bo'lib, minglab shaklni chizish va uning mazmunini bilishni talab etgan. Shuning uchun kishilar yozuvning yangi bosqichi – **fonografik** yozuvga – avvalo, ayrim bo'g'inni, keyinroq ayrim tovushni biror belgi bilan ifodalash usuliga o'tgan. Fonetik yozuvning kelib chiqishi **qadimgi finikiya** yozuvi bilan bog'liq.

Xalqlar fonetik yozuvni tiliga moslab o'ziga xos shaklini yaratib olgan: yunon, lotin, arman, gruzin, slavyan, arab yozuvi va uning ayrim o'zgargan turi kabi.

Qadimgi yozuv tosh, suyak, yog'och, qamish kabi qattiq jismga, so'ngra pergament va keyinchalik qog'ozga yozilgan. Yozuv o'ngdan chapga, chapdan o'ngga yoki yuqoridan pastga qarab o'qiladi.

O'zbek yozuvi tarixidan Markaziy Osiyo turkiylari, jumladan, o'zbek xalqi qadimdan yuksak madaniyatli xalq sifatida dunyoga tanilgan. Arab istilosiga qadar, Movarounnahrda run, turkiy (uyg'ur), sug'd, moniy va braxma suryoniy yozuvi qo'llanilgan.

Diniy mazmundagi asar braxma, suryoniy yoki moniy yozuvida, rasmiy hujjat runiy, turkiy (uyg'ur) yoki sug'd yozuvida yozilgan. Shu bilan birga, bu

yozuvning qo'llanishi ma'lum hudud, davr va xalq bilan ham bog'liq bo'lgan edi.

Qayd etilgan yozuvda bitilgan ko'p yozma yodgorlik hozirgacha saqlanib keladi. Runiy yozuvda – **O'rxun-Enasoy** (ba'zi adabiyotlarda **dulbarchin**) **tosh bitiklari**, turkiy (uyg'ur) yozuvda (uni Mahmud Koshg'ariy va Ibn Arabshoh "turkcha yozuv" deb nomlaydi) – **qadimgi turkiy yodnoma** (VII-X asrlar): "Oltin yorug'", "Maytri simit", **budda va xristian diniga oid yodnoma**, **yuridik hujjat**; sug'd yozuvida bitilgan yozma yodnoma esa 1906- yili ingliz olimi Arnold Steyn tomonidan topildi. Moniy yozuvida "Xuastuanift" yodgorligi yozilgan. Uyg'ur yozuvi arab yozuvi bilan barobar XV asrgacha qo'llanadi. "**Qutadg'u bilig**"ning **Vena** (**Hirot**) **nusxasi** (XI asr), "**Hibatul haqoyiq**" (**XII asr**)**ning Angara nusxasi**, "**O'g'uznoma**"**ning qadimiy nusxasi** (**XIII asr oxiri**), **Xorazmiyning "Muhabbatnoma"** (**1353- yil**) **asarining qadimgi nusxasi**, "**Latofatnoma**", "**Dahnoma**", "**Maxzanul-asror**" (**XIV-XV asr**) kabi asarning ayrim nusxasi yoki parchasi uyg'ur yozuvida bitilgan. Uyg'ur yozuvi sug'd yozuvi asosida kelib chiqqan arab va runiy yozuvidan farqli o'laroq, unli tovush ayrim harf bilan ko'rsatilgan. Runiy yozuvi ham qadimgi oromiy yozuvi asosida kelib chiqqan degan nazariya hozir asosiy o'rinni egallaydi.

Sug'diy yozuvda, asosan, eron tilida matn yozilgan. Tojikistonning Zahmatobod tumani Xayrobod qishlog'idan topilgan sug'diy yozuvdagi 74 hujjatdan bittasigina turkiy tilda yozilgan.

Suryoniy yozuvi Mesopotamiyada paydo bo'lgan. VII-VIII asrda Markaziy Osiyoda nasroniy (xristian) mazhabi bilan kirib keldi. Bu yozuv XV asrgacha qo'llandi.

Xatti boburiyning harf shakli Muhammad Tohir ibn Qosimning 1645- yili yozgan "Ajoyibot tabaqat" asarida keltiriladi.

Arab istilosi bilan birga kirib kelgan arab yozuvi (VIII asr) 1200 yildan ortiq davr ichida (1928- yilgacha) ba'zi islohlar bilan (1918-1920) qo'llanib keldi. Bu yozuvda minglab ilmiy, badiiy, diniy asar yaratildi, rasmiy hujjatlar tuzildi. Bizning O'zbekiston Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik institutida 40 mingdan ortiq arab alifbosida yozilgan asar saqlanadi. Arab alifbosi va bu alifboda yozilgan asar Oktabr to'ntarishidan keyin, ayniqsa, 30- yillarda qattiq ta'qib ostiga olindi. Natijada ko'p qimmatbaho qo'lyozma ko'mir, suvga oqizildi yoki ma'muriy idora tomonidan musodara qilinib, egalari qattiq jazoga mahkum etildi.

Arab yozuvining kufiy, nasta'liq va boshqa shakli (devoni, mag'rib, taliq) bo'lib, O'rta Osiyoda asosan nasta'liq shakli qo'llandi (Qur'oni Karim kufiy yozuvida yozilgan).

Oktabr to'ntarishidan so'ng arab alifbosi ma'lum darajada isloh qilindi. Chunki unda unli tovushni ko'rsatadigan alohida belgi yo'q edi. Zer, zabar

(harfning ost va usti da qo'llanadigan belgilar) faqat Qur'on va shunga o'xshash arab tilida yozilgan diniy asarlargina qo'llanar edi. 1921- yil 1–5- yanvarda Toshkentda chaqirilgan til-imlo qurultoyi, boshqa masala bilan birga, arab harfining so'z boshi, o'rtasi va oxirida qo'llanish shaklini sodda ashirdi, o'zbek tiliga xos bo'lmagan **sod, zod, riq, izg'i** harfini alifbodan chiqardi, **ts, ch, j, a** tovushi uchun alohida harf belgi andi. 1922- yil aprel oyida bo'lgan maorif va madaniyat xodimlarining ikkinchi qurultoyi ham birinchi qurultoy qarorini ma'qulladi.

1926- yil Bokuda turkiyshunoslar anjumani bo'lib (O'zbekistondan A.Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat qatnashdi), lotin alifbosiga o'tish to'g'risida qaror qabul qilindi. Bunga arab alifbosining turkiy til fonetik xususiyatini aks ettirmasligi va o'rganishning qiyinligi asos sifatida ko'rsatildi.

1926- yil 10- iyunda O'zbekiston Sovetlar ijroiya Komiteti lotin alifbosiga o'tish to'g'risida qaror qabul qildi. Qarorga asosan, "Yangi o'zbek alifbosini joriy qilish qo'mitasi" tuzilib, unga Y.Oxunboboyev rais, A.Ikromov, F.Xo'jayev, Elbek, Mayliy, Fitrat va boshqalar a'zo bo'ldi.

O'zbekiston Markaziy ijroiya Komitetining 1928- yil mart oyidagi III sessiyasi lotin alifbosini joriy qilishni ko'rib chiqib, uni davlat alifbosi deb qaror qabul qildi. Sobiq Sho'ro Markaziy Ijroiya Komiteti Prezidiumi bu qarorni 1929- yil 7- avgust kuni maxsus qaror bilan ma'qulladi.

1929- yil may oyida o'tkazilgan imlo qurultoyida Yunli shakl olingan bo'lsa-da, 1934- yil mart oyida o'tkazilgan imlo qurultoyi 6 unlining harf shaklini belgiladi.

1940- yil 8- may kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidiumi lotin alifbosidan kirillitsa (rus) alifbosiga o'tish to'g'risida qaror qabul qildi. Qarorda ish yuritish va vaqt matbuot yangi alifboga o'tishi va I, II, III sinfda yangi alifboni o'qitish 1940- yil 1- sentabrdan boshlanishi hamda yangi alifboga o'tish 2 yil ichida – 1942- yil 1- yanvargacha tugallanishi zaruriligi ko'rsatib o'tilgan.

Shunday qilib, deyarli hamma respublika va viloyat (o'zining qadimgi an'anaviy alifbosi bo'lgan Gruziya, Armaniston, Boltiqbo'yi respublikalaridan tashqari) yangi alifboga o'tdi.

1993- yil 2- sentabrda bo'lib o'tgan Respublika Oliy Kengashi lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy qilish to'g'risida" Qaror qabul qildi. 1995- yil 6–7- mayda Oliy Kengash bu alifboga ma'lum o'zgarishlar kiritdi va shu yil 24- avgustda "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash" haqidagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qaroriga Respublika Prezidenti imzo chekdi. 1996–1997- o'quv yilidan maktabning 1- sinfi yangi alifboni o'rgana boshladi. Yangi o'zbek alifbosiga o'tish 2005- yil 1- sentabrda tugallanishi ko'rsatilgan. Keyinchalik bu 2010- yilgacha uzaytirildi.

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi lotin alifbosidan keng foydalanishga asoslangan o'zbek alifbosiga o'tishda dunyo tajribasi va texnikasidan yutuqli foydalanib, o'zbek tilining nozik xususiyatini to'laroq ifodalash asosiy maqsad qilib qo'yildi.

Alifbo. Nutq tovushi til uchun moddiy baza sanaladi. Chunki insonni til tovushi tilidir. Tildagi so'z, ibora, gap, umuman, nutq ana shu tovush vositasida shakllanadi.

Har qanday tovush biror jismning havo to'lqinida tebranishi natijasida paydo bo'ladi. Nutq tovushi esa tovush paychasining tebranishidan hosil bo'ladi. Nutq tovushi — ijtimoiy hodisa. U faqat insoniyatga xos. Biz fikrimizni nutq tovushi yordamida bayon qilamiz.

Nutq yozma ravishda ham bayon qilinadi. Bu vaqtda yozma nutq harf ketma-ketligidan tashkil topadi. **Yozma nutqni shakllantiruvchi, boshqa bo'lakka bo'linmaydigan eng kichik grafik belgi harf hisoblanadi.**

Harf nutq tovushining yozuvdagi aksi, tasviri. Shuning uchun har bir tilda harf shu tilning tovushiga qarab o'rnatiladi. **Bir tovushga bir harfni to'g'ri keltirishga harakat qilinadi.**

Harflarni xotirada yaxshi saqlash va lug'at tuzishda ma'lum tizimlilikka amal qilish maqsadida u muayyan tartibda joylashtiriladi. **Muayyan tartibda joylashtirilgan harf tizimi alifbo deyiladi.**

So'zni alifbo tartibida joylashtirish amaliy ahamiyatga ega. Jumladan, lug'at, kutubxona kartotekasi, kishi familiyasi ro'yxatini tuzishda zarur.

Lotin grafikasiga asoslangan yangi o'zbek alifbosi quyidagi harflarni o'z ichiga oladi: **a, b, d, e, f, g, h, i, j, k, l, m, n, o, p, q, r, s, t, u, v, x, y, z, o', g', sh, ch, ng.**

Har bir unli tovush alohida-alohida harf orqali ifodalanadi. Undoshda bir tovushni ikki harf orqali ifodalash ham uchraydi: **sh, ch, ng** kabi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan 1993 yil 2-sentabrda tasdiqlangan lotin alifbosiga asoslangan yangi o'zbek alifbosida 29 harf va bir belgi (tutuq) bor.

O'zbek tilida jami 30 tovush mavjud. Shu tovushdan j (sirg'aluvchi) va j (portlovchi) tovushi bitta j harfiga birlashtirilgan.

ALIFBO

Aa	Ii	Pp	Xx
Bb	Jj	Qq	Yy
Dd	Kk	Rr	Zz
Ee	Ll	Ss	O'o'
Ff	Mm	Tt	G'g'
Gg	Nn	Uu	Shsh
Hh	Oo	Vv	Chch
			Ngng

Mustahkamlash uchun savollar

1 Yozuv nima? 2 Yozuvning ahamiyati qanday? 3 Pirografik yozuv qanday yozuv? 4 Ideografik yozuv haqida gapiring. 5 Logografik yozuv qanday yozuv? 6 Markaziy Osiyo yozuvi turlari haqida gapiring. 7 O'rxun-Enasoy yozuvi qanday yozuv? 8 Uyg'ur yozuvi qanday yozuv? 9 Arab yozuvi haqida gapiring. 10 So'g'diy yozuvi haqida gapiring. 11 Suriyoniy yozuvi haqida gapiring. 12 Xatti bobiriy qanday yozuv? 13 Arab yozuvi islohi haqida gapiring. 14 Arab kirillchasi fan qaysilar? 15 O'zbek lotin yozuvi tarixi haqida gapiring. 16 Yangi o'zbek lotin alifbosi haqida gapiring. 17 Alifbo nima? 18.Harf nima?

IMLO

Orfografiya grekcha so'g'ri yozmoq demakdir. **So'z o'zak-negizi va qo'shimchasini yagona tarzda yozish haqidagi qoida yig'indisi orfografiya deyiladi.** Orfografiya adabiy tilning yozma shakliga xos. Orfoepiya va alifbo (grafika) bilan uzviy bog'liq

Rivojlangan, o'z yozuviga ega bo'lgan adabiy tilda so'zni bir xilda – yagona tarzda yozishni yo'lga qo'yish uchun imlo to'g'risida qonun qabul qilinadi. «O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari» 1995- yil 24- avgustda qabul qilingan. U 92 paragrafdan iborat.

Eslatma

O'zbek yozuvi uchun hozirgacha 2 marta imlo qoidasi tasdiqlangan. Birinchisi 1956- yil 4-aprelda kirill yozuviga asoslangan o'zbek tilining imlo qoidasi bo'lib, 72 paragrafdan iborat bo'lgan.

Imlo to'g'risidagi qonunni ishlab chiqish murakkab jarayon bo'lib, bir nechta tamoyilga tayaniladi. Bu orfografiya tamoyili (prinsipi) deyiladi.

Orfografiyaning 5 tamoyili mavjud:

1) **fonetik yozuv;**
2) **morfologik yozuv:**
3) **shakliy yozuv;**
4) **tarixiy-an'anaviy yozuv;**
5) **farqlash yozuvi.**

Orfografiya tamoyili asli va talaffuzi muvofiq kelmaydigan holat uchun ishlatiladi. Masalan **kitob** so'zining talaffuzida b tovushi p tarzida eshitiladi. Demak, so'zdagi tovushning asli va talaffuzi farq qilganligi va so'z o'zlashma bo'lganligi uchun imloda shakliy yozuv qoidasiga tayaniladi. Yoki men so'zga -ning qo'shilganda asl holat **menning** bo'lishi kerak edi. Talaffuzda **mening** ko'rinishida. Demak, bunda tovushni tushirib yozishga asos bo'lgan qoidaga tayaniladi. Talaffuzi va imlosi bir xil so'zga yozuv qoidasi ishlatilmaydi.

Orfografiya tamoyili. Fonetik yozuv. O'zakka qo'shimcha qo'shilganda yuz beradigan tovush o'zgarishini yozuvda aynan aks ettirish, ya'ni qanday aytilsa, shunday yozish fonetik yozuv deyiladi. Masalan **ong** o'zagidan **-la** affiksi bilan yasalgan so'z **ongla** emas, **angla** shaklida beriladi, ya'ni o'zakdagi **o** o'rniga **a** talaffuz qilinar ekan, u xuddi shunday yoziladi. **Ishla** negizidan yasalgan **ishlovchi** so'zida **a** o'rniga **o** yoziladi.

Fonetik yozuv orfografiyani jonli talaffuzga yaqinlashtiradi. Yozuv va talaffuzda ma'lum darajada umumiylik saqlanadi.

Nutqda **tushdi** so'zi **tushti**, **tushgan** so'zi **tushkan** tarzida talaffuz qilinadi. Lekin bunday yozilmaydi. Ba'zan so'z oxirida bir undosh tushirilib aytiladi. **Samarqan, xursan, pas** kabi. Ammo bu holat yozuvda aks etmaydi. Bunday so'z imlosi boshqa tamoyilga bo'ysunadi.

Morfologik yozuv. O'zakka qo'shimcha qo'shilganda yuz beradigan tovush o'zgarishini inobatga olmaslik qoidasi morfologik yozuv deyiladi.

Masalan, **uchta** so'zi **ushta** **kelib turibdi** so'zi **kep turibti** tarzida aytiladi. Ammo ular asl ga muvofiq **uchta, kelib turibdi** deb yoziladi. Yoki **-lar** qo'shimchasining **-la, -lor, -nar** holida aytilishiga qaramay, asl holati yoziladi. Fe'lning noaniq shakli **-moq** qo'shimchasi og'zaki nutqda **-mak** aytilsa ham, **-moq** yoziladi. Hozirgi orfografiya talabi bo'yicha qo'shimchalarning deyarli hamma shakli morfologik yozuv bo'yicha yoziladi. Egalik affiksi: **-im, -ing, -i,** kelishik affiksi **-ning, -ni, -da, -dan,** so'z yasovchi hamda fe'lning aytilishidan qat'iy nazar, ularda o'zining asl morfologik shaklini saqlaydi.

Morfologik yozuv so'z va morfemani adabiy tilda yagona shaklda saqlash va vazifasini ko'rsatishga xizmat qiladi. Yozuvda bir xillikni ta'minlaydi.

Morfologik yozuvga oid yoziladigan o'zak-negizga oid eng muhim imlo qoidasi quyidagi:

1. Bir bo'g'indan iborat o tovushli yopiq bo'g'inli ba'zi o'zak-negizga **a** qo'shilib yasalganda o tovushi a tovushiga o'zgaradi: **ong – angla, ot – ata, son – sana, yosh – yasha** kabi.

2. Keyingi yopiq bo'g'inda **i** yoki **u** unlisi bo'lgan ikki bo'g'inli ba'zi o'zak-negizga **a** yoki **o** bilan boshlangan qo'shimcha qo'shilganda keyingi bo'g'indagi **i, u** unlisi aytilmaydi va yozilmaydi: **ulug' – ulg'aymoq, sariq – sarg'aymoq, og'iz – og'zaki, ikki – ikkov, olti – oltov** kabi.

3. Keyingi yopiq bo'g'inda **i** yoki **u** unlisi bo'lgan ikki bo'g'inli ba'zi o'zak-negizga egalik shakli qo'shilsa, keyingi bo'g'indagi **i, u** unlisi aytilmaydi va yozilmaydi: **og'iz – og'zi, burun – burni, o'g'il – o'g'li.**

4. Kelishik qo'shimchasi bilan tugaydigan ko'p bo'g'inli o'zak-negizga egalik shakli qo'shilsa, **k** tovushi **g, q** tovushi **g'** tarzida aytiladi va yoziladi: **istak – istagim, qishloq – qishlog'im** kabi.

5. Kishilik olmoshining birinchi va ikkinchi shaxs birligiga **-ning, -ni, -niki** qo'shimchasi qo'shilsa, yonma-yon kelgan ikki **n** tovushidan biri aytilmaydi va yozilmaydi: **mennng** emas, **mening, senning** emas, **sening** kabi.

6. Ko'rsatish olmoshlaridan **u, bu, shu** o'zagiga **-ga, -da, -day** affiksi qo'shilsa, bir **n** tovushi orttiriladi va shunday o'qiladi: **unga, undan, bunga, shunday** kabi.

7. Jarangsiz **s, t, ch** tovushi bo'lgan **isi, qot, achi** kabi fe'l o'zagiga **-q** qo'shilib sifat yasalganda, o'zakdagi undosh takrorlanadi: **issiq, qattiq, achchiq** kabi.

Morfologik yozuvdan chetlashib yoziladigan qo'shimchaning ayrim ikkitadan yettitagacha fonetik shakliga ega. Bu o'zak-negiz va qo'shimcha tarkibida **k, g, q, g'** undoshining mavjudligiga bog'liq.

1. **Ikki shaklda yoziladigan qo'shimcha**

-il, -l yozildi, qurildi, o'qildi, tarqaldi;

-in, -n kiyin, taran;

-iy, viy: jodiy, oilaviy.

2. Uch shaklda yoziladigan qo'shimcha

-ga, -ka, -qa: quyoshga, o'simlikka, xalqqa;

-gan, -kan, -qan: uchgan, likkan, boqqan;

-gach, -kach, -qach: singgach, to'kkach, oqqach

3. To'rt shaklda yoziladigan qo'shimcha

-gich, -kich, -g'ich, -qich: suzgich, chekkich, qirg'ich, bosqich;

-chak, -choq, -chiq, -chik: kelinchak, maqtanchoq, sirg'anchiq, o'rgamchik.

4. Olti shaklda yoziladigan qo'shimcha:

-gi, -ki, -gu, -g'u, -g'i, -qi: sevgi, turtki, ezgu, chelg'u, yoqilg'i, tashqi:

5. Yetti shaklda yoziladigan qo'shimcha

-gin, -kin, -gun, -kun, -g'in, -qin, -g'un, -qun: bezgin, kiskin, surgun, tushkun, ozg'in, tuyg'un, uchqun;

Demak, fonetik yozuv imloni talaffuzga, morfologik yozuv birlikning asl holatiga moslaydi

Tarixiy-an'anaviy yozuv. So'zning hozirgi talaffuz me'yoriga mos kelmaydigan, qadimdan o'zlashib qolgan shaklda yozilishi tarixiy-an'anaviy yozuv deyiladi. Boshqacha aytganda, so'z hozirgi holatiga ko'ra emas, balki an'ana tusiga kirib qolgan qoidaga ko'ra yoziladi. Chor Rossiyasi (asli цар), pudratchi (asli подрядчик), tamagir (asli ta'magir), taqiqlamoq (asli ta'qiqlamoq) kabi.

Hozirgi orfografiyada tarixiy-an'anaviy yozuv asosida yoziluvchi ba'zi shakl quyidagi.

1. Buyruq-istak mayl eski adabiyotimizda qo'llanib kelgan an'anaga ko'ra, she'riyat va nasr tilida ba'zan -gil, -g'il tarzida ishlatiladi. borgil // borg'il.

2. Maqsad ma'nosini anglatuvchi -gani shaklining -gali, -g'ali, -kali, -qali shakllari.

3. Hozirgi-kelasi zamon sifatdosh shaklini yasovchi -ur shakli.

Yulduzlar o'ziga bardosh beruvchan

Fazolar tafsiga qiyomgan tog'lar (A.Oripov)

4. -mu so'roq yuklamasi.

Sevgim tortib bo'lurmu

Tosh-u taroz bilan. (E.Vohidov)

Farqlash (differensiyalash) yozuvi. Talaffuzda bir-biridan ariq farqlanmaydigan yoki o'zaro farq deyarli sezilmaydigan qatlamga kelib qolgan so'z yoki qo'shimcha yozuvda maxsus qoida bilan ajratilib yozilishi **farqlash yozuvi** deyiladi.

Bu yozuv kam qo'llaniladi. Ayrim misol

1) o'zaro yaqin shakldosh so'z yozuvda ' (tutuq) belgisi yordamida farqlab qo'llanadi: **da'vo – davo, nash'a – nasha, she'r – sher, sur'at – surat, ta'qib – taqib**

2) ba'zi shakldosh so'zlar talaffuzda urg'u yordamida farqlanadi. Imloda bunday so'zga urg'u belgisi qo'yiladi: **átlas (karta) – atlás (mato), bánda (shayka) – bandá (qul)**

3) **-liq/-lik** qo'shimchasi: **bo'shlik – yuvosh, (ot) bo'shliq – fazo (ot), otalik – otaliq;**

4) **-liki/-li** qo'shimchasi: **paltoli – paltolik;**

5) **-chang/chan** qo'shimchasi: **mahsichang – ishchan;**

Shakliy (etimologik yoki grafik) yozuv. O'zlashgan so'zning qadimgi kelib chiqish holat ni yoki shaklini saqlab qolish asosida yozish **shakliy yozuv** deyiladi. Boshqacha aytganda, yozuvda o'zlashgan so'zning shakli saqlanadi. Masalan, **maorif, mutolaa, mushoira, muammo, va'da, she'r** kabi so'z ham shu yozuv asosida yozilgan. Rus tilidan o'zlashgan **bolshevik, komsomol, spravka, aeroflot, shtamp, shtraf, zoologiya** kab so'z shakliy yozuv asosida yozilmoqda. Shunisi muhimki o'zbek til talaffuzi uchun qiyin bo'lgan ba'zi bayinalminal so'z hozirgi orfografiya qoidasi bo'yicha istisno tariz da tilimizn ng talaffuz xususiyatiga moslab yoziladi va talaffuz qilinadi. Bunga **kiosk – kioska, propusk – propuska, otpusk – otpuska** kabi so'z misol bo'la oladi. Bu tip so'z ba'zan o'z holicha ham yozilmoqda. **bank, tank, disk** kabi

Ayni vaqtda orfograf ya lamoyili orasida uzviy aloqa ham mavjud. **Oilaviy, Navoiy** kab so'zning oxiridagi **-viy, -iy** qo shimchasi fonetik yozuvga ham shaklii yozuvga ham mos keladi.

Mustahkamlash uchun savollar

1.Orfografiya nima? 2.Fonetik yozuv haqida gapiring. 3 Morfologik yozuv qanday xususiyatga ega? 4.Shakliy yozuv haqida gapiring. 5. Tarixiy-an anaviy yozuv nima va unga misol keltiring. 6. Farqlash yozuvi haqida gapiring.

Topshiriq

Gaplardagi har bir so'zni fonetik tahlil qiling: 1. Sinovlarda men chiniqdim, qasamimga sodiqman. (Sh.Rash.) 2. Ikkovi vaisga raus tushib, shamolday gir aylanib turganlarida, oyog'i tirnoqdir tegib ketdi. (S.Nur.) 3. Talaffuzga chalingan bo'g'inlarning ikki uzilmasdanoq, undiriqsiz undoshlar o'qituvchi bilan izma-iz bolalar yo'lakka oqib chiqishdi. (S.Ahm.) 5. Issiq oyoq, choy poyimiz shularning bo'yinida. (J.Abd.) 6. Munavvar eng yaqin do stni ro'parada uchratgandek o'rnidan turib ketdi. (S.Ahm.) 7. Uni bunday ajoyibdan begar qo'rg'onga qaytarish. (S.Ahm.)

Tahlil tartibi:

1. So'zdagi tovush va harf soni.
2. Bo'g'in soni va turi (ochiq/yopiq, berkitilgan/berkitilmagan)
3. Unli tovush soni va tavsifi (labialangan/labiallanmagan, yuqori/o'rta/quyi, til oldi/til orqa)
4. Undosh tovush soni va tavsifi (hosil bo'lish o'rniga ko'ra, hosil bo'lish usuliga ko'ra, ovoz va shovqin ishtirokiga ko'ra)
5. Tovush o'zgarishi tavsifi (tovush o'zgarishining o'zak/qo'shimchada yuz berishiga ko'ra, yozuvda aks etish/etmasligiga ko'ra, ko'rinishi (tovush tushishi, orttirilishi, almashishi)ga ko'ra turi)
6. So'zning qaysi tamoyil asosida yozilganligi.

9-DARS
IMLO QOIDALARI

Imlo qoidalari haqida. Orfografiya, aytilganidek, to'g'ri yozish qonun-qoidasini o'rganadi. Buning asosini imlo to'g'risidagi qoida tashkil etadi. Qoidada to'g'ri yozishning deyarli barcha tomoni batafsil izohlanadi.

Lotin yozuviga o'tilgandan keyin bu yozuvda ham imlo to'g'risidagi qoida qabul qilish ehtiyoji tug'ildi va u 1935 yil 24 avgustda tasdiqlandi.

Hozirgi qoidalar tizimi 7 bo'lim, 82 paragrafdan iborat. Quyida faqat 31 paragrafdan keyingisini keltiramiz:

31. Yonma-yon keladigan undoshlarning imlosi

1) **baland, Samarqand, poyezd; do'st, artist, g'isht** kabi so'zlarda **d, t** tovushi ba'zan aytilmasa ham, yoziladi.

2) **metall, kilogramm, kilovatt, kongress** kabi o'zlashma so'z oxirida bir undosh aytilsa ham, ikki harf yoziladi. Lekin bunday so'zga xuddi shu tovush bilan boshlanadigan qism qo'shilsa, so'z oxiridagi bir harf yozilmaydi. **metall + lar = metallar, kilogramm + ni = kilogrammni** kabi.

32. ' = tutuq belgisi

1) **a'lo, ba'zan, ma'yus, ta'zim; ra'y, ta'b; e'lon, e'tibor, e'tiqod, me'mor, ne'mat, she'r, fe'l; Nu'mon.** shu'la kabi o'zlashma so'zda oldingi unli tovushning cho'ziqroq aytilishini ifodalash uchun qo'yiladi; **mo'jiza, mo'tadil, mo'tabar** kabi so'zlarda o' unlisi cho'ziqroq ayrilsa ham, tutuq belgisi qo'yilmaydi;

2) **in'om, san'at, qat'iy, mas'ul** kabi o'zlashma so'zda unli olding undosh(dan ajratib aytilishini ifodalash uchun qo'yiladi;

Asos va qo'shimcha imlosi.

33. Qo'shimcha qo'shilishi bilan so'z oxiridagi unli o'zgaradi:

1) **a** unlisi bilan tugagan fe'lga **-v, -q, -qi** qo'shimchasi qo'shilganda **a** unlisi **o** aytiladi va shunday yoziladi: **sayla – saylov, sina – sinov, aya – ayovsiz; sora – so'roq, bo'ya – bo'yoq; o'yna – o'yinoqi, sayra – sayroqi** kabi;

2) **i** unlisi bilan tugagan ko'pchilik fe'lga **-v, -q** qo'shimchasi qo'shilganda bu unli **u** aytiladi va shunday yoziladi: **o'qi – o'quvchi, qazi – qazuvchi, sovi – sovuq** kabi. Lekin **i** unlisi bilan tugagan ayrim fe'lga **-q** qo'shimchasi qo'shilganda bu unli **i** aytiladi va shunday yoziladi: **og'ri – og'riq, qavi – qaviq** kabi.

Eslatma.

1) Undosh bilan tugagan barcha fe'llarga **-uv** qo'shiladi: **ol – oluv, yoz – yozuv** kabi.

2) Undosh bilan tugab, tarkibida **u** unlisi bor fe'lga **-uq** qo'shiladi: **tuz – uzuq, yut – yutuq** kabi. Lekin **uyushiq, burushiq, uchuriq** (shuningdek, **bulduriq**) kabi so'zning uchinchi bo'g'inidagi **i** aytiladi va shunday yoziladi.

34. **k, q** undoshi bilan tugagan ko'p bo'g'inli so'zga, shuningdek, **bak, yo'q** kabi ayrim bir bo'g'inli so'zga egalik qo'shimchasi qo'shilganda **k** undoshi **g** undoshiga, **q** undoshi **g'** undoshiga aylanadi va shunday yoziladi: **tilak – tilaging, yurak – yuragim, kubok – kubogi, bek – begi; tayoq – tayog'i, qoshiq – qoshig'i, yaxshiroq – yaxshirog'i, yo'q – yo'g'i** kabi. Lekin ko'p bo'g'inli o'zlashma so'zga, bir bo'g'inli ko'pchilik so'zga egalik qo'shimchasi qo'shilganda **k, q** tovushi aslicha aytiladi va yoziladi: **ishtirok – ishtiroki, ocherk – ocherki, erk – erki, huquq – huquqim, ravoaq – ravnaq, yuq – yuqi** kabi.

35. Quyidagi qo'shimcha qo'shilish bilan so'zning tarkibida tovush orttiriladi yoki ortiladi:

1) **o'rin, qorin, burun, o'g'il, bo'yin, ko'ngil** kabi ba'zi so'zga egalik qo'shimchasi, **qayir, ayir** kabi fe'lga harakat shaklini yasovchi **-il** qo'shimchasi, **ikki, olti, yetti** sonlarga **-ov, -ala** qo'shimchasi qo'shilganda ikkinchi bo'g'indagi unli aytilmaydi va yozilmaydi: **o'rin – o'rnim, qorin – qorni, burun – burning, o'g'il – o'g'ling, ko'ngil – ko'ngli, yarim – yarmi; qayir – qayril, ulug' – ulg'ay, sariq – sarg'ay, ikki – ikkov, ikki – ikkala, yetti – yettov** kabi.

2) **u, bu, shu, o'sha** olmoshga **-da, -dan, -day, -dagi, -da, -gacha, -cha** qo'shimchasi qo'shilganda **n** tovushi qo'shib aytiladi va shunday yoziladi: **unda, bunday, shunda, o'shancha** kabi, bu olmoshlarga egalik qo'shimchalari quyidagicha qo'shiladi: **buningiz, o'shanisi** kabi.

3) **o, o', u,** e undisi bilan tugaydigan so'zga egalik qo'shimchasi quyidagicha qo'shiladi:

a) ko'pchilik so'zga egalik qo'shimchasi **-m, -ng, -si; -miz, -ngiz, -si** (yoki **-lari**) shaklida tovush orttirmay qo'shiladi. **bobom, bobong, bobosi; bobomiz, bobongiz, bobosi (yoki boboları); orzum, orzung, orzusi; orzumiz, orzungiz, orzusi** kabi.

b) **parvo, obro', mavqe, mavzu, avzo** so'ziga I, II shaxs egalik qo'shimchasi qo'shilganda **y** tovushi qo'shib aytiladi va shunday yoziladi: **parvoyim, parvoying; parvoyimiz, parvoyingiz, obro'yim, obro'ying; obro'yimiz, obro'yingiz** kabi; III shaxs egalik qo'shimchasi **parvo, avzo, obro', mavqe** so'ziga **-yi** shaklida, **xudo, mavzu** so'ziga esa **-si** shaklida qo'shiladi: **xudosi, mavzusi** kabi (**dohiy** kabi **y** undoshi bilan tugagan so'zga ham III shaxsda **-si** qo'shiladi: **dohiysi** kabi);

4) **men, sen** olmoshi **-ni, -ning, -niki** qo'shimchasi qo'shilganda qo'shimchadagi n tovushi aytilmaydi va yozilmaydi: **meni, mening, meniki; seni, sening, seniki** kabi.

36. Quyidagi qo'shimchalarning birinchi tovushi ikki xil aytilsa ham bir xil yoziladi:

1) **-bon, -boz** qo'shimchasi ba'zan **-von, -voz** aytilsa ham, hamma vaqt **-bon, -boz** yoziladi: **darvozabon, masxaraboz** kabi.

Lekin **-vachcha** qo'shimchasi hamma vaqt shunday aytiladi va yoziladi: **amakivachcha, xolavachcha** kabi;

2) o'tish va chiqish kelishigi qo'shimchasining, o'tgan zamon yasovchisi va III shaxs ko'rsatkichi **-di** qo'shimchasining boshidagi undoshi ba'zan **t** aytilsa ham, hamma vaqt **d** yoziladi: **ishda, misdan, keldi, kelmabdi** kabi.

37. Quyidagi qo'shimchalarning besh tovushi ikki yoki uch xil aytiladi va shunday yoziladi:

1) taqlid so'zdan fe'l yasovchi **-illa** (**chirilla, taqilla**) qo'shimchasi so'z tarkibida **v** yoki **u** tovushi bo'lganda **-ulla** aytiladi va shunday yoziladi: **shovulla, lovulla, gurulla** kabi.

2) nisbat shaklini yasovchi **-dar** qo'shimchasi jarangli undosh bilan tugagan bir bo'g'inli so'zga (**kel** so'zidan boshqa) shuningdek, **z** undoshi bilan tugagan orttirma nisbat yasovchisidan keyin qo'shiladi: **quvdir, egdir, kuldir, yondir; o'tkazdir, tomizdir** kabi. Qolgan barcha holda bu qo'shimcha **-tir** aytiladi va shunday yoziladi: **tiktir, kestir, uyaltir, chaqirtir** kabi;

3) jo'nalish kelishigi qo'shimchasi **-ga**, chegara bildiruvchi **-gacha**, ravishdosh shaklini yasovchi **-gach, -guncha, -gani, -gudek** sifatdosh shaklini yasovchi **-gan**, buyruq maylining II shaxs ko'rsatkichi **-gin**, shuningdek, **-guna** qo'shimchasi uch xil aytiladi va shunday yoziladi.

a) kundosh bilan tugagan so'zga qo'shilganda bu qo'shimchaning bosh tovushi k aytiladi va shunday yoziladi: **tokka, yo'lakkacha, ko'nikkach, zerikkuncha, to'kkani, kechikkudek, bukkan, ekkin, kichikkina** kabi.

b) unlidosh bilan tugagan so'zga qo'shilganda bu qo'shimchaning bosh tovushi q aytiladi va shunday yoziladi: **chopiqqa, qishloqqacha, yoqqach, chiqquncha, chiniqqani, qo'rqquncha, achchiqqina** kabi.

d) qolgan barcha hollarda so'z qanday tovush bilan tugasa, undagi va bu qo'shimchaning bosh tovushi k yoki q aytilishidan qat'iy nazar, g yoziladi: **bargga, pedagogga, bug'ga, sog'ga, og'gan, sig'gancha** kabi.

3.3. Qo'shib yozish. Quyidagilar qo'shib yoziladi:

38. Xona, noma, poya, bop, xush, ham, baxsh, kam, umum, rang, mijoz, sifat, talab, xol, xo'r, xo'rak, xo'rlik, qaydnoma, qo'llanma, qo'shma, qo'shnoma, qo'shtirnoq, qo'shtirnoqli, qo'shtirnoqsiz, qabulxona, taqrizxona, taklifnoma, bodapoya, emmanoq, xushxabar, tomchimat, orombaxsh, kamquvvat, bug'doyrang, umumxalq, sovuqlojas, devsifat, sovetshunos

39. Qaytarilishi emas, ma'nosini ajratish uchun tugaydigan qo'shimchalar yoshroqsifat, orombaxsh, tabirgar, chiniquvan, ishyoqmas, qushqo'nmas kabi.

40. Tovushlarni so'zga qo'shimcha qo'shish yo'li bilan yasalganda: **pirpirak (pir-pir+ak), hayhayla (hay-hay+la), gijgijla (gij-gij+la)** kabi.

41. Narsani qimmatroq bo'lishga ishora qiluvchi so'zlar: **karnaygul, qo'ziqorin, otquloq, oybolta, devqomat, sheryurak, bodomqovoq, qirg'iyko'z** kabi.

42. Narsaning rangini, mazasini, o'zidagi biror belgisini ko'rsatuvchi so'zlar: **sutsifat, oltinsoch, qoramag'iz, oqsaroy, qizilishton, achchiqtosh, rangqovoq** kabi.

43. Narsaning biror maqsad uchun ishlatilishini bildiruvchi so'zlar: **kirsovun, qiymataxta, tokqaychi, oshrayhon, ko'zoynak, noiqo'ra, nosqovoq** kabi.

44. Narsani joyga nisbat berish asosida bildiruvchi qo'shma ot: **tog'olcha, cho'lyalpiz, suvilon, qashqargul** kabi.

45. Murakkab, abbreviatsiyadan bildiruvchi qo'shma ot: **kiryuvdi, kelintushdi, qoryog'di, Urdo'qmoq, Ochildasturchon** kabi.

46. Qaratqichli birikmaning bir so'zga aylanishi bilan yuzaga kelgan qo'shma ot: **mirg'oboshi, so'zboshi, olmaqoqi** kabi.

47. Tekinchi qism turdosh ot bilan yoki **obod** so'zi bilan fodalangan joy nomi: **Yangiyo'l, To'rtko'l, Mirzaobod, Xalqobod** kabi. Lekin ikkinchi qism atoqli ot bo'lgan joy nomi ajratib yoziladi: **O'rta Osiyo, Ko'hna Urganch, O'rta Chirchiq** kabi.

48. Rus tilidan aynan o'zlashtirilgan yoki so'zma-so'z tarjima qilish yo'li bilan hosil qilingan qo'shma so'z: **kinoteatr, radiostansiya, fotoapparat, elektrotexnika, teleko'rsatuv, yarimavtomat, bayramoldi, suvosti kabi**.

49. Qisqartmaning barcha tur va ulanishlarini qo'shimcha: **SamDU, ToshDUning** kabi. Lekin yonma-yon kelgan ikki qisqartma ajratib yoziladi: **O'zXDP MK** (O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi markaziy kengashi kabi).

50. Bir tovushdan iborat yuklamani undan oldin tovush tarzida aytilishi bunday holatlarni takror yozish bilan ko'rsatiladi: **yo'o'q, nimaa, himm, ufff** kabi.

3-4. **Chiziqcha bilan yozish.** Quyidagi holda so'z chiziqcha bilan yoziladi.

51. Juft so'z va takror so'z qismlari: **el-yurt, mehr-shafqat, qovun-tarvuz, omon-eson, kecha-kunduz, yozin-qishin, asta-sekin, uch-to'rt, o'n-o'n beshta (10-15 ta), bilinar-bilinmas, bordi-keldi, kuydi-pishdi, don-dun, oz-moz, mayda-chuyda, sidab-suldab, o'ylab-netib, so'ramay-netmay, kiyim-kechak, adi-badi, ikir-chikir, duk-duk, taq-tuq, qop-qop, ming-ming (ming-minglab), bitta-bitta (bitta-bittalab), baland-baland, chopa-chopa, ishlay-ishlay, yaqin-yaqinlargacha, hamma-hammasi, uy-uyiga, ich-ichidan** kabi.

Eslatma

1) juft so'zdan qo'shimcha yordamida yasalgan so'z ham chiziqcha bilan yoziladi: **baxt-saodatli, xayr-xo'shlashmoq** kabi.

2) juft so'z qismi orasida **-u (-yu)** bog'lovchisi kelsa, undan oldin chiziqcha qo'yiladi va juft so'z qismi ajratib yoziladi: **do'st-u dushman (do'st-dushman), kecha-yu kunduz (kecha-kunduz)** kabi.

3) yetakchi va ko'makchi fe'l bir xil shaklda bo'lsa, chiziqcha bilan yoziladi: **yozdi-oldi, borasan-qo'yasan, uxlaberaman-qolibman** kabi.

52. Belgini kuchaytiruvchi: **qip-qizil, yam-yashil, dum-dumaloq, kuppa-kunduzi, to'ppa-to'g'ri, bab-barobar** kabi so'z shakli chiziqcha bilan yoziladi, lekin **oppoq** so'zi qo'shib yoziladi.

53. So'zning **-ma, ba-** yordamida birlashgan qismi chiziqcha bilan yoziladi: **ko'chama-ko'cha, uyma-uy, rang-barang, dam-badam** kabi. Lekin mustaqil ishlatilmaydigan qism qatnashsa, bunday so'z qo'shib yoziladi: **ro'baro', darbadar** kabi.

54. Rus tilidan aynan yoki so'zma-so'z tarjima qilish yo'li bilan olingan so'z asliga muvofiq chiziqcha bilan yoziladi: **unter-ofitser, kilovatt-soat** kabi.

55. **-chi, -a (-ya), -ku, -u (-yu), -da, -e, -ey (-ey)** yuklamasi chiziqcha bilan yoziladi: **sen-chi, boraylik-chi, sen-a, kutaman-a, bola-ya, mingta-ya, keldi-ku, kelgan-u, yaxshi-yu, yaxshi-da, qo'y-e, yashang-e, o'g'lim-ey, keldi-ey** kabi. Ammo **-mi, -oq (-yoq), -ov (-yov), -gina (-kina, -qina)**

yuklamas o'zidan oldin kelgan so'zga qo'shib yoziladi: **keliboq, o'ziyoq, ko'rganov, ko'rdiyov, mengina, qo'shiqqina** kabi.

56. Tartib son arab raqami bilan yozilsa, **-nchi** qo'shimchasi o'rniga chiziqcha (-) qo'yiladi: **7- sinf, 5-„A" sinfi, 3-, 7-, 8- sinf o'quvchilari, 60-yillar, 1991-yilning 1-sentabri** kabi. Tartib soni ko'rsatuvchi rim raqamidan keyin chiziqcha yozilmaydi: **XX asr, X sinf** kabi.

3.5. Ajratib yozish.

57. Qo'shma fe'lning qismi ajratib yoziladi: **sarf qil, ta'sir et, tamom bo'l, sotib ol, olib kel, olib chiq, miq etma** kabi.

58. Ko'makchi fe'l va to'liqsiz fe'l mustaqil ko'ldan ajratib yoziladi: **aytib ber, olib ko'r, so'rab qo'y, ko'ra qol, bera boshla, yiqila yozdi, kelgan edi, ketgan ekan, ketgan emish** kabi. Lekin mustaqil fe'l bilan yordamchi fe'l orasida tovush o'zgarishi bo'lsa, bunday qism qo'shib yoziladi: **aytaver (ayta ber), boroladi (bora oladi), bilarkan (bilar ekan)** kabi.

59. Ko'makchi ajratib yoziladi: **shu bilan, soat sayin, borgan sari, bu qadar, kun bo'yi** kabi. Lekin bilan ko'makchisining **-la** shakli uchun ko'makchisining **-chun** shakli chiziqcha bilan yoziladi: **sen-la, sen-chun** kabi.

60. **Hamma, har, hech, bir, qay, u, bu, shu, o'sha** so'zi o'zidan keyingi yoki oldingi so'zdan ajratib yoziladi: **hamma vaqt, har kim, hech qaysi, qay kuni, u yerda, shu yoqdan, o'sha yoqqa** kabi. Lekin **birpas, biroz, birato'la, birvarakayiga, birmuncha, buyon** so'zi qo'shib yoziladi. Shuningdek, **qay** so'zi **yoq, yer** so'zi bilan ishlatilganda bir y tovushi tushsa, bu so'z qo'shib yoziladi: **qayoqqa, qayerda** kabi.

61. Sifat oldidan kelib, belgining ortiq yoki kamligini bildiradigan **to'q, jiqqa, tim, liq, lang, och** kabi so'z ajratib yoziladi: **to'q qizil, jiqqa ho'l, tim qora, liq to'la, lang ochiq, och sariq** kabi.

62. Murakkab son qismi ajratib yoziladi: **o'n bir, besh yuz, qirq ming olti yuz bir, bir ming yetti yuz sakson beshinchi** kabi.

63. **Yildan yilga, tomdan tomga** kabi bir xil qism chiqish kelishigida, ikkinchi qism jo'nalish kelishigida bo'lgan bikrma ajratib yoziladi.

64. Belgining ortiq darajasini bildiruvchi **ko'pdan ko'p, tekindan tekin, yangidan yangi, ochiqdan ochiq, qizigandan qizidi** kabilar ajratib yoziladi.

65. Izofali birikma ajratib yoziladi. Bunda izofa undosh bilan tugagan so'zlarga i shaklida, unli bilan tugagan so'zga yi shaklida qo'shiladi: **dardi bedavo, nuqtayi nazar, tarjimayi hol** kabi. Lekin izofa yozilmaydigan so'z, shuningdek, qismdan biri yoki har ikkisi o'zbek tilida mustaqil ishlatilmaydigan so'z qo'shib yoziladi: **gulbeor (guli beor), dardisar** kabi.

3.6.Bosh harf imlosi.

66. Kishining ismi, ota ismi, familiyasi, taxallusi, ramziy atoqli ot bosh harf bilan boshlanadi: **Dilbar, O'rinova, Muhabbat Majidovna, Azamat**

Shuhrat o'g'li, Hamza Hakimzoda, Muhammadsharif So'fizoda, Mannon Otaboy, Navoiy, Furqat, Yelpig'ichxon, Salomjon Alikov kabi.

67. Joy nomi bosh harf bilan boshlanadi: **Andijon, Yangiyo'l** (shaharlar), **Naymancha, Buloqboshi** (qishloq), **Bodomzor, Chig'atoy** (mahallalar), **Zavraq** (dara), **Yorqoq** (yaylov), **Qoratog'**, **Pomir** (tog'), **Oqtepa, Uchtepa** (tepa), **Zarafshon, Sirdaryo** (daryo), **Yoyilma** (kanal), **Turkiya, Hindiston** (mamlakat) kabi. Bunday atoqli ot tarkibidagi lalovchi ham bosh harf bilan yoziladi.. **Shimoliy Kavkaz, Markaziy Qizilqum** kabi.

68. Yulduz va sayyora, boshqa xil osmon jismining atoqli ot bosh harf bilan boshlanadi: **Hutkar, Qavs, Mirrix** (yulduz va sayyoralar nomi), **Tinchlik dengizi** (Oydagi relyef nomi) kabi. **Yer, quyosh, oy** turdosh bilan sayyora nomi bo'lib kelgandagina bosh harf bilan yoziladi: **Yer Quyosh atrofida, Oy Yer atrofida aylanadi.**

69. Madaniy-maishiy va savdo korxonasiga, adabiyot va san'at asariga, sanoat va oziq-ovqat mahsulotiga, shuningdek, transport vositasi, sport inshootiga qo'yilgan nom bosh harf bilan boshlanadi: "**Tong**" (mehmonxona), „**Saodat**" (firma), „**Navro'z**" (xaynya jamg'armasi), „**Kamalak**" (matbaa birlashmasi), „**G'uncha**" (bog'cha), „**Botanika**" (sanatoriy), „**Paxtakor**" (stadion), „**Qutlug' qon**" (roman), „**Dilorom**" (opera), „**Tanovar**" (kuy), „**Ozodlik**" (haykal), „**Jasorat**" (yodgorlik), „**Sino**" (sovutgich) kabi.

70. Muhim tarixiy sana va bayram nomi tarkibidagi birinchi so'z bosh harf bilan boshlanadi: **Mustaqillik kuni, Xotira kuni, Ramazon hayiti, Navro'z bayrami** kabi.

71. Davlat, davlat oliy tashkiloti va mansabining, xalqaro tashkilot nomidagi har bir so'z bosh harf bilan boshlanadi: **O'zbekiston Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Misr Arab Respublikasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Raisi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudining Raisi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon Tinchlik Kengashi** kabi.

Boshqa tarkibli nomda oliy mansabni bildiruvchi birinchi so'zgina bosh harf bilan boshlanadi: **Bosh vazirning o'rinbosari. Mudofaa vaziri. Yozuvchilar uyushmasi, O'zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi** kabi.

Vazirlik va idora, korxona va tashkilot nomi tarkibidagi birinchi so'z bosh harf bilan boshlanadi. **Sog'liqni saqlash vazirligi, Fan va texnika davlat qo'mitasi, Fanlar akademiyasi, Tilshunoslik instituti** kabi.

72. Davlatning oliy darajali mukofoti nomi tarkibidagi har bir so'z bosh harf bilan bosh-lanadi. „**O'zbekiston Qahramoni**" (unvon), „**Oltin Yulduz**" (medal);. Boshqa mukofot, faxriy unvon, nishon nomidagi birinchi so'zgina bosh harf bilan boshlanadi: „**Sog'lom avlod uchun**" (orden), „**O'zbekistonda**

xizmat ko'rsatgan fan arbobi" deyish umum... „Matbaa a'lochisi" inshoni) kabi.

73. Gapning birinchi so'zi bosh harf bilan boshlanadi: **Yer tagidan Muqaddasga bir qarab oldim.** (O. Yoqubov).

Eslatma:

1) ko'chirma gapdan keyin kelgan muallif gapining birinchi so'zi, agar u oldingi bilan mazmuniy jihatdan bog'lanmagan bo'lsa, kichik harf bilan yoziladi: **„Bu men", – qo'rqibgina javob berdi kelgindi.** (O. Yoqubov).

2) xalqlar, millatlar, elatlar nomini bildiruvchi qo'shimchalar bosh harf bilan yoziladi: **o'zbek, qozoq, rus, tatar, koreys, nemis, ingliz, fransuz** kabi.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rishga tayyorlash vaqtida tegishli organ (mansabdor shaxs) quyidagi masalani:

– protokol tuzish kimga chiqish uning huquq doiralariga kirish-kirmasligini;

– ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi protokol va ishga oid boshqa material to'g'ri tuzilgan-tuzilmaganligini ... hal qiladi;

3) gapning qismlari qaysi raqam yoki qavslar bilan qo'yib ajratilsa, shunday qism ham harflar bilan yoziladi:

Hozirgi o'zbek adabiy tilining lug'at boyligi asosan besh manba negizida tarkib topgan. 1) umumturkiy so'z, 2) o'zbekcha so'z; 3) tojik tilidan kirgan so'z, 4) arab tilidan kirgan so'z; 5) rus tilidan kirgan so'z (O. Usmonov va boshqalar darsligidan);

74. Tarkibi ravoning bosh harfidan iborat qisqartma talaffuz qilinmagan bo'lsa, bunday qisqartmalar bosh harflar bilan yoziladi: **AQSH (Amerika Qo'shma Shtatlari), BMT (Birlashgan Millatlar Tashkiloti), AES (atom elektr stansiyasi)** kabi. Qisqartma tarkibida bo'g'inga teng qism bo'lsa, uning birinchi harfigina bosh harf bilan yoziladi: **ToshDTU** (Toshkent davlat texnika universiteti) kabi.

3.7. Ko'chirish qoidasi.

75. Ko'p bo'g'inli so'zning oldingi satrga sig'may qolgan qismi keyingi satrga bo'g'inlab ko'chiriladi: **to'q-son, si-fatli, sifat-li, pax-takor, paxta-kor** kabi. Turdosh otdan oldingi bo'g'inda qoldirilmaydi: **va'-da, ma'-rifat, mash'-al, in'-om** kabi.

76. So'zning besh yoki ortiqroq bo'g'ini bir harfdan iborat bo'lsa, quyidagicha ko'chiriladi:

1) so'z boshidagi bir harfdan iborat bo'g'in yolg'iz o'zi oldingi satrda qoldirilmaydi: **a-badiy emas, aba-diy, e-shikdan emas, eshik-dan** kabi;

2) so'z oxiridagi bir harfdan iborat bo'g'in yolg'iz o'zi keyingi satrga ko'chirilmaydi: **mudofa-a emas, mudo-faa, matba-a emas, mat-baa** kabi.

77. O'zlashma so'zning bo'g'in chegarasida kelgan ikki yoki undan ortiq undosh quyidagicha ko'chiriladi:

1) ikki undoshli kelsa, ular keyingi satrga: **grafika, grammatika, monografiya** kabi;

2) uch undoshli kelsa, birinchi undoshni oldingi satrda qoldirib, qolgan ikki undoshni keyingi satrga ko'chiriladi: **sirk-dirk** kabi.

78. Bir hovushni ko'rsatuvchi harflar birikmasi (sh, ch, ng) bo'linmaydi: **pe-shayvon, pe-shona, mai-shat, pi-choq, bi-chiqchi, si-ngil, de-ngiz** kabi.

79. Bosh harfdan yoki bo'g'inga teng qism va bosh harfdan iborat qisqartma, shuningdek, ko'p xonali raqam satrdan satrga bo'linib ko'chirilmaydi: **AQSH, BMT, ToshDU, 16, 245, 1994, XIX** kabi.

80. Harfdan iborat shartli belgi, o'lchov birligidan oldin kelgan son bo'g'inga bo'linmaydi: **5-A sinf, V „B" guruhi, 110 gr, 15 ga, 105 m, 25 sm, 90 mm** kabi.

81. Atoqli otlarda kirish qismidagi son bo'g'inga bo'linmaydi: **„Navro'z–92", „O'qituvchi–97", „Toshkent–98", Andijon–97", „Termiz–15", „Do'stlik–767", „Bolinq–767", „Foton–774"** kabi.

82. **A.J.Jabborov, A.O.Abduvaliyev** kabi ism va familasi harflari bilan boshlanuvchi qisqartma fan soyasidan joy ko'chirmaydi. Shuningdek, **v.b.** va **boshqalar** kabi harfiy qisqartma ham oldingi so'zdan ajratib ko'chirilmaydi.

Mustahkamlash uchun savollar

1. Imlo qoidasini izohlab bering. 2. Ismlar va qo'shmachalar qanday so'zlarga qo'shiladi? 3. Qo'shma otlarning imlosini izohlang. 4. Ayrim gazeta nashrlarida ko'proq uchraydigan bitishib yozish holatlari. Ularga misollar keltiring. 5. Bo'g'in ko'chirish qoidasini qanday? 7. Bosh harf imlosi haqida gapiring.

Topshiriq

1. Berilgan so'zlarni izohlang.

o'rik, qo'ra, burga, o'g'il, bo'yin, ko'ngil, qayin, ayol, ikkov, yetti uzoyin, uzoyinq, uzuq, parvoliq, tuzuqsiz, oltin xalq, qovoq'iniz, qora bug'iz, avzosi, mavzui darvozavon, maskanavoz, anjuman, xolabachcha, ishla, nistan, katti, kamandi, shaxsla, lavda, guch, tiqur, kasor, tokga, yo'lakgacha, ko'nikgach, zerikguncha, tokgan, kechikguncha, hukqan, ekgin, kichikgina chopiqya, qishloqgacha, yaqqach, chiqquncha, tanika, paxsagakka, buqqa, siqquncha, qaqur xona, tabrik nama, beda paya, omma bop, yosh xabar, nom suhbat, orqa bakan, kan, quvvat, bug'doy rang, omuz xalq, sovuq mojaz, dov sifat, sav lakab, pir orak kamay dal,

qo'zg'alon, ol qutqu, oy halla, ovi qonat, sher yurak, bodom qovuq, arg'iy ko'z, ola qarg'a, ozil ishton, achchiq tosh, ming oyoq, kir savat, qiyma taxta, tok qaychi, osh qozon, ko'z ayrak, mum qo'g'a, nos quvoq, lag'ildak, chol yalpiz, suv ilon, qashqar gul, kir yuvish, kelin-tushdi, qor yog'di, U to'qmoq, Qobil dastarxon, o'roq bosh, so'z bosh, ammo qor, Yangi yo'l Toshkent, Mirza obod, Xalq obod, O'rtacha, Ko'hnaurgench, O'zbekiston qor qop, rang rang, bola bola, bolam bolam, chopa chopa, ishlay ishlay, yaqin yaqinlarga cha, bamaxi ammo, ... ay ... iqa, ko'chalar, baxt saodat, xayr xo'shlashmoq, do'st dushman, kechayu kunduz, kechakunduz, yozdi oldi, borasiz qo'yasiz, oxtaxmon qolbmon, qipqizil, yam-yashil, dum dumaloq, kuppa kunduz, to'pponcha to g n, babbarobar, ko'cha-ko'ko'cha, rangbo-rang, dumba dum ro' baro', qor bodan, zo'rdi, bonyakin, sona, kulmoqda boraya o'ngboya keldiku kelgandi, yaxshiyu yaxshida qo'yar, yashashga o'g'limay keldiy, kelibsiz o'ziyoq ko'rgan-ov ko'rd-yov ... r gimiz, qo'shuqmiz, ... sa' ... A' ... ndi, 3 ... 7 ... 8 yil o'quvchisan, 65 yil ... 1991 yildagi Prezidentlik saylov tashviqot jamoasi sohibi, ombori, olibchiq, mustaqil hukumatsiz, harkim hechqaysi, qaykuni, shuyaqdan, o'shoyoqqa ta pas, bir oz, bira to'la, bu vaqtgacha, bir marotaba, bu yan, to'qqizi, joqqahol, singare bolsila ingachun, orasaniq ko'pdan-ko'p, lokindan-lokin, yangidan-yangi, achiydan-achiq, qizigandan-qizidi, O'zbekiston respublikasi, Rossiya federatsiyasi, Misr arab Respublikasi, O'zbekiston respublikasi prezidenti, O'zbekiston respublikasi Oliy majlisining raisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining raisi, Birlashgan millatlar tashkiloti jahon pochtasi kongressi, Bosh Vazirning O'rinbosari, Mudofaa Vaziri, Yozuvchilar uyushmasi, O'zbekiston Milliy Tiklanish Demokratik Partiyasi, Sog'liqni Saqlash Vazirligi, Fan va Texnika Davlat Qo'mitasi, Fanlar Akademiyasi, Tilshunoslik Instituti.

2. Xalqni qaysi qoida asosida tuzalganligingizni qaysi ishda bering.

10- DARS
LUG'AVIY VA GRAMMATIK MA'NO

Leksikologiya grekcha **lexis** - "so'z", **logos** – "ta'limot" so'zidan olingan bo'lib, "so'z haqida so'z", "so'z haqida ta'limot" demakdir. Anglash lozim, leksikologiya –tilning so'z boyligi, lug'at tarkibi, so'zning lug'aviy ma'nosi, so'z ma'nosining o'zgarishi, ya'ni kengayishi, torayishi va ko'chishi, so'zning shakli va ma'no munosabati, qo'llanish davri va doirasiga ko'ra turlari o'rganuvchi va o'rgatuvchi soha.

Leksikologiya semasiologiya frazeologiya, etimologiya, leksika kabi sohani o'z ichiga oladi.

1. **Semasiologiya** so'zni ma'no jihatdan o'rganadi. So'zning ma'no turi, lug'aviy va grammatik ma'no, bir ma'nolilik va ko'p ma'nolilik, o'z va ko'chma ma'no kabilar tadqiq qilinadi.

2. **Frazeologiya** ibora va uning ma'no tarkibi, turi kabi bilan shug'ullanadi.

3. **Etimologiya** so'zning kelib chiqish masalasi bilan mashg'ul bo'ladi. Yasama, qo'shma va xorijiy tildan o'zlashtirilgan so'z bilan ham qiziqadi. Etimologiya so'zning har ikki tomoni, ya'ni shakli va ma'nosini hisobga oladi.

4. **Leksika** tildagi so'zning lug'at tarkibini – o'z va o'zlashgan qatlam, fan va nafaqat so'z, so'zning qo'llanish davri va doirasiga ko'ra turini ham o'rganadi. Bundan tashqari, leksikologiya onomastika, toponim ko, onomastika kabi bo'limni ham o'z ichiga oladi. Bu bilan, ko'pincha, tilshunoslik mutaxassisi shug'ullanadi.

Leksikologiya tilshunoslikning boshqa bo'limlari bilan hevosla bog'langan. Tovush bo'lmasa, so'z bo'lmaydi. Bu leksikologiyaning fonetikaga aloqasini ko'rsatadi. So'z bo'lmasa, grammatikaning ham bo'lishi mumkin emas. Bu leksikologiya va morfologiya aloqasiga doir.

So'zni nutqda maqsadga muvofiq qo'llash nazarda tutilsa, leksikologiya uslubiyot bilan ham bog'lanadi. Demak, leksikologiya tilning barcha bo'limlari bilan aloqador.

So'z va ma'no. Leksikologiyaning o'rganish manbai, ya'ni obyekti bo'lgan so'zni tushuncha va ma'nosiz tasavvur qilib bo'lmaydi. So'z tovush orqali shakllanishi va ma'no anglatishi bilan birga tushuncha ifodalash xususiyatiga ham ega. **Chunki tushuncha narsa va predmet, voqea va hodisani muhim belgisi asosida boshqa barcha narsa va predmet, voqea va hodisadan ajratadigan fikr shakli.** Ularni shu narsa va hodisa, uning xususiyati orasidagi ma'lum bog'lanishni ongda aks ettiradi. Kishining fikrlashi tushuncha asosida vujudga keladi. Shu ma'noda, so'z - tushuncha ning tildagi ifodasi. So'z orqali predmet va hodisa bir-biriga qiyos qilinadi va shu yo'l bilan uning umumiy va xususiy belgisi ajratiladi.

Masalan, hozirgi o'zbek tilida **daraxt** so'zi umuman daraxt haqidagi tushunchani bildiradi. Ayni zamonda bu so'z meva li va mevasiz daraxtni meva li daraxtdan olma, o'rik, shaftolini, shaftolidan oqshaftoli yoki anjir shaftoli kabi tushunchani ham ifodalashi mumkin. Misoldan ko'rinadiki tushuncha doirasi qancha ik kengaygan sari predmet haqidagi tasavvur ham kengayib boradi, shu predmetni anglatgan so'z ma'nosida ham kengayish yuz beradi.

So'z ma'nosi nima?

Narsa va predmet, voqea va hodisa yoki ular orasidagi munosabatning so'zda aks etishi so'zning ma'nosi deyiladi. Boshqacha aytganda, u so'zning borliqdagi narsa va hodisa (narsa-shaxs, belgi, miqdor, harakat) ni bildirishi, nimaningdir atamasi, nomi bo'lishidir.

Odatda, predmet yo hodisaga duch kelinganda dastlab u tanish predmet bilan qiyoslanadi va shu asosda yangi predmet yoki hodisaning biror muhim belgisi (xususiyati) ajratiladi. Ana shu muhim belgi narsa va predmetga nom berish uchun asos bo'ladi, bu nom so'zning ma'nosini tashkil qiladi. Bular, ayniqsa, ildizdagi barcha yasama so'zda yaqqol ko'rish mumkin: **ishchi** – "ishlaydigan", **tomchi** – "tomadigan", **guliston** – "gul o'sadigan", **qumtepa** – "qum uyumi" kabi.

So'z gapdagi vazifasini grammatik shakllanganda ro'yobga chiqaradi. **Biz litseyda o'qiymiz** gapi grammatik shakllar (**Biz, litsey, o'qi**) holida fikr ifodalay olmaydi.

Demak, so'zning mohiyatini tushunmoq uchun uning fonetik, semantik, grammatik tomonlariga e'tibor berish kerak.

Yuqoridagi fikrlar kelib chiqib, so'zga quyidagicha ta'rif beriladi: **tugal shakllangan ma'lum ma'no bilan bog'langan tovush yoki tovush birikmasidan iborat til birligi so'z sanaladi.**

So'zning ma'nosi murakkab bo'lib, uning bir nechta tipi mavjud. Eng avvalo, ma'noning lug'aviy (leksik) va grammatik ma'no turini farqlash kerak.

So'zning borliqdagi qanday narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat holatini bildirishi uning lug'aviy (leksik), ya'ni atash ma'nosi deyiladi. Masalan, non – "ozuq-ovqat", **keldi** – "harakat". So'zning leksik ma'nosi uning o'zak, negizida bo'ladi. Ba'zi bir so'zda lug'aviy ma'no bo'lmaydi: **lekin, bilan, va, ammo, uchun, sari** kabi. Faqat mustaqil so'zgina atash ma'nosiga ega bo'ladi. Olmosh bundan mustasno. Biz ta'kidlamoqchi bo'lgan mustaqil so'zning atash ma'nosiga ishora qiladi.

Grammatik ma'no. So'zning biror so'z turkumiga xos belgisi, so'z birikmasi va gapdagi vazifasini ko'rsatuvchi xususiyati grammatik ma'no deyiladi. Masalan, biror so'z ot turkumiga, uning turdosh, aniq yakka turiga mansub, biror kelishikda va ma'lum bir egalik qo'shimchasini olgan, shuningdek, so'z birikmasida ergash so'z, gapda to'ldiruvchi bo'lib kelgan. Sanalgan xususiyatning barchasi ot turkumiga mansub bu so'zning grammatik ma'nosidir. Demak, so'zning morfologik va sintaktik xususiyati uning grammatik ma'nosini tashkil etadi.

Grammatik ma'no juda ko'p so'z uchun bir xil, ya'ni umumiy bo'ladi. Shuning uchun uni umumiy ma'no deyishadi. Bir xil grammatik ma'noli so'z juda ko'p. Lug'aviy ma'no esa har bir so'zda alohida.

So'z va leksema. So'z va leksema farqlanadi. So'zning gap tarkibidan tashqandagi, grammatik qo'shimchasiz, alohida olingan ko'rinishi **leksema** deyiladi. Masalan, **kitob, o'qi, qizil, bir, ko'p, holbuki.** Bular gap tarkibiga kirsa, so'zga aylanadi: **Kitob qiziqarli ekan. O'qib chiqmoq bo'ldi odatim. Bir gapirib o'n kuladi. Holbuki orzulardan judo ham bo'lganim yo'q.** Leksemaning har bir so'z birikmasi, har bir gap tarkibidagi ko'rinishi alohida so'zdir. Masalan, til imizda bitta **kitob** leksemasi bor. Lekin uning har bir so'z birikmasi yoki gapdagi ko'rinishi alohida so'zdir. Shuning uchun tilimizda sanoqli leksema bor, so'zning miqdori esa cheksiz.

Lug'at leksemani tavsiflaydi, so'zni emas. Aks holda **kitobni, o'qidim, qizilroq** so'zi ham lug'atda berilar edi. O'zbek tilining 2 tomli izohli lug'atida 60 ming leksema tavsiflangan.

Qo'shimcha ma'no. So'zning lug'aviy ma'nosiga qo'shimcha tarzda kishining his-tuyg'u, kayfiyati, turli munosabati va so'zning turli xil uslubda qo'llana olishini ifodalovchi ma'no so'zning **qo'shimcha ma'nosi** deyiladi. Masalan **yuz, aft, chehra** sinonimik qatorida atash ma'nosi bilan qo'shimcha ma'no har xil. **Yuz** so'zidagi "betaraf", **aft** so'zidagi "salbiy" **chehra** so'zidagi "ijobiy" ma'no qirrasi - qo'shimcha ma'no.

Qo'shimcha ma'no asosan ikki xil:

a) hissiy ma'no (emotsional-ekspressiv);

b) uslubiy ma'no (stilistik).

Hissiy ma'no ham o'z navbatida so'zlovchining qanday munosabatini ko'rsatishga ko'ra ikki xil:

a) ijobiy;

b) salbiy.

Masalan, **chehra** so'zi yuzni ijobiy ma'no bilan ifodalaydi. **Turq** so'zi esa salbiy munosabatni ifodalaydi.

Ma'no qirrasining yuqori, o'rtacha ekanligini bildiruvchi ma'no ham mavjud. Masalan **kerak, lozim, shart, darkor** sinonimik qatorida **kerakka** nisbatan **lozim**ning, **lozim**dan ko'ra **shart**ning ma'nosi kuchli ekanligini anglash qiyin emas. Bu – uslubiy ma'no. Uslubiy ma'no so'zning nutq uslubidan biriga mansubligini ko'rsatuvchi, uni nutq uslubiga ko'ra tavsiflovchi xususiyati. Masalan, **bashar**, hur so'zi faqat badiiy uslubga xos. **Lozim** so'zi ilmiy, **darkor** so'zi badiiy uslubga xos. **kerak, shart** so'z – uslubiy betaraf. Uslubiy betaraf so'zni har qanday nutq vaziyatida ishlatish mumkin. Uslubiy xoslangan so'z ma'lum bir uslubda qo'llanadi.

Barcha so'z qo'shimcha ma'noga ega bo'lavermaydi. Qo'shimcha ma'no so'zning ma'no tarkibida bo'lishi ham, bo'lmasligi ham mumkin. Masalan, **novcha** so'zining atash ma'nosi – "baland bo'yli", qo'shimcha ma'nosi esa yo'q. **Naynov** so'zda leksik ma'no bilan birga salbiy munosabat ham mavjud.

Demak, faqat atash ma'nosiga ega va uslubiy xoslanmagan so'z xolis (neytral) so'z deyiladi.

Qo'shimcha ma'no so'zdagi kabi leksemada bo'lishi ham, bo'lmasligi ham mumkin.

Yuqoridagi fikrdan bir so'zda qanday ma'no bo'lishi mumkinligini quyidagicha ko'rsatish mumkin:

a) lug'aviy ma'no + grammatik ma'no + qo'shimcha ma'no: **bashara, chehra, hur, sevgi, naynov** kabi.

b) lug'aviy ma'no + grammatik ma'no: **kitob, stul, odam, ozod.**

d) grammatik ma'no + qo'shimcha ma'no: **darkor, -chun, -la, lek, yoxud**

e) faqat grammatik ma'no: **va, bilan, ammo, uchun** kabi.

Demak, leksik (atash) va qo'shimcha ma'no har qanday so'zda bo'lmasligi ham mumkin. Lekin grammatik ma'no har bir so'zda mavjud.

Mustahkamlash uchun savollar

1.Leksikologiya so'zining ma'nosi nima? 2.So'z nima? 3.Leksema nima? 4.Tushuncha nima? 5.Ma'no deganda nimani tushunasiz? 6.Lug'aviy ma'no haqida gapiring. 7.Grammatik ma'no qanday ma'no? 8.Umumiy ma'no haqida gapiring. 9.Xususiy ma'no haqida gapiring. 10.Qo'shimcha ma'no haqida gapiring. 11.Hissiy ma'no nima? 12.Uslubiy ma'no nima?

BIR MA'NOLILIK VA KO'P MA'NOLILIK. SO'Z MA'NOSI TARAQQIYOTI

Bir ma'nolilik va ko'p ma'nolilik. Leksema bir ma'noli va ko'p ma'noli bo'lishi mumkin. O'n, **Qarshi, telefon** so'zi bir ma'noni bildirganligi uchun bir ma'noli so'z deyiladi. Bir ma'noli so'z **monosemantik** so'z ham deb yuritiladi. Nutq jarayonida birdan ortiq ma'no bildiradigan so'z ko'p ma'noli so'z deyiladi. Masalan, **kitob** so'zi: 1) varaqdan tashkil topgan va muqovalangan bosma yoki qo'lyozma holidagi o'quv quroli"; 2) katta hajmli asarning qismi, bolim". Yoki **qo'zichoq** so'zi "qo'yning bolasi" va "aziz farzand" ma'nosiga ega.

Tildagi so'zning ancha qismi ko'p ma'noli, chunki kishi o'zining kundalik hayotida yangi paydo bo'lgan tushunchaning har biri uchun alohida-alohida so'z qo'llayveradigan bo'lsa, uning soni o'ta ko'payib ketib, xotirada saqlash mumkin bo'lmay qoladi. Natijada tildan foydalanish ham qiyinlashib, u sekin-asta yaroqsiz holga kelib qoladi.

Har qaysi tilda sanoqli til birligining turli xil bir kuvidan cheksiz tushuncha va fikrni ifodalashga narsa'al olinadi. Ana shunday harakat tufayli tilda ilgari

mavjud bo'lgan so'zga yangi yangi ma'no yuklanadi. Natijada ko'p ma'noli so'z hosil bo'ladi. Masalan, **tosh** so'zi dastlab «suv ta'sir qilmaydigan qattiq yoki ma'lum holdagi tabiiy jins» ma'nosiga ega bo'lgan. Yo'lda tosh yotibdi. Keyinchalik so'zdagi «qattiqlik» ma'no qirrasi faollashib, "g'ami ham yemir, o'ymaydigan" ma'nosi vujudga kelgan. **Tosh** ekan **bosh**im.

Nutq jarayonida ikki va undan ortiq ma'noda qo'llanuvchi so'z ko'p ma'noli yoki polisemantik so'z. Ko'p ma'nolilik hodisasi esa **polisemiya** deyiladi. **Polisemiya** grekcha poli «ko'p», **semio** «ma'no» so'zidan olingan bo'lib, ko'p ma'noli demakdir. Polisemiya monosemiya (grekcha mono bir, semio ma'noga) zidlanadi.

Qo'shimcha (hissiy va uslubiy) ma'no so'zni ko'p ma'noli qila olmaydi. Chunki u o'zi alohida tushunchani ifoda etmaydi, balki tushunchaga biror qo'shimcha ma'no ortiradi. Ko'p ma'nolilikka birinchi anglatgan tushuncha va tasavvurdan tashqari boshqasini anglatish asos qilib olinadi.

Ko'p ma'noli so'z qancha ma'noni bildirmasin, baribir o'sha predmet, hodisa, harakat orasida aloqa, umumiy belgi mavjud bo'lishi shart. Masalan, **bel** so'zi uch predmetni anglatadi. Ammo ular orasidagi o'xshashlikka asoslangan umumiy (o'rta qism) belgisi mavjudligi bir-biri bilan bog'lab turadi. So'zlarning. 1) **Avazxon olmos** po'latni **beliga** boylab, **o**tning **beliga mindi**; 2) **Ezilib ketadi** tog'larning **beli**.

Ko'p ma'nolilik so'zda ma'no qancha bo'lsa ham, u bir so'z bo'lib sanalaveradi. Ko'chma ma'no nutq tarkibida boshqa so'z bilan birgalanganda namoyon bo'ladi. So'z nutq tarkibidan chiqarilganda o'z ma'nosi ochiladi. Masalan, **tosh** so'zini nutq qurshovidan ajratib olinsa, «suv ta'sir qilmaydigan qattiq yoki ma'lum holdagi tabiiy jins» ma'nosini anglatadi.

Har qanday ko'p ma'noli so'z gapning ichida faqat bir ma'nosini anglatadi. Chunki bunda so'zlovchi bir ma'noni nazarda tutadi va gapdagi qolgan so'z ham boshqa ma'noni yuzaga chiqarmaydi.

Bir ma'noli so'z bilan kam va ilmiy, biror soha, kasb-hunar alamasini, shuningdek, yangi paydo bo'lgan so'zni o'z ichiga oladi. Yangi so'z (neologizm) nam davr o'tishi bilan ko'p ma'noni anglatishi mumkin. Masalan, **hakker** so'z neologizm bo'lib, kompyuter programmasi buzuvchisi ma'nosini anglatgan. Hozirgi paytda umuman buzg'unchi ma'nosini ham anglatmoqda.

Ko'p ma'noli so'zning ma'nosini bilish va undan nutq jarayonida o'rinli foydalanish nutqning ta'sirchan ifodali bo'lishiga yordam beradi.

So'z ma'nosi taraqqiyoti. Tildagi har qanday so'z paydo bo'lgan paytda bir ma'noni ifodalagan bo'lsa, keyinchalik esa ko'p ma'noni anglatib qolishi mumkin. Ba'zan buning aksi yuz beradi. Demak, so'z ma'nosi doimiy taraqqiyotda bo'ladi, o'zgarib turadi. **Vatan** so'zi dastlab tug'ilgan joy ma'nosini anglatgan. Bugungi kunda u respublika, davlat ma'nosini ham bildiradi. Bunday holni Ozarbayjon «

Bundagi burchak, kecha, yutuq, hoshlang'ich kabi qator so'zda ham ko'rish mumkin. Shuningdek, qarindoshlik bildiruvchi ota, ona, xola, amaki kabi so'zlarning keng ma'noda hurmat ifodalovchi sifatida qo'llanishi ham ma'no kengayishiga misol bo'ladi. Shuningdek, atoqli otning turdosh otga o'tishi ma'no kengayishidir: **Amper – amper, Rentgen – rentgen** kabi.

Davr o'tishi bilan ko'p ma'noni bildiruvchi so'zning ma'nosi kamayishi mumkin. Masalan, **ichkari** so'zi avval biror narsa yoki binoning ichki qismini nomlab kelganining xabarchisi hozirda faqat bir ma'noda qo'llanadigan. Lekin **mato** libos yoki narsaning ichki qismini bildiradi xolos. Kiyik so'zi, qari barcha yirtqich hayvonga nisbatan ishlatilgan bo'lsa, hozir faqat ehuni **pivo** so'zi avval ichimlikning har qanday turini bildirgan bo'lsa, hozir esa faqat bir turini ifodalaydi.

Turdosh otning atoqli otga ko'chishi ham ma'no torayishiga olib keladi: **qo'rg'at – Po'lat, bolta – Bolta, kumush – Kumush,** bahor – Bahor kabi.

So'z bir necha ma'noni bildirar ekan, uning birlamchi va ravonchalik ma'nolari farqlanishi kerak. Shunga asosan ma'no turlari quyidagicha bo'ladi:

a) o'z, ifodali ma'no;

b) ko'chma (nisbiy) ma'no.

O'z ma'no atamasi deganda ko'pincha **predmetga bog'liq bo'lmagan holda tushuniladigan ma'no** nazarda tutiladi. Masalan, **ko'z** – "ko'rish a'zosi", **oxta** – "oq rangni ko'k beruvchi o'simlik", **to'qimoq** – "gazmol yoki buyum yasamoq, tayyorlamoq" kabi.

So'zning o'z ma'nosidan boshqacha – o'xshatish, mubolag'a, kinoya kabi usul bilan boshqa ma'noda qo'llanishi natijasida ko'chma ma'no hosil bo'ladi: **ko'z** – 1) "yog'ochning qovuq joyi"; 2) "uzukning yalt etib turadigan qismi"; **to'qimoq** – "yo'q yerdan o'ylab chiqarmoq" kabi. Ko'chma ma'no ham o'z ma'no kabi har xil manbada kuchli deb olingan: **yasama ma'no, hosila ma'no, erkin ma'no** va hokazo.

Ko'chma ma'no gap tarkibidagi boshqa so'z yordamida anglashiladi. Masalan: *U bu gaplarni o'zi to'qigan jumlasidagi* **to'qimoq** so'zining "yo'q yerdan o'ylab chiqarmoq" ma'nosi undagi gaplarni so'z yordamida anglashadi. **Derazaning ko'zi** sindi gapidagi ko'z so'zining "kesik" ma'nosi **deraza** va sindi so'z yordamida yuzaga chiqmoqda.

Bir so'zda o'nlab ko'chma ma'no bo'lishi mumkin. So'zning ko'chma ma'nosi faqat matn orqali, gapdagina aniqlanadi.

Aytilganidek, o'z va ko'chma ma'no deganda qo'shimcha ma'noni tushunmaslik kerak. Bir so'zning o'z va ko'chma ma'nosining alohida-alohida

qo'shimcha ma'nosi bo'lishi mumkin. Masalan, yuqorida aytib o'tilgan to'qimoq so'zining o'z ma'nosida (gazmol to'qimoq) qo'shimcha ma'no yo'q, lekin ko'chma ma'noda esa salbiy ma'no borligini anglash qiyin emas.

So'zning ko'chma ma'nosi – til taraqqiyoti mahsuli. Har qanday so'z vaqt o'tishi bilan ko'chma ma'noli bo'lib qolib qoladi mi? Ko'chma ma'no qanday hosil bo'ladi?

Borliqdagi narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holatning nomi ma'lum bir asosga ko'ra boshqa narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holatning nomi sifatida ham qo'llanadi. Shunday vaqtda lo'la so'z biror predmet, narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holatning nomi sifatida xizmat qiladi. Masalan, burun so'zi «tirik organizmning yuz qismida bo'rtib chiqqan nafas olish a'zosi» ma'nosini ifodalash bilan birga «Yer ning dengiz yoki okeanga tomon bo'rtib chiqqan qismi» ma'nosini ham ifodalaydi. Bunda narsa orasidagi tashqi o'xshashlik (yuzdan bo'rtib chiqqan burun bilan yer qirg'og'ining dengiz yoki okeanga qarab bo'rtib chiqishi o'rtasidagi o'xshashlik) burunning nomini ikkinchi o'rinda qo'llashga asos bo'lgan.

Ma'no ko'chishining nima asosida yuzaga kelishiga ko'ra 3 turi bor:

1) metafora;
2) metonimiya;
3) sinekdoxa;
4) vazifadoshlik;
5) kinoya.

Mustahkamlash uchun savollar

1.Qanday so'z bir ma'noli (monosemantik) so'z? 2.Qanday so'z ko'p ma'noli (polisemantik) so'z? 3.Ko'p ma'noli so'z ma'nosidagi umumiylikni tushunishning 4.Ma'no kengayishi nima? 5.Ma'no torayishi nima? 6.Ma'no ko'chishi nima? 7.O'z(bosh) ma'no qanday ma'no? 8.Ko'chma ma'no nima?

Topshiriq

Bilish zarur bo'lgan tushuncha bo'yicha savol-javobga tayyorlaning.

Matnni diqqat bilan o'qing.

I. Tilshunoslik tarixida ikkita «oltin kalit» bilan kirgan, «oltin qo'poruvga» erishib, uni bunga qarshi qo'yuvchi olimlar ham topilgan. Alisher Navoiy bunday nolo'g'ri qarashlarga zarba berdi. U o'zining «Munokamat» bilan g'arazgo'y esarida fors va g'arbok tillarini ajoyib ularning na bo'lsa o'zbek boy va rangorang, nozik va sheʼr yozishda mukammal ekanligini isbotlab berdi. (A. Hojiyev)

II. ...Tafakkurda yer sari shaxsning ongi o'sishi va rivojlanishi davrida tushuncha va ong ob'ektlarining qarama-qarshi ravishda, ya'ni, mavjudlikka ular o'rtasida

vasan, o'qituvchi esqov shahrida sham yoqishni iqtidor postgino kuni ishda ochiq bo'lgan qolsa, katta kitobning shoir chaqayotgan kuyning sehrga berilganday yengil ishlar edi. (Oyu.)

b) Hafiz Sa'diyning Bog'i Iramsimonning kamchiqar tarafidagi xos hujralardan biriga joylashtirdilar. Juzvonlar issiq va qulay bo'lishiga qaramay, ular ko'pincha ochiq havoda, daraxtlar ostida o'tirar edilar. Peshin namozidan so'ng, umrida ilk dafa ko'rib turgan – rolanlar, arvoh gullar yal-yal yongan sadan xiyobonda yurmoqdaydim. Qushlarning har navidan zavq-shavqqa to'lib tinglaganicha, ohista kona oralab. (X.Sul.)

3. Matndagi so'zni 4 guruhga ajratib yozing.

a) lug'aviy va grammatik ma'no anglatuvchi so'z

b) lug'aviy, grammatik va qo'shimcha ma'no anglatuvchi so'z

d) grammatik va qo'shimcha ma'no anglatuvchi so'z.

e) faqat grammatik ma'no anglatuvchi so'z

(Guruhlarda o'zingiz topgan boshqa o'xshash birliklar bilan boyiting.

4. Lug'aviy va grammatik ma'no anglatuvchi so'zni to'rt guruhga ajrating.

a) narsalshuvchi birliklar

b) harakat bildiruvchi so'z

d) miqdor bildiruvchi so'z

e) holat bildiruvchi so'z

5. Lug'aviy va grammatik ma'no anglatuvchi so'zni nechta ma'no anglatishiga ko'ra ikki guruhga ajrating.

a) bir ma'noli so'z

b) ko'p ma'noli so'z

6. Lug'aviy va grammatik ma'no anglatuvchi so'zni ma'no o'zgarishiga ko'ra 2 guruhga ajrating.

a) ma'nosi o'zgagan (ko'chgan) so'z.

b) ma'nosi o'zgarmagan so'z.

7. Ma'nosi o'zgargan so'zni ikki guruhga ajrating.

a) ma'nosi kengaygan so'z.

b) ma'nosi torayqan so'z

11- DARS
KO'CHMA MA'NO HOSIL BO'LISH USULI

Metafora. Metafora so'zi yunoncha bo'lib, **metaphora** 'ko'chirish', 'ko'chirma' demakdir

Biror predmet, belgi yoki harakatning boshqasiga tashqi o'xshashligi asosida ma'no ko'chishi metafora deyiladi. Bunda predmetning rangi, shakli, harakat-holati, xususiyati, o'rni va paytga munosabati jihatidan o'xshashligiga asoslaniladi. Masalan, shaynakning jo'mragi odamning burni ga, dengizning quruqlikka suqulib kirgan joyi odamning qo'ltig'iga o'xshatildi. Metaforo ko proq odam tana a zosi nomiga (**bosh, yuz, burun, og'iz, quloq, til, oyoq**); kiyim qismiga (**etak, yoqa**); hayvon, parranda yoki hasharotning biror a'zosi nomi (**qanot, dum**) asosiga o xshatib hosil qilinadi. Qilanmoq (gan) "olgan mir'o biron joyga borish" ma'nosida ishlatilgan (albatta, ot mingan)k tasavvur qilingan); hozir zoh olda, xoh piyoda, xoh mashinada bo'lgan "biror joyga jo'nash" ma'nosi tushuniladi. Bunda harakatning tashq. o'xshashligi mavjud.

Narsa va hodisa orasidagi o'xshashlik quyidagicha bo'lishi mumkin:

– shakliy o'xshashlik: **odamning qulog'i – qozonning quloq'i, qush uyasi – odam uyasi**;

– joylashish o'xshashligi: **itning dumi – samolyotning dumi. qo'shni odam – qo'shni dala.**

– mazmundan o'xshashlik: **tomdan yiqilmoq – imtihondan yiqilmoq sovuq havo – sovuq xabar. qaynoq suv – qaynoq liniya. achchiq o't – achchiq sovuq, tomdan tushmoq – mansabdan tushmoq, odam o'tirdi – fabrika o'tirdi, akkumulator o'tirdi.**

Metaforaga juda yaqin bir vosita o'xshatish bo'lib, ular yordamida shaxs-predmet bir-biriga yaqinlashtiriladi, oppoz qilinadi. Unda **-dek, -day, go'yo, yanglig', singari, xuddi kabi** o'xshatish vositalari foydalaniladi. Bahor **kelinchakdek** yasanib keldi. Oliq tek – **misoli oftob.**

Nutq jarayonida metaforadan o'rinli foydalanganda so'zlovchining badiiy-estetik qobiliyati namoyon bo'lib, nutq ta'sirchan, jozibali chiqadi.

Metonimiya. Metonimiya so'zi yunoncha **metonimia** – 'yangi nom qo'yish', 'nomni o'zgartirish', 'qayta nomlash' demakdir. Makon va zamondagi o'zaro bog'liqligi asosida bir narsa va hodisaning nomini ikkinchisiga ko'chirish – metonimiya. Metonimiyada biror predmet xususiyati yoki voqea-hodisaning nomini aytganda shunga o'zaro bog'liq bo'lgan ikkinchisi anglashiladi. Bunda o'xshashlik nazarda tutilmaydi. Boshqacha aytganda, ikkita bir-biriga bog'liq predmet belgi holatining birining nomi tajanikdlik natijasida tushiriladi. Masalan,

Fuzuliyni o'qish qo'limdan kelmaydi.

Mag'mun bo'lib yig'lab qo'chqordi. U olimni gapida Fuzuliy va asar «Fuzuliyning kitobini oldim qo'limga» birlariga bog'liq bo'lib, to'g'ri uchun kitob so'zi tushunib qolar edi. Natijada Fuzuliy so'zi shaxs ma'nosini emas, kitob so'zi ga xos ma'noni ifodalaydi.

Metonimiya turli kommunikativ bo'ladi:

1) o'ringa munosabat qilish orqali: bir stakan (suv) ichdim, bir burilka (ovqat) yedim, qishloq uyg'ondi.

2) vaqtga ko'ra: o'ttiga iyorni kirdim, yarim yilda (muddat) topshirdi.

3) miqdor va narsa o'rtasidagi munosabatlarga ko'ra: Pushkinni to'la asarini o'qidim va hokazo.

Metonimiya obrazning ko'chma ma'no – fikrni to'g'ri va ta'sirchan bayon qilish vositasi.

Sinekdoxa. Sinekdoxa yunoncha **synecdoche** so'zidan olingan bo'lib, "birga o'qish" ma'nosida. Qism bilan butun munosabati asosida ma'no ko'chishiga sinekdoxa usuli deyiladi. Sinekdoxa metonimiya turining bir ko'rinishi deb ham yuritiladi. Ammo ularga farqli ravishda sinekdoxada predmet tavsifi asoslanadi. Masalan, **bosh, tuyoq** so'zi (ya'ni, qism) orqali hayvon (ya'ni, butun) tushuniladi. Yurak, **tirnoq** so'zi (ya'ni, qism) orqali odam (ya'ni, butun) anglatiladi. Sinekdoxada butun orqali qism ham anglashiladi. Misol: **Masalan. Bosh qo'l barobar emas** gap-da **qo'l** (ya'ni butun) so'zi orqali **barmoq** so'zining ma'nosi anglashilmoqda. **Nikolay zamonida ostonam tuyoq ko'rmagan (Oyb.)** gap-da qism (**tuyoq**) orqali butun (**mol**) ifodalanayotir.

Vazifadoshlik. Narsa va hodisa o'rtasidagi vazifaviy o'xshashlik asosida o'rning nomini ikkinchisiga ko'chirish vazifadoshlik asosida ma'no ko'chirish deyiladi.

Vazifaviy ko'chirish ham o'xshashlikka asoslanadi. Bu jihatdan u metaforaga yaqin turadi. Faqat shunday vazifaviy ko'chirishda tashqi ko'rinish o'xshashligi emas, balki vazifa o'xshashligi hisobga olinadi. Masalan, qushning uchishi uchun xizmat qiladigan a'zosi **qanot** deb ataladi. O'xshash harakatni bajaruvchi samolyot qismi ham shunday nomlanadi. **Tugma** yoqalarning oldini bekitib yopuvchi bog'ich nomi bo'lgan. Hozir shu vazifani bajaruvchi narsa ustida ayrim hollarda **tugma** deyiladi.

Vazifadoshlik asosida ma'no ko'chishi faqat ot turkumida uchraydi.

Kinoya. So'zni teskari ma'noda ishlatish **kinoya** deyiladi. Kinoyadagi so'z qo'shimchaga o'tadi:

Bizni «homiy»lardan himoya qilg'il,
Degan shiorg xalqida piching – duo bor.
Xo'sh, janobi oliy, qaysi sho'rlik xalq

Sizning ehtiyotingizga qolmoq intizor. (G.Gʻ.)

Bu o'rinda homiy so'zi zolim, himoya so'zi esa zolim ma'nosida ishlatilgan.

Mustaqil kuzatish uchun savollar

1. Metafora haqida gapiring va misol keltiring. 2.Metonimiya haqida gapiring va misol keltiring. 3.Sinekdoxa haqida gapiring va misol keltiring. 4 Vazifadoshlik haqida gapiring va misol keltiring. 5 Kinoya haqida gapiring va misol keltiring

SO'ZNING SHAKL VA MA'NO MUNOSABATIGA KO'RA TURI. SINONIM

So'z ma'no munosabatiga ko'ra ma'nodosh, zid ma'noli, uyadosh bulur-ba'lak, tur-jins munosabatidagi so'zga, shakl munosabatiga ko'ra esa shakldosh va talaffuzdosh so'zga bo'linadi.

Sinonim. So'z ma'nosi asosida o'zaro turli munosabatda bo'ladi.. Ba'zi so'zlar ma'nosi asosida o'zaro bir-birga yaqin bo'lsa, ba'zilari bir-biridan ikkoq qiladi. Ma'nosi bog'lanmasa-da, tashqi tomoni (aytilishi, yozilishi) bir xil bo'lgan so'z ham bor bo'lib, biri ortiqchasiz ong mavjudligini eslatib turadi. Shunga ko'ra, sinonim, antonim, omonim va paronim ajratiladi.

Ifodalar so'z ko'p ma'noli anglatishi bilan birga, bir nech a so'z bir tushuncha ifodalashi ham mumkin. Masalan, **osmon, falak, ko'k, samo, qardon; yurak, qalb, dil, ko'ngil** kabi. **Bir tushunchani turli ma'noda ifodalaydigan so'z sinonim (ma'nodosh) deyiladi.** Ma'nodosh so'zning o'zaro qo'shimcha ma'nosi bilan farqlanadi. Masalan, **yuz, oft, bashara, chehra** so'zining o'zaro ma'nosidagi hissiy va uslubiy bo'yoq farqi.

Sinonim grekcha **synonym** so'zidan olingan bo'lib, **syn** 'birga' va **onoma** 'nom' demakdir. Shakli har xil, bir tushunchani ifodalovchi til birliklari sinonim deyiladi.

Sinonimiya quyidagiga bo'linadi.

a) lug'aviy (leksik) sinonimiya, ya'ni so'z ma'nodoshligi: ish, yumush; **gapirmoq, so'zlamoq**;

b) ibora (frazeologik) ma'nodoshligi: **boshi osmonga yetdi, terisiga sig'madi**;

d) qo'shimcha (affiksal) ma'nodoshligi. Bu o'z o'rnida ikkiga bo'linadi.

a) so'z yasovchi qo'shimcha ma'nodoshligi: **-ser, -dor, -siz, -be**;

b) grammatik shakl ma'nodoshligi: **-yap, -yotir, -moqda** kabi.

e) sintaktik ma'nodoshlik.

Leksikologiyada faqat leksik (lug'aviy) va frazeologik sinonimiya o'rganiladi.

Tilshunos olimlar (o'zdagi ma'no xususiyatini ko'zda tutib, sinonimga turlicha ta'rif berdi.

Sinonimning mohiyatini to'g'ri tushunish uchun ikki holatni bir-biridan farqlash lozim:

– tushuncha va so'z, ular o'zaro nisbatda;

– so'z va uning ma'nolari, ular o'zaro munosabatda olinadi.

Tushuncha – predmet, belgi, voqea, hodisa, harakat haqida kishining tasavvuri bo'lib, so'z – uni anglatish vositasi bo'lish. Tushuncha bo'lgan so'z esa tushunchaga bo'lgan munosabatni, xolosini bildiradi. Masalan, **yuz, afti, bashara,** sifatlari bir tushunchani bildiradi, ammo ma'nosi boshqa-boshqa. Ma'nosi bir xil so'zlar ham bir-biridan farq qiladi, boshqasi o'rnini olishi qiyin kechadi.

So'z tushunchaning hamma tomonini qamrab olmaydi, balki uning mohiyatini va muhim belgilarini ajratib ko'rsatadi. Tushunchaning boshqa tomonini va xususiyatini o'ziga xos bilan ifodalanadi.

Sinonimik qator. Sinonim so'z qatori sinonimik qator deyiladi. Sinonimik qator bir nechta o'nlab so'zdan tashkil topadi: **osmon, ko'k, samo, falak; qizil, g'alati, ajoyib, olomat, antiqa, ajab, ajib** kabi.

Sinonimik qatorning ma'lum aniqlikka ega bo'lgan, uslubiy jihatdan betaraf so'z bosh so'z (dominanta) deyiladi: **yurak, ko'ngil, qalb, dil** qatorida bosh so'z – **yurak**.

Bosh so'z quyidagi xususiyatga ega:

a) boshqalariga nisbatan ko'p ishlatiladi.

b) uzoq farqlanmaydi.

d) boshqasini erkin almashtiradi;

e) hissiy bo'yoqsiz bo'ladi.

Qo'shimcha ma'no anglatish-anglatmasligiga ko'ra, sinonimlar ikkiga bo'linadi:

a) ma'noviy sinonim.

b) to'liq sinonim.

Agar ikki ma'no rang, qo'shimcha ma'no ham bir-biriga to'g'ri kelsa, to'liq sinonim deyiladi: **lingvistika – tilshunoslik, fazogir – kosmonavt, huquqshunos – yurist** kabi. Bir tilning o'z so'zlari o'zaro to'liq sinonim bo'lmaydi.

Asos ma'nosi bir xil bo'lib, lekin qo'shimcha ma'nosi (hissiy, uslubiy ma'nosi) bir-biridan farq qilsa, ma'noviy sinonim deyiladi. Masalan, **yurak, dil, qalb, ko'ngil, kerak, lozim, shart, darkor** kabi.

Sinonimik munosabat bir so'z turkumi doirasida bo'ladi: **ulug', buyuk, katta** sifatlari; **odam, inson, bashar** (ot). Va'nodoshlik deyarli barcha so'z turkumi doirasida uchrashi mumkin.

Ko'p ma'noli so'zda ma'nodoshlik o'zga xos. U har bir ma'nosi bilan boshqa-boshqa sinonimik qatorda bo'lishi mumkin. Masalan, **bitirmoq** so'zi uch ma'nosi bilan uch sinonimik qatorga birlashadi:

a) **bitirmoq, tugatmoq, tamomlatmoq**. Bu so'z ayniqsa yakunlovchi bo'lishchisi asosida o'zaro sinonim.

b) **bitirmoq, bajarmoq, ado etmoq, do'ndirmoq**. Bu so'zlar ish, vazifa, topshiriqni amalga oshirmoq, unga kelishmoqqa tushunchasi asosida o'zaro sinonim.

d) **bitirmoq, sap qilmoq, yo'qotmoq**. Bu so'z «butkul yo'q» holatga keltirmoq» tushunchasi asosida sinonimlik hosil qiladi.

Yoki **birinchi** so'zini olaylik:

a) **birinchi** (sentabr) (sinonimi yo'q);

b) **birinchi** (farzand), **bosh, to'ng'ich, katta**;

d) **birinchi** (masala), **asosiy, muhim, dolzarb**;

e) **birinchi** (qadam), **dastlabgi**, dk.

Tilda sinonim quyidagi yo'l bilan paydo bo'ladi:

a) bir tildan ikkinchi tilga so'z o'tishi natijasida: **manglay, peshona; kuch, quvvat; josus, agent.**

b) mahalliy shevadan so'z olish natijasida: **to'pni, kaapo'sh; buzoq, go'sala;**

d) so'z yasalishi natijasida: **his, sezgi; savol, so'roq; vazifa, topshiriq;**

e) so'zning yangi ma'no kasb etishi natijasida: **o'rin, joy, lavozim.**

Eslatma

*Ayrim so'z ko'chma ma'noda qo'llanib, boshqa so'zga vaqtincha ma'nodosh bo'ladi. Masalan, **qattiq** so'zi ko'chma ma'noda **baxil, xasis, ziqna, mumsik** so'zi bilan, **o't** so'zi **chiroy, husn** so'zi bilan ma'nodosh. Bu **shartli ma'nodoshlik** deyiladi.*

Ko'rinib turibdiki, sinonimlarning asosi turlicha bo'lib, ular o'zaro umumiy ma'nosi asosida bog'lanadi. Har bir sinonim so'z ma'no xususiyatiga ko'ra farqlanadi. Shuning uchun ham uning ba'zisini ikkinchisining o'rniga qo'llab bo'lmaydi.

Og'zaki va yozma nutqda sinonimning amaliy ahamiyati katta. Sinonimlar so'zni o'rinsiz takrorlashga yo'l qo'ymaydi, uslubning ravonligini ta'minlaydi.

Sinonim badiiy nutqda tasvir vositasi bo'lib xizmat qiladi. Yozuvchi personaj xarakterini, voqea-hodisani, manzarani aniq va ifoz bosh qilib tasvirlaydi. Sinonimdagi bunday xususiyatni XV asrdayoq idrok etgan Alisher Navoiy «Muhokamat ul-lug'atayn» asarda **ichmoq** so'zining 6 ta, **yig'lamoq** so'zining 7 ta sinonimini keltiradi. Masalan, **yig'lamoq, ingramoq,**

singramoq, siqilmoq, o'kirmoq, inchkiramoq, boy-boy yig'lamoq. Alisher Navoiy bu sinonim qatorlarni bir-biridan o'zining nozik ma'no qirrasi bilan farqlanish mumkinligini ko'rsatgan.

Sinonimning uslubiy xususiyati. Sinonim o'zaro hech qaysi bir jihati bilan farqlanmasa, yuz, o'l, boshqa, bet, chehra, jamol, ruxsor, diydor sinonimik qatoridagi yuz so'zi betaraf hisoblansa, bet, aft so'zi salbiy bo'yoq'i, **bashara** so'zida esa salbiy bo'yoq yanada kuchli. **turq** so'zida **bashara** so'zigacha ifodalash ham kuchliroq, chehra go'zal bo'yoqqa ega. **jamol** so'zida bu ho'yoq yanada kuchli. So'zlovchi o'z kayfiyati, maqsadi va munosabatiga qarab undan foydalanadi. Shuningdek sinonimning ishlatilish doirasi chegaralangan yoki cheklanmagan bo'lishi mumkin: kelsa, qari, oqsoqol, nuroniy, mo'ysafid so'zlarini kattalardagi qari so'zining o'rnida ishlatish mumkin, qolganlari esa chegaralangan.

Sinonimni o'rinsiz ishlatish oqibatida turli uslubiy xato kelib chiqadi. Buldozer ko'chanizida **yiqilay** deb turgan devorlarni bir chekkaga surib yo'l ochar edi gapida yiqilay so'zi noo'rin qo'llangan, chunki bu so'z kishiga nisbatan ishlatiladi, bunda devorga nisbatan **qulay** (qulamoq) so'zi qo'llanishi maqsadga muvofiq bo'

Mustahkamlash uchun savollar

1. Sinonim so'zning lug'aviy ma'nosi nima? 2. Sinonimlarga ta'rif bering. 3. Lug'aviy sinonim nima? 4. Ma'nodosh so'zga ta'rif bering va misol keltiring. 5. Ma'nodosh so'z yasovchiga ta'rif bering va misol keltiring. 6. Ma'nodosh grammatik shaklga ta'rif bering va misol keltiring. 7. Sintaktik sinonimga ta'rif bering va misol keltiring. 8. To'liq sinonim nima? 9. Ma'noviy sinonim nima? 10. Sinonimik qatorga ta'rif bering va misol keltiring. 11. Sinonimik qatorda bosh so'z va uning xususiyati haqida gapiring. 12. So'z va tushunchaning farqi nimada namoyon bo'ladi?

Topshiriq

1. Tarix g'ildiragini orqaga aylantira olishga kuch, jo'a durpasa. (Oybek.) 2. Dasturxonga boqqan do'st emas. (Maqol.) 3. Soldatning qoshi bir oz chimirildi, mayin tovushi o'zgardi. (A.Qah.) 4. ...oyog'im uzoqdan loyib, tuproq ko'rmagan. (Oyb.) 5. Nikolay zamonida oshonam buyoq ko'rmagan. (Oyb.) 6. Zebixon g'ildirak yog'ochlariga oyog'ini bir-bir no'yib, aravaga chiqdi. (S.Zun.) 7. Havo isib, maysalarga, daraxt shoxlariga to'plangan shudringni bir zumda yalab oladi. (Sh.Rash.) 8. Bo'g'moq so'zi aslida «qattiq qismoq» ma'nosini bildiradi. 9. Bu yerda hayot bayotdan bo'g'ladi, temir tamom g'ijiydi, o't o'chdi so'nmoqdi. (Oyb.) 10. Mayli tugasa, tuliq so'xta bo'lgan chiroq bo'lib olib sovdi. (S.Anor.) 11. Oto-nasabing chirog'ini yoqadigan

kishi farzandidir. (M.Isa.) 12. Mening sabrim to'ldi qoldi. (A.Qah.) 13. Sesh qo'lini og'ziga tiqadi. (I.Rah.) 14. Hamroy lardan himoya qilgin. (G.Gʻul.)

Berilgan gaplarni o'qing.

2. So'zlarni 2 guruhga ajratib yozing:

a) to'g'ri (hosil ma'noda qo'llangan so'z.

b) ko'chma ma'noda ishlatilgan so'z.

3. Ko'chma ma'noda ishlatilgan so'zni ichki guruhga ajrating:

a) o'xshashlik asos bo'lgan ma'no;

b) qarama-qarshilik asos bo'lgan ma'no;

d) vazifadoshlik asos bo'lgan ma'no;

e) butun-qism munosabati asos bo'lgan ma'no.

f) kinoya asos bo'lgan ma'no.

4. O'xshashlik asos bo'lgan ma'noning ichki guruhini aniqlang.

a) shakl o'xshashligi asos bo'lgan ko'chma ma'no.

b) rang o'xshashligi asos bo'lgan ko'chma ma'no;

c) joylashish o'xshashligi asos bo'lgan ko'chma ma'no;

d) boshqa asosdagi ko'chma ma'no.

5. Karama-karshilik asos bo'lgan ko'chma ma'noli so'zni farqlang.

a) o'rin munosabatiga ko'ra;

b) vaqtga ko'ra;

d) muallif-asar munosabatiga ko'ra.

e) boshqa asosdagi ko'chma ma'no.

Butun-qism munosabati asos bo'lgan ma'noli so'zni ikki guruhga ajrating.

a) butun-qism munosabatli.

b) qism-butun munosabatli

ANTONIM

Bilish jarayonida narsa va hodisa, harakat-holat, belgi va xususiyatni bir-biriga zidlash, ularning o'zaro o'xshash va farqli tomonini aniqlash katta ahamiyatga ega. Butun bilish faoliyatimiz zidlanishga asoslangan. Ana shunday zidlanish tilimizda ham o'z ifodasini topgan. Bir ni aytishimiz bilan uning ziddi xayolimizga keladi. Masalan, **oq – qora, uzun – qisqa (kalta), baland – past, dono – ahmoq; -li** (suvli), **-siz** (suvsiz) va boshqa.

Antonim grekcha **anti** – "zid", **onoma** – "nom" demakdir. **O'zaro zid ma'noli so'z, ibora va qo'shimcha antonim deyiladi.** Antonimiya – so'z va qo'shimchaning o'zaro zid ma'noli munosabati. Uning leksik (**yaxshi – yomon, keng – tor**), morfologik (**-li – -siz**), frazeologik (**qo'li uzun – qo'li kalta**) ko'rinishi mavjud.

Antonimlar hosil qiladigan qism – affiks doim ham belgi zidlik. Qo'shimcha ma'nodagi zidlik antonimlik hosil qila olmaydi. Masalan, chehra va bashara so'zi qo'shimchasi ma'no bilan farqlanadi.

Inkor yoki fe'lning bo'lishlilik-bo'lishsizlik shakli ham antonimlik hosil qila olmaydi. Ma'lumki, zidlik asosida boradigan inkor bilan biror narsa, belgi yoki harakatning aynan o'zining inkorini ifodalash farqlash kerak. Antonimiyada, yuqoridan ko'rinyapti, o'zaro zidlik yuz beradi. Bu zidlik ikki so'zning ma'nosi orasida bo'ladi. Qabul qilish va qilmaslik, ayrim hollarda, belgi yoki harakat inkori sifatida ishlatilishi mumkin. Lekin bu holat antonimiyaga kirmaydi. Masalan: kulmoq so'zi bilan kulmaslik, qarsak chalmoq so'zi bilan chalmaslik, qarsak chalmaslik bir-birini inkor etsa-da, antonim emas. Chunki ular o'rtasida zidlik yo'q.

Ko'pincha antonimlarning antonimligi qandaydir ma'noda kelishmaslikka qarab belgilanadi. Bir so'z bir xil ma'noda bilan bir xil so'zga antonim bo'la olishi mumkin. Masalan, qattiq so'zi bir ma'nosi bilan yumshoq so'ziga, boshqa bir ma'nosi bilan esa sekin so'ziga antonim. Qiyoslang: qattiq predmet – yumshoq predmet, qattiq odam – saxiy odam.

Antonim juft so'zda qo'llanib kelganda ma'no ifodalaydi: yaxshi-yomon (ma'noli yaqin), ertalab-kech (doim) kabi.

Antonimlar asosan, belgi bildiruvchi so'z – sifat va ravishda uchraydi. Ot va fe'lda kamroq: vafo – jafo, yig'lamoq – kulmoq kabi.

Eslatma

Antonimlar yon'alishga qarab ot(olmoshlar), fe'l, sifat, ravish kabi turli so'z turkumlarida bo'ladi. Chiroq antonimlari sifatlarga, ko'rmoq antonimlari fe'llarga, bir xil turkumda bo'lishi kerak. Antonimlar bir-biriga zid bo'lgan ma'no munosabatini ifodalaydi.

Antonimlarning uslubiy xususiyati. Antonimlardan to'g'ri foydalana olmaslik ham uslubiy xatolikni keltirib chiqaradi: ... **choyxona mudiri Yusufjon Nazimov turmushining issiq-chuchugini tatigan kishiga o'xshaydi, Su**gapdagi **issiq-chuchugini** jumlasini o'rnida **achchiq-chuchuk** jumlasini ishlatish kerak edi. Antonimdan foydalangan holda yuratiladigan badiiy san'at tazod (antitezа) deb ataladi.

Mustahkamlash uchun savollar

1. Antonim nima? 2. Antonim so'zga ta'rif bering va misol keltiring. 3. Antonim iborага ta'rif bering va misol keltiring. 4. Antonim qo'shimchaga ta'rif bering va misol keltiring. 5. Antonimlik va omonimga farqli va o'xshash tomoni nimada?

OMONIM

Tilda tovushva yozuv tomoni bir xil bo'lib, ammo turlicha bir-biridan bog'liq bo'lmagan ma'no ifodalovchi so'z qatlamicha va ko'p uchraydi. Bunday turli **omonim** deyiladi. Omonimlik so'z qo'llanmasi, ibora, so'z birikmasi va gapga xos.

Omonim grekcha "bir xil nom" demakdir: **Dalada ot kishnadi. Chaqaloqqa ot qo'yildi. To'pni monga ot.** Har uchala gapda qo'llangan **ot** so'zi shaklan bir xil bo'lsa-da, aslida mutlaqo boshqa-boshqa so'z.

Omonim bilan ko'p ma'noli so'zni chalkashtirmaslik kerak. Uning farqi quyidagicha:

– omonimning nechta ma'nosi bo'lsa, u shuncha so'z hisoblanadi. Ko'p ma'noli ikki esa uning ma'nosi qanchalik ko'p bo'lmasin, baribir, bir so'z hisoblanadi.

– omonimdagi ma'no bir-biriga mutlaqo bog'liq emas, lekin ko'p ma'noli ikki ma'no bir-biriga albatta bog'liq bo'ladi.

– omonim turli tildan so'z kirib kelishi, bir tildagi turli shaklning aynan to'g'ri kelib qolishi natijasida yuzaga kelsa, ko'p ma'nolilik esa uning nechta ma'nosi bo'lsa, barchasi bir ma'nodan o'sib chiqadi.

Omonim ham, ko'p ma'noli so'z ham qaysi ma'noda kelayotganligi matn orqali aniqlanadi.

Omonim bir so'z turkumi doirasida ham, bir nechta so'z turkumi doirasida ham bo'lishi mumkin. **Uyga o't ketdi. Dalada o't ko'kardi.** Gapda faqat ot turkumiga mansub so'z o'zaro omonimlik hosil qilgan. Faqat bir so'z turkumi doirasida hosil bo'lgan omonim so'zlar grammatik shakl olsa ham omonim bo'lib turaveradi: **Bu uningni o'zing non qilib ye. Uningni o'chir!** gapidagi un so'zidagi **-ing** egalik va **-ni** tushum kelishigi qo'shimchasi qo'shilganda ham omonimlik bartaraf bo'magan. Lekin omonimlik boshqa-boshqa so'z turkumi doirasida bo'lsa, grammatik qo'shimcha olishi bilan u yo'qoladi. Masalan, **ot** – ism, **ot** – harakat: **Oting nima? Uzoqqa otib yubor.** Ba'zan, omonimlik harxil so'z turkumi doirasida bo'lsa-da, qo'shimcha qo'shilsa ham saqlanib qolishi mumkin. Bunda qo'shimcha grammatik omonimlikni hosil qilishi mumkin: **Oting nima? G'ishtni yuqorizoqqa oting.** Bunda **-ing** – egalik, **-ing** – shaxs-son qo'shimchasi. Bunday holda omonimlik gapdagi boshqa so'z yordamida bartaraf etiladi.

Omonimning uslubiy xususiyati. Nutqda omonimdan foydalangan holda turli so'z o'yini hosil qilinadi va badiiy nutqning go'zalligiga erishiladi: **Qo'lingdan kelguncha chiqar yaxshi ot, Yaxshilik qil, bolam, yomonlikni ot, Nasihatim yod qilib ol, farzandim. Yolg'iz yursa chaang chiqarmas yaxshi ot.** Bu o'rinda **ot** omonimi turli ma'noni ifodalayapti.

Omonim so'zlarga boyliksiz bo'lgan holda so'z o'yinlari yaratish, tilning ifoda imkoniyatini oshiradi. Badiiy adabiyotda shu badiiy san'at qo'llanib yaratilgan to'rt misrali she'r ham buyuk deb ataladi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1.Omonim nima? 2.Omonim va ko'p ma'noli so'zning farqi nimada ko'rinadi? 3.Bir so'z turkumi doirasidagi omonim haqida gapiring va misol keltiring. 4.Bir turkum so'z turkumi doirasidagi omonim haqida gapiring va misol keltiring. 5.Omonimning uslubiy xususiyati haqida gapiring va misol keltiring. 6. Omonim so'zlarga misol (omonim juft misol) keltiring. 7.Omonim qo'shmachaga misol qilib yozing va misol keltiring. 8.Omonim affikslarga misol bering va misol keltiring. 9.Omonim so'z birikmasi haqida gapiring va misol keltiring. 10.Omonim gap haqida gapiring va misol keltiring.

UYADOSH SO'Z

Tilning barcha so'z boyligida ma'lum bir mazmuniy uyaga birlashgani holda yashaydi. Bu so'zlarning ham xat misolidan osongina tanishish va ularning qaysi uyaga tegishli ekanligini aniqlaymiz.

Bir mazmuniy uyaga mansub so'z uyadosh deyiladi. Masalan, daraxt so'zi o'z mazmunini ichiga olma olcha, terak, tol, archa, chinor, nok, tut, qayin, qayrag'och kabi so'zni oladi. O'z ichiga oluvchi so'z uya so'z va uyaga kiruvchi so'z uyadosh so'z deyiladi. Qo'y uya so'zi o'z ichiga qo'zi, sovliq, qo'chqor, shishak, to'qli so'zini olsa, qoramol so'z- sigir, novvos, ho'kiz, buqa, g'unajin so'zini oladi.

Bir uyaga kiruvchi uyadosh so'z ichki guruhga bo'linishi mumkin.Masalan daraxt uyasi o'z ichida mevali daraxt va mevasiz daraxt uyasiga bo'linadi. Bu uyachada daraxt nomi meva va mevasizga bo'linishi holati yashiqdi. Misollar, ot uyasi quyidagi 4 ta uyachaga bo'linadi:

a) jins uyasi: ayg'ir, bayta...

b) zot uyasi: arabi, bedov, qozoqi, muguli, axaltaka.

v) rang-tusi uyasi: saman, to'riq, chovkar, qorabayir, qashqa, jiyron;

g) vazifa uyasi: salt, aravakash, yukchi, uloqchi, poygachi;

Uya vaka uyadosh so'z o'rnida so'z birikmasi ham bo'lishi mumkin. Bunga yuqoridagi mevali daraxt va mevasiz daraxt birikmasi misol bo'ladi. U daraxtning mevali turiga nisbatan uya birikma daraxt uyasiga nisbatan uyadosh birikma.

Mustahkamlash uchun savollar

1.Uyadosh so'z nima? Misol keltiring. 2.Uya so'z nima? Misol keltiring. 3.Uyacha nima? 4.Uyadosh birikmaga misol keltiring. 5.Uya birikma nima? Misol keltiring.

PARONIM

Paronim – talaffuzi bir-biriga juda yaqin, ammo yozilishi va ma'nosi har xil bo'lgan so'z. Masalan: **asr** va **asir**, **afzal** va **abzal**, **sher** va **she'r**, **adib** va **adip** kabi so'z talaffuzda bir xil aytilsa-da, yozilishida farq qiladi. Ma'nosi ham butkul boshqa-boshqa. Paronimlar ikki xil yozilishga bo'lgan, ammo ma'nosi bir xil bo'lgan dublerdan farq qilishi kerak: **arava – aroba, bekak – berklik, benihoya – benihoyat, gado – gadoy** kabilar paronim emas, balki dublet, variantdosh so'zlardir.

Paronim so'zlarni to'g'ri ishlatmaslik qanchalik noo'rin qilinmasin talaffuz qilishda paydo bo'ladi.

Paronim talaffuz jihatdan o'zaro o'xshash bo'lganligi uchun undan badiiy adabiyotda cofiya sifatida keng foydalaniladi.

Paronimning uslubiy xususiyati. Paronimni to'g'ri qo'llamaslik orfoepik jihatdan ham xatolik yuz beradi: **Chanoqdagi to'ppi ochilgan paxta quyoshda yarqirab kumushdek tohlanadi.** Bu gapdagi **tohlanadi** so'zi o'rnida **tovlanadi** so'zi ishlatilishi kerak edi.

VARIANTDOSH SO'Z

Variantdosh so'z ikki yoki bir nechta xil yozilishga ega. Hammasi ham imlo qoidasiga biridan to'g'ri yozilgani hisoblanadi. Bu so'zni paronim va sinonimdan farqlash kerak. Paronimda yozilishi va aytilishi bir-biriga yaqin bo'lgan ikki so'zning ma'nosi butunlay boshqa bo'lishi bo'lsa, sinonimda esa shakli butunlay o'zgacha, ma'no qirrasida ham farq sezilib turadi. Variantdosh so'z ma'noda zarracha farq qilmaydi. Ular so'z faqat yozilishida farq bor, xolos. Buning sabablari: bir variantni fonetik yozuv asosida bo'lsa, ikkinchi varianti morfologik yoki boshqa yozuv qoidasi asosida yozilganidir. Demak, bir so'z turli yozuv (imlo) qoidasi asosida ham yozilishi mumkin ekan. Quyidagi variantdosh so'z turli xil yozilishi bilan farq qilib turadi:

ebr va avr
odob va odobu

aydarho, ajdahar, ajdar va ajdaho
ak idoq ik va akid alak
a'lochqosh va lo'chqoshsh
baaziy va baaziy hu
beb-baraxvar va beb-barakat
bekatjoya va bekatqabul
beklamoq va beklanmoq
depsamoq va depsanmoq
dirham va dirxam
dostonsaro va dostonsanny
hakkal va hakkoni
hamsoya va hamsoyaq
he va ha
hayladi va xayladi
hukmronlik va hukmdorlik

qirra va qirra
qirraberg va qirraberg
qo hulo Jlaki bu at
sirg'a va sirg'a
uymoq va uimoq
yanday va jandak
jir va jar
jirrak va jizzaki
kaboutar va kaptar
karla va qarla
kelkalanmoq, kelkalamoq
korol va qirol
lifchil k va liflychik
ma ne va ma'n
ma nodor va ma nodor
mahal va mahal

Bo'g'in va morfemadan so'z, juft so'z emasga bog'lovchi vazifasida xizmat -u affiksi yuklanmagan ning qo shib kel shi va kelmasligiga ko'ra farq qiladi. Lekin barcha juft so'z namunalarida ham -u yuklanmasligi kuzatilavermaydi. Masalan, *daqiqa-chaqarmi, yo'qmi-chiqmi, yo'qol sarso* kabi so'z -u yuklamasiz yozilsa, shuningdek, ohang asosida *dog'hijron, balo-qazo* so'z -i bilan, yoki *dog'i hasrat, dog'i hijron, balayi qazo* tarzida yoziladi. Quyida bog'lama vazifasidagi -u yuklamasi bilan yoziladigan juft so'zdan keltiramiz.

abgor-abgashta va abgor-u abgashta
afsus-nadomat va afsus-u nadomat
afu-angor va afu-u angor
afu-bashara va afu-u bashara
baxt-iqbol va baxt-u iqbol
baxt-saodat va baxt-u saodat
bayt g'azal va bayt u g'azal
bazm-ayshva bazm-u ayshva
bazm-ishrat va bazm-u ishrat
bazm-suhbat va bazm-u suhbat
dard-alam va dard-u alam
dard-armon va dard-u armon
dard-azob va dard-u azob
dard-bolo va dard-u bolo
dard-falokat va dard-u falokat
dard-hasrat va dard-u hasrat

Variantlarda so'zning ko'plik qismi *bormoq, olmoq, yuormoq* ko'makchi fe'l (harakat tarzini bildiruvchi) bog'liq. Ko'makchi fe'l qo'shilib kelgan yakchi fe'lga *-vermoq, -olmoq* va *-vormoq* larzida qo'shiladi.

bajara olmoq va bajarolmoq
beravermoq va bera bermoq
berolmoq va bera olmoq
deyu olmoq va deyolmoq
deyavermoq va deya bermoq
deyolmoq va deyu olmoq
eplolmoq va eplay olmoq
gap qovermoq va gapga bermoq
javray bermoq va javrayvermoq
jonlana bermoq va jonlanavermoq
jo'navormoq, jo'nab yubormoq

12- DARS
BARQAROR BIRIKMA

Barqaror birikma. Nutqda fikr ifodalash uchun barqaror bir kvarga ham ehtiyoj mavjud. Masalan, kuchli hayron bo'lib qolganlikni ta'sirchan ifodalash uchun **hayron bo'lmoq** fe'li yetarli emas. Shunda barqaror birikma qo'llaniladi: **Og'zi ochilib qoldi.**

Og'zi ochilib qoldi – idiom. U ikki mustaqil so'zdan iborat bo'lib, nutqqacha tayyor holga kelgan. Nutqdan keyin ham ongimizda shu holicha turadi. Uning ma'nosi **hayron bo'lmoq** fe'lining ma'nosiga teng bo'lsa-da, qo'shimcha, ya'ni hissiy-ta'sirlanish ma'nosini ham o'zida saqlaydi.

O'zbek tilida barqaror birikma sifatida maqol, hikmat, ibora e'tirof etiladi. Tilshunoslikning barqaror birikmani o'rganuvchi bo'limi **paremiologiya** (yunoncha **parema** – "barqaror", **logos** – ta'limot), uning lug'atini tuzish bilan mashg'ul bo'luvchi soha **paremiografiya** (yunoncha **parema** – "barqaror", **grapho** – yozmoq) deyiladi.

Tilda ikki yoki undan ortiq so'zning bog'lanishidan hosil bo'lgan birlik ko'p. Masalan, so'z birikmasi, so'z qo'shilmasi, qisqa qo'shiqcha so'z, tasviriy ifoda, maqol, matal va hokazo. Shuning uchun dastlab, turg'un bog'lanish va erkin bog'lanishni bir-biridan farqlash kerak.

Ikki yoki undan ortiq mustaqil so'zning bir grammatik butunlikni ma'noviy yaxlitlikni tashkil etib, murakkab tushuncha yoki tugal fikrni ifodalaydigan so'z bog'lanishi **erkin bog'lanish** deyiladi. So'z birikmasi va gap erkin bog'lanishga kiradi. Chunki so'z birikmasi va gap nutq jarayonida hosil qilinadi.

Ikki yoki undan ortiq so'zning qotib qolib, nutqda tayyor holda ishlatiladigan bog'lanish barqaror, turg'un bog'lanishni tashkil qiladi.

Barqaror birikma qo'shma so'z va erkin so'z birikmasidan quyidagi xususiyati bilan farq qiladi:

1. Barqaror birikmada birdan ortiq so'z birikib ko'chma ma'noni ifodalaydi.

2. Barqaror birikmani tashkil etgan barcha so'z shu gap tarkibida butunlay shu bir bo'lak yoki bir gap vazifasida keladi.

3. Barqaror birikmaning tarkibiy qismi qat'iy bir qolipga ko'nikkan bo'ladi.

Demak, ularda rasmiy tashkiliy, tarkibiy-grammatik barqarorlik bilan birga ma'no barqarorligi ham uchraydigan, yaxlitligicha qo'llanish xususiyatiga ega, tayyor holda mavjud, obrazli, ba'zan, ma'no jihatdan shakllangan so'z bog'lanmasi barqaror birikma deyiladi.

Barqaror birikmani "buzish" – unga so'z kirish, almashtirish, olib tashlash mumkin emas.

Maqol. Grammatik jihatdan gap holida shakllangan, xalq donishmandligi mahsuli bo'lgan barqaror birikma **maqol** deyiladi. Masal: **To'g'ri o'zadi, egri**

ozadi. Ko'ngli qoraning yuzi qora. Maqollar voqelik holati yashiriyb va xulosaning ma'naviy borligi hisoblanadi.

Maqolning aksariyati qo'shma gap shaklli bo'ladi. **1. O'zga yurtda shoh bo'lguncha, o'z yurtingda gado bo'l. 2. Bekorchining beti yo'q, qozon osar eti yo'q. 3. Bodom po'sti bilan, odam do'sti bilan. 4. Kamtar bo'lsang osh ko'p, manman bo'lsang, tosh ko'p.**

Sodda gap tipidagi maqol ham tilda ancha: **1. Bir tarlqdan bo'tqa bo'lmas. 2. Arg'amchiga qil quvvat. 3. Beli og'rimaganning non yeyishini ko'r.**

To'liqsiz gap shaklli maqol kam ko'p uchraydi. **1. Arslon izidan qaytmas, yigit so'zidan (qaytmas). 2. Oltin o'tda bilinadi, odam mehnatda (bilinadi).**

Matal. Matal ham, barqaror birikma hol da bo'ladi. Matal deganda to'g'ri ma'no ifodalamaydigan obrazli iboda, tugal shaklga ega bo'lmagan hikmatli birikma nazarda tutiladi. Masalan, **qizil qor yoqqanda, tuyaning dumi yerga yetganda, dumi xurjunda, ali desa vali deydi, berdisini aytguncha** kabi. Matalga boshqa bir gap qo'shilishi bilan fikr to'liq ifodalanadi. Masalan, **Berdisini aytguncha jim tur. Tuyaning dumi** yerga yetganda **qarzini to'laydi** kabi.

Maqol tugal fikr bildirishi, bora bir so'zga teng tushunchani anglatishi, matal esa o'rgashgan holda shu ma'no gap tarkibidagi so'zlar orqali ifodalanishi bilan o'zaro farqlanadi. Mazmuni obrazli va ko'chma xarakterda bo'lishi bilan o'xshash.

Mustahkamlash uchun savollar

1. Barqaror birikma nima? 2. Iborani ta'riflang va misol keltiring. 3. Maqolni ta'riflang va misol keltiring. 4. Matalga ta'rif bering va misol keltiring.

IBORA

Ibora. Barqaror birikmaning bir guruh tarkibidagi so'z ma'no jihatdan uyg'unlashib, mazmuniy yaxlitlikni vujudga keltiradi. Ko'pincha ma'nosi bir so'zga teng va ko'chma bo'ladi. So'zning bunday barqaror bog'lanmasi **ibora** (frazeologik birlik)dir.

Tilshunoslikning iboralarni o'rganuvchi maxsus bo'limi **frazeologiya** deyiladi.

Qismlari qat'iy bir qolipga kirib, barqarorlashgan, ko'chma ma'no anglatib gapda butunligicha bir bo'lak vazifasida keladigan obrazli, uzviy barqaror birikma frazeologik birikma (ibora) deyiladi: **Eshon mayizning tagiga tuproq ekibdi** ("bugalmoq") – **Boshi osmonga yetdi** ("xursand").

So'z ham, ibora ham tug'ma yoki bilib o'rganiladi. Tilning tug'ma boyligini tashkil etadi. Ibora so'z birikmasi yoki gap singari nutq jarayonida hosil bo'lmaydi, balki xuddi so'z kabi tilda tayyor holda bo'ladi. Demak, ibora nutq hodisasi emas, balki til hodisasi.

Ibora ham xuddi so'z kabi, shakl va ma'no birligini qayd etadi. So'zning shakliy tomoni tovushdan iborat bo'lsa, iboraning shakliy tomonini so'z tashkil etadi: **rahmdil** (r+a+h+m+d+i+l) – **ko'ngli bo'sh** (**ko'ngli+bo'sh**) **xursand** (x+u+r+s+a+n+d) – **boshi osmonga yetdi** (**boshi+osmonga+yetdi**)

Ibora tarkibidagi so'z mustaqil ma'noga ega emas. Ibora so'z yig'indisining ko'chma ma'nosiga asoslanadi. Shuning uchun uning tarkibidagi bir nechta so'z bir butunligicha gap bo'lagi vazifasida kelsa, **Ko'z ochib-yumguncha** nechaming piyoda va suvoriy kishilar paydo bo'ldi. (A.Qah.) **Ko'z ochib-yumguncha** iborasining ma'nosi "juda tez" va gapdagi vazifasi – hayot.

Tug'ma, bilib olish sifati ila boshqa so'zga xos barcha xususiyatlarga ega.

Iboraning ma'no tarkibi. Iboraning ma'no tarkibini frazeologik va qo'shimcha ma'nolar tashkil etadi.

Iboradan anglashiladigan belgi, miqdor va harakat kabilar haqidagi ma'lumot frazeologik ma'no deyiladi. Masalan, **Qizim boshimni osmonga yetkazdi** (A.Qah.) **Endi to'rtinchi rotani ham ratsiya bilan ta'min qilsak, oshiq elchi bo'lardi.** (I.Rah.) Birinchi gapda harakat (juda xursand qildi), ikkinchisida belgi (juda yaxshi) ifodalangan. Iboraning anglash ma'nosi biror so'zning atash ma'nosiga teng, lekin ayni shunday ma'no so'zda ko'rinchha bo'lmaydi, yoki so'zni ichidan kuzatib bo'lmaydi. Masalan, xufiya so'zi o'z yengi ichida, osmonni yer atash ma'nosi bir xil. Ammo birinchi uchtaboy va ikkinchi ma'no ma'lum.

Frazeologik ma'no obrazli va ajralib turadi. Shu xususiyatdan o'lim so'zining lug'aviy ma'nosidan farqlanadi. Chog'ishtiring: **xufiya** – **yeng ichida, begiyos** – **yon bilan osmonchа, xursand** – **og'zi qulog'ida.** Ayrim iborani bilmagan ma'noni bir so'z bilan ifodalab bo'lmaydi: **Qildan qiyiq topib,** (**Jon**) **chiqarardi, qosh qo'yaman deb, ko'z chiqarib qo'ydi**

Frazeologik ma'no ibora tarkibidagi biror so'zning ko'chma ma'nosiga asoslanishi (sharin so'z, achchiq gap, ishning ko'zi, gapning tuzi) yoki tarkibidagi qismlarning umumiy ma'nosiga tayanib ko'chma ma'noda ifodalash mumkin (**og'zi qulog'ida, bel bog'lamoq, og'iz ochmoq, tili tutildi, beburni qizigunda ur;** Yaxlit tarkibdagi qismning ma'nosiga mutlaqo aloqasi bo'lmagan ma'no anglatadi (**boshi osmonga yetdi, tepa sochi tik bo'ldi, yulduzni benarvon uradi, yuragiga qil sig'maydi**)

Ibora tarkibidagi so'z boshqa oddiy bir kasbdagi so'zga shaklan o'xshash qolishi mumkin: 1.Qodir(ul mingboshining bundaqangi ishlarga suyagi yo'q (F.Hak.) – Bu go'shtning suyagi yo'q. 2.Mirzakarimboyning qo'li

uzun, **bu ishlarni oddalaydi** (Oyb.) – **Basketbolchining qo'li uzun edi**. Bunday holda frazeologik ma'no matnga qarab aniqlanadi.

Iboraning qismlari qat'iy bir qolipga kirib kelganligi uchun uni bir tildan ikkinchi tilga so'zma-so'z tarjima qilib bo'lmaydi. So'zma-so'z tarjima fikr chalkashligiga olib keladi.

Ibora so'z birikmasi va gap ko'rinishida bo'ladi.

1) so'z birikmasi shaklidagi ibora: **anqoning urug'i, bosh ko'tarmoq, og'ziga olmoq**.

2) gap shaklidagi ibora: **ko'zi ochildi, dami kesildi, tili tutildi.**

Iboraning ham so'z kabi shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turi mavjud.

1. **Ko'p ma'noli ibora**. Birdan ortiq ma'noga ega bo'lgan ibora ko'p ma'noli ibora deyiladi: **Bosh ko'tarmoq**: 1) "sekin sog'aymoq"; 2) "sekin qaramoq"; 3) "qo'zg'olon qilmoq". **o'ziga kelmoq**. 1) "sekinlik bilan tushunmoq"; 2) "sekinlik bilan sog'aymoq"; **ko'zi ochildi**. 1) "qoqilib tushundi"; 2) "ko'rdi".

2. **Omonim ibora**. Bir xil qismi (so'z)dan tuzilgan, ya'ni shakli o'xshash, ammo ma'nosi har xil bo'lgan ibora omonim ibora deyiladi: **uyni boshiga ko'tarmoq – onasini boshiga ko'tarmoq**. Misollar: **1. Ilgari bir qatra og'izimga olmas edim** (Oyb.) 2. **Komissiya hayron bo'lib qoldi, ammo hech kim meni og'iziga olmas edi**. (A.Qah.)

3. Sinonim **ibora**. Shakli har xil, ma'nosi bir-biriga yaqin bo'lgan ibora sinonim ibora (frazeologik sinonim) deyiladi: **toqati toq bo'lmoq-sabr kosasi to'lmoq; yaxshi ko'rmoq – ko'ngil bermoq; terisiga sig'madi – boshi osmonga yetdi.**

Bog'lovchi birlik sifatida ibora so'z bilan sinonimlik tashkil qila oladi: **g'azablanmoq – joni chiqmoq, sevmoq – yuragidan urmoq, maqtamoq – ko'kka ko'tarmoq**.

4. **Antonim ibora**. Qarama-qarshi ma'no ifodalovchi ibora antonim ibora (frazeologik antonim) deyiladi: **ko'kka ko'tarmoq – yerga urmoq; qo'li uzun – qo'li kalta. ko'ngli oq – ichi qora.**

Iboraning so'z, gap va so'z birikmasiga munosabati. Ibora so'z, gap, so'z birikmasiga o'xshash va farqli belgiga ega.

Ibora va so'z. So'z ham, ibora ham tushuncha ifodalaydi va gapda bir bo'lak vazifasida keladi.

So'z tovushdan, ibora esa so'zdan tashkil topadi.

So'z to'g'ri va ko'chma ma'no, ibora faqat ko'chma ma'no ifodalaydi.

So'zning ma'no tarkibida qo'shimcha ma'no bo'lmasligi mumkin. Unda esa har doim qo'shimcha ma'no mavjud.

Ibora va so'z birikmasi, gap. Iborani tashkil etuvchi so'z barqaror aloqaga ega. So'z birikmasi va gapning tashkil etuvchisi erkin bog'lanadi.

Ibora nutqqacha tayyor holda bo'ladi. So'z birikmasi va gap nutq jarayonida hosil qilinadi.

So'z birikmasi va gapni o'zgartirish mumkin, iborani "buzish" mumkin emas.

Mustahkamlash uchun savollar

1.Iboraning belgilari haqida gapiring? 2.Frazeologik so'zlarning ma'nosi haqida gapiring? 3.Iboraning ma'no turlari haqida gapiring. 4.Ko'p ma'noli ibora haqida gapiring. 5.Ma'nodosh ibora haqida gapiring va misol keltiring. 6.Omonim ibora haqida gapiring va misol keltiring. 7. Antonim ibora haqida gapiring va misol keltiring. 8. So'z va iboraning o'xshash va farqli tomonlari haqida gapiring. misol keltiring. 9. So'z birikmasi va iboraning o'xshash va farqli tomonlari haqida gapiring, misol keltiring. 10. Gap va iboraning o'xshash va farqli tomonlari haqida gapiring.

Topshiriq

mazasi qochdi, alamini oldi, aqli kirdi, baloga qoldi, bag'ri to'ldi, bag'ri tosh, bet bog'lladi, gapi bir joydan chiqdi, joni xalqumiga keldi, kalavaning uchini topdi, ko'zi ilindi, lafzi halol, nomi chiqdi, oq-qorani tanidi, till bir qarich, zo'rligi keldi

1. Berilgan iboraning ma'nosini yozing. Bir ma'noli va ko'p ma'nolisini aniqlang.

2. Iboraning qaysi turkumga mansubligini aniqlang va bu jadvaldan foydalanib, har bir turkumga mansub qatorni noyiling. Iborага boy va kam ibora turkumini aniqlang.

3. Iboraning ma'nodoshlik, uyadoshlik, zid ma'nolilik, shakldoshlik qatorini tuzing.

4. Lug'atdan ibora a'zosi nomi qatnashgan iborani aniqlang.

5. Lug'atdan iboraning eskirgan ko'rinishini aniqlang.

6. Tarkibidagi ba'zi so'zi ko'chma ma'noli, ba'zisi o'z ma'nosida bo'lgan iboraga misol toping.

7. Tarkibidagi barcha so'zi ko'chma ma'noda bo'lgan iboraga misol toping.

8. Lug'atdan gap ko'rinishidagi iboraga misol toping.

9. Lug'atdagi birikma tarzidagi iboraga misol toping.

TASVIRIY IFODA

Tasviriy ifoda. Tasviriy ifoda – predmet, voqea va hodisani o'z nomi bilan emas, balki muhim xususiyatini tasvirlash orqali ifodalovchi birikma: **oq oltin – paxta, oq oltin ijodkori – paxtakor, kumush tola – pilla, zangori kema kapitani – mexanizator** va hokazo.

Tasviriy ifoda uslubiy vosita sifatida nutqqa ko'tarinkilik, obrazlilik baxsh etadi, jamiyat taraqqiyoti talabidan kelib chiqib, lug'at tarkibini boyitadi. Nutq jarayonida takror va qaytarishdan qochish imkonini beradi, nutqni so'zamollikka undaydi. Shuningdek, tasviriy ifoda faqat jozibadorlik va obrazlilik, nutqni boyitish, ma'no ma'nosini kuchaytirish uchungina emas, balki jamiyatning olg'a qadam qo'yishiga to'sqinlik qilayotgan illatni fosh qilish, undan kulish va unga qarshi kurashga chaqirish maqsadida ham ishlatiladi. Binobarin, tasviriy ifoda predmet, voqea-hodisaning o'z nomi orqali yuzaga chiqmagan muhim xususiyatini tasvirlab, bo'rttirib, ochib va ta'kidlab ko'rsatishda muhim nutqiy vosita hisoblanadi.

So'z ma'nosining kengayishi va ko'chgan holda qo'llanish tilning, ayniqsa, lug'at tarkibining boyligini ta'minlovchi omildan biridir. So'zni ko'chma ma'noda qo'llash – lug'at boyligini ko'rsatuvchi, uslub ravonligi, nutq ta'sirchanligini ta'minlovchi, obrazlilik yaratishga xizmat qiluvchi muhim vosita.

Tasviriy ifoda ko'proq badiiy va og'zaki turkumga mansub bo'ladi. Ba'zan ikki predmetga oid bir xil tasviriy ifoda (**adil gimnastikasi – matematika, shaxmat**) yoki bir nechta predmetga nisbatan tasviriy ifoda qo'llanishi (**zangori ekran, oynai jahon – televizor**) mumkin.

Mustahkamlash uchun savollar

1. *Tasviriy ifoda nima? 2. Tasviriy ifoda va so'zning o'xshash va farqli tomonlari haqida gapiring. 3. Bir ma'noli tasviriy ifoda haqida gapiring, misol keltiring. 4. Ko'p ma'noli tasviriy ifoda haqida gapiring, misol keltiring. 5. Omonim tasviriy ifoda haqida gapiring, misol keltiring.*

ETIMOLOGIYA

Tilshunoslikda so'z va qo'shimchaning kelib chiqish tarixi, taraqqiyoti muhim masala hisoblanadi. **Etimologiya** tilshunoslik sohasi bo'lib, unda so'z va qo'shimchaning kelib chiqishi o'rganiladi. U yunoncha **etymon** "harakat" va **logos** "ta'limot" so'zidan olingan.

Ayrim so'zning etimologik tavsifini keltiramiz.

Axborot. So'zning lug'aviy mohiyati ni anglash uchun **xabar** va **axbor** so'zni qiyoslash lozim. Bu so'zning har ikkisi ham arabcha bo'lib, **xabar** bu – *"ma'lumot yetkazish"*, *"ma'lumot berish"*; **axbor** esa **xabar** so'zining ko'pligi. **-ot** – arab tilida ismga qo'shilib ko'plik hosil qiluvchi qo'shimcha. O'zbek tilida **xabar** ham **axborot** ham birlikda bo'lib, "xabar" ma'nosni anglatish uchun qo'llanadi.

Bilak. O'zbek tilining eng qadimgi davrida, bundan o'n ikki besh asr burun, allofonlari I belgili til hisoblanar edi. Shuning uchun hozirgi tilimizda iste'molda bo'lgan ayrim o'zak tarkibidagi *i/e/o/ö/ü/u* undoshli o'rnida **I** qo'llangan. **Bilak** so'zida esa bunday fonetik o'zgarish sodir bo'lmagan, unda eng qadimgi holat saqlanib qolgan. Hozirgi o'zbek tilida bu so'z *"beshlik"* so'zining o'zgargan ko'rinishi sifatida qo'llanadi. Ko'rinadiki, hozirgi tilimizda faol qo'llanadigan so'zning tarixi juda qadimgi zamonga borib taqaladi.

Maktab darsligida etimologiyaga oid maxsus bo'lim yoki mavzu kiritilmagan, lekin so'zning etimologik xususiyatini ustida hosh qolish, so'zning lisoniy-tarixiy qiyosi qiziqarli

So'z va boraning etimologik tavsifini o'zlashtirish juda murakkab. Chunki buning uchun tilimizning nafaqat hozirgi belgisini, balki uning tarixini tarixiy fonetik va grammatik qonuniyatlini, shuningdek, qardosh tillar bilan umumiy xususiyatlarini, va, hatto, tillar tarixiy qiyosiy o'rganish usulidan xabardor bo'lishni talab etadi. Bundan tashqari, mazkur tilda so'zlovchi xalq tarixini ham bilish zarur, chunki xalq tarixi bilan til tarixi chambarchas aloqadorlikda rivoj topadi.

So'z, qo'shimcha yoki shakl etimologiyasini taxminiy hamda ishonchli dalil asosida keltirib chiqarishga yo'l qo'ymaslik kerak. Chunki taxminiy etimologiya ko'p holda noto'g'ri yoki yolg'on bo'lib chiqadi. Masalan, **qaychi** so'zini so'z tarkibini hal dan tahlil etganda, shakl va ma'no nomutanosibligini sezish qiyin emas. Bu so'zni zohiran **qay-** o'zagi hamda **-chi** yasovchi qo'shimchasiga ajratish mumkin. Biroq har ikki ma'noli qism ham shakl va ma'no jihatidan nomutanosib: **qay-** tarixan **qiy-** fe'lining fonetik o'zgargan shakli (bu yerda y tovushining r tovushiga almashishi natijasida **qirq** so'zi yuzaga kelganligini ham aytib o'tish lozim). **-chi** esa **-g'ich** yasovchi qo'shimchasining fonetik jihatdan ham o'zgargan, ham qisqargan shakli..

Demak, har bir so'zning etimologiyasini ongli ravishda idrok etish zarur aks holda mohiyat noto'g'ri anglashilishi mumkin.

O'quvchi shuni yaxshi bilishi lozimki, etimologik talqin barcha so'zga ham to'g'ri kelavermaydi. Umuman so'z yasovchi organ hosil bo'lgan so'zga bu tahlil mos tushmaydi, chunki bu yerda mohiyat so'zning morfemik tuzilishida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham **ishchi, ochqich, to'plam, o'rin, o'sma, suvoq, qatlama** singari so'zning hosil bo'lish imkoniyati aniq

Bu tizimdagi so'zni o'quvchi o'z idroki bilan talqin qila oladi va talqin qilishi kerak.

Boshqa so'zda esa etimologik talqin umuman boshqacha. Bunday so'zda uning tarixiy taraqqiyoti – eksik ma'nosining, grammatik yoki fonetik xususiyatining o'zgarganligida aks etgan bo'ladi. Bu uning kelib chiqishini tahlil qilish, tarixi va etimologik talqini bilan bog'liq.

So'zning ichki shakli etimologik jihatdan bir qadar sodda. Masalan:

kaylım – kiy so'zidan: bu so'zning qadimgi ko'rinishi **kir**- o'zagi bilan bog'liq bo'lib, so'zning keyingi tarixida r tovushi y ga aylangan;

quduq qayi so'zidan o'sgan.

o'ra o'y so'zidan kelib chiqqan. **o'yiq, o'ymoq** (anqishvona), so'zi bir o'zakdan yasalgan so'z hisoblanadi.

to'g'ri luz so'zdan o'sgan. **tuzuk** ham shu so'zga o'zakdoshdir.

13- DARS
O'ZBEK TILI LEKSIKASI VA UNING BOYISH MANBAI

Tildagi o'zgarish. Butun qurshab turgan olamdagi hamma narsa va hodisa kabi til ham muttasil rivojlanish va o'zgarishda. Buni shu tilning ikki davrdagi holati farqiga qarab bilish mumkin. Masalan, eski o'zbek tili bilan hozirgi o'zbek tili orasidagi farq lug'at tarkibida ko'proq aks etganini sezish mumkin.

Ko'rinadiki, tildagi o'zgarish lug'at jamg'armasida ko'proq namoyon bo'ladi, chunki xalq tarixida ro'y bergan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy o'zgarish tufayli yangi so'z kirib keladi, ayrimi chiqib ketadi. Masalan, eski o'zbek tiliga xos **cherik** (askar), **o'kush** (ko'p), **talim** (bir qancha) singari so'z hozir qo'llanmaydi.

Shunday qilib, til lug'at tarkibi turmush uchun keraksiz bo'lib qolgan tushunchani bildiruvchi so'zning iste'moldan chiqib ketishi, yangi paydo bo'lgan tushunchani ifodalovchi so'zning esa kirib kelishi hisobiga doimo rivojlanib, boyib boradi.

O'zbek tilining boyish manbai. O'zbek tili leksikasi bir qancha manbalar asosida boyib, rivojlanib boradi. Uni, eng avvalo, ikki katta guruhga ajratish mumkin:

1) ichki imkoniyat;

2) tashqi imkoniyat.

Birinchisi ichki manba, ikkinchisi tashqi manba ham deyiladi:

1. O'zbek tili lug'at tarkibining birinchi yo'l bilan boyib borish imkoniyati juda keng. Masalan,

a) ilgari qo'llanib, keyin iste'moldan chiqib ketgan so'zdan yangi tushunchani ifodalash uchun foydalanish: **vazir, hokim, viloyat, shirkat, noib, tuman** kabi.

b) yasovchi qo'shimcha yordamida yangi so'z yasash: **uyali (telefon), omonatchi, pudratchi, bojxona, auditchi (auditor), dizaynchi (dizayner)** va boshqa.

d) shevaga xos so'zni faollashtirish: **mengzamoq** (Xorazm) «o'xshalmoq», «tenglashtirmoq», «qiyoslamoq», **chechа** (yangа) ma'nosida.

2. O'zbek tili lug'at tarkibi tashqi manba asosida ham boyib bormoqda. Dunyoda faqat ichki imkoniyat asosidagina rivojlanadigan til yo'q. Faqat ma'lum zaruriat tufayli yangi tushunchani ifodalovchi o'z tilimizning ichki imkoniyati asosida ifodalab bo'lmagandagina tashqi manbaga murojaat qilish foydali. Mahmud Koshg'ariy, Alisher Navoiy ham shuni ta'kidlagan.

Keyingi davrda tilimizga Yevropa tillaridan bir qancha so'z yangi tushuncha bilan birgalikda kirib keldi. Masalan: **monitoring, diler,** ekoloq kabi. Buning hammasi o'zbek tili leksik imkoniyatini kengaytirib, boyitmoqda.

Har qanday tilda o'z so'z boyligiga ega. Tilning lug'at tarkibi ma'nosida **leksika** atamasi ham qo'llaniladi. Leksika muayyan tildagi barcha so'zlar yig'indisidir.

Hozirga qadar biror bir tilning lug'at tarkibida qancha so'z borligi to'liq aniqlangan emas. Bu borada taxminiy bo'lsa xolos. Jumladan, Olimovus Elbek Navoiy davrida 1930- yilga qadar o'zbek tilida 40-45 ming so'z bo'lgan deb taxmin qiladi. Tilshunos G.Abdurahmonov hozirgi kunda o'zbek tili so'z miqdori 80 mingdan ortiq deb ko'rsatadi. Akademik E.Fozilov esa o'zbek tilidagi so'zlar miqdorini yuz-ikki yuz mingdan ortiq deb taxmin qiladi.

Tildagi taxminiy so'z miqdorini lug'atdan ham bilsa bo'lar.

1981- yil nashr etilgan «O'zbek tilining izohli lug'ati»da 60 ming, 1976- yil nashr qilingan «O'zbek tilining imlo lug'ati»da 65 ming so'z qayd etilgan. Buning ham to'liq emasligi o'z-o'zidan ravshan.

Til lug'at tarkibi juda murakkab va keng qamrovli tushuncha. U tilning yashash shakliga ko'ra aniq lug'aviy qatlam (o'zbek adabiy tili leksikasi, shevа, kasb-hunar so'zi va hokazolarni o'z ichiga oladi.

Mustahkamlash uchun savollar

1. Tildagi o'zgarish haqida gapiring. 2. Tilning boyish manbai haqida gapiring va misol keltiring. 3. Tilning ichki boyish manbasi va uning turi haqida gapirib, misol keltiring. 4. Tashqi manba va uning turi haqida gapirib, misol keltiring.

O'ZBEK TILI LEKSIKASI TASNIFI

O'zbek tili leksikasi tasnifi turli So'zni turlicha tasnillash mumkin. Quyida uning ayrimini ko'rib o'tamiz

So'z o'zlashgan-o'zlashmaganligiga ko'ra ikkiga bo'linadi:

a) o'z qatlam;

b) o'zlashma qatlam.

O'zbek lilidagi turkiy so'z o'z qatlam deyiladi: **men, sen, biz, o'qi, oq, ket, bir, besh**

O'z qatlamga oid so'zning muhim belgisi quyidagi:

1) bu qatlamga oid so'zning **o'zagi** asosan, bir-ikki bo'g'inli bo'ladi **ol, ber, qol, ota, uka, qo'y, echki** kabi.

2) bir bo'g'inli so'z ko proq **undosh+unli+undosh** shakliga ega **kun, kul, bo'l, qil.**

3) ikki bo'g'inli so'z ko'proq ochiq bo'g'indan tuziladi.**ikki, olma, ola.**

4) so'z **r, f, v, h, ts** tovushi bilan boshlanmaydi;

5) so'z oxiri **e, u, o** unlisi bilan tugamaydi (undov, taqlid so'z, **de** fe'li bundan mustasno),

6) so'z tarkibida sirg'aluvchi dj, bo'g iz h, qorishiq **ts** tovushi uchramaydi (undov va taqlid bundan mustasno);

7) so'zda ikki unli yonma-yon kelmaydi **saodat, baayni, mutolaa, maorif** kabi;

8) sof o'zbekcha qo'shimcha undosh bilan boshlanadi: **-chi, -li, -lik, -la** kabi. Ayrimi unli bilan ham boshlanadi **-im, -ib** kabi Bunda tovush orttirilishi mavjud;

9) **f, d** kabi yumshoq va lab-tish **v undosh** sof o'zbekcha so'zga xos emas: **daftar. dard, dil, dunyo, falak, vagon** kabi;

10) fe'l, son, taqlid so'z faqat o'z qatlamga mansub;

11) o'z qatlamga mansub so'z **o'zagi** alohida talaffuz qilinganda, tovush o'zgarishi yuz bermaydi O'zak holida tovush o'zgarishiga uchragan so'z o'zlashma qatlamga mansub: **go'sht, dard, hukm, daftar, kitob** kabi;

12) boshqa tildan o'zlashgan so'z asosida shu tilda yasalgan so'z ham o'z qatlamga mansub bo'ladi: **kitobxona, nonchi, ma'rifatli, komputerchi** kabi.

13) o'z qatlam so'zi tutuq belgisi bilan yozilmaydi.

Qarindosh bo'lmagan tildan kirib kelgan so'z o'zlashma, olinma yoki o'zlashma qatlam deyiladi **kitob, daftar, non, ma'rifat, telefon, komputer**

O zbek tilidagi o'zlashma so'zning asosiy qismini fors-tojik, arab tilidan o zlashgan ham ruscha-baynalmilal (xalqaro) so'z tashkil qiladi.

O'zbek tilidagi fors-tojikcha so'zni fonetik ko'rinishiga ko'ra o'zbekcha so'zdan farqlash qiyin. Lekin ayrim muhim belgisi mavjud:

1) sirg'aluvchi **dj** tovushi fors-tojikcha so'zda uchraydi. **mujda, gijda, mujgon** kabi,

2) so'z oxirida undosh qator keladi: **taxt. baxt, dard, go'sht, farzand, daraxt** kabi;

3) **o** unlisi cho'zib aytiladi **non, darmon, bahor** kabi.

Lekin buning barchasi ham asosiy belgi bo'lolmaydi.

O'zbek tilida arabcha o'zlashma ham talay. Uning muhim belgisi

1) tuluq belgili so'z arab tiliga mansub (ruscha-baynalmilal (xalqaro) so'z mustasno);

2) ko'pl.k qo'shimchasi so'z oldida bo'ladi: xulq axloq, she'r-ash'or, xabar axbor kabi

3) **-at, -at, illo, ullo**, iy, viy unsuri bilan tugagan so'z arab tiliga xos. axborot, hayvonot, nabotot. shaxsiyat. tabiat, Abdullo, adabiyot, oilaviy, ilmiy kabi.

4) arabcha so'z tarkibida **g, dj, ch, p, ng** tovushi uchramaydi;

5) so'z boshida **-ik, -iq, -ak, -mu, -ma** unsuri bo'ladi: **ikrom, iqror, akram, muallim, maktab, mahorat** kab

Qatlam	1923- yil	1940- yil
O'zbekcha so'z	61 %	69 %
Arabcha-forscha so'z	37.4 %	25 %
Ruscha-baynalmilal so'z	2 %	20 %

Eslatma

Turkiylar ham boshqa tilga ko'plab so'z bergan. Masalan rus tiliga ***chugun, tovar, kirpich, utyug, aliy, bumaga, topor, yarlik, bara, karakuli, arik, djugara, xirman, dengi, altin, izumrud, jemchug, bazar, kazna, chulok, karman, tulup, sarafan, kaftan, yapancha, tyubeteyka, xalat, kolbasa, kavardak, shurpa, plov, kumis, ayran, jir, arbuz, vishnya, uryuk, ayva, kumach, churek, xalva, alcha, injir, Barsunov, Baskakov, Tolmachov, Turgenev, Saltikov, Polivanov, Arakchoyev, Chirikov, Saratov, yessentuki, Berdichev, Arbatskaya*** *kabi so'zlarni*

Qo'llanilishiga ko'ra tasnifi. So'z qo'llanish miqdoriga ko'ra farqlanadi. Ko'p so'z cheklanmagan, ba'zisi kam qo'llanishga ega. Shu jihatdan so'z ikki turga bo'linadi:

a) qo'llanishi chegaralanmagan so'z;

b) qo'llanishi chegaralangan so'z.

Qo'llanilishi chegaralanmagan so'z. O'zbek til lug'at tarkibining asosini ana shu qatlam tashkil etadi. Qo'llanilishi chegaralanmagan so'zni shu tilda so'zlashuvchi kishi, qanday shevaga, qaysi hududga, qaysi kasb yoki sohaga mansub bo'lishidan qat'i nazar, cheklanmagan darajada ishlatadi.

Qo'llanilishi chegaralanmagan so'z barcha turkumda mavjud.

Fe'l: **ishlamoq, kelmoq, olmoq, ko'rsatmoq, buyurmoq, saylamoq.**

Ot: **ota, ona, non, suv, stol, eshik, tog', yer, shamol, radio.**

Sifat: **shirin, achchiq, qizil, ko'k, katta-kichik, xunuk, go'zal.**

Son: **bir, o'n, yuz, ming.**

Ravish: **hamisha, ba'zan, ataylab, hozir, ilgari.**

Olmosh: **kim, nima, qanday, nima qilib, qancha, shu, biz, hamma.**

Undov va modal: **xo'p, mayli, rahmat.**

Ko'makchi: **uchun, bilan, singari.**

Bog'lovchi: **ham, va, bilan, ammo.**

Yuklama: **faqat, xuddi, hatto.**

Qo'llanilishi chegaralanmagan so'zning aksariyati umumtushkiy va o'zbekcha. Ammo, shu bilan birga, ular uncha-muncha o'zlashmasi ham ko'p. Masalan:

Tojikcha: **go'sht, non, dard, bobo, dugona, do'st.**

Arabcha: **avlod, bilan, inson, sinf, millat, himoya.**

Qo'llanishi chegaralangan so'z ikki guruhga bo'linadi:

a) qo'llanish davri chegaralangan so'z;

b) qo'llanish doirasi chegaralangan so'z.

Qo'llanish davri chegaralangan so'z. Davr taraqqiyoti, ijtimoiy hayotdagi o'zgarish tilning leksikasida ancha sezilarli. Bunda to'rt holat kuzatiladi. **Birinchidan**, ayrim so'z eskirib, iste'moldan chiqib ketadi. **Ikkinchidan**, allaqachon iste'moldan chiqib ketgan so'z qayta qo'llanadi. **Uchinchidan**, yangi-yangi so'z paydo bo'ladi. **To'rtinchidan**, nofaol so'z faollashadi, iste'mol doirasi kengayadi, ma'nosida o'zgarish yuz beradi.

Hozirgi adabiy tildagi eskirgan so'z **eski so'z**, yangi so'zning hammasi **yangi so'z**, na eskirgan, na yangilik belgisiga ega bo'lgan so'z **zamonaviy so'z** deb yuritiladi. Demak, o'zbek tili leksikasini bir xil nuqtai nazardan uchta asosiy qatlamga bo'lib o'rganish mumkin: 1) zamonaviy leksika; 2) eskirgan leksika; 3) yangi leksika.

Zamonaviy so'z. Hozirgi o'zbek adabiy tili leksikasining asosini zamonaviy leksika tashkil etadi. Bu leksika **umumiste'mol so'z**, **qo'llanilishi chegaralanmagan so'z**, **faol so'z** kabi atamalar bilan ham yuritiladi.

Eskirgan so'z. Endi qo'llanilgan old so'z o'ziga xos xususiyatiga ko'ra ikkiga bo'linadi:

1) tarixiy so'z;

2) arxaik so'z.

Tarixiy so'z hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llanuvchi o'tmishga oid, iste'moldan chiqib ketgan narsa-hodisani bildiradi:

1) ijtimoiy-siyosiy nom: **podsho, xon, qul, qullik, batrak, qarol, chorikor**;

2) mansab, amal, unvon nomi: **qozi, amin, bek, amir, arbob, udaychi, g'umchachi, shohir zakolchi**;

3) buyum nomi: **qalqon, dubulg'a, sovut, charx, duk, hajaj, kajava, loytun, dirijon, kashkul**;

4) o'lchov, pul birligi nomi: **botmon, dirham, miri, paqir, qadoq, tanob, arshin**.

5) ayim-kechak nomi: **kuloh, choriq, paranji, chachvon, qalami, hirqa**;

6) hujjat nomi: **vasiqa, sanad, taraka xati, vaqfnoma**.

7) mansab nomasi: **mudarris, xalfa, hoftiyak**.

Tarixiy so'z bildirilgan narsa-hodisa iste'moldan chiqib, o'tmish voqeligiga aylanganligi sababli uning ko'pchiligi hozirgi davr kishisi uchun notanish bo'lishi mumkin.

Ayrim ko'p ma'noli so'zning ba'zi ma'nosi tarixiylashib, boshqasi saqlanib qoladi. Masalan, **millat** so'zining **Millatingni ayt: • Ibrohim Xalilulloh millati** gap da voqelangan «biror dinga mansublik» ma'nosi eskirgan. Misollar:

eski ma'no	yangi ma'no
rais – diniy rasm-rusum nazoratchisi	**rais** – rahbar
arbob – qishloq oqsoqoli	**arbob** – unvon
saroy – podsho qarorgoh	**saroy** – madaniy tadbir uyi
boy – feodal yer egasi	**boy** – mo'l, ko'p
oqsoqol mahalla xo'jayini	**oqsoqol** – keksa hurmatli shaxs

Arxaik so'z = o'z o'rnini boshqasiga bo'shatib bergan so'z. Ijtimoiy taraqqiyot natijasida ayrim narsa-hodisa boshqa leksema bilan ataldi, avvalgisi iste'moldan chiqib ketdi: **ulus** (xalq), **afandi** (o'qituvchi), **lang** (ahmoq), **ilmoch** (tarjimon).

Eslatma

Bundan tashqari arxaik qo'shimcha (-g'a (-ga), -g'an (-gan), -g'i (-gi), -ur (-ar), -g'ay (-gay, -sin)) arxaik ibora (**jismini dol aylamoq** – qadrini bukmoq, **fotiha olmoq** – javob so'ramoq, **yoqasini chok etmoq** – faryod solmoq) ham mavjud

Tarixiy va arxaik birlikning muhim belgisi.

1) arxaik so'z hozir mavjud narsa, tarixiy so'z – o'tmish narsa-hodisasi atamasi;

2) arxaizmning lug'aviy ekvivalenti mavjud, tarixiy so'zning ekvivalenti yo'q;

3) tarixiy so'z yakka nom, arxaik so'z birdan ortiq nomning biri.

Yangi so'z – ilk davrda paydo bo'lgan va yangilik bo'yog'i sezilib turgan so'z: **lizing, audit, market, test, internet** kabi. Ular fanda **neologizm** deb ham yuritiladi.

Neologizm quyidagilarga ega:

a) yangi yasalgan: **serverxona, dendixona, devonxona, orolliq nazorat, yakuniy nazorat.**

b) yangi ma'no kasb etgan: **tadbirkor, halqa (yo'l), nazorat, do'kon, foiz.**

v) yangi kirib kelgan: **reyting, test, audit, market.**

Yangi so'z davr o'tishi bilan zamondosh leksika tarkibiga o'tib ketadi. Masalan, yaqin vaqtgacha neologizm sifatida qaralgan **kosmos, televidenie** leksemasi bugungi kunda yangilik bo'yog'ini yo'qotdi.

Faollashgan so'z yangi so'zning turidan bo'lib, u vaqtlar iste'moldan chiqib ketgan va bugungi kunda qayta qo'llana boshlangan: **hokim, viloyat, tamnn, oqsoqol, sardor** kabi.

Qo'llanish doirasi chegaralangan so'z. Qo'llanish doirasi chegaralangan so'zni uchga bo'lib o'rganish mumkin:

a) shevaga xos so'z;

b) termin (atama);

v) argo va jargon.

Shevaga xos so'z. Ma'lum bir hududda yashovchi kishilar nutqiga **xos so'z shevaga xos so'z deyiladi. kalapo'sh** (Buxoro) – do'ppi, g'o'z (Xorazm) – yong'oq, mishiq (Farg'ona) – mushuk, **poku** (Samarqand) – ustara.

Sheva so'zi fanda **dialektizm** deb ham yuritiladi.

Badiiy adabiyot va kinofilmda mahalliy ruhni aks ettirish, asar qahramoni nutqini aniq berish maqsadida shevaga xos so'zdan foydalaniladi.

Ayrim so'z adabiy tilda boshqa shevada boshqa ma'noda ishlatiladi. Masalan, **pashsha** so'zi adabiy til lug'atida «yozgi qo'sh parda qanotli hasharot» deb izohlangan. Biroq ayrim shevada u **chivin** so'zi o'rnida ishlatiladi: **Ajal yetmay o'lmas Boysunning xoni, Besabab chiqmaydi chivinning joni** («Alpomish») gapidagi chivin so'zi xonduzi uchadigan qo'ng'ir-qora tusli mayda hasharotni ifodalasa, **Atrofda g'uv-g'uv pashsha: ayoqlarga yopishadi, burun kataklariga suqiladi, qulog'ini uzadi** (Oybek) gapida pashsha so'zi mazkur hasharotning atamasi. Yoki **irkit** leksemasi adabiy tilda «ilon» ma'nosini anglatuvchi so'z bo'lsa, ayrim shevada «ayron» ma'nosiga ega. Shevaga oid so'zni umumiy adabiy tildagi muqobiliga almashtirib sanamaslik lozim.

Termin (ot.ma'no). **Fan-texnika, qishloq xo'jaligi, san'at va madaniyat sohasiga xos so'z termin deyiladi.**

Terminning cheklanlangan qo'llanishga egaligi boshqa soha kishisi uchun tushunarsiz ekanligini anglatmaydi. Masalan, to'g'ri chiziq, gap, so'z turkumi, tezlik atamasi ko'pchilik uchun tushunarli, lekin kam qo'llaniladi.

Termin ko'p hollarda umumiste'mol so'zidan ma'lum bir ma'noning maxsuslashuvi natijasida hosil bo'ladi. Masalan, **fojia, ega, ot, termik, qo'shish, ayirish** so'zi umumiste'mol so'z. Lekin ular fanga termin bo'lib o'tgan.

Kasb-hunarga oid so'z – turli kasb-hunar egasi nutqida qo'llanuvchi so'z. Kasb-hunar atamasi shu hunar egasi qaysi shevada vakili bo'lsa, shu shevaga leksikaga leksikaga kiradi. Masalan, Shovrisatz shevasiga mansub hunarmand ishlatadigan so'z Buxoro shevasida bo'lmasligi mumkin. Kasb-hunarga oid so'z, birinchidan, ma'lum bir shevaga doirasida bo'lsa, ikkinchidan, shu shevada so'zlashuvchi ayrim kishi nutqiga xos.

Jargon (fransuzcha **g'argon** – "buzilgan til") nam qo'llanishda cheklanlangan leksika tarkibiga kiradi. **Kasbi, jamiyatdagi o'rni, qiziqishi, yoshiga ko'ra alohida guruhni tashkil etgan kishilarning ko'pchilikdan ajralib turish maqsadida ishlatadigan so'z jargon deyiladi.** Masalan, programmist jargoni, talaba jargoni, askarlar jargoni, o'g'ri jargoni, artist jargoni va h.

1) talaba jargoni: **yopmoq** (sessiyani tugatmoq), **vozdux** (stipendiya), **yaxlamoq** (imtihondan qaytmoq), **stukach** (chaqimchi).

2) yoshlar jargoni: **g'isht** (kuchuk), **sindirmoq** (haydamoq), **krutoy** (kelishgan), **risavka** (so'z-so'z qilmoq), **uxatib ketmoq** (aldamoq).

Argo (fransuzcha **argot** – "lanja") ayrim ijtimoiy-professional yoki jinsiy guruhning o'ziga xos tili. Argo bir necha til unsuridan iborat bo'lishi va ko'p holda boshqaga tushunarsiz nutq ko'rinishida namoyon bo'ladi. Argo tili o'z

grammatikasiga ega emas. Unda umumxalq tili grammatikasiga tayaniladi. Argo ikki maqsadning biri uchun qo'llaniladi:

1) fikrni sir tutish;

2) o'zini ajratib ko'rsatish.

Jargon umumxalq tilidan maxsus leksikasi va frazeologiyasi hamda yasovchi vositalarining o'ziga xosligi bilan farqlanadi:

1) otaroshi jargoni: **yakan** (pul), **hasut** (non);

2) o'g'ri jargoni: **xurmo** (buxoro tilla tangasi),

3) mahbus jargoni: **maymun** (oyna), **timsoh** (qaychi), **oq kaptar** (geroin), **yashil** (millsioner);

Qo'llanishi chegaralangan so'zning uslubiy xususiyati. Bunday so'zga eskirgan va yangi, sheva va kasb-hunarga oid so'z atama, jargon, argo, vulgar va varvar so'z kiradi. Nutqda bu kabi so'z ham muhim uslubiy vazifa bajaradi. Arxaizm badiiy yoki ommabop asarda nutqqa kinoya, hajv ruhini berish uchun qo'llansa, tarixiy so'zdan o'tmish voqeligini jonli ifodalash maqsadida foydalaniladi. Sheva so'zi mahalliy ruhni ifodalashda ishlatilsa, atama ilmiy va badiiy asarda fan-texnikaga oid tushunchani aniq ifodalash uchun qo'llanadi, jargon esa ma'lum toifaga mansub kishi nutqini berish uchun zarur. Bu – qo'llanishi chegaralangan so'zning badiiy uslubdagi vazifasi.

Albatta, bu guruh so'zidan me'yorida foydalanish lozim, aks holda nutqda g'alizlik paydo bo'ladi: **Terilgan paxtani tashib turish uchun ko'tarimchi ajratildi. 2. Buning ustiga tokarlik stanogining rezioderjateli o'rniga maxsus moslama tayyorlanib, unga grebenlarni tozalovchi frez o'rnatildi.** 8-misol gapda **ko'tarimchi** o'rinsiz yasalgan yangi so'z bo'lsa, ikkinchi gapdagi atama me'yordan ortiq ishlatilganligi natijasida gap mazmuni tushunarsiz bo'lib qolgan.

Nutqda hora, tasviriy ifoda va maqol ham ma'lum uslubiy vazifa bajaradi. Iboradagi omonimlik, sinonimlik, antonimlik xususiyati, tasviriy ifodadagi balandparvozlik, maqoldagi mazmuniy ixchamlik kabi uslubiy imkoniyat yaratadi: **Bir yoqadan bosh chiqarmoq** iborasi badiiy nutqqa mansub bo'lsa, **bir jon, bir tan bo'lmoq** iborasi umumnutqqa xos. Yozuvchi va shoir ham hora va maqol yoki ularga shaklan o'xshash **O'likning yog'ini, tirikning tirnog'ini yeydi** bu (Abdulla Qahhor). **O'qsiz soldat – qilichsiz qin** (Cyuek) kabi

Mustahkamlash uchun savollar

1.O'zbek tili leksikasi tasnifi turlari haqida gapiring. 2.O'zlashgan qatlam nima? Misol keltiring. 3.O'z qatlam so'zlari haqida gapiring. 4.Qo'llanishi chegaralangan so'z haqida gapiring. 5. Qo'llanishi chegaralanmagan so'z haqida gapiring. 6. Zamonaviy so'z nima? Misol keltiring. 7.Eskirgan so'z haqida gapiring. 8.Tarixiy so'z haqida gapiring va misol keltiring. 9. Arxaik

so'z haqida gapiring va misol keltiring. 10.Yangi so'z haqida gapiring, misol keltiring. 11 Shevaga xos so'z haqida gapiring va misol keltiring. 12.Termin (atama) haqida gapiring va misol keltiring. 13 Jargon haqida gapiring va misol keltiring. 18.Argo haqida gapiring va misol keltiring

Topshiriq

1. Lug'atdan **go'sht, non, oftob, gul, daraxt, kitob, daftar** *kabi qadimdan tilimizga o'zlashib o'zimizniki dek bo'lib qolgan so'zdan topib, ularning etimologiyasi bilan tanishing.*

2. Lug'atdan shakli bir xil, talaffuzda urg'usi bilan farqlanuvchi so'z formografidan topib, qaysi tilga va qaysi turkumga mansubligini izohini daftaringizga yozib oling. Masalan: **akade'mik-akademi'k, sarf'-sa'rf.**

3. Rus tilidan o'zlashgan **adyol, karavot, cherkov, cho'tka** *kabi so'zda yuz bergan fonetik o'zgarishni aniqlang va tushuntiring*

4. Lug'atdan **barter, biznes, dizayn, futbol, jinsi, voleybol** *kabi ibolizcha so'zdan toping, so'ngra inglizcha-o'zbekcha lug'atdan foydalanib, ularning o'z tilida qanday yozilishini aniqlang*

5. Tilimizga o'zlashtirish jarayonida fonetik o'zgarishga uchrab o'zbek tilidagi hozirgi ko'rinishi o'zining asl shaklidan uzoqlashib ketgan so'zga 20-30 tacha misol keltiring. Masalan: **admiral – [arabcha amir al-bahr], astoydil – [forsche-tojikcha az tahi dil], bo'yra – [forsche-tojikcha buryo], g'isht – [forsche-tojikcha xisht], vaj – [arabcha vajh].**

6. Lug'atdan bir xil shaklga ega bo'lgan turli turkumga oid omonim so'zdan topib, ular ishtirokida gap tuzing.

7. O'zlashma so'z negizida hosil qilingan o'zbekcha so'zga misol keltiring Masalan: **asfaltlamoq, aksiyador, baxtsiz, komputerchi, menejerlik, samolyotsozlik.**

8. Lug'atdagi biror harf (masalan, **B***) bilan boshlanadigan so'zni qaysi tilga mansubligiga ko'ra, guruhga ajrating. Mazkur undosh bilan boshlanadigan so'zlar qaysi tildan ko'proq o'zlashganini aniqlang*

9. Lug'atdan **adab, adabiy, adabiyot; aerodinamika, aerodrom, aeroflot, aeroplan, aeroport** *kabi o'zakdosh so'zdan topib, ularning ma'nosi orasidagi umumiylik va xususiylikni aniqlang*

10 Tarix, kimyo, fizika, matematika, iqtisod fanlari bo'yicha o'tilgan darslarda uchragan o'zlashma so'zlarning ma'nolarini yozing. So'ngra izohingizni lug'atdagi bilan taqqoslang.

14- DARS
LUG'AT

Lug'at muhim ijtimoiy vazifani bajaradi. Bu quyidagicha ko'zga tashlanadi:
– ona tilini va boshqa tilni o'rgatishga xizmat qiladi.
– ona tili so'zlarini tasvirlash va me'yorlashtirish vazifasini o'taydi;
– tillararo munosabatni ta'minlaydi.
– til leksikasini ilmiy tekshiradi va talqin qiladi;
Lug'at avvalo, maqsadi va mo'ljalga ko'ra ikkiga bo'linadi
1) umumiy lug'at;
2) maxsus lug'at

Umumiy lug'at keng o'quvchi ommasiga, maxsus lug'at esa tor doiradagi kishi – alohida soha mutaxassisiga mo'ljallangan bo'ladi.

Har ikkala lug'at ham o'z o'rnida yana ikkiga bo'linadi
1) ensiklopedik lug'at
2) filologik lug'at

Demak, lug'atni: umumiy ensiklopedik lug'at va maxsus ensiklopedik lug'at, umumiy filologik lug'at va maxsus filologik lug'atga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq va qulay.

Umumiy ensiklopedik lug'at. Ma'lumki, umumiy ensiklopedik lug'at alfavit tartibida bo'lib, ularda so'z emas, balki shu so'zdan anglashilgan tushuncha uchun asos bo'lgan narsa, tarixiy voqea, tabiiy va ijtimoiy hodisa, shaxs, geografik nom haqida ma'lumot beriladi va lug'at maqolasi (lug'atdagi tavsif lug'at maqolasi deyiladi) lug'at yozilgan tilni tushunuvchi keng o'quvchi ommasiga mo'ljallangan bo'ladi. «O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi» ana shunday lug'at.

Maxsus ensiklopedik lug'at fan-texnika, san'at va madaniyatning ma'lum bir sohasiga oid tushunchani shu soha qiziquvchisi va mutaxassisi uchun mo'ljallab tavsiflaydi. Bunday lug'at sifatida soha ensiklopedik lug'ati – «Meditsina ensiklopediyasi», «Физический энциклопедический словарь», «Лингвистический энциклопедический словарь» kabilni misol qilish mumkin. Umumiy ensiklopedik lug'atdan farqli ravishda, maxsus ensiklopedik lug'at tor sohaga doir tushunchani keng va batafsil sharhlaydi.

Ko'rinadiki, maxsus ensiklopedik lug'at soha mutaxassisi uchungina zarur bo'lgan tushunchani ana shu soha ilmiy uslubiga xos holda bilan tasvirlaydi.

Ensiklopedik lug'at **qomusiy lug'at** ham deb ataladi.

Umumiy filologik lug'at – barcha soha kishisi, keng foydalanuvchi ommasiga mo'ljallangan izohli imlo orfoepik, tarjima lug'at. «O'zbek tilining izohli lug'ati», «Ruscha – o'zbekcha lug'at» ana shunday lug'at sirasiga kiradi.

Umumiy izohli lug'atda so'zning barcha – grammatik, uslubiy, frazeologik birlik tarkibida qo'llanishi, umumiylik, qaysi tildan o'zlashganlik belgisi ko'rsatiladi.

Imlo lug'ati so'zni amaldagi imlo qoidasiga muvofiq ravishda qanday yozish kerakligini o'rgatadi. Demak, bunday lug'at ham amaliy, ham nazariy tabiatga ega bo'ladi. 1995- yilda Botir imlosidagi «Imlo lug'ati» «O'qituvchi» nashriyoti tomonidan chop etildi.

Orfoepik lug'atda so'zning to'g'ri adabiy talaffuzi ko'rsatiladi. Bunday lug'at birinchi marta kichik hajmda M.Sodiqova va U.Usmonova tomonidan «O'zbek tilining orfoepik lug'ati» nomi bilan 1977- yilda «O'qituvchi» nashriyoti tomonidan bosib chiqarildi.

Maxsus filologik lug'at tor o'quvchi ommasi – olishunoslik bilan shug'ullanuvchi va boshqa ilmiy tadqiqotchiga mo'ljal olgan bo'ladi. O'zbek tilining morfem, chastotali, ters, o'zlashma so'z, frazeologizm, sinonim, antonim, omonim, sheva so'zlari, terminologik, etimologik lug'ati shular jumlasidan.

Morfem lug'atda so'zning tarkibi ko'rsatiladi. Bunday lug'at birinchi marta A.G'ulomov, A.N.Tixonov, R.G.Qo'ng'urov hamkorlikda tuzilib, 1977- yilda «O'qituvchi» nashriyoti tomonidan chop etilgan. 2007- yil "Yangi asr avlodi" nashriyotida B.Mengliyev va B.Bahriddinovalarning maktab o'quvchisi uchun mo'ljallangan "O'zbek tilining so'z tarkibi o'quv lug'ati" chop etilgan.

Chastotali lug'atda so'zning qo'llanish darajasi haqida ma'lumot beriladi. I.A.Kasen muallifligida chop etilgan «Словарь наиболее употребительных слов современного узбекского литературного языка» (Toshkent, 1970) lug'ati chastotali lug'at bo'lib, unda so'zning ma'lum bir tanlangan matnda necha marta uchrashi va qo'llanishi ko'rsatilgan.

Ters lug'atda so'z teskari tomondan, oxiridan alfavit tartibida joylashtiriladi. Bu lug'at ham lingvistik lug'at bo'lib, R.Qo'ng'urov va A.Tixonov tomonidan «Обратный словарь узбекского языка» nomi bilan 1960- yilda Samarqandda chop etilgan.

O'zlashma so'z lug'atida o'zbek tiliga boshqa tillardan kirib kelgan so'z izohlanadi. Bu tildagi lug'at – izohli lug'atning bir ko'rinishi. Ular qaysi tildan o'zlashgan so'zni izohlashiga ko'ra turlicha nomlanadi. Masalan, O.Usmonova va R.Qodirov tomonidan 1965- yilda nashr etilgan «Ruscha-internatsional so'zlar izohli lug'ati»da rus va boshqa yevropa tillaridan kirib kelgan so'z izohlangan. 2007- yil "Yangi asr avlodi" nashriyotida Y.Hamrayevaning maktab o'quvchisi uchun "O'zbek tilining o'zlashma so'zlar o'quv izohli lug'ati" chop etilgan.

Frazeologik lug'at maxsus filologik lug'atlarning bir turi bo'lib Sh.Rahmatullayev tomonidan tuzilgan «O'zbek tilining izohli frazeologik

lug'ati» (Toshkent, 1978) - uning mukammal namunasi. 2007- yil "Yangi asr avlodi" nashriyotida B.Mengliyev, O.Boymatova va M.Xudoyberdiyevning maktab o'quvchisi uchun "O'zbek tili terminlarining o'quv izohli lug'ati" chop etilgan.

Etimologik lug'at o'zbek lug'atshunosligining alohida sohasiga aylanadi. Bunday lug'atda so'zning kelib chiqishi izohlanadi. Bunga T.Nafasov tomonidan tuzilgan «Janubiy O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati»ni misol qilib keltirish mumkin. 2007-yil "Yangi asr avlodi" nashriyotida T.Sumayevning maktab o'quvchisi uchun "O'zbek tilining o'quv etimologik lug'atini chop etish rejalashtirilgan.

Dialektal lug'at o'zbek tilining shevasiga xos bo'lgan so'zni qayd qiladi. Bunday lug'at umuman o'zbek tilining barcha yoki ma'lum bir shevasiga xos so'zini izohlashga mo'ljallangan bo'lishi mumkin. 1971- yilda muallif jamoasi tomonidan «Fan» nashriyotida chop etilgan «O'zbek xalq shevalari lug'ati»ni bunga misol qilib ko'rsatish mumkin.

Terminologik lug'at ma'lum bir sohaga tegishli so'zni izohlaydi. Terminologik lug'at izohli yoki tarjima ko'rinishiga ega. Demak, terminologik lug'atni bir tilli va ko'p tilli lug'atga bo'lish mumkin. A.Hojiyevning «Lingvistik terminlarning izohli lug'ati» (Toshkent, O'qituvchi 1985) dan o'rnak namunasiga e'tibor qiling!

"*Kriptologiya*. Maxfiy til, ularni tuzish qonuniyatini rasshifrovka qilish usulini o'rganuvchi fan.

***Ko'makchili aloqa*.** So'zlar o'rtasida ko'makchi vositasida yuzaga keladigan aloqa: **qalam bilan yozmoq, uyga qadar yugurmoq** kabi.

Tarjima lug'at bir tildagi so'z ma'nosining boshqa tilda ifodalanishini, berilishini ko'rsatadi.

Ko'p tilli lug'atda so'z ikkitadan ortiq tilda beriladi. Bunday lug'at juda ko'p.

Tarjima lug'at qanday birlikni ifodalashiga ko'ra turicha bo'ladi:

1) leksik birlik lug'ati;

2) frazeologizm lug'ati;

3) har ikkala birlik lug'ati;

4) maqol lug'ati.

1984- yilda Toshkentda nashr etilgan ikki tomli «Ruscha-o'zbekcha lug'at» leksik birlik lug'atidir.

Tarjima frazeologik lug'atiga M.Sodiqovaning «Ruscha-o'zbekcha frazeologik lug'at»i (Toshkent, 1972) misol bo'ladi.

Mustahkamlash uchun savollar

1.Lug'at nima? 2.Lug'atning vazifasi qanday? 3.Lug'atning maqsad va mo'ljalga ko'ra turi qanday? 3.Umumiy lug'at qanday lug'at? 4.Umumiy

qanday lug'at bo'lsa gapiring. 5. Umumiy fanlarga lug'atning xususiyatlari haqida gapiring. 6.Maxsus lug'atlar haqida ma'lumot bering. 7.Maxsus mashhurlarga lug'atlar haqida gapiring. 8.Maxsus fanlarga lug'atning xususiyatlari haqida gapiring. 9.O'quv lug'atlari haqida gapiring. 10.Orfoepik lug'at qanday lug'at? 11.Morfem lug'at qanday lug'at? 12. Onomastik lug'at qanday lug'at? 13.Ghesotlak lug'at qanday lug'at? 14.Frazeologik lug'at qanday lug'at? 15.Ters lug'at qanday lug'at? 16. Terminologik lug'at qanday lug'at?

Topshiriq

1. 10 ta so'z olib, bir nechta lug'atlar bo'yicha izohlarini va dastlabkilarini yozing.

2. 20 ta so'z olib, ters lug'atini tuzing.

3. Darslaringizga oid qisqa dars mobaynida egallagan bilimlaringiz asosida lug'atini tuzing.

4. O'rtoqlaringiz bilan lug'atdan so'z qidirish bo'yicha "Kim oldin topar" o'yini o'ynang.

15- DARS
MORFEMIKA

Morfemika haqida ma'lumot. Morfemika atamasi ikkinchi so'z tarkibi, ya'ni ma'noli qismi haqidagi bo'limni birlab yunoncha morphe – forma, shakl so'zidan olingan.

So'zning ma'noli qismi. O'zak va qo'shimcha so'zning ma'noli qismi deyiladi. Masalan, paxtakorlarga so'zi paxta-, -kor, -lar, -ga qismlardan iborat. Ajratilgan har bir tarkibiy bo'lak – so'zning ma'noli qismi. Paxta so'zining ma'nosi "g'o'zada vujudga ko'chadigan oq momiq tola" ma'nosi bo'lsa, -kor qismining ma'nosi "o'zakdan anglashiluvchi narsani yaratuvchi shaxs"dir. Yoki -lar "ko'plik", -ga "qilish, yo'nalish" kabi ma'noga ega.

Ma'noli qism **morfema** ham deyiladi.

Paxta- va -kor, -lar, -ga qismlari ma'nosi va qo'llanish xususiyati bilan farqlanadi. Paxta mustaqil lug'aviy ma'noga ega. U bu ma'noni qo'gan qismsiz ham anglana olishi bilan ajralib turadi. Shuning uchun u **o'zak** deyiladi. Boshqa qism esa ajratilgan holda mavhum bo'lishi, o'zaksiz mustaqil ma'no anglatmasligi va mustaqil holda qo'llanmasligi bilan farqlanadi. Bu – qo'shimcha. Shunga ko'ra, **o'zak morfema** va **qo'shimcha morfema** ajratildi. O'zak morfema **leksema** ham deyiladi.

O'zak so'z yasovchi qo'shimcha olishi bilan o'zakdosh so'z vujudga keladi: **gul** + **guldi, guldon, gulli, gulsiz, gulbarg** kabi. Shakl yasovchi o'zak so'zlar o'zakdosh so'z sanalmaydi: **kitob** + **kitoblar, kitobni, kitobcha** kabi.

O'zak tarixiy taraqqiyot natijasida qo'shimchaga aylanib qolishi ham hozirgi o'zbekchaga singib ketishi mumkin. Masalan, **xona** so'zi taraqqiyot natijasida tovushga aylangan. Biroq «joy» ma'noli yasama so'zni hosil qiluvchi so'z yasovchiga aylanib ketgan bo'lsa (**oshxona, ishxona, molxona**), ikkinchisida uy, yashash joyining ma'nosi saqlangan (**uchinchi xona, ikkinchi xona**). **Nomi, goh, xo'r** so'zi ham shunday tarixiy siljishni boshidan kechirgan.

So'z tarkibidagi o'zgarish. Til taraqqiyoti natijasida so'zning ma'no qismi tarkibida jiddiy o'zgarish yuz beradi. Uning bir nechta ko'rinishi bor:

1. So'z va qo'shimcha birlashib, tobelashishi mumkin: **yuksak, yuzsiz, biron, biror, bezor**.

2. Ikki so'z qo'shilib **yaxlitlashishi** mumkin: **bugun, saksон**.

3. So'z va qo'shimcha orasidagi aloqa **soddalashishi** mumkin: **yumaloq, qattiq**.

4. So'z qo'shimcha holiga kelishi, murakkab qo'shimcha bir-biriga qo'shilib ketishi, ya'ni **birlashishi** mumkin: **bomb yotibdi** → **bomb yatipti** → **boryapti**; **ning** + **ki** = **niki**.

Keltirilgan misolning barchasi tarixiy yasalish deyiladi.

Qo'shimchaning tasnifi. Qo'shimcha vazifasiga ko'ra 2 guruhga bo'linadi:

1) so'z yasovchi qo'shimcha

2) shakl yasovchi qo'shimcha

So'z yasovchi qo'shimcha so'zga qo'shilib, yangi so'z hosil qiladi. Yangi so'z yangi lug'aviy ma'noga ega bo'ladi. Masalan, **paxta** so'zi **-chi** qo'shimchasini olib, **paxtachi** so'zi vujudga keladi.

So'z yasovchidan boshqasi **shakl yasovchi qo'shimcha** deyiladi. Shakl yasovchi qo'shimcha grammatik ma'no ifodalaganligi uchun lug'aviy ma'no hosil qiluvchi so'z yasovchiga muqobil ravishda grammatik qo'shimcha ham deyiladi. Grammatik qo'shimcha asosiy xususiyatiga ko'ra ikkiga ajraladi:

1) lug'aviy shakl hosil qiluvch. qo'shimcha (lug'aviy shakl)

2) sintaktik shakl hosil qiluvchi qo'shimcha (munosabat shakli)

> Eslatma
> *Maktab darsligida* ***shakl yasovchi qo'shimcha***, ***so'z o'zgartiruvchi qo'shimcha*** *atamasi ham ishlatilgan.*

Lug'aviy shakl hosil qiluvchi qo'shimcha so'zga qo'shilib, unga qo'shimcha ma'no yuklaydi. Masalan, *kitob* leksemasining atash ma'nosida

birlik va ko'plik ma'nolari noma'lum. So'z lug'aviy shakl hosil qiluvchiga bo'lgan ehtiyoj ko'plik ma'nosini muayyanlashtiradi: **-lar, -roq, -cha, -xon, -(i)l, -(i)n, -(i)nchi, -ta** - lug'aviy shakl hosil qiluvchi qo'shimchalar.

Sintaktik shakl hosil qiluvchi qo'shimcha so'z boshqa so'z bilan bog'lanish usulida sintaktik qurilmadagi o'rnini belgilaydi. Masalan, shaxs-son, zamon, mayl, tasdiq-inkor qo'shimchalari so'zga kesimlik mavqeini beradi. Kelishikning gap va fikr bilan sintaktik aloqasini ta'minlaydi. Kelishik qo'shimchasi oldirg'i mustaqil so'zni keyingi egalik qo'shimchasi esa keyingi mustaqil so'zni oldingisiga bog'laydi. **Kelishik, egalik, shaxs-son, zamon, mayl, tasdiq-inkor qo'shimchasi – sintaktik shakl hosil** qiluvchi qo'shimcha.

Eslatma

*Tasdiq-inkor va bo'lishli-bo'lishsizlikni farqlash kerak. Bo'lishli-bo'lishsizlik faqat fe'lga xos bo'lib, qo'qo'shimcha bilan bo'lishlik, -ma qo'shimchasi bilan bo'lishsizlik ifodalanadi. O'qiydigan – bo'lishli fe'l, **o'qimaydigan** – bo'lishsiz fe'l. Bo'lishli-bo'lishsizlik hodisasi fe'l kesimdan boshqa vazifada kelganda voqelanadi.*

*Tasdiq-inkor shakli so'z kesim vazifasida kelganda yuzaga chiqadi. **O'qigan – o'qimagan, borgan – bormagan; yo'q, o'qituvchi – o'qituvchi emas** kabi. Fe'l gapda kesim vazifasida kelganda bo'lishli-bo'lishsizlik shakli tasdiq-inkor deb qaraladi.*

Bo'lishli-bo'lishsizlik lug'aviy shakl hosil qiluvchi bo'lsa, tasdiq-inkor sintaktik shakl hosil qiluvchidir.

Bo'lishli-bo'lishsizlik shaklida faqat fe'l tasdiq-inkor shaklida esa barcha mustaqil so'z kela oladi. Chunki ular kesim vazifasini ham bajara oladi.

O'zbek tilida shakl yasovchi (ya'ni grammatik qo'shimcha ko'pmishiga ko'ra farqlanadi. Masalan, **maktab** va **maktablar** so'zini qiyoslang. **Maktab** so'zi birlik sonda bo'lib, hech qanday qo'shimchasiz ifodalangan. **Maktablar** so'zida esa ko'plik ma'nosi **-lar** shakli bilan yuzaga chiqqan. Shuning uchun shakl yasovchini ikkiga ajratish mumkin:

a) moddiy ko'rinishga ega shakl yasovchi;

b) moddiy ko'rinishga ega bo'lmagan shakl yasovchi.

Moddiy ko'rinishga ega bo'lmagan shakl yasovchi nol qo'shimcha ham deyiladi. Masalan, nutqdagi **Kitobni o'qi, Uyga bor, U o'qituvchi** gapidagi **o'qi, bor, o'qituvchi** so'zi – nol qo'shimchali. Son shaklida **birlik son**, kelishik shakli da **bosh kelishik**, fe'l nisbat da **aniq nisbat**, bo'lishli-bo'lishsizlikda **bo'lishlilik** sifat va ravish darajasida **oddiy daraja**, mayl sirasida **xabar mayli** nol qo'shimchalidir.

Eslatma

Nol qo'shimcha bilan qo'shimchaning belgisiz qo'llanishini aralashtirmaslik kerak. Masalan, maktab bog'i birikmasida maktab so'zi belgisiz qo'llangan. Kitob o'qimoq birikmasida kitob so'zi belgisiz qo'llanish holatidir.

Asos. So'zning shakl yasovchidan xoli qismi asos deyiladi. Masalan, **paxtakorlarga, ishlarimizni** so'zining grammatik shaklini olib tashlasak, **paxtakor, ish** qismi qoladi. Bu - asos.

Asos ikki xil bo'ladi:

1) o'zak holdagi asos: **maktab, ish, gul, dala, yur** kabi.

2) negiz holdagi asos: **ishxona, gulchi, tilshunos, ishchan** kabi.

Qo'shimchaning tuzilishiga ko'ra tasnifi. Qo'shimcha tuzilishiga ko'ra sodda va murakkabga bo'linadi:

Sodda qo'shimcha tarixan qanday bo'lganligi doir qo'l nazar, o'zi bir yaxlit, bir tarkibli bo'ladi: **-lar, -roq, -chi, -mtkl, -sin, -di, -gach.**

Murakkab qo'shimcha aslida mustaqil qo'shimchaning ma'lum vazifa bajarish maqsadida birlashgan holda qo'llanishi: **odamgarchilik, oygacha, xotinchilik, chorvachilik, borganda.** Murakkab qo'shimcha umuman olganda ajraladi, lekin ba'zi bir so'z tarkibida ajralmas holga kelgan bo'ladi: **kolxoz**

Qo'shimcha morfemaning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turi. Qo'shimcha morfemasi ham shakl va ma'no munosabati mavjud bo'ladi.

Qo'shimcha ko'p ma'noliligi (ko'p ma'noli qo'shimcha). Bu haqda keng to'xtalgan. Misol sifatida **-chilik** qo'shimchasini olaylik. Darslik va qo'llanmada uning quyidagi uch ma'nosi farqlanadi:

1. Asosdan anglashilgan narsa yetishtiriladigan sohani ifodalovchi ot: **paxtachilik, urug'chilik, chorvachilik, uzumchilik.**

2. Asosdan anglashilgan narsa-hodisaning borlik holatini bildiruvchi ot: **pishiqchilik, mo'lchilik, arzonchilik.**

3. Asosdan anglashilgan tushuncha bilan bog'liq bo'lgan ishni bildiruvchi ot: **ulfatchilik, tirikchilik, dushmanchilik.**

Aksariyat qo'shimcha – ko'p ma'noli. Tilda qo'shimchaning kam ishlatiladigan ko'p ma'noli bo'lishiga olib kelgan.

Ko'p ma'noli qo'shimchaga misol:

Qo'shimcha	Misol
-li	aqlli (mavjudlik) yog'li (o'riqlik), o'rinli (moslik)
-ma	qovurma (harakat natijasi), buruma (odatdagi xususiyat)

-lo	moyla (qora bo'ldirish) - rondala (vosita bilan), bolala (paydo qilish)
-chilik (holati)	pistachilik (sohat), to'rachilik (mavjudlik), hikachilik
-dor	oyildor (mavjudlik), bo'ydor (ortiqlik)
-no	normid (qora emaslik), normard (qarama-qarshilik)
-be	bec'umor (yo'qlik), beg'am (kamlik)
-siz	asossiz (eg'a emaslik) madorsiz (kamlik)
-lik	o'rtlik (qarindoshlik), bolalik (holat) mudirlik (kasb-hunar)

Qo'shimcha shakldoshligi (omonim qo'shimcha). Shakllovchi qo'shimcha omonim qo'shimcha deyiladi. Shakldoshlik bir turkumga oid bo'lishi ham, turli qo'shimchalarga oidligi ham bo'lishi mumkin.

1. So'z yasovchi qo'shimcha shakldoshligi:

-ki I: tunki, tepki, ko'chki (ot yasovchi).

-ki II: ichki, keyingi, ustki (sifat yasovchi).

2. Grammatik qo'shimcha shakldoshligi:

-(i)sh I: borish (bo'rmoq), kelish(kelmoq), ko'rish(ko'rmoq) (harakat nomi shakli)

-(i)sh II: (bir-ga) yuvish, (birga) tarash, (birga) solash (birgalik nisbat shakli)

3. So'z yasovchi va grammatik qo'shimcha shakldoshligi:

-(i)m I: yig'im, terim, sig'im (ot yasovchi morfema)

-(i)m II: uylim, xolalim, singlim (egalik morfemasi).

O'zbek tilidagi asosiy shakldosh qo'shimchalar quyidagilar (bunda s/y – so'z yasovchi sh/y – shakl yasovchi)

Qo'shimcha	Otda	Sifatda	Fe'lda	Ravishda	Yordamchi so'zda
-a	(ona/oy)	katta (sa/y, sh/y)	ora (sa/y) bora (sh/y), buta (sh/y)	chig'a, chiqa (s/y)	qara
-ay	–	–	kuchay (s/y), qoray (sh/y)	–	–
-ak	g'ilak (s/y)	(emizak (s/y)		–	–
-ar	–	–	toker (sa/y), keler (sh/y)	–	–
-qa	bolaga (sh/y)	–	surqaroq (sh/y)	–	–

-gi	supurgi (s'y)	yozgi (s'y)	tonyim (ch'y)	–	–
-g'inа	qisqina (ch'y)	–	–	–	qo'rqinchin
-g'oq	to'g'oq (s'y)	loy g'oq (s'y)	–	–	–
-da	uyda (ch'y)	–			kechki da
-dir	–	–	sezdir (sh'y)	–	kelgandir
-dosh	ko'cha (s'y)	o'qituvchi (ch'y)	–	–	–
-dar	chorvadar (ch'y)	pardor, yo'lovchilar (ch'y)	–	–	–
-i	eli (s'y)	paxtali (s'y)	tinchi (ch'y) ko'zi (sh'y)	–	–
-k	ko'rik (s'y)	ogik (s'y)	bilik, kinzik (s'y)	–	–
-q	chaqiq (s'y)	oshiq (s'y)	yo'llaq (s'y), tanlamoq (ch'y)	–	–
-li	–	–	ogikli (sh'y, o'zbek, ichki (s'u'y, mehnatli)	–	–
-m	uyim (ch'y), zilim (s'y), chaqim (s'y)	dyrim (s'y)	–		–
-n	oldin (s'y)	sog'lom sigir (s'y)	ko'rin (sh'y)	oldin (s'y)	–
-ing	uying (s'y)	–	ostiring (sh'y)	–	–
-ingiz	uyingiz (ch'y)		o'chingiz (s'y)		
-ish	–	ko'rish (s'u'y)	yozish (s'u'y, o'qish (s'u'y)	kirish (s'u'y)	–
-y	–	–	qoruy (s'y), o'qiy (sh'y)	–	–
-k	kirshik (s'y)	chirik (s'y)	bordik (ch'y)	–	–
-q	karoq (s'y)	yumshoq (s'y)	–	–	–
-ka	yo'lka (sh'y), etikka (s'u'y)	–	ikka (s'y), sutka (sh'y)	–	–
-qa	o'qqa (ch'y)	qaqa (s'y)	chaqqa (sh'y)	–	–
-kash	ayruvkash (s'y)	yonjoqlash (s'y)	–	–	–
-kl	topla (s'y)	kechla (s'y)	–	–	qonaklik, bilaGa

-gi	qiziqish (o'y)	sevimli (sh'y)	–	–	–
-kin		keskin (s'y)	sokkizinchi (s'ifat)	–	–
-(i)n	tolajin (o'y)	xotirjam (s'y)	bosqich (sh'y)	–	–
-(i)q	tuloqsiz, bosqaloq (o'y)	yopiq (s'y)	–		–
-kor	pichoqlar (o'y)	o'quvchi (o'y)	–	–	–
-ch	–	–	ishchi (o'y), quvlik (sh'y)	–	sanoq
-lik	qalin (o'y)	o'simlik (o'y)	–	–	–
-m	qilich (o'y), chizma (sh'y)	–	yozdim (sh'y)	–	–
-mas	tugma (o'y)	yasama (s'y)	xabar (sh'y)	yo'q (s'y)	–
-miz	o'quvchi (sh'y)	–	olmoz (sh'y)	–	–
-moq	tuymoq (o'y)	–	bilmoq (sh'y)	–	–
-n	o'qi(n) (sh'y)	–	yozuvchi (sh'y)	–	–
-oq	o'roq (s'y)	qo'rqoq (s'y)	–	–	kechqoq
-on	to'qson (s'y)	sinqdon (s'y)	–	–	–
-sa	–	–	suvsamoq (o'y), kelsa (sh'y)	–	–
-si	otasi (sh'y)	–	qarindosh (o'y)	–	–
-siz	–	ishsiz (o'y)	ishsiz (sh'y)	ko'rsatkich (o'y)	–
-t	–	–	to'ldirdi (o'y), o'qitdi (sh'y)	–	–
-vchi	kitobxon (o'y), o'qituvchi (sh'y)	–	–	–	–
-sh	o'quvchilik (o'y)	bosh (s'y)	–	–	–
-cha	qo'shcha (o'y)	bo'g'inchasi (o'y)	–	o'zbekcha (o'y)	–
-chak	ko'rinishsiz (o'y)	kuyinchak (s'y)	–	–	–
-ch	o'qichi (o'y)		–		ot qo'y
-chiq	tozachiq (sh'y)	sirpanchiq (o'y)	–	–	–
-choq	tayanchoq (o'y)	mustanchoq (s'y)	–	–	–

Qo'shimcha ma'nodoshligi Barcha tur qo'shimcha ma'nodoshlik munosabatida bo'ladi. Shu boisdan **so'z yasovchi qo'shimcha ma'nodoshligi** hamda **grammatik qo'shimcha ma'nodoshligi** farqlanadi.

Qo'shimcha ma'nodoshlik ga misol

Qo'shimcha	Misol	Qo'shimcha	Misol
be-+li	baxtiyor – baxtli	-g(i)-ag'on	topqir – topag'on
-gal/-ni	unga tushunmadi – uni tushunmadi	-chi/-shunos	ilmiy – ilmshunos
-dan/-ri	nondan oling – nonni oling	no-/-siz	noo'rin – o'rinsiz
-dan/-ga	teshikdan sig'madi – teshikka sig'madi	-ona/-larcha	mardona – mardlarcha
-dan/-ning	shundan bir – shuning bir	-sa/-sira	suvsamoq – suvsiramoq
-digan/-ar	qiladigan ish – qilar ish	-dan/-dan	saharlab – sahardan
-mas/-li	bilmdan – bilimli	(-uv/-(i)sh	o'quv – o'qish
-da'zi-chi	mahsida'z – mahsichi	-imli/-ish/-roq	oqish – oqimtir – oqroq
-yapti/-moqda/ -yapti	boryapti – borayotir – bormoqda	-iz/-dir	tomiz – tomdir
-ish/-lar	kelishdi – kelidlar	-larcha/- cha/ -chasiga	erkaklarcha – erkakchasiga – erkakcha
-ayi-/-iglicha	bo'lmlay – bo'lmaylicha		
-log/-zor	o'liq – o'lzor	-li/-dor	unumli – unumdor
ser-/-li	sersil – o'li	bev/-siz	bemaza – mazasiz
-sozi/-chi	so'zsiz – so'zchi		

So'z yasovchi qo'shimcha ma'nodoshligi So'z yasovchi qo'shimchaning bir-biriga yaqin ma'noni ifodalashi **so'z yasovchi qo'shimcha ma'nodoshligi** deyiladi. Masalan, sifat yasovchi **-li, -dor, -ser, -ba** qo'shimchasi o'zaro sinonim: **savlatli, savlatdor, sersavlat, basavlat** kabi. Biroq ma'nodoshlik to'liq emas, balki qo'shimchaning ayrim ma'no qirrasi orasidadir. Ya'ni bir qo'shimcha ikkinchi qo'shimcha bilan barcha ma'nosi asosida sinonim bo'la olmaydi.

Grammatik qo'shimcha ma'nodoshligi. Nomni yang - nondan yeng, uyga jo namoq - uy tomon jo'namoq kabi hodisada grammatik ma'nodoshlik mavjud. Grammatik ma'nodoshlik grammatik qo'shimcha orasida ham, grammatik qo'shimcha va yordamchi so'z orasida ham bo'ladi.

Qo'shimcha zid ma'nolilig'i Grammatik antonimiya so'z yasovchi qo'shimcha orasidagina mavjud. Unga misol sifatida **-li** va **-siz**

qo'shimchasi ni keltirish mumkin: and shall-ancıshasiz, harasali-**be**baraka, baxtli-baxtsiz.

Qo'shimcha varianti. Qo'shimcha nutqda turli variantga ega bo'ladi. Misol sifatida qaratqich kelishigi shaklining variantini kuzating:

a) poetik variant: bog'in mevasi;

b) tarixiy variant: **manim**;

v) dialektal variant: kitobting;

g) fonetik variant: mening.

Bundan tashqari, fakultativ (**borayapti – boryapti**), kombinator (**yoza oladi – yozoladi**) variantlari ham ajratiladi.

Qo'shimchaning so'z yasash darajasi. So'z yasash darajasiga ko'ra so'z yasovchi qo'shimcha ikkiga bo'linadi:

1) mahsuldor qo'shimcha;

2) kammahsul qo'shimcha.

So'z yasovchi qo'shimchaning ayrim juda ko'p so'z yasagan yoki yasamoqda. Masalan, **-la (moylamoq, ziralamoq, aliflamoq, kraxmallamoq, g'aramlamoq, bo'laklamoq), -chi (ishchi, g'iybatchi, paxtachi, suvchi)** kabi. Bunday qo'shimcha mahsuldor qo'shimcha deyiladi.

Ayrim qo'shimcha kam so'z yasagan yoki yasaydi. Masalan, **-ka (iska), -archilik (ocharchilik)** kabi. Bunday qo'shimcha kammahsul qo'shimcha deyiladi.

Qo'shimchaning zamonaviylik darajasi. Zamonaviylik darajasiga ko'ra qo'shimcha ikkiga bo'linadi:

1) unumli qo'shimcha; 2) unumsiz qo'shimcha.

Ba'zi qo'shimcha bugungi kunda so'z yasash faoliyatini davom ettirmoqda. Bunday qo'shimcha unumli qo'shimcha deyiladi. Masalan **-chi (komputerchi, videochi), -la (randala, aliflaj)** kabi.

Ayrim qo'shimcha tarixda ozmi-ko'pmi so'z yasagan bo'lib, hozir so'z yasash faoliyatini to'xtatgan bo'ladi. Bunday qo'shimcha unumsiz qo'shimcha deyiladi. Masalan, **-doq (shaqildoq, qovurdoq, hiqildoq), -ak (pirpirak, bizbizak, qarsak)** kabi.

Eslatma

*Qo'shimchaning zamonaviylik darajasi bilan so'z yasash darajasini farqlash kerak. Ayrim qo'shimcha mahsuldor, lekin unumli emas: **-vul (qoravul, yasovul), -ag'on (bilag'on, chopag'on, qopag'on) -ak (bizbizak, pirpirak, guldirak, varrak, qarsak, xurrak).** Ba'zi qo'shimcha kammahsul lekin unumli: **-ma (qovurma, burama, siltama** (ovqat turi)**, -dosh (sinfdosh, musobaqadosh, suhbatdosh)***

Qo'shimchaning so'zga qo'shilish tartibi. O'zakning oldidan yoki orqasidan qo'shilishiga ko'ra qo'shimcha ikkiga bo'linadi:

1) prefiks;

2) affiks.

So'zning oldidan qo'shiluvchi qo'shimcha – prefiks: **no- (notabiiy, beg'am), -be (bemalol, bemajol)** kabi. Sifat yasovchi old qo'shimcha prefiksdir.

O'zakdan keyin qo'shiluvchi qo'shimcha – affiks: **odam+dan, mehnat+kash+lar+ni** kabi.

So'zni ma'noli qismga ajratish. Har bir so'zning ma'noli qismga ajralishi undagi qismning hozirgi o'zbek adabiy tilida o'zaro munosabatiga kirisha olish xususiyatiga asoslanadi. So'zning tarkibini ajratishda, avvalo, o'zak ajratilib, uning lug'aviy ma'nosi aniqlanadi. O'zakka qaysi qo'shimcha turi qo'shilmasin, u har doim o'zakdagi ma'no bilan aloqador bo'ladi va yangi so'z yasalganda ham o'zakning ma'nosi saqlanib qoladi. Masalan, **suvoqchilik** so'zining tarkibi **suva+q+chi+lik, anglashilmovchilik** so'zinniki **ong-la-sh-il-ma-v-chilik, sanoqsiz** so'zinniki **son-a-q-siz** kabi. Yasama so'zning o'zakdagi **suva, ong, son** so'zi bilan aloqasi uzilmagan.

So'zning ma'noli qismi tarkibidagi o'zgarish. Davr o'tishi bilan so'zda ma'no taraqqiyoti yuz berib, yasama so'z o'z atash ma'nosidan uzoqlashishi, kuchli tovush o'zgarishiga uchrashi yoki ayrim grammatik qo'shimcha o'z vazifasini yo'qotib, «qotib qolish» mumkin. Agar o'zakdagi ma'no bilan yasama so'z ma'nosi orasida aloqa uzilsa, ma'noli qism o'zak tarkibida soddalashishga uchragan bo'lsa, bunday so'z ma'noli qismga ajralmaydi, unga yaxlit so'z sifatida qaraladi. So'z yasovchi qo'shimchada ham, lug'aviy va munosabat shakli yasovchi qo'shimchada ham bu holatni kuzatish mumkin: **qishloq** (aslida "qishlaydigan joy", bugungi kunda doimiy yashash joyi, ya'ni qish bilan aloqasi uzilgan), **ovloq** (aslida "ovlaydigan joy", bugungi kunda qana, xoli joy), **qovurg'a** (**qopurg'a** – "yurak, o'pka kabi a'zoni qoplab turadigan a'zo"), **qopqoq, yaproq, bo'yin, yurak, ichak, uyg'on, uyg'ot, uyg'oq, yumshamoq, o'xshamoq, qurshamoq, olcha** (aslida **olu-chai**), **qizilcha** (1) kichik qizil toshmali kasallik; 2) qizartirib qovurilgan go'shtli taom), **ko'kcha** (qovun navi), **Onaxon, Olmaxon, Qizlarxon, Beklar** (mahallasi), **qizg'ish, sarg'ish** (aslida qizil-ish, sariq-ish), **ko'rish** (ko'rinishi), **kelish** (bir qarorga kelmoq), **tortinmoq, cho'qinmoq, botinmoq, kechirmoq, surishtir, cho'milmoq, kelin, kechasi, kunduzi, tunlari, chamasi, mazmuni, qisqasi, yaxshisi, rosti, birdan, birga, birvarakayiga, kunda** va hokazo.

Ko'p holda so'zning tarkibini aniqlashda so'zdagi fonetik o'zgarish qiyinchilik tug'diradi. Tilni kuzatishdan ma'lumki, grammatik qo'shimcha

yo mustaqil ma'noli ekssamadan, yoki har xil qo'shimchaning o'zaro birikib yangi qo'shimcha hosil qilish dan shakllanadi. Ko'pgina so'z qo'shilib kelishi natijasida ikkinchi qism qo'shimchaga aylanib ketishi mumkin: **gapir** (gap ur), **tupir** (tuf ur), **supur** (suv ur), **berkit** (berk et), **to'lat** (to'la et), **bo'shat** (bo'sh et), **yo'qot** (yo'q et), **yo'qol** (yo u o'l), **aytoladi** (ayta oladi), **ketaver** (keta ber), **ketvormoq** (ketib yubormoq), **boryapti** (borib yotibd).

Hozirgi o'zbek adabiy tili so'zga qo'shimcha qo shilganda o'zakda fonetik o zgarishning quyidagi ko'rinishlari kuzatiladi

Tovush tushishi sariq-ay / **sarg'ay**, pasl-ay / **pasay, og'iz-aki** / **og'zaki**, o'yin-a / **o'yna**, o'rnash / **o'rnash**, ayir-im / **ayirim**, ayir-il / **ayril**, buyur-uq / **buyruq**; ikk-ov / **ikkov**, olti-ala / **oltala**, yetti-ovlon / **yettovlon**; men-ning / **mening**, sen-ni / **seni**, burun-i / **burni**, shahar-im / **shahrim**, o g il-ng / **o'g'ling**.

Tovush orttirilishi. issi-q / **issiq**, qot-iq / **qattiq**, tib-iy / **tibbiy**, his-iy / **hissiy**, shu-cha / **shuncha**, bu-day / **bunday**, u-ga / **unga**, shu-da / **shunda**, bu-dan / **bundan**, haq- / **haqqi**, parvo-i / **parvoyi**, obro'-ing / **obro'ying**

Tovush almashishi:

a – o: taru-q / **taroq**, so'ro-q / **so'roq**, qiyna-v / **qiynov**, so'ra-v / **so'rov**

o – a: son-a / **sana**, ong-ia / **angla**, yosh-a / **yasha**, ot-a / **ata**

i – u, i: tint-v / **tintuv**, o'qi-v / **o'quv**, sovi-q / **sovuq**, quri-q / **quruq**.

q – g': qishlo-q / **qishlog'i**, yuluq im / **yutug'im**, buyruq i / **buyrug'i**.

k – g: yurak- / **yuragi**, eshik-im / **eshigim**, tilak-ing / **tilaging**;

O zakni ajrata bilish, so'z tarkibidagi tovush o zgarishin, tushmlash so'zn to g'ri yozishga imkon beradi

So'zning tuzilish turi. Ayrim so'zda lug aviy ma'noli qism bitta yoki birdan ortiq bo'lishi mumkin: **kitob, singil, ishla, sodarayhon, sotib oldi, tuyaqush, soddadil, bir oz, bir nafas, bir pas, qozon-tovoq, achchiq-chuchuk, achchiq-tiziq, bola-chaqa, katta-kichik** kabi. Shu asosda so'z tuzilishiga ko ra ikkiga bo linadi.

a) Bir o'zakli (**sodda**) so'z: **kitob, singil, ishla,**

b) birdan ortiq o'zakli (**murakkab**) so'z: **sodarayhon, sotib oldi, tuyaqush, soddadil, bir oz, bir nafas, bir pas, qozon-tovoq, achchiq-chuchuk, achchiq-tizziq, bola-chaqa, katta-kichik** kabi

Sodda va murakkab so z o z o rnida yasama ham, tub ham bo lishi mumkin.

Sodda tub so'z tarkibida so'z yasovchi qo'shimcha bo'lmaydi: **kitob, suvni, o'qigan** kabi

Sodda yasama so'z tarkibida so'z yasovchi qo shimcha bo'ladi: **ishchi, gulchiga, boshla, qiziqchini** kabi.

Murakkab tub so'z tarkibidagi keyingi o'zak yangi lug'aviy ma'no hosil qilmaydi: **tez-tez, aka-uka, o'qib yubordi**, o'n **bir** kabi.

Murakkab yasama so'z tarkibidagi keyingi o'zak yangi lug'aviy ma'no hosil qiladi: **bir nafas, sotib oldi, tuyaqush, soddadil, bir oz** kabi.

Murakkab so'z qismlari uch xil

a) **chiziqcha bilan** ajratib;

b) **chiziqchasiz** ajratib;

d) **qo'shib**

yozilishi mumkin.

Chiziqchasiz (chiziqchasiz ajratib yoki qo'shib) yoziluvchi murakkab so'z **qo'shma so'z** deyiladi: **sadarayhon, sotib oldi, tuyaqush, soddadil, bir oz, bir nafas, birpas, o'qib yubordi, tashlab qo'ydi** kabi. Chiziqcha bilan ajratib yoziluvchi murakkab so'z **juft va takroriy so'z** deyiladi: **tez-tez, qozon-tovoq, achchiq-chuchuk, achchiq-tiziq, bola-chaqa, katta-kichik, baland-baland** kabi. Chiziqning ikki tomoni ikki xil so'zdan tashkil topgan murakkab so'z **juft so'z** (qozon-tovoq, achchiq-chuchuk, achchiq-tiziq, bola-chaqa, katta-kichik), bir xil so'zdan tashkil topgani murakkab so'z takroriy (tez-tez, baland-baland) so'z deyiladi. Ayrim yangi lug'aviy ma'no hosil qiluvchi takroriy so'z qo'shib yozilishi mumkin: **patpat** (matoisidi: shiqshiq qilmoq).

Tuzilishiga ko'ra murakkab so'z **qo'shma** nomi bilan ataluvchi murakkab so'zlarning qo'shilishidan yangi lug'aviy ma'no vujudga kelgan bo'lsa, bunday so'z murakkab yasama deyiladi: **qozon-tovoq, sholib chiqarmoq, saxmishmish**. Yangi lug'aviy ma'no ifodalamaydigan, yasama bo'lmagan qo'shma so'zga misol: **ota-ona, o'qiy boshlamoq, tog'-tog'**.

Eslatma

*So'zning tuzilishiga ko'ra farqlaydigan **qo'shma, juft va takroriy so'z** atamasi so'z yasalishidagi **qo'shma, juft va takroriy so'zdan** farq qiladi. Yasama **qo'shma, juft va takroriy so'z** tuzilishiga ko'ra **qo'shma, juft va takroriy so'z**ning bir qismini tashkil qiladi.*

Mustahkamlash uchun savollar

1.Morfemika nima? 2.Ma'noli qismlar haqida nimalarni bilasiz? 3.Morfema nima? 4. O'zak nima? 4.Qo'shimchalarga ta'rif bering. 5.Qo'shimchaning turlarini bayon eting. 6 Nol qo'shimcha haqida gapiring. 7 So'z tarkibida qanday o'zgarish yuz beradi? 8 Tublanish nima? 9. Yaxlitlanish nima? 10. Sodda lashish nima? 11. So'z yasovchi morfema haqida gapiring. 12.Grammatik morfema nima? 13.Grammatik morfemaning qanday turi

bor? 14. So'z yasovchi qo'shimcha haqida gapiring. 15.Lug'aviy shakl qo'shimchasi qanday qo'shimcha? 16.Mustaqil shakl qo'shimchasi qanday qo'shimcha? 17.Qanday qo'shimcha sodir qo'shimcha deyiladi? 18.Murakkab qo'shimcha qanday qo'shimcha? 19. Qanday qo'shimcha ma'nodosh qo'shimcha deyiladi? 20. Ma'nodosh so'z yasovchi qo'shimcha haqida gapiring. 21. Qanday qo'shimcha ma'nodosh grammatik qo'shimcha deyiladi? 22.Ko'p ma'noli qo'shimcha haqida gapiring. 23.Ko'p ma'noli so'z yasovchi qo'shimcha haqida gapiring. 24. Ko'p ma'noli grammatik qo'shimcha haqida gapiring. 25. Shakldosh qo'shimcha haqida ma'lumot bering va misol keltiring. 26. Shakldosh so'z yasovchi qo'shimchalarni farqlab misol keltiring. 27. Qanday qo'shimcha shakldosh grammatik qo'shimcha deyiladi? 28.Qanday qo'shimcha ma'noli qo'shimcha deyiladi? 29. Zid ma'noli so'z yasovchi qo'shimcha haqida gapiring. 30.Zid ma'noli grammatik qo'shimcha haqida gapiring. 31.Vazifa qo'shimcha haqida gapiring. 32.Qo'shimcha vazifasining turi haqida gapiring. Qo'shimcha bilan bog'liq tovush o'zgarishi haqida gapiring. 33. Qo'shimcha bilan bog'liq tovush tushishi haqida gapiring. 34.Qo'shimcha bilan bog'liq tovush orttirilishiga misol keltiring. 35.Qo'shimcha bilan bog'liq tovush almashishiga misol keltiring. 36.So'zni ma'no qismlari ajratishdagi qiyinchiliklar nimada ekanini?

Topshiriq

*1. **Kitobxonlarning, ta'kidlamoq, ishchilarimiz, qizilroq, to'rttacha, o'qigan, yozdirtirmoq, kiyintirmoq, do'stlik, ko'kishroq, aybdor, kitobcha, do'stunizning, maktabniki, dehqonchilikdan, ko'pchilik, shaklan, xayolan, ajratilmoq, asabiylashmoq, akolarim.***

a) berilgan so'zni ma'noli qismga ajrating. Tegishlisini to'g'ri bajarganligingizni ko'rsatish maqsadida ko'rsating.

b) qo'shimchalar yozilsagu ko'rsatib, nomlanmagan ajratib ko'rsating

*Namuna: **ish-chi-lar-imiz-ning***

16- DARS
SO'Z YASALISHI

So'z yasalishi va uning turi. Yangi so'z hosil qilish so'z yasash deyiladi. **O'zbek tilida to'rtta mustaqil so'z turkumi – ot, sifat, fe'l, ravish yasalishi tan olinadi.** Yasama so'z va olmosh tilda mavjud emas.

Tarixiy va zamonaviy so'z yasalishi. So'z yasalishining tarixiy va zamonaviy turi farqlanadi. Zamonaviy so'z yasalishida yasama so'zning o'zakka aloqasi sezilib turadi. Masalan, **kitobxon** so'zi **kitob** so'zi bilan, **ishchi** so'zi **ish** so'zi bilan, **gulla** so'zi **gul** so'zi bilan a'loqadorligi ko'rinib turibdi.

Tarixiy yondashishda yasama so'zning o'zakka aloqasi sezilmaydi. Bu maxsus izlanishlar natijasida aniqlanadi. Masalan, **qishloq, ovloq** so'zini qish, ov so'zlariga bog'lab bo'lmaydi. Chunki u tarixiy yasalishga ega. **Qonovul, yasovul, sidiq** so'zida ham shu hol kuzatiladi.

Test topshirig'ini berishda yasalish ning bu turlariga ishora bo'lishi lozim. Aks holda savol noaniq bo'lib qoladi.

Darslikda so'z yasashning qariyb uch usuli e'tirof etiladi:

a) **qo'shimcha qo'shish usuli** (affiksatsiya yoki morfologik usul);

b) **so'z qo'shish usuli** (kompozitsiya yoki sintaktik usul).

Yuqoridagilardan boshqa turli xil manbalarda bundan boshqa usul borligi ham qayd etiladi:

c) **boshqa turkumga ko'chirish usuli** (konversiya);

d) **so'zni yangi ma'noda qo'llash usuli** (semantik yoki leksik-semantik usul);

e) **tovushni o'zgartirish usuli** (fonetik usul);

g) **so'zni qisqartirish usuli** (abbreviatsiya).

So'z yasashning munozarali turi. Sh.Shoabdurahmonov, M.Asqarova, A.Hojiyev va boshqalarning "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligida so'z yasashning qisqartirish (abbreviatsiya) usuli ham bor deyiladi. "E.Qilichevning "Hozirgi o'zbek adabiy tili" o'quv qo'llanmasida esa bu usul keltirilmaydi. Demak, bu masala munozarali. Ma'lumki, so'z yasalganda, yangi lug'aviy ma'no vujudga kelishi lozim. Qisqartma so'zda esa bunday hol kuzatilmaydi.

Mazkur darslik va qo'llanmada qayd etilgan sintaktik-leksik usulda so'z birikmasining vaqt o'tishi bilan qo'shma so'zga aylanishi nazarda tutiladi: **tokqaychi, qashqargul, mingboshi, jo'xoripoya, yengiltabiat, kaltafahm** kabi. Ko'rinadiki, bunday so'z yasalishi so'zni so'zga qo'shish, ya'ni sintaktik usuldan farq qilmaydi. **erksevar, belbog', tomorqa, boshpana, asalari, tuyaqush, oybolta, qo'ziqorin, xushfe'l.** Demak, bu ikki usulni birlashtirib, so'zni qo'shib so'z yasash (kompozitsiya – sintaktik) usuli deyish mumkin.

Forsiy usul deganda so'z tarkibiga qo'shimcha qo'shish orqali yangi so'z yasash tushuniladi. Bunda so'z turkumini ko'p hollarda aniqlash mumkin. ko'r (fe'l) – ko'z (ot), qattiq (sifat. – qat'iy (ravish), noyon (fe'l) – sovuq (sifat), oyoq (ot) – yayov (ravish), artmoq (fe'l) – orqa (ot).

So'z turkumi o'zgadigan qo'shimcha yordamida ham kategoriya (lot. conversio – "o'zgarish") deb yuritiladi.

So'zning otga ko'chishi

1. Rang-tus, miqdor-daraja va holat bildiruvchi sifat: ko'k (osmon, nasha, dollar), achchiq-chuchuk, yosh, qari, yosh-qari (so'z yoshi bilan emas, balki sifatdagi ko'chgan).

2. To'ziya va toy marosimi: oilada boy, o'rtahol va kambag'al sanoq: uch, yetti, yigirma, qirq, to'qqiz-to'qqiz.

3. Ozaq: ichmoq, ho'l, kurash, yel, kongash, otilish, yurq, ich, ko'ch, qir (kelsin).

4. Birgalikni sezdiruvchi so'zlar: o'ynash.

5. O'zak holdagi juft va takroriy fe'l: uryinjik, urinqir, tirgiz-chaqir, yasab-tusab, supur-sidir, yugur-yugur.

6. Harakat nomlarining -ish-uv, -inish, -moq qo'shimchasini olgan sodda fe'l va ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi: saylov, ishlov, qushov, qatnov, qistov, tanlov, tintuv, maqtov, tergov, to'lov, o'quv, chanqov, qalov, qarov, to'ntarish, o'zgarish, qizigish, o'qish, o'tirish, qarash (qarmoq), muyulish/burilish, burilish ("o'zgarish" ma'nosida); yozuv-chizuv, yurish-turish, borish-kelish, bosar-tusar; ko'rolmaslik, kiraverish.

7. Aniq o'tgan zamon shaklidagi sodda, juft va takroriy fe'l: chaqirdi, chaqishdi, ko'rdi; keldi-ketdi, qo'ydi-chiqdi, oldi-berdi, oldi-sotdi, mindi-tushdi (bola o'yinining nomi).

8. Takroriy va juft so'zlardagi taqlid so'zi: ququ (qush), dudut (yengil mashina), popop (aslida pop-nop, tikuv mashinasi), tutu (hovuq), patoqat (matoqat), shapshap.

So'zning sifatga ko'chishi:

1. Juft va takroriy shakldagi ot: mosh-guruch, yo'l-yo'l, rang-barang, xilma-xil.

2. O'zak holdagi fe'l: daydi, qari, och, chalkash, yanglish, sutash, aralash.

3. Aniq o'tgan zamon shaklidagi juft fe'l va fe'lli birikma: otdi-qochdi (qari, kuydi-pishdi (ayol), iliguzildi (vaqt), ichakuzdi (hargoma), supraqoqdi (farzand ya'ni so'nggi farzand).

4. Takroriy shakldagi ko'plik olmoshi: manman.

So'zning ravishga ko'chishi. Ravish turkumidagi so'zlarning aksariyati boshqa turkumdan o'tgan:

1. Oldin. **es-es, qop-qop, kunda, qo'qqisdan, jo'rttaga, bexosdan, piyoda, zimdan, oyda-yilda, kechasi, kunduzi, oqshomlari.**

2. Sifatdan **tezda, yaqinda, qatorasiga, yonlamasiga.**

3. Sondan: **birdan, birga**

4. Olmoshdan:**bunda, shunda.**

Eslatma

Maktab va akademik litsey darsliklarida so'z yasashning faqat qo'shimcha qo'shish va so'zni qo'shish usuliga beriladi. Demak, o quvchi so'z yasash usuli deganda shu ikki usul bilan cheklanishi lozim. Boshqa usul so'z yasalishi emas, balki tarixiy so'z hosil bo'lish jarayoni sifatida qaralishi kerak. Shuning uchun so z yasash va so'zning tarixiy shakllanishini farqlash lozim. Biz ham quyida ikki usul **qo'shimcha qo'shib so'z yasash** va **so'zni qo'shib so'z yasash** bilan cheklanamiz

So'z yasash usuli. Qo'shimcha qo'shib so'z yasash. Bu usul bilan so'z yasash 12 ta so'z turkumining 4 tasigagina xos. Ular:

1. Ot. 3. Fe'l.
2. Sifat. 4. Ravish.

Faqat mana shu to'rtta so'z turkumida so'z yasovchi qo'shimcha mavjud. Son, olmosh, taqlid, undov va modal so'z yasalmasa-da, xuddi shu usul bilan ot, sifat, fe'l va ravish yasashda ishtirok etadi.

Qo'shimcha qo shilayotgan so'z asos, hosil bo lgan so'z yasalma deyiladi.

Yasama so'z tarkibida so'z yasovchi qo'shimcha bir dan ortiq bo'lishi ham mumkin. So'zning yasamal'gan belgilashda eng so'nggi yasa ish hisobga olinadi. Masalan, **terimchilik, suvoqchilik, bichiqchilik, to'qimachilik** so'zi **ter, suva, bich, to'qi** fe'lidan **terim, suvoq, bichiq, to'qima** otidan ham emas, balki **terimchi, suvoqchi, bichiqchi, to'qimachi** so'zidan yasalgan.

So'zda so'z yasovchi qo shimcha bir dan ortiq bo'lishi mumkin: **dard-mand-lik, darmon-siz-lan-moq, til-shunos-lik, tarjima-shunos-lik, osh-paz-lik, tekis-la-gich, ba-davlat-lik, be-ma'ni-garchilik, bos-qin-chi, vafo-dor-lik, no-tin-ch-lik, be-o'xsha(o)-v-lik.**

Qo'shimcha qo shib so z yasashga faqat so'z yasovchi qo'shimcha emas, qo'shimchasimon (ya'ni qo'shimchalashgan so'z, affiksoid) ham ishtirok etadi. **-aro: xalqaro, davlatlararo; -baxsh: orombaxsh, hayolbaxsh, shifobaxsh; -noma: taklifnoma, tavsifnoma, yilnoma; -xona: darsxona, kutubxona, mehmonxona; xush-: xushmanzara, xushfe'l, xushbichim.**

O'zak va undan yasalgan so'z o'zakdosh so'z deyiladi. Masalan, gulla, gulchi, guldon, guldor kabi. Turli grammatik qo shimcha olgan bir so'z

ko'rinishlari o'zaktdosh sanalmaydi: **kitob, kitobning, kitobni, kitobdan, kitobda** kabi.

So'z yasovchi qo'shimcha umumiy va unumsiz bo'ladi. Umumiy yasovchi – bugungi kunda ham ko'plab so'z yasayotgan qo'shimchalar: **-chi, -dosh, -kor** kabi.

Unumsiz qo'shimcha til tarixida so'z yasagan va bugungi kunda yasamayotgan qo'shimchalar: **-voy, -archilik** kabi.

So'zni qo'shib so'z yasash. Ikki mustaqil so'zning birikib yasalishidan qo'shma, juft va takroriy so'z hosil bo'ladi.

Qo'shma so'z. **sadarayhon, sotib oldi, tuyaqush, soddadil, biroz, bir nafas, birpas**

Juft so'z: **qozon-tovoq, achchiq-chuchuk, achchiq-tiziq, bola-chaqa, katta-kichik.**

Eslatma

*Juft so'z yangi lug'aviy ma'no anglatsa, yasama so'z hisoblanadi: **tordi-keltdi** (aloqa), **issiq-sovuq** (tanish), **quyuq-suyuq** (ovqat). Masalan: **chol-kampir** so'zining ma'nosi **chol** va **kampir**, **aka-uka** so'zining ma'nosi **aka** va **uka**, **asta-sekin** so'zining ma'nosi **asta** va **sekin** so'zining alohida-alohida atash ma'nosidan farqlanmaydi. Demak, bular yasama so'z emas.*

Takroriy so'z: **ququ** (qushni), **dudut** (yengil mashina), **popop** (asli, pop-pop, likuv mashinasi), **tutu** (tovuq), **patpat** (mototsikl), **shapshap, es-es, ko'z-ko'z, qop-qop.**

Eslatma

*Barcha takroriy so'z yasama emas. **tez-tez, tog'-tog', katta-katta** kabi. Masalan: **tez-tez** so'zining lug'aviy ma'nosi **tez** so'zining lug'aviy ma'nosidan farqlanmaydi. Bundan so'zning takror lug'aviy ma'no emas, grammatik ma'no ifodalash uchun xizmat qiladi. Lekin **yo'l-yo'l, yor-yor, izma-iz** kabi takroriy so'z yangi lug'aviy ma'no hosil qiladi. Masalan, **yo'l** so'zining lug'aviy ma'nosi **yo'l-yo'l** so'zining lug'aviy ma'nosidan tubdan farq qiladi.*

Qo'shma, juft, takroriy so'zning hosil bo'lishi kompozitsiya usulidadir, lekin undan so'z yasovchi qo'shimcha qo'shib yangi so'z yasalsa, qo'shimcha qo'shish usuli ham yuzaga chiqadi: **nom-nishonsiz, don-daraksiz, orzu-havasli, og'a-inigarchilik, pirpirak, pirpiramoq, po'sht-po'shtlamoq, sarson-sargardonlik, son-sanoqsiz, uy-joyli,**

gijgijlamoq, hayhaylamoq, qarindosh-urug'chilik, haybarakallachi, vaqtichog'lik, boshpanasiz kabi. Demak, bir so'zda ikki usul ham voqelanishi mumkin.

Mustahkamlash uchun savollar

1.So'z yasash nima? 2. Yasaluvchi turkumlar qaysilar? 3.Yasalmaydigan turkum qaysilar? 4.Tarixiy va zamonaviy yasalishni farqlab tushuntiring. 5.So'z yasashning aniq usullari qaysilar? 6.Qo'shimcha qo'shib so'z yasash nima? 7.So'z qo'shib so'z yasash nima? 8.So'z yasashning munozarali usuli qaysilar? 9.Yasama bo'lmagan fakriy so'zga misol keltiring. 10.Yasama bo'lmagan juft so'zga misol keltiring.

Topshiriq

1. Lug'at yordamida [taqlid so'z + yasovchi qo'shimcha] qolipli so'zdan 10-15 tasini topib, daftaringizga ko'chiring va namunadagidek izohlang. Taqlid qaysi so'z turkumi yasalishiga asos bo'lishini aniqlang.

*Namuna: **shilp+ildoq** - taqlid so'zdan ot yasalgan, **qurr+os** – taqlid so'zdan sifat yasalgan, **taq+illa** – taqlid so'zdan fe'l yasalgan.*

2. Lug'atdan [ot + yasovchi qo'shimcha] qolip hosilasi bo'lgan so'zdan 10-15 tasini topib, daftaringizga ko'chiring va namunadagidek izohlang. Otdan qaysi so'z turkumi yasalishini aniqlang va fikringizni bayon qiling.

*Namuna: **ish+chi** - otdan ot yasalgan; **kuch+li** – otdan sifat yasalgan; **kuch+ay** – otdan fe'l yasalgan. ..*

3. Lug'atdan [sifat + yasovchi qo'shimcha] qolip hosilasi bo'lgan so'zdan 10-15 tasini topib, daftaringizga ko'chiring va namunadagidek izohlang. Sifatning qaysi so'z turkumini yasash uchun asos bo'lishini aniqlang va fikringizni namunadagidek bayon eting.

*Namuna: **yaxshi+lik** - sifatdan ot yasalgan; **yashirin+cha** – sifatdan ravish yasalgan; **no+muvofiq** – sifatdan sifat yasalgan; **sariq+ay (sarg'ay)** – sifatdan fe'l yasalgan. ..*

4. Lug'atdan [fe'l + yasovchi qo'shimcha] qolip hosilasi bo'lgan so'zdan 10-15 tasini topib, daftaringizga ko'chiring va namunadagidek izohlang. Fe'lning qaysi so'z turkumini yasash uchun asos bo'lishini aniqlang va fikringizni namunadagidek bayon eting.

*Namuna: **qir+g'ich** - fe'ldan ot yasalgan, **yugurgan+cha** – fe'ldan ravish yasalgan; **maqtan+choq** – fe'ldan sifat yasalgan.*

5. Lug'atdan yasalish asosi tuzilishiga ko'ra juft so'z bo'lgan yasama topib daftaringizga ko'chiring. Imloviga e'tibor qiling.

*Namuna: **sihat+salomat+lik** - juft sifatdan ot yasalgan, **baxt+saodat+li** - juft otdan sifat yasalgan.*

5. Lug'atdan yasalish asosi tuzilishiga ko'ra takroriy so'z bo'lgan yasalmani topib daftaringizga ko'chiring. Yozilishiga diqqat qiling.

Namuna: **ko'zko'z+la+moq** *- takroriy otdan fe'l yasalgan,* **sharshar+a** *- takroriy to'qlki so'zdan ot yasalgan.*

7. Lug'atdan yasalish asosi qo'shma so'z bo'lgan yasalmani topib daftaringizga ko'chiring. Yozilishiga diqqat qiling.

Namuna: **asalari+chi+lik** *- qo'shma otdan ot yasalgan,* **nonko'r+lik** *- qo'shma sifatdan ot yasalgan*

17- DARS
GRAMMATIKA HAQIDA TUSHUNCHA

Grammatika haqida. **Grammatika** atamasi yunoncha **grammatike** so'zidan olingan bo'lib, harf o'qish va yozish san'ati degan ma'noni bildiradi. **Grammatika** ko'plab tilshunoslik atamasi kabi ikki ma'noli. Bir ma'nosida tilning grammatik qurilishi tushunilsa, ikkinchi ma'nosida tilshunoslikning shu grammatik qurilishni o'rganuvchi sohasi anglashiladi. Grammatika tilshunoslik sohasi sifatida so'z turkumi, grammatik ma'no, shakl yasovchi qo'shimcha, so'z birikmasi va gap kabi masalani o'rganadi.

Tillar o'zaro grammatik xususiyatiga ko'ra farqlanadi. Masalan, o'zbek tilida kesim gap markazi sifatida boshqa barcha bo'laklarni o'z atrofida uyushtiradi. Rus tilida ega va kesim bilan gap markazi hisoblanadi. O'zbek tilida ega birinchi va ikkinchi shaxsda tushirib qoldiriladi. Rus, ingliz, nemis va boshqa ayrim tilda bunday emas. O'zbek tilida sifatlovchi sifatlanmishdan oldin keladi: **qizil gul, maktab bog'i** kabi. Tojik tilida buning aksi bo'ladi: **guli surx, bogi maktab** kabi.

Til hamisha taraqqiyotda. Bu, asosan, tilning leksikasida ko'proq ko'zga tashlanadi. Ijtimoiy hayotning o'zgarishi leksikada katta o'zgarish yasaydi. Yangi so'zning vujudga kelishi, so'zning o'zlashishi, eski so'zlarning chiqib ketishi kabilar buning misoli. Tilning fonetik va grammatik sohasiga ijtimoiy o'zgarish ta'sir qilmaydi, unda faqat vaqt o'z izini qoldiradi. Chunki yaqin yillarda tubdan o'zgarishga uchragan ijtimoiy hayotning ta'siri natijasida, masalan, o'zbek tilining morfologik xususiyati, sintaktik qurilishida o'zgarish kuzatilmagani buning yorqin dalili. Lekin asrlar davomida bunday o'zgarish yuz berib turadi. Masalan, eski o'zbek tilida **-gu** affiksi yordami bilan yasalgan sifatdoshga **-m-** ning qo'shimchasi qo'shilib, ommiq kesim ekanligini ko'rsatgan: **Men ko'rgumi** shaklida. Bu hozirgi o'zbek tilida kuzatilmaydi. **Ul, alar, andin, anda, ko'zun ko'rub** (ko'zi bilan ko'rib) kabi qator so'z –

fikrimiz dalil'. Yoki eski o'zbek tilida **Bu sening, Bu mening** ko'rinishidagi sintaktik qurilma mavjud bo'lgan. Uning hozirgi kundagi **Bu seniki, Bu meniki** ko'rinishiga ega.

Grammatikaning tarkibiy qismi. Grammatika deganda tor ma'noda morfologiya va sintaksis birligi, keng ma'noda til qurilishi tushuniladi. **Morfologiya**da so'zning grammatik shakllanishi, bun: hosil qiluvchi shakl yasovchi qo'shimcha va yordamchi so'z - ko'makchi fel, to'liqsiz fe'l, so'z turkumlari o'rganilsa, **sintaksis**da so'z birikmasi va gap qurilishi tekshiriladi. Demak, tor ma'noda **grammatika** - so'zning shakl yasalishi asosida o'zgarishi (morfologiya) va erkin bog'lanishi haqidagi (sintaksis) bo'lim.

Mustahkamlash uchun savollar

1. Grammatika nima? 2.Grammatikaning o'rganish obyekti nima? 3.Keng ma'noda grammatika nimani anglatadi? 4. Tor ma'noda grammatika deganda nimani tushunasiz? 5. Grammatikadagi o'zgarish yuz beradimi? 6. Grammatikaning tarkibiy qismi qaysilar? 7. Morfologiya nimani o'rganadi?8. Sintaksis nimani o'rganadi?

MORFOLOGIYA
SO'Z TURKUMI

Morfologiya. Morfologiya – grammatikaning tarkibiy qismi. U yunoncha **morphe** va **logos** so'zidan olingan bo'lib, «shakl haqidagi ta'limot» ma'nosini beradi.

Morfologiyada so'z turkumi, unga xos grammatik kategoriya va grammatik shakl, bu shaklni hosil qilish yo'li va vositasi o'rganiladi. Morfologiyaning obyekti, asosan, so'zning shakl yasalishi masalasi. So'zning shakl yasovchi qo'shimcha va nomustaqil so'zni o'rni shakl yasalishi, o'zgarishi deyiladi. Masalan, **kitob, kitobning, kitobni, kitobga, kitobda, kitobdan, kitob uchun, kitob bilan** so'zlari **kitob** so'zining kelishik qo'shimchasi va ko'makchi asosidagi o'zgarishidir.

Eslatma

Yaqin ma'noli shakl yasovchi qo'shimcha yoki mazmuniy grammatik kategoriya deyiladi. Masalan, yaqin ma'noli bo'lgan 6 ta kelishik shakli kelishik kategoriyasi, 3 ta nisbat shakli nisbat kategoriyasi deyiladi. Ot turkumidagi egalik, son, sifatdagi daraja, fe'ldagi nisbat, inkorlik-bo'lishsizlik, mayl, zamon, shaxs-son shunday kategoriya.

So'z turkumi tasnifi. So'z quyidagi belgi asosida tasnif qilinadi:

1) **so'zning ma'noviy xususiyati;**

2) **so'zning morfologik xususiyati (grammatik shakllari);**

3) **so'zning yasalish xususiyati.**

So'zni tasniflash uchun avvalo har birining atash ma'nosini emas, balki umumiy ma'nosini hisobga olish kerak. Masalan, ot predmet, sifat predmet belgisi, ravish harakat belgisi, son aniq miqdor, fe'l ish-harakat va holat ma'nosiga ega.

So'z turkumi. O'zbek tilida 12 ta so'z turkumi bo'lib, u uch guruhga bo'linadi:

1. Mustaqil so'z turkumi: **ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish**

2. Yordamchi so'z turkum : **ko'makchi, bog'lovchi, yuklama**

3. Alohida olingan so'z: **modal, undov, taqlid**

Mustaqil so'z olamdagi **narsa, hodisa, belgi, miqdor, harakat, holat** kabilni atraydi, ya'ni **mustaqil lug'aviy ma'noga ega bo'lib,** so'roq oladi. Mustaqil so'z turkumi orasida faqat olmosh predmet-hodisa, belgi va miqdorni bildira olmaydi, balki unga ishora qiladi.

Eslatma

Ot narsaning, sifat belgining, son miqdorning atamasi bildirgani va olmosh uni almashtirgani uchun bu to'rt turkum ism atamasi bilan ham yuritiladi.

Yordamchi so'z gap bo'lagi va qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni o'zaro bog'laydi yoki ularga qandaydir qo'shimcha ma'no yuklaydi. Lug'aviy ma'noga ega emas, so'roqqa javob bo'lmaydi va yakka holda gap bo'lagi bo'lib kelmaydi.

Alohida so'z nisbiy mustaqil lug'aviy ma'noga ega. Ular gohо so'roqqo javob bo'lsa ham, o'zining maxsus so'rog'iga ega emas. Gapda qandaydir sintaktik vazifani bajaradi. Lekin har biri o'ziga xos umumiy xususiyati bilan alohida-alohida turkumni tashkil etadi.

Mustaqil so'zning qaysi turkumga kirishini aniqlash so'roq berish asosida bo'ladi. Har bir turkumning o'z so'roq tizimi bor. Ammo birdan ortiq turkumga xos umumiy so'roq ham mavjud. Masalan, **qanday** so'rog'i sifat, ravish va otga, **nima** so'rog'i ot, olmosh, taqlid harakat nomiga ham xos. Ot esa sifat va ravish vazifasida kelganda uning so'rog'iga javob bo'ladi: **yog'och qoshiq – qanday qoshiq?, takror aytmoq – qay tarzda aytmoq?**

Sifatning so'rog'iga sifat o'rnida qo'llanuvchi olmosh fe'lning sifatdosh shakli, sifat vazifasida kelgan ot, taqlid va modal ham javob bo'ladi. Sifat ottashib, olmoshning so'rog'ini olishi mumkin.

Demak, mustaqil so'z turkumiga xos so'roqqa olish bular birga, bindan ortiq turkumning umumiy so'rog'i borligini ham esda tutish lozim.

So'zning so'roqqa javob bo'lolmasligi uning sof yordamchi yoki yordamchi vazifasidagi so'z ekanligini ko'rsatadi.

So'z turkumining morfologik belgisi – uning qanday grammatik qo'shimchalarni qabul qila olishi. Masalan, ot turkumi -lik va ko'plik, egalik va kelishik qo'shimchasini, sifat va ravish darajalarini, fe'l nisbat, ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi qo'shimchasini oladi.

So'z turkumining yasalish bilan bog'liq belgisi – har bir yasaluvchi turkumning o'ziga xos yasovchi qo'shimchasi borligi. Masalan, -li sifat, -chi ot, -la fe'l, -ona ravish yasovchi. Olmosh va sonda yasovchi qo'shimcha yo'q.

So'zning ma'noviy tasnifi. Bunda so'z quyidagi guruhga ajraladi:

a) **mustaqil lug'aviy** ma'noli so'z (fe'l, ot, sifat, son, ravish);

b) **nomustaqil lug'aviy ma'noli so'z** (olmosh, undov, modal, taqlid);

v) lug'aviy ma'nosiz so'z (ko'makchi, bog'lovchi, yuklama).

Olmosh anglatadigan ma'no – u almashib qo'yishga qilayotgan so'zning ma'nosi. Masalan, ot o'rnida qo'llangan olmosh uning, sifat o'rnida qo'llangan olmosh esa sifatning ma'nosiga ishora qiladi: **mustaqil** holda ma'no anglatmaydi. **Salim keldi. U ishlaydi** gaplarida u olmoshi **Salim** otini, **Gul – qizil. Gul – qanday?** gapining ikkinchisidagi **qanday** olmoshi oldingi gapdagi **qizil** sifatini almashtirgan.

Undov, modal, taqlid so'zning lug'aviy ma'nosi g'oyatda oz. Ular hatto bir butun gap vazifasida ham kela oladi. Bu undov va modalning lug'aviy ma'nosiz so'zdan farqini ko'rsatadi. Biroq lug'aviy ma'nosi matnda anglashiladigan. Masalan, **po'sht-po'sht** so'zining nimani haydash uchun qo'llanayotganligi matnda ma'lum bo'ladi. Yoki **Uyga bor. –Mayli**, gapida **mayli** so'z-gapi **boraman** so'zi anglatgan lug'aviy ma'noga teng mutlaq ma'noga ega. Biroq bu ma'no mustaqil emas.

Ko'makchi, bog'lovchi, yuklama lug'aviy ma'no ifodalamaydi.

So'zning morfologik tasnifi. Bu tasnifga binoan, so'z, aytilgan dek, ikki guruhga ajraladi:

a) o'zgaruvchi so'z,

b) o'zgarmas so'z.

O'zgaruvchi so'z lug'aviy shaklni qabul qila oladi. O'zgarmas so'z esa bunday xususiyatga ega emas. Bu tasnifda so'zning o'rni quyidagicha:

So'z	
O'zgaruvchi	**O'zgarmas**
Fe'l	Ko'makchi
Ot	Bog'lovchi
Sifat	Yuklama
Ravish	Taqlid
Son	Undov
Olmosh	Modal

O'zgaruvchi so'z uchun lug'aviy shakl mavjud. Masalan, **otda** birlik, ko'plik, kichraytirish-erkalash shakli, **fe'lda** nisbat, bo'lishli-bo'lishsizlik, ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi qo'shimchasi, ko'makchi fe'l (harakat tarzi), **sifat** va **ravishda** daraja.

O'zgarmas so'z lug'aviy shaklga ega emas.

So'zning sintaktik tasnifi. So'zning sintaktik tasnifida, asosan, uning so'z birikmasi hosil qila olish, gap bo'lagi bo'lib kela olish-olmaslik xususiyati o'z aksini topadi.

1. Faqat gap bo'lishga xoslangan so'z: **undov, modal**

2. Gap bo'lagi bo'lishga xoslangan so'z: **fe'l, ot, sifat, son, ravish, taqlid, olmosh**

3. So'z va gapni bog'lashga, ularga qo'shimcha ma'no berishga xoslangan so'z: **ko'makchi, bog'lovchi, yuklama.**

Undov va **modal** boshqa so'z bilan sintaktik aloqaga kirishmaydi, o'zi mustaqil gap, ya'ni so'z-gap bo'lib kelish qobiliyatiga ega. Yordamchi so'z gapda alohida bo'lak bo'lib kela olmaydi, balki so'zni bog'lash vazifasini bajaradi. Mustaqil so'z esa gap bo'lagi bo'lib kela oladi.

So'zning yasalishga ko'ra tasnifi. Ot, sifat, fe'l, ravish yasalish lug'iga ega. Boshqa turkum yasalmaydi.

So'zning ma'noviy, morfologik, sintaktik, yasalish belgisi quyidagi jadvalda berilgan:

№	So'z turkumi	Ma'noviy belgisi	Morfologik belgisi	Sintaktik belgisi	Yasalish belgisi
1	Fe'l	Harakat va holat ifodalaydi	Nisbat, harakat nomi, zamon, mayl, harakat tarzi bo'lishi, bo'lishsizlik	Gap bo'lagi bo'lib keladi	Yasalish

2.	Ot	Shaxs, predmet, o'rin ifodalaydi	Son kategoriyasiga ega	Gap bo'lagi bo'la kelad	Yasalish
3.	Sifat	Predmet belgisini ifodalaydi	Daraja	Gap bo'lagi bo'la kelad	Yasalish
4	Son	Miqdor ifodalaydi	Turlanish, daraja, shaxs, jinsga ega bo'lish shakli	Gap bo'lagi bo'la kelad	Yasalmaydi
5	Ravish	Harakat belgisini ifodalaydi	Lug'aviy shakli yo'q	Gap bo'lagi bo'la kelad	Yasalish
6	Taqlid	Tovushiy va ko'rinishga taqlid ifodalaydi	Lug'aviy shakli yo'q	Gap bo'lagi bo'la kelad	Yasalmaydi
7	Olmosh	Barcha mustaqil so'z turkumi ma'nosini ifodalaydi	Barcha mustaqil so'z turkumi belgisi-shakllariga ega	Gap bo'lagi bo'la kelad	Yasalmaydi
8	Ko'makchi	Lug'aviy ma'noga ega emas	Lug'aviy shakli yo'q	So'zni so'zga bog'lash vazifasini bajaradi	Yasalmaydi
9	Bog'lovchi	Lug'aviy ma'noga ega emas	Lug'aviy shakli yo'q	So'zni so'zga, gapni gapga bog'lash vazifasini bajaradi	Yasalmaydi
10	Yuklama	Lug'aviy ma'noga ega emas	Lug'aviy shakli yo'q	Gap bo'lagi sanalmaydi	Yasalmaydi
11	Modal	Munosabatni anglatadi	Lug'aviy shakli yo'q	So'z-gap bo'lish, gap bo'laklari bilan bog'lana olmaydi	Yasalmaydi
12	Undov	Hissiyotni ifodalaydi	Lug'aviy shakli yo'q	So'z-gap bo'lish, gap bo'laklari bilan bog'lana olmaydi	Yasalmaydi

Sifat, son, ravish, shu uch so'z turkumi o'rnida qo'llanuvchi olmosh, fe'lning sifatdosh shakli, taqlid, undov va modal (ma'noli) otlashish xususiyatiga ega. Chunki ular o zi bog'langan otni tushirib, unnoq grammatik shakli va sintaktik xususiyatiga ega bo'la oladi

Eslatma

Ot vazifasidagi olmosh va fe'lning harakat nomi shakli otlashmaydi. Ular ot vazifasini bajaruvchi so'z hisoblanadi. Demak, otlashish bilan ot vazifasini bajarishini farqlash kerak.

Mustahkamlash uchun savollar

1. Morfologiya so'zining ma'nosi nima? 2. So'z turkumi qanday tasniflanadi? 3. So'zning semantik tasnifini aytang. 4. So'zning morfologik tasnifi

aytilg. 5 So'zning sintaktik lasnifi tasnifini aytib. 6 So'zning yasalish bilan bog'liq tasnifini bayon qiling. 7 Mustaqil so'zning xususiyatlari haqida gapiring. 8 Yordamchi so'z qaysilar? 9 Alohida olingan so'zni tavsiflang. 10 So'z turkumining ko'chishini bayon qiling.

Topshiriq

Barakalla o'g'lim, bu hikoyatni eshit.

Hind dengizida bir savdogar bor edi. U savdo-sotiq ishlarida juda mohir edi. Savdogarning omadiga savdo mayasi o'mashib olib, suvga g'arq bo'lish xavfiga ham kolmasdi. Bir mamlakatdo o'n kun turmas, savdosi tugagach, yana suv sari yo'l olar edi. U dengizni bor xo'jalaridan xoli etib o'ynab, yilni shu yangiliq safar qildi. Savdogar Makka a'rofini anchor nechta bor aylanib o'tgan bo'lsa-da, uning yoniga yolg'iz o'z karvoni etib olmay qaytardi. Kunlar unga hayot ham bayram kunlar, tinch oylar bolar, karvoni gul-lab-yashnagani tomon borishga yo'l qo'ymas edi.

Bir kun dengizda bo'ron ko'tarildi. Savdogar bo'lgan kema gon osmonga sapchir, yoki pastga kulab ketar edi. Savdogar savdo ishlaridan g'am holiyasidek uning kemasi ham dengizda g'arq bo'ldi. Dengizda suzish keyni hoj sari yo'l bermadi. Oxir-oqibatda u ochlik bo'qinqiri yem bo'ldi.

Chol hikoyani tugatib, "Alhamg" - deb qo'ydi.

1. Gapdagi so'zlarni uch guruhga ajrating:

a) gap bo'lagi vazifasidagi so'z.

b) gap bo'lagi vazifasida bo'lmagan so'z.

v) faqat gap bo'lib kelayotgan so'z.

2. Lug'aviy ma'no ifodalaydigan har bir so'zning xususiyatini quyidagi tartibda bering.

a) ma'noviy xususiyati.

b) morfologik xususiyati.

v) sintaktik xususiyati.

g) yasalish xususiyati.

d) tuzilish xususiyati.

3. Lug'aviy ma'no ifodalamaydigan so'zni quyidagi tartibda guruhlang.

a) so'zning lug'aviy ma'nosini bir oz o'zgartirayotgan so'z.

b) yangi lug'aviy ma'no hosil qilayotgan so'z.

v) so'z yoki gapni bog'layotgan so'z.

18- DARS
BIR TURKUMDAN BOSHQASIGA SO'Z KO'CHISHI

So'zni turkumga ajratishdagi qiyinchilik. So'zni turkumga ajratishning yuqoridagi tortta asosini bilish o'zbek tilidagi istalgan so'zni biror turkumga kiritish uchun yetarli emas. Buni murakkablashtiradigan qator holat mavjud.

Birinchidan, omonim shaklli so'z birdan ortiq turkumga mansub bo'lishi mumkin. Masalan:

1. Endi nima qilsam ekan, – deya Otabek o'z-o'zidan so'radi (o'z-o'zidan – o'lmoshiq).

2. Qancha o'z-o'zidan ravishga qarab kelsa (o'z-o'zidan – ravish).

3. O'z-o'zidan mamlakat taqdiri hammani qiziqtiradi (o'z-o'zidan – modal so'z).

Kasal, issiq, sovuq, salqin, nam, ko'k kabi so'z ham sifat, ham ot hisoblanadi: sifat: **issiq non, sovuq havo, salqin joy, nam iqlim, ko'k choy;** ot: **issiq ta'sir qilgan, sovuq urgan, salqin tushdi, nam tushdi, ko'k yuzini bulut qopladi.** Ular shakldosh so'zlardir.

Ikkinchidan, so'z mavjud bo'lib ma'nosi yoki ma'nosidan biri bilan bir turkumdan ikkinchisiga ko'chishi mumkin. Masalan, yo'l so'zi akoniy shaklda sifatga o'tadi. To'liqsiz fe'l **esa** zidlov bog'lovchisi guruhiga ko'chib o'tgan. Ko'makchi va modal so'zning katta qismi bir ma'nosi bilan shu turkumga ko'chgan so'zdan tashkil topgan.

Uchinchidan, so'z turkumi bir-biriga vazifasini bajarib turishi mumkin. Masalan, ot **temir darvoza, cho'yan pechka, yog'och qoshiq, oltin kuz** kabi birikmasida sifat, **qon yig'lamoq, takror aytmoq, dahshat tayyorlanmoq** kabi birikmasida ravish vazifasini bajaradi.

Bir soni **faqat** yuklamasi, **goh-goh** bog'lovchisi **juda** ravish o'rnida qo'llanishi, ya'ni uning vazifasini bajarishi mumkin. **Bilan** ko'makchisi, **-u, -da** yuklamasi, **va** bog'lovchisi vazifasini bajaradi.

To'rtinchidan, so'z nutq jarayonida o'z vazifasini bajara turib, vaqtincha yana bir so'z turkumi vazifasini ham zimmasiga olishi mumkin. Bu o'tishishdir. O'tlashishning 4 ta muhim belgisi bor:

1. O'tlashgan so'z bog'langan ot tushib qolgan bo'ladi: **Yaxshi** (odam) **ot** – **yaxshi** (ot), **yomon** (odam) – **bo'rini.**

2. O'tlashgan so'z o'zining shakl yasovchi qo'shimchasini oladi: **Yaxshidan** adashma, **yomonga** yondashma.

3. O'zining so'roq ga javob bo'lishi mumkin. **Intilganga** (kimga?) tole yor.

4. O'zining sintaktik vazifasini bajaraveri. Shakarning **o'zi** shirin.

Ma'lum bir turkumga mansub so'zning o'tish ma'nosi kuchsizlanib, boshqa turkumga xos ma'noviy va sintaktik belgiga ega bo'lishi so'z turkumining

ko'chiqindir. O'zbek tilida boshqa turkumga ko'chgan yoki ko'chishga shay turgan so'z ta av bo'lib, bu so'zning qaysi turkumga kirishini aniqlash ba'zida murakkablik tug'diradi. Shuning uchun:

a) **vaqtincha boshqa turkum** vazifasini bajarish;

b) **mutlaqo boshqa turkumga** ko'chish

farqlanadi. Nutqiy ko'chishda nutqiy ko'chma ma'no ifodalanadi. Masalan, **Birni ko'rib fikr qil, birni ko'rib shukur qil** gapida son turkumiga mansub bir so'z vaqtincha o'l turkumi vazifasida kelmoqda va bu ko'chish, nutqiy hodisa.

Mutlaq ko'chishda so'z bir turkumdan boshqa turkumga butunlay o'tib ketadi. Butunlay ko'chish deyar. barcha mustaqil so'z qatorida hatto mustaqil va yordamchi so'z sirasida ham kuzatiladi. Misollar.

1. OTga o'tgan

a) sifat: yigit. qiz, o'g'il, qari. er. xotin, ko'r. issiq-sovuq (issiq-sovuq idan xabar olmoq); **achchiq-chuchuk**, yosh, qari, yoshu qari, ko'k (osmon, rang, dalan); (sayoh so'z ham asl da sifatdan ko'chgan);

b) fe'l: yel, shish. yuq. ich, ko'ch. qir. chaqirdi. cho'chidi. ko'rdi, **keldi-ketdi**, qo'ydi-chiqdi **oldi-berdi**, o'da-soldi (**oldi-berdi** (bahsni o'yinning nomi); **bordi-keldi, keldi-ketdi, oldi-berdi, ur-yiqit, ur-sur**, baqir-chaqir, yasan-tusan, supur-sidir, yuqur-yugur, **oldi-qochdi** (gap). **kuydi-pishdi** (ayol) **tilguzildi** (yaq) **ichakuzdi** (hangomalar), supsaqoqdi (farzand, ya'ni so'nggi farzand) kabi sodda, qo'shma, juft va takroriy fe'l.

b) fe'lning harakat nomi shakli: **kengash, kurash** o'qish, yozish, o'tmish, qilmish, **qidiruv**, o'ynash, saylov, ishlov, qurshov, qatnov, qiston, tanlov, **tintuv, maqtov**, tergov, to'lov, o'quv, chanqov, qalov, qarov, to'ntarish, o'zgarish, qiziqish, o'qish, o tirish, qarash (esdusi), muyulish/burilish, **burilish** (o'zgarishma nosoda) yozuv-chizuv, yurish-turish, borish-kelish, **bosar-tusar, ko'rolmaslik, kiraverish**

v) fe'lning sifatdosh shakli: **o'qituvchi, bog'lovchi, kuzatuvchi**;

g) son: uch, yetti, yigirma, qirq, **to'qqiz-to'qqiz**.

d) taqlid: **ququ** (qush), dudu (engil mashina), pepop (eski pop-pop. tikuv mashinasi), tuto (tovuq), patpat (motosikl), shapshap (mingzkushak), chaqshaq (qushning nomi)

2. SIFATga o'tgan:

a) fe'l: **daydi**, qari, och, chalkash, yanglish, tutash, aralash.

b) fe'lning sifatdosh shakli: **kelajak**, bo'lajak;

v) ot: **tilla, kumush, taxta** (*tilla uzuk, ustibolo*), **mosh-guruch, yo'l-yo'l, rang-barang, xilma-xil**

g) o'rinbosar: **mannan**).

3. **OLMOSH**ga o'tgan:

a) ot: **odam**, kishi, inson (*Zamon ko'pdi odam* (men), *hayron qolmasa iloj* (men); *dardimni eshitadigan inson* (hech kim) *topmadi*);

b) son: **bir** (*bir vaqt* (kimdir);

v) sifat: **ba'zi** (*ba'zilar* (allakimlar) *unday deydi, ba'zilar bunday*).

4. **RAVISH**ga o'tgan:

a) ko'lmng sifatdosh shakli: **qaramasdan** (ishlamyapti, o'ylamasdan (gapirdi, indamasdan, bilinar-bilinmas;

b) fe'lning ravishdosh shakli: **osha**, o'ta, ura, qayta, qo'yarda-qo'ymay, ura-sura.

v) ot: **erta**, **kecha**, **kech**, **kechqurun**, **savat-savat**, **navbatma-navbat**.

5. **YUKLAMA**ga o'tgan:

a) son: **bir**;

b) sifat: **yakka**, **yolg'iz**.

6. **MODAL**ga o'tgan:

a) ot: **haqiqat**dan, **chamasi**, **mazmuni**;

b) sifat: **yaxshi**, **so'zsiz**, **tuzuk**, **to'g'ri**, **tabiiy**.

d) olmosh: **qani**, **qalay**.

7. **BOG'LOVCHI**ga o'tgan:

a) son: **bir**;

b) ravish: **ba'zan**

b) yuklama: **ham**.

d) ko'makchi: **bilan**.

8. **KO'MAKCHI**ga o'tgan:

a) ot: **ost**, **ust**, **old**, **orqa**, **tomon**, **tag**, **tepa**, **ich**, **ora**, **qosh**, **lab**, **yoqa**, **og'iz**;

b) ko'lmng ravishdosh shakli: **qarab**, **boshlab**, **ko'ra**, **deya**, **deb**, **o'xshab**.

d) sifat: **tashqari**, **boshqa**, **bo'lak**, **o'zga**;

e) ravish: **avval**, **oldin**, **ilgari**, **keyin**, **so'ng**.

Lekin sanalganning ayrimi bugungi kunda boshqa turkumga butunlay o'tib bo'lganligi tan olinsa, ayrimi darslikda hali o'tish bosqichida ekanligi aytiladi. Masalan, mavjud grammatikalarda son turkumning tasnifi bo'yicha sonlar ekan, predmetning sanog'i (aniqligi, bildirishi, qancha, nechta, nechanchi so'roqlaridan biriga javob bo'lish, ot turkumi grammatik xossalari ekan, aloqada bo'lishi va gapda, asosan, sifatlovchi bo'lib kelishining o'ziga xos kelishik va tuslanishlari. Son turkumiga xos so'z jamlovchi son shaklida qo'yilganda javob berolmaydi.

Ayni paytda jamlovchi sonning -ov, -ala, -ovlon, -ovlab, -ovlashib shakli ajratiladi. Qayd etilgan shakldan -ovlab, -ovlashib shakli, bizningcha

jamlovchi son shakli emas, balki jamlovchi sondan yasalgan ko'plikning ravishdosh shaklidir: ikki+ov+lash+ib.

Demak, birinchi ikki shakl jamlovchi son qatori sirasidan chiqishga "tayyorlanmoqda". Asosiy shakl sifatida -ov, -ala, -ovlon ko'rsatkichlari ajratilishi mumkin. Ma'lumki, bundan —ov, -ala shakli boshqa son ma'no turidan farqlanmay, deyarli har doim egalik shakli bilan qo'llanadi. -ovlon shakli jamlovchi sonning ajtash ma'nosi bugungi kunda aniqdor emas, balki «qanchadir miqdordagi shaxs» deb qaraladi: Oltovlon o'a bo'lsa, og'zidagin oldirar. -ov, -ovlon shakli barcha son kabi ot bilan birikmaydi, gapda aniqlovchi-izohlovchi vazifasida kelmaydi. Sonning so'roq gapda javob bo'lmaydi, barcha son o'zgalar jamlovchi son ma'nosi qilmaydi. U ko'proq ega xos belgiga ega. -ala shakli esa sonlik belgisini ham o'zida birmuncha saqlab turibdi: uchala bola ham qo'shni qishloqdan ekan. Jamlovchi son shakllardagi ma'no tamoqq yali quyidagicha:

-ala -ov -ovlon

Ko'rib o'tganimizdek, bular orasida -ala shaklida sonlik belgisi birmuncha saqlangan, -ovlon shaklida otlik belgisi kuchaygan. -ov shaklida sonlik ham, otlik ham mushtarak.

Demak, aytish mumkinki, sof jamlovchi sonlarda otlashish hech qachon bo'lib bo'lmaydi. Buning sababi lingvistik jihatdan taraqqiyotida ekanligidan dalolat beradi.

GRAMMATIK MA'NO VA GRAMMATIK SHAKL

Grammatik ma'no. Grammatik ma'no – murakkab hodisa. Mustaqil va alohida olingan so'zda lug'aviy ma'no ustiga qavatlanadigan, yordamchi so'zning mohiyatini tashkil etadigan, ko'plab so'z uchun umumiy bo'lgan ma'no grammatik ma'no deyiladi. Masalan, kitob so'zining lug'aviy ma'nosi ustiga ot, turdosh ot, aniq ot, yakka ot ma'nosi qavat-qavat bo'lgan holda "Atash" ma'nosi va so'zni o'zgalash so'z sifatida bosh so'zga bog'lash uchun so'zining mohiyatini tashkil etadi.

Grammatik ma'no leksik ma'nodan bir guruh so'z uchun umumiyligi bilan farqlanadi. Chunki lug'aviy ma'no har bir so'z uchun alohida bo'ladi. Masalan, hatto bir ma'nodoshlik qatoridagi har bir so'zning lug'aviy ma'nosi farq qiladi: bashara so'zining lug'aviy ma'nosi "odam boshi old tomoni peshonadan iyakkacha bo'lgan qismining salbiy ifodasi" bo'lsa, yuz so'zining lug'aviy ma'nosi "odam boshi old tomoni peshonadan iyakkacha bo'lgan qismining betaraf ifodasi" dir. Farq "salbiy ifoda" va "betaraf ifoda". Lekin

nafaqat ma'nodosh balki narsa-predmet va shaxsni bildiruvchi so'zning barchasi uchun ot grammatik ma'noni umumiy. Grammatik ma'no birgina turkum so'zida bor. Lug'aviy ma'no esa gap bo'lagi va gap bo'la oladigan so'zda mavjud.

Grammatik ma'noning turi. Mavjudligiga ko'ra grammatik ma'no uchga bo'linadi:

a) **so'zning tabiatida** avvaldan mavjud grammatik ma'no;

b) **grammatik vosita yordamida hosil qilinadigan** grammatik ma'no;

v) **so'z birikmasi va gap tarkibida** vujudga **keladigan** grammatik ma'no.

So'zning tabiatida avvaldan mavjud grammatik ma'no. Ot turkumiga mansub **ot, aniq ot, mavhum ot, yakka ot, jamlovchi ot, ateqli ot, turdosh ot, sifat turkumida sifat, asliy sifat, nisbiy sifat,** son turkumida **son, miqdor, fe'l turkumida fe'l, o'timli fe'l, o'timsiz fe'l,** ravish turkumida **ravish, miqdor, payt, sabab** ko'makchida **ko'makchi, sof ko'makchi, ko'makchi vazifasidagi so'z** kabilar ularda avvaldan mavjud grammatik ma'no. Har bir so'z turkumida bunday ma'no bor. So'z biror turkumga xos, bu turkum ma'nosi uning bir grammatik ma'nosining nomidir.

Grammatik vosita yordamida hosil qilinadigan grammatik ma'no. Bunday ma'no mustaqil so'zda mavjud bo'lib, grammatik qo'shimcha va yordamchi so'z vositasida hosil qilinadi. Masalan, ot turkumiga oid **kitob** so'zi **egalik, kelishik** qo'shimchalari va ko'makchi yordamida vujudga keladi: **kitobchalarimizga** so'zidagi ko'plik qo'shimchasi, **kelishikdagi** qo'shimchalar birlik-egalik shakllari, qo'shilish-kelishigidagi grammatik ma'no grammatik vosita yordamida vujudga kelgan grammatik ma'no. Sifat va ravishdagi daraja so'zining semantik asosini tashkil etuvchi barcha ma'no turi, fe'lda nisbat, bo'lishli-bo'lishsizlik, fe'lning xoslangan shakli, mayl kabilar shunday ma'no sirasiga kiradi.

So'z birikmasi va gap tarkibida vujudga keladigan grammatik ma'no. Masalan, so'z erkin birikma tarkibida boshqa so'z yoki organik so'z, gap tarkibida boshqa gap bo'lagi, umuman, kishi so'z ojizi gap bo'lagi, gap esa matn bo'lagi bo'lishi mumkin. Yuqoridagi so'z so'z va gap o'zaro hodisaviy (ko'makchi va bog'lovchi) qo'shimcha ma'no beradi (yuklama). Bu ma'no faqat gap tarkibida hosil bo'ladi. Gapdan tashqaridagi so'zda bunday grammatik ma'no bo'lmaydi.

Grammatik ma'no ifodalovchi vosita. O'zbek tilida grammatik ma'no ifodalashning quyidagi vositasi mavjud:

1. Grammatik qo'shimcha.
2. Yordamchi so'z.
3. So'z tartibi.
4. Tiniqlar.

5. Ohang

Grammatik qo'shimcha – bola grammatik ma'no ifodalashning eng keng tarqalgan turi. Ifodalaydigan grammatik ma'noning tabiatiga ko'ra u ikkiga bo'linadi: lug'aviy qo'shimcha va sintaktik qo'shimcha.

Lug'aviy qo'shimcha so'zni bog'lamaydi, balki so'zning lug'aviy ma'nosini ifodaga moslaydi. Masalan, o'zbek turkumiga mansub so'zga ular lug'aviy qo'shimchasi qo'shilib, uning lug'aviy ma'nosi u birlik yoki ko'plik ko'rinishida yuzaga chiqaradi. Fe'lda nisbat lug'aviy ma'noning harakat bajaruvchisini ko'rsatadi. Lug'aviy shakl hosil qiluvchi – so'z ma'nosini qisman o'zgartiruvchi, muayyanlashtiruvchi qo'shimcha. Masalan, kitob so'zida birlik ma'nosi nami (Bu kitob qiziqarli), ko'plik ma'nosi ham (Do'konga kitob keldi) mujassamlangan. Ana shunday kitob so'zida birlik yoki ko'plik voqelanishini ajratib beradi. Shu so'zga ular shakli qo'shilishi bilan u kitob so'zida birlik ma'nosini ko'plik ma'nosidan chegaralaydi, ya'ni lug'aviy ma'noni muayyanlashtiruvchi bo'ladi. Lekin lug'aviy shakl hosil qiluvchi, asosan, 4 yirik so'z turkumi – fe'l (nisbat, bo'lishli-bo'lishsizlik, o'zgalovchi, sanelik va analiklik harakat tarzi shakllari), ot (son, kichraytirish-erkalash), sifat (daraja) va gonda (uning ma'no turini hosil qiluvchi) mavjud.

Sintaktik qo'shimcha (munosabat shakli) so'zni so'zga bog'laydi yoki so'zga sintaktik mavqe beradi. Kelishik organ so'zni asosli so'zga, egalik esa asosli so'zni o'zganing so'zga bog'laydi: kitabni o'qimoq, daftarning varag'i kabi. Sintaktik (munosabat) shakl hosil qiluvchi qo'shimcha so'z lug'aviy ma'nosiga ta'sir etmay, bir so'zga bog'lanishga yoki so'zga nisbatan bir sintaktik vazifa berishga xizmat qiladi. Kelishik, egalik, mayl, zamon, shaxs-son shunday grammatik vosita. Kelishik egalik qo'shimchasi so'zni bog'lasa (Salimning ukasi), mayl, zamon, shaxs-son esa gapkesim shakllanadi. o'qidim (xabar mayli, o'tgan zamon, birinchi shaxs).

O'zbek tilida shunday shakl borki, ular bir tomondan so'zning lug'aviy ma'nosiga ta'sir etadi, ikkinchi tomondan sintaktik aloqaga kiritadi. Fe'lning vazifa shakli (ravishdosh, sifatdosh) shunday ikkiyoqlama mohiyatga ega. Masalan, shoshilib gapirmoq birikmasida –ib ravishdoshi shakl shoshik so'zining lug'aviy ma'nosiga ta'sir etgani yarim urg'u ravishlik ma'nosiga yaqin ma'no bergan, shu bilan birga, bu so'zni keyingi so'zga bog'lash vazifasini ham bajargan.

Yordamchi so'z ham grammatik ma'no ifodalovchi vosita sirasida muhim o'rin tutadi. U mustaqil so'zda va gapda grammatik ma'no ifodalashning alohida turini tashkil etadi.

Ko'makchi mustaqil so'z bilan birga kelib, oldin turgan so'zni keyingi so'z bilan sintaktik aloqaga kirishadi. Bu bilan kelishikka o'xshaydi. **Biz kelajakka ishonch bilan qaraymiz** gapida ko'makchi yordamida «holat» grammatik ma'nosi yuzaga chiqib, **ishonch** so'zi **qaraymiz** so'ziga bog'lanadi. **Telefon orqali gaplashdim** gapida ko'makchining «vosita» ma'nosi yuzaga chiqib, **telefon** so'zini **gaplashdim** so'ziga bog'laydi. **Do'stlik biz uchun hamisha ilhom va kuch-quvvat manbai bo'lib kelgan** gapida yordamchi so'z vositalanish ma'nosini ifodalab, biz so'zini **bo'lib kelgan** so'ziga bog'lagan. Ko'rinadiki, grammatik ma'no va vazifa birgalikda yashaydi.

Bog'lovchi uyushiq bo'laklar, qo'shma gapning tarkibiy qismini bog'lash, ular orasida noaniq munosabatni ifodalash, zidlash, ayirish kabi grammatik ma'noni ifodalash uchun xizmat qiladi: **olma va anor, o'qidi, lekin yozmadi** kabi. Ba'zan gap boshida ham keladi: **Sitora aytdi. Lekin Munira tushunmadi.**

Ko'makchining morfologik ma'no ifodalash imkoniyati uning sintaktik imkoniyatidan kengroq. Chunki ular mustaqil so'z va gapga qo'shimcha ma'no yuklashi bilan ahamiyatli. Shu sababli ko'makchi kelishik bilan qo'shilishga ehtiyoj sezadi.

Mustaqil so'z ham o'rni bilan yordamchi so'zdek grammatik ma'no ifodalaydi: **juda, eng, bag'oyat, nihoyatda, o'ta, sal, birmuncha** kabi ravish darajа ma'nosini ifodalaydi; *olmoq, bermoq, qolmoq, o'tmoq, chiqmoq, kelmoq, boshlamoq, bo'lmoq* kabi 40 dan ortiq ko'makchi lo'nda harakat ma'nosini anglatishga moslaydi, lug'aviy ma'noga grammatik ma'no qo'shadi: **o'qib chiqdi, yoza boshladi, qo'rqib ketdi** kabi.

So'z tartibi grammatik ma'no ifodalashning maxsus vositasi bo'lib, tartib o'zgarishi so'z grammatik ma'nosining o'zgarishiga olib keladi. Masalan, **Dalalar yam-yashil** birikuvi gap bo'lsa, **yam-yashil dala** birikuv – so'z birikmasi. «gap» va «so'z birikmasi» – grammatik ma'no atamasi. Grammatik ma'no doda ashda so'z tartibiga chang hamrohlik qiladi. Ya'ni yuqoridagi gap va so'z birikmasida tartib o'zgarishi bu atamaning ohangi ham o'zgarib ketgan (so'z birikmasida tugallanmagan ohang bo'lsa, gapda tugallangan ohang mavjud).

Ohang - grammatik ma'no ifodalashning fonetik vositasi. Bu vosita yordamida gapning turini, gap bo'lagini ajratish, farqlash mumkin: **Gulnora, singlim keldi. Gulnora, singlim keldi. Gulnora singlim keldi** gapining birinchisida **Gulnora** va **singlim** so'zi uyushiq bo'lak vazifasida, ikkinchi gapda **Gulnora** so'zi undalma, **singlim** so'zi ega, uchinchi **Gulnora** so'zi aniqlovchi **singlim** so'zi izohlanmish – ega vazifasida kelgan. Gapni tashkil etuvchilardagi bunday farq so'zlovchining maqsadiga muvofiq farzdagi ohang yordamida yuzaga chiqmoqda.

Grammatik vositaning tuzilish turi. Grammatik vositaning tuzilishiga ko'ra turi bu qarashda uning sintetik va analitik turlarining yangicha nomlanishiga o'xshaydi. Grammatik shakl tuzilishiga ko'ra **sodda** yoki **murakkab** bo'lishi mumkin. Sodda shakl bir grammatik ko'rsatkichdan iborat bo'ladi: **kelishak, egalik, kichraytirish, nisbat shakli.** Murakkab shakl bir nechta ko'rsatkichdan iborat bo'ladi: **uydagi, aytib_qo'ydi.**

Grammatik vositaning so'zga qo'shilish tartibi. Grammatik vositaning so'z tarkibidagi tartibi ma'lum qonuniyatga ega. Bu vosita ma'lum tartibda joylashadi: so'z yasovchi qo'shimcha+lug'aviy qo'shimcha+sintaktik qo'shimcha. Grammatik vositaning joylash shaboqi turlicha va qo'shilish o'ziga ma'lum va grammatik xususiyati bilan bog'liq: **yangi lug'aviy ma'no hosil qiluvchi vosita** birinchi, **lug'aviy ma'nega ta'sir qiluvchi vosita** ikkinchi va **lug'aviy ma'nega ta'sir qilmaydigan, lekin so'zni bog'laydigan vosita** uchinchi bo'lib qo'shiladi.

Qo'shimchaning joylashuvidagi me'yoriy holat ba'zan buziladi: **opa-lar-im - opa-m-lar, ayt-di-ng-lar – ayt-di-lar-ing** kabi. Bu kam uchraydigan hodisa.

«O'zak+so'z yasovchi+lug'aviy shakl+sintaktik shakl» qolip bir qancha xususiyatga ega. Biz quyida faqat shakl hosil qiluvchi qatorasida fikr yuritamiz.

Lug'aviy shakl hosil qiluvchining o'ziga xos tartibi:

a) oldin **kichraytirish-erkalash+son.** Kichraytirish-erkalash shaklining kam qo'llanadiganlari ko'p qo'llanadiganlardan avval keladi: **to'ychoqcha, to'yloqcha**

b) sifatda **-roq** qo'shimchasi **-ish, -imtir** qo'shimchasidan, shuningdek ravishdosh va sifatdoshga qo'shilganda ham ularni hosil qiluvchi qo'shimchalardan keyin qo'shiladi: **oqishroq, ko'kimtiroq, sevinqiraganroq, tortinibroq** kabi.

v) sonda taxmin bildiradigan **-cha** affiksi sondan ma'nosini farqlaydigan **-ta** (**-gina, -a**) unsuridan keyin keladi: **o'ntacha** kabi.

g) otroshdagi yomon bildiruvchi **-dir** (**-tir, -sir**) unsuri hamma, yuklama tabiatica bo'lib, hamma turdagi qo'shimchadan keyin qo'shiladi: **nima-lar-ni-dir...;**

d) fe'lda: o'zlikdan boshqa nisbat ko'rsatkichi orttirma nisbat qo'shimchasidan keyin qo'shiladi: **tarqa-til-di, yugur-tir-ish-di, tik-tir-ish-di.** fe'lning farz qo'shimchasi va kuchaytiruvchisi (**chayqa, bura, to'zg'i**); birlashtirlik qo'shimchasi (**urintirma, chayqatma**), zamon qo'shimchasi, shart mayli qo'shimchasi va buyruq maylining kuchaytiruvchisi (**bordi, boradi, borsa, boray, borgin/borgil**), fe'lning xoslangan shaklini hosil qiluvchi qo'shimcha (**bormoq, borgan, borib** va boshqa) oxirida qo'shiladi.

Sintaktik shaklning tartibi

a) egalik qo'shimchasi+kelishik qo'shimchasi: **bolamni, o'qiganimni;**

b) munosabat shakli: tasdiq+inkor+zamon+mayl+shaxs+son: **o'qimayapsan**

Hamma turdagi qo'shimchadan keyin qo'shimcha tipidagi yuklama qo'shiladi: **o'qimayapsanmi.** Qo'shimcha qo'shilishida istisno holat ham bor. Til hodisasining davrga ko'ra o'zgarishi, shevaviy farqi va o'zganalik xususiyati, badiiy talab bilan bog'liq bo'ladi. Misol: **Bilurlar erdi** (Qutbi) – **bilar edilar, qilmag'aylarsiz** (Bobur nomasi) – **qilmag'aysizlar, solurlar erdi quloq** – **quloq solur erdilar.**

Bunday tartib o'zgarishi o'zida nozik ma'noviy farqni aks ettiradi.

Shakllarda ortiqlik va tejam. Bir so'zda ma'nosi bir xil yoki yaqin bo'lgan qo'shimchaning takrorlanishi **qo'shimcha ortiqchaligi** deyiladi. Bu bir necha ko'rinishga ega. Masalan, bir qo'shimchaning aynan o'zi yoki ma'nodosh qo'shimcha takrorlanadi. Takrorlanayotgan bu qo'shimcha: a) zich holda (**aytmag+lig+lar**); ham; b) ajralgan holda ham bo'lishi (**ish+da+lig+lm+da**) mumkin.

Qo'shimcha ortiqligi har xil sabablarga ko'ra yuzaga kelishi mumkin. Bir qo'shimcha o'zak bilan juda ham zich bo'lishib o'zakning tarkibiga singib ketadi, bunda o'zak mustaqilligidan mahrum bo'ladi, natijada so'zga shu qo'shimchaning ma'nodoshidan biri qo'shilishi mumkin, qo'shimchalar arxeiklashib, undan keyin tildagi iste'molda bo'lgan qo'shimcha qo'shiladi: **ich+kari+ga, tash+qari+ga, na+ri+ga, be+ri+ga, bor+i+si** kabi). Takrorlanayotgan sinonim qo'shimchaning barchasi kirib bo'lsa, ular tarkibi kuchaytirish kabi uslubiy vazifani o'z zimmasiga oladi (**sizlar** aytingizlar kabi). Boshqa tildan kirgan qo'shimcha tushunarli va keng iste'molli bo'lmaganda ham unung tilimizdagi ma'nodoshi qo'llanadi (**yer+on+lar** kabi). Qo'shimcha qo'shilishi natijasidagi tovush o'zgarishi ham ma'nodosh qo'shimchaning qo'shilishiga sabab bo'ladi: **yarm+i+si, kich+kina+gina, u+n+i+si, anavi+n+i+si, qay+si+n+i+si, singl+i+si, toy+choq+cha** kabi.

Ortiqchalik aksar holda tilning rivojlanishi bilan bog'liq hodisa. Bunga o'zbek tilining akademik grammatikasida ayrim izoh berilgan.

Ot va sifat yasovchi **-lik** qo'shimchasi farqlanib, vazifasi ajralganidan keyin (masalan, -li sifat yasaydi, **-lik** ot yasaydigan bo'lgani) ular ketma-ket qo'llanadigan bo'lgan: **aqllilik, ifodalilik, bilimlilik.**

Og'zaki so'zlashuv nutqida ba'zan uchrab qoladigan **mashshoqchi, xodimchi** kabi so'zda «bajaruvchi» ma'nosi ikki marta ifodalangan: so'z ma'nosi (arab tilida **mashshoq** – mashq qiluvchi shaxs, **xodim** – xizmat qiladigan shaxs) va **-chi** qo'shimchasi orqali.

Bir xil ma'noga ikki qo'shimcha qo'shma qo'shimcha maqomini oladi: **yog'ingarchilik, namgarchilik, rasvogarchilik** kabi.

Kelishik va egalik qo'shimchasining ikki marta qo'llanilishi (kitobni uch so'mdanga o'ldi, romanning **so'zboshisi**) ham ortiqchalikning o'ziga xos ko'rinishi.

Bir qo'shimchaning o'zi takrorlanganda, ko'p hollarda u fonetik variantining qator kelishi tufayli bo'ladi (fonetik, uslubiy qulaylik): **qistalang** (-ta, -la), **shoshilinch** (-l, -n), **tiqilinch** (-l, -n) kabi.

Tejam – ortiqchalikning ziddi. Tildagi tejam b-birligini qisqartirish, tushirib qoldirish orqali keladigan vaqtni kamaytirish, oldagi ortiqchalikni bartaraf etish ehtiyojidan kelib chiqadi. **Opkeng** (olib keling), **buyam** (bu ham), **qong** (qoling) kabi hodisa bunga misol bo'ladi. Tejamning fonetik, morfologik ko'rinishi mavjud. Morfologik tejam asosida fonetik tejam yotadi. **Yirik-irik, yigit-igit, yiroq-iroq** qisqarishi fonetik tejamga misol. **Olib ber-obar, bizim-bizning, sizing-sizning** – morfologik qisqarishga misol. **Olib ber-obar, bizim-bizning, sizing-sizning** tejalishi nutqiy qisqarishdir.

Tejam o'z maqomiga ko'ra yo doimiy, yo vaqtincha bo'lishi mumkin. Masalan, joriy holish kelishigi shakli dastlab **-qaru** ko'rinishida bo'lgan, bugungi kunda u qisqarib, **-ga** shakliga kelib qolgan. Bu – barqaror tejam. **Olib ber-obar, bizim-bizning, sizing-sizning** tejalishi – vaqtincha nutqiy qisqaruv. Chunki, masalan, **sizing** so'zshakli dagi **-ing** hida **-ning** shaklida yashaydi.

Tejam nutqiy aloqani osonlashtirishga xizmat qiladi, biroq axborot sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi.

Mustahkamlash uchun savollar

1. Grammatik ma'no nima? 2. Grammatik va lug'aviy ma'noning farqini nayon qiling. 3. So'zning o'zida mavjud grammatik ma'no haqida gapiring. 4. Grammatik vosita orqali ifodalanadigan ma'noni bayon qiling. 5. So'z birikmasi va gap tarkibida vujudga keladigan grammatik ma'no haqida gapiring. 6. Grammatik ma'no ifodalovchi vositalar qaysilar? 7. Qo'shimcha ortiqchaligi nima? 8. Qo'shimcha tejalishiga misol keltiring.

Topshiriq

1. Kutubxonadan Xushnidaga ikkita kitob oldim. 2. U o'qishga kolgan. 3. Aliaxon yana dars tayyorlanayotgan uyini. 4. Muhabbat bog'iga kirmadim bir bor. Suyo bir gulga qo'l urmadim bir bor. (M.Yus.) 5. Uning yuzlari quvonchdan yorishib ketdi. 6. Ko'rgim qolsa bulbuldan ham, gulidan ham. Qolar bo'lsam bir kun xor tikan ham, Agar bir zol yig'lasa chin dildan ham. Sinam yig'lar. (M.Yus.) 7. Mehnatdan oralanda stolgacha yurib bordi. 8. Mirkomil yolg'on gapirganidan uyaldi. 9. Sunnatjon hammadan nam singlisini ko'proq yaxshi ko'rardi. 10. Mahbubaning bo'yi Xurshidaqan uzunroq. 11. Onasining ko'rpachasi. Ammo sovuqda eshildi. 12. Javohirni telefonda eytib turdi.

15. Uning suyaklari mehnatda qotgan. 14. Kuch – adolatda. 15. Ravon ko'r yuzangda bir xol bo'layin, Ko'rsat ag'yoringga zavol bo'layin. Kattalar to'y qilib, rog'ora chalgan. Ko'yingda suv tashib hamroh bo'lgan. (A. Orip.)

1. Berilgan gapdagi so'zning lug'aviy va grammatik ma'nosini aniqlang.

2. So'zdagi grammatik ma'noni uch turga ajratib yozing:

a) so'zning o'zida mavjud grammatik ma'no;

b) so'zga shakl yasovchi qo'shimcha yoki yordamchi so'z tomonidan beriladigan grammatik ma'no.

d) so'zning gap tarkibida hosil bo'lgan grammatik ma'nosi.

3. Gaplardagi ajratilgan mustaqil so'zga grammatik ma'no beruvchi vositani aniqlang:

a) sintaktik qo'shimcha;

b) lug'aviy qo'shimcha;

d) yordamchi va yordamchi vazifadagi so'z;

e) so'z tartibi;

f) ohang.

4. Grammatik ma'no ifodalovchi vositani ikki guruhga ajrating:

a) so'zning lug'aviy ma'nosini bir oz o'zgartiradigan so'z va qo'shimcha;

b) so'zlarni o'zaro bog'laydigan so'z va qo'shimcha.

19- DARS
MUSTAQIL SO'Z TURKUMI. FE'L

Ma'noviy xususiyati. Harakat va holat bildiruvchi so'z fe'l deyiladi: **Bola yugurdi** (harakat). **It hurdi** (harakat). **Qarshi shahri viloyat markazida joylashgan** (holati). **Sitora uxlabdi** (holat).

Fe'l **nima qilmoq, nima bo'lmoq** so'rog'ini oladi. Ravishcosh shakli **qay tarzda** (shoshilib), **nima uchun** (shoshganidan), **nima maqsadda** (o'rgani), **qachon** (o'qigach), sifatdosh shakli **qanday, qaysi** (o'qigan bola), harakat nomi shakli **nima** (ishlash) so'rog'iga javob bo'ladi.

Lug'aviy ma'no turi. Maktab darsligida fe'lning 4 ta ichki lug'aviy ma'no guruhi ajratiladi:

1) nutqiy faoliyat: **gapirmoq, pichirlamoq, demoq, so'zlamoq, so'ramoq, yalinmoq, o'tinmoq, yolvormoq, vaysamoq, surishtirmoq, baqirmoq, o'shqirmoq, ming'irlamoq, to'ng'illamoq, aytmoq** kabi.

2) aqliy faoliyat: **o'ylamoq, fikrlamoq, xayol qilmoq, tasavvur qilmoq, hukm chiqarmoq, o'yga botmoq, ko'z oldiga keltirmoq, gavdalantirmoq, fikr qilmoq** kabi.

3) jismoniy faoliyat: **chizmoq, yozmoq, yasamoq, qurmoq, yaratmoq, bino qilmoq, asos solmoq, bo'yamoq, tozalamoq, yiqmoq, yemoq, artmoq, sayqal bermoq, o'chirmoq, nobud qilmoq, yurmoq, yugurmoq, chiqmoq, bermoq, qirqirlamoq, yelmoq, sudralmoq, sakramoq, uchmoq, o'tmoq** kabi.

4) holat: **kulmoq, uxlamoq, yig'lamoq, brjaymoq, dam olmoq, shoshmoq, rumoq, qizarmoq, nemirmoq, shishmoq, ranjimoq, xursand bo'lmoq, xandon urmoq, dahshatlanmoq, shod bo'lmoq, og'rinmoq** kabi.

2. Morfologik xususiyati. Fe'l o'ziga xos shakl yasovchiga ega:

1) lug'aviy shakl yasovchi: **nisbat, bo'lishli/bo'lishsizlik, vazifa shakli, ko'makchi fe'l, harakatning kuchsiz darajasi va davomiyligini bildiruvchi qo'shimcha.**

2) grafik (munosabat) shakl yasovchi: **tasdiq-inkor, zamon, shaxs-son, mayl.**

Maktab darsligida fe'lning qo'shimchalarini farqlashda izchillik yo'q. Masalan, ayrim darsliklarda **zamon, shaxs-son, mayl, bo'lishli/bo'lishsizlik** xesimlik, ya'ni munosabat shakli sifatida berilgan. Qolgan fe'l qo'shimchalari (nisbat, vazifa shakli, ko'makchi fe'l, harakatning kuchsiz darajasi va davomiyligini bildiruvchi qo'shimchalar) lug'aviy shakl sirasiga kiritiladi.[17] Boshqasida **zamon, shaxs-son, mayl** munosabat shakli sifatida olinib, bu shakllarga ega bo'lgan har qanday fe'l gapda kesim vazifasida keladi[18] deyiladi va **bo'lishli/bo'lishsizlik** shakl haqida hech narsa deyilmaydi. Natijada uning lug'aviy shaklini yoki munosabat shakli ekanligi noaniq bo'lib qoladi. Harakatning kuchsiz darajasi va davomiyligini bildiruvchi qo'shimcha (**kulimsira, oqarinqira, turtkila** kabi) ham shunday.

Demak, bu masalada aniq fikr aytilgan H.Ne'matov, A.G'ulomov, M.Ahduraimova va M.Qodirovning 7–9-sinflar uchun 2000-yilda chop etilgan "Ona tili" darsligiga tayangan ma'qul.

Eslatma

1. Yuqorida sanalgan munosabat shakli ko'proq fe'lga xos. Boshqa so'z turkumi ham kesim vazifasida kelsa, ushbu shaklga ega bo'lishi aniq. Masalan:

*Ot: **Men** – **o'qituvchiman** (hozirgi zamon, xabar mayli, tasdiq, birinchi shaxs).*

*Sifat: **Gul qizil.** (hozirgi zamon, xabar mayli, tasdiq, uchinchi shaxs).*

*Son. **Kitoblar o'nta edi.** (o'tgan zamon, xabar mayli, tasdiq, uchinchi shaxs).*

*Olmosni: **Yig'lagan** men**man**. (hozirgi zamon, xabar mayli, tasdiq, birinchi shaxs)*

*Taqlid: **Atrof g'ovur-g'uvur**. ((hozirgi zamon, xabar mayli, tasdiq, uchinchi shaxs).*

*2 Bo'lishli-bo'lishsizlik va tasdiq-inkorni farqlash kerak. Fe'l kesimdan hoshqa vazifada kelganda bo'lishli-bo'lishsizlikka ega bo'lish: **o'qigan bola – o'qimagan bola** kabi.*

Bo'lishli-bo'lishsizlik faqat fe'lga, tasdiq-inkor barcha mustaqil so'z turkumiga xos

Grammatik ma'no turi. Fe'l grammatik ma'noga ko'ra o'timli va o'timsiz fe'lga bo'linadi.

O'timli fe'l tushum kelishigidagi so'zga bog'lanadi: **o'qidi, ko'rdi, yod oldi** kabi. Bu so'z **kimni, nimani** so'rog'iga javob bo'ladi: nimani o'qidi, **kimni ko'rdi, nimani yod oldi** kabi.

O'timsiz fe'l tushum kelishigidagi so'zga bog'lanmaydi: **bordi, uxladi, ranjidi, xandon urdi** kabi. Bu so'z **kimni, nimani** so'rog'iga javob bo'lmaydi.

O'timli fe'l o'timsizga, o'timsiz fe'l o'timliga aylanishi mumkin: **o'qidi** (o'timli) – **o'qildi** (o'timsiz) **yig'ladi** (o'timsiz) – **yig'latdi** (o'timli) **yuvdi** (o'timli) – **yuvindi** (o'timsiz) kabi.

Fe'lning vazifa shakli bo'lgan sifatdosh otlashadi. Chunki u otga so'roq qo'yiladigan aniqlovchi bo'lib keladi, otning shakl yasovchisi va sintaktik vazifasini oladi: **Bilmagan** (otlashmagan, aniqlovchi) **narsani** (ot – tushum kelishigida, to'ldiruvchi) **so'rab bilish kerak**: **Bilmaganni** (otlashgan, tushum kelishigida, to'ldiruvchi) **so'rab bilish kerak.**

Eslatma

Otlashgan so'z otning so'z yasovchilari bosh(a) ot shakllarini oladi

Sintaktik xususiyati. Fe'l gapda quyidagi vazifada keladi:

– kesim: **U choyxona yonidan o'tdi. Ojizgina vizillagan tovush eshitildi.**

– hol: **Bola shoshilib gapirdi. Kula-kula gapirdi.**

– aniqlovchi: **O'qigan kishi o'zadi. Aytar so'zni ayt.**

– kesim: **Aytishicha, kechga qaytarmaish. Gapiga qaraganda, ko'p ish qilgan.**

Otlashganda:

– ega: **Eshitgan** (kishi) **uyaladi. Ko'rgan** (odam) **gapiradi**

– to'ldiruvchi: **Bilmagan** (narsa) **ni so'rab bilish kerak.**

– qaratqich-aniqlovchi: **Ko'rmaganning ko'rgani qursin.**

– undalma. Eshitgan (kishi) lar, aytinglar.

Lug'aviy ma'noga egalega emasligiga ko'ra fe'l turi. Bunga ko'ra fe'l ikkiga bo'linadi:

mustaqil fe'l: gapirmoq, o'zgartirmoq, semirmoq, shishmoq, ranjimoq;

nomustaqil fe'l: o'qib bo'lmoq, yozib tashlamoq, asos solmoq, qaror qilmoq.

Nomustaqil fe'l. Nomustaqil fe'l turkiy tilda lug'aviy ma'no ifodalamaydi va fe'l yoki boshqa so'z turkumi ma'nosini yangilaydi, ya'ni yangi so'z yasaydi: (**yordamchi fe'l**), bir ish-harakatni (**ko'makchi fe'l**) yoki so'zni kesim vazifasiga xoslaydi (**to'liqsiz fe'l**).

1) *yordamchi fe'l* so'z yasovchi qo'shimcha xususiyatiga ega: **sotib oldi, qaror qildi, ishqor edi.**

2) *ko'makchi fe'l* lug'aviy shakl yasovchi qo'shimcha xususiyatiga ega: **o'qib chiqdi, aytib qo'ydi, qarab qoldi.**

3) *to'liqsiz fe'l* munosabat shakli yasovchi qo'shimcha xususiyatiga ega: **o'qigan ekan, qiziq emish, o'nta edi.**

Eslatma

Yordamchi fe'l "So'z qo'shib fe'l yasash" mavzusida o'rganiladi.

Eslatma

Mustaqil fe'l ***tuslangan fe'l*** *(sof fe'l) va* ***tuslanmagan fe'l*** *ga ajraladi. Kesim vazifasidagi fe'l – tuslangan, ya'ni sof fe'l. Fe'lning nokesimlik shakli (ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi) tuslanmagan fe'l hisoblanadi.*

Mustahkamlash uchun savollar

1.Fe'lning ma'noviy xususiyati haqida gapiring. 2. Fe'lning qanday lug'aviy ma'no turi bor? 3. Nutqiy faoliyat fe'li haqida gapiring va misol keltiring. 4.Aqliy faoliyat fe'li haqida gapiring va misol keltiring. 5 Jismoniy faoliyat fe'li haqida gapiring va misol keltiring. 6 Holat fe'li haqida gapiring va misol keltiring. 7 Fe'lning morfologik xususiyati haqida gapiring va misol keltiring. 8 Grammatik ma'no turi haqida gapiring va misol keltiring. 9 O'timli fe'l haqida gapiring va misol keltiring. 10.O'timsiz fe'l haqida gapiring va misol keltiring. 11. Fe'lning sintaktik xususiyati haqida gapiring va misol keltiring. 12. Lug'aviy ma'noga egalega qarashiga ko'ra fe'l turi haqida gapiring va misol keltiring.

Topshiriq

Keyingi yillarda rivojlangan zamonaviy meditsina bo'lgan yurak-qon tomir kasalliklarining kelib chiqishida ovqatlanish rolining buzilishi sabab bo'lishi ko'rsatmoqda. Hayvonlar hayoti davomida kasallik, yoki yoqimlik ta'mini tez-tez ochi qonishga mubtar bo'ladi. Bu esa ularning immuni susayishi va mutatsiya bo'lgan kasalliklarni bevosita davolanishga sabab bo'ladi. Inson hayotida ular bunday holatlar deyarli kuzatilmaydi. Ovqat to'g'ri tanlash, ovqatlanish muammolari xususida keyingi davrda qator ilmiy izlanish olib borilmoqda. Bu haqda mutaxassislar shunday deydilar. 1. Kam yeang, uzoq umr ko'rasan. Kimki, o'zidagi ahtonona komplikatsiya yerga o'tib (parchalanishga bo'lgan harakat) ya otsa, u rodaxir. (Benjamin Franklin) 2. Ortiqcha ovqatlanishdan o'zni tiyish – organizmni uchun buyuk bezaklanish. Ammo bu - kasallikka qarshi malham emas. (Pol S. Bragg) 3. Ortiqcha ratsionlarga ega bo'lish. Har bir yangi ratsionlash uchun qisqatdan-qisqa yangi bir qadamdir. (Pol S. Bragg) 4. O'zingizni ortiqcha ovqatlanish bilan zaharlamang. Bu sizni moddalardan olish qilgan yo'qotiydi. (Pol S. Bragg) 5. Hayot – bu ovqatlanish hamdir. (Anatol Emerst) 6. Inson sondagi va qoshq bilan o'ziga qabr qaziydi. (Pol S. Bragg) 7. Oliqo no ygona yonon) hayvonning ishi. Og'ziga borganni tomoq natanning ishi. (Navoiy)

1. Gapdagi fe'lni aniqlang

2. Qaysi qatorda so'zni mustaqil holda turlanish bilmaydigan va ediolmaydigan hisoblash shakliga ega bo'lmagan so'z qo'llanmagan qatorni ko'rsating

3. Ravish fe'lni nima deb va o'lmas fe'lga qaratilsin

4. Mumkin holda harakat bildiradigan fe'lni inson vazifasidagi so'z bilan vazifadosh bo'lmagan so'z bilan ikki guruhga ajrating

5. Izohsiz holda tushunib bo'lmaydigan fe'lning so'z yasash va shakl yasash xususiyatlar aniqlang.

6. Gapda qo'llangan bo'lishlik ma'nodosh, shakldosh va zidlari ratorini bering.

20- DARS
FE'L NING LUG'AVIY SHAKLI

Fe'lning lug'aviy shakli atamasiga nisbat, ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi shakli, harakat tarzi ikki maksadli fe'l, harakatning kuchsiz darajasi va davomiyligini bildiruvchi qo'shimchalar kiritilgan.

Nisbat. Nisbat - fe'lning lug'aviy shakllaridan biri. Nisbat shakli harakat va holatning bajaruvchiga munosabatini ko'rsatadi. Bajaruvchining harakat va holat jarayonida qay darajada ishtirok etishini ifodalovchi lug'aviy shakl nisbat deyiladi. Nisbat shakli fe'lga o'zak yoki negizdan keyin, ya'ni fe'l negiziga shakl yasovchidan oldin qo'shiladi. Nisbat turlari quyidagi:

1) aniq;
2) o'zlik;
3) majhul;
4) orttirma;
5) birgalik.

Aniq nisbat qo'shimchasiz negiz emas, ya'ni nol shaklli. Bajaruvchisi aniq bo'lgan harakat yoki holatni bildirgan fe'l shakli aniq nisbat deyiladi: bildi, ko'rdi, so'radi, aytmadi, qaytmadi.

O'zlik nisbat. Bajaruvchisi ustida amalga oshadigan harakat yoki holatni ifodalaydigan fe'l shakli o'zlik nisbati deyiladi. Qo'shimchasi

-(i)n	o'qin, kir-in, yuv-in, kam-ay-in, ko'z-in, suyan, sara-la-n, yoli-n, tara-l-in, ko'z-ga-n, ayta-la-n
-(i)l	o'q-il, ayt-il, qayir-il, sog'-l-ang-il, qad, yig'-il, ol-ti-n-ma-t, tes-k-i-l

Ayrim manbada o'zlikning -(i)sh shakli ham qayd etiladi: joylashdi, kurishdi, qo'rishdi.

> **Eslatma**
>
> 1. *O'zlik daraja shakli quyidagi fe'llar qo'shilmaydi: e'tibor, fe'l-atvor, hayra, yashna, qichqir, uxla, bor, kel.* 2) *O'zlik nisbat shakli fe'l o'zakdagi -la so'z yasovchisi bilan yoki birikib, bu bo'lishi mumkin.* Bunday fe'llarga misol shaklida quyidagi: *jonlanmoq, odatlanmoq, harakatlanmoq, zavqlanmoq, xezlanmoq.*

Orttirma nisbat. Bajaruvchining ta'siri bilan boshqa shaxs yoki narsa tomonidan bajarilgan harakat yoki holatni bildiruvchi fe'l shakli orttirma nisbat shakli deyiladi. Bu nisbat shakli

1) **-ar** – tuqqiz 2 ta fe'lga qo'shiladi: chiqar, qaytar.

2) **-giz/kiz/qiz/g'iz/goz/kaz/qaz**

Eslatma

-giz/g'iz jarangli undosh bilan tugagan fe'lga qo'shiladi: yurgiz, kirgiz, turg'iz, ko'rgaz.

-kiz/qiz/kaz/qaz jarangsiz undosh bilan tugagan fe'lga qo'shiladi: ketkiz, o'tkaz, yutqiz, o'tqaz.

3) **-dir/tir:**

Eslatma

-dir unli va jarangli undosh bilan tugagan fe'l o'zagiga qo'shiladi: yedir, yaydir, burdir, kuldir, qoldir, to'ldir, oldir;

-tir – jarangsiz va r, n, y, l kabi jarangli undosh bilan tugagan fe'l o'zagiga qo'shiladi: toptir, aytir, uqtir, tiktir, oqortir, ko'paytir, kuchaytir, keltir.

4) **-ir** t, ch, sh undoshi bilan tugagan fe'l o'zagiga: botir, qotir, ichir, qochir, shoshir, eshir, tushir, pishir.

5) **-iz** q, m tovushi bilan tugagan ba'zi fe'lga qo'shiladi: oqiz, tomiz, emiz.

6) **-it** – unli bilan tugagan ikki va undan ortiq bo'g'inli so'zga qo'shiladi: ishlat, tugat, boshlat, o'qit, yurit, kirit.

Eslatma

Bir fe'lning o'ziga orttirma nisbat turlaridan ortiqlari ham qo'shilishi ham mumkin. Bu tojikcha-fors va bajartiruvchi soda orttirma nisbat bilan tasdiqlanadi: yozdir – yozdirtir, o'qit – o'qittir.

Orttirma nisbat qo'shimchasi bir–biriga ma'nodosh bo'lib kelishi mumkin: **bitir – bitkaz, yedir – yegiz, kirgiz – kirit, ko'payt – ko'paytir, to'ldir – to'lg'iz.**

Orttirma nisbat qo'shimchasi o'zlik va birgalik nisbat qo'shimchasidan keyin qo'shilishi ham mumkin: **yuvintir, kiyintir.**

Eslatma

Orttirma nisbat qo'shimchasi o'timsiz fe'lni o'timliga aylantiradi: kel – keltir, to'l – to'ldir, uxla – uxlat.

Majhul nisbat. Bajaruvchisi noma'lum bo'lgan harakat yoki holatni ifodalovchi fe'l majhul nisbat deyiladi. Bu nisbat unli bilan tugagan fe'l asosiga -(i)n, -(i)l qo'shimchalarini qo'shish bilan hosil bo'ladi: **tozalandi, ta'riflandi, ochildi, tayinlandi, o'rib bo'lindi, ishlandi, o'qildi, hayd(a)ldi, o'raldi, yasaldi, archildi, yuqurtirildi, keltirildi, to'xtatildi, yurildi, tushildi, tushirildi, topshirildi.** Bunda so'zlovchi bajaruvchiga emas, bajariluvchi narsaga e'tibor qaratadi. Yer haydaldi. Gul yuvildi, Takdim tozalandi.

> **Eslatma**
>
> *O'zlik va majhul nisbat qo'shimchasi - shakldosh: **yuvildi** (majhul) **tug'ildi** (nasl), **yopindi** (o'zlik) **takrorlandi** (majhul). Ularni farqlash uchun **kim tomonidan, nima tomonidan** so'rog'idan foydalanish kerak. Majhul nisbatdagi fe'l qaysidir **kuch tomonidan**, **paymol qilindi** (nima tomonidan).*

Birgalik nisbat. Birdan ortiq bajaruvchi tomonidan birgalikda bajarilgan harakat yoki holatni ifodalaydigan fe'l shakli birgalik nisbat deyiladi va -(i)sh shaklchasi yordamida **borishdi, kelishdi, o'qishdi, ko'rishdi** kabi. Shuni qayd qilish lozimki, ko'plik son shaklidagi aniq nisbat fe'liga III shaxs ko'plik son shaklidagi birgalik nisbat fe'liga III shaxs birlik son shaklidagi birgalik nisbat ma'nodosh bo'ladi: **o'qidilar – o'qishdi** kabi.

Ma'nosi:

– birga bajarish: **Mehmonlar kelishdi**

– ko'maklashish: **U ukasiga paxta terishdi;**

– umuman ko'plik: **Talabalar imtihonga tayyorlanishdi.**

– qarama-qarshi bajarishdikkovlari birga arra tortishdi.

> **Eslatma**
>
> *Ba'zan birgalik nisbat qo'shimchasi fe'l yasovchi -la qo'shimchasi bilan, yaxlitlanib, bir butunlik hosil qiladi: **go'zallashmoq, omonlashmoq, hazillashmoq, o'rtoqlashmoq, tuzlashmoq** kabi. Bunday fe'l oddiy nisbatda deyiladi.*

Fe'l bir nechta aniq nisbat qo'shimchalarini olgan bo'lishi mumkin: **art+in+ish+di, kel+tir+ish+di, o'q+t+tir+ish+di.** Bunga savol ikki xil qo'yiladi:

1. Fe'l qaysi nisbatda? Bunda oxirgi nisbat qo'shimchasiga e'tibor qaratiladi: **to'xta+t+il+di, kiy+in+tir+il+di, yugur+tir+i+l+di** (o'zlik nisbat); **art+in+ish+di, kel+tir+ish+di, o'q+t+tir+ish+di** (birgalik nisbat).

2. Fe'lda qaysi nisbat qo'shimchasi bor? Bunda barcha qo'shimchalarga e'tibor qilinadi: **to'xta+t+il+di** (o'timsiz, majhul), **art+in+ish+di** (majhul, birgalik)

Fe'ldagi nisbat qo'shimchalari birga kelgan vaqtda quyidagi tartibda joy ashadi: **Fe'l asos + o'zlik + orttirma + majhul + birgalik: kiy+in+tir+il+ish+di.**

Fe'lning vazifa shakli. Fe'l gapda turli vazifada keladi: kesim, ega, to'ldiruvch., hol, aniqlovchi. Buning uchun maxsus shakl – qo'shimcha oladi. Tilda gap bo'laklariga xoslangan fe'l shakli vazifa shakl deyiladi. Fe'lning vazifa shakli 4 ta:

1) **kesim shakli** (sof fe'l);

2) **ega, to'ldiruvchi shakli** (harakat nomi);

3) **sifatlovchi - aniqlovchi shakli** (sifatdosh);

4) **hol shakli** (ravishdosh).

Buni ikkiga bo'lish mumkin:

1) **kesimlik shakli**: zamon, shaxs-son, mayl, bo'lishli-bo'lishsizlik;

2) **nokesimlik (kesimdan boshqa vazifaga xoslangan) shakli**: ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi.

Nokesimlik shakli. Fe'lning nokesimlik shakli bo'lgan ravishdosh **ravish**, sifatdosh **sifat**, harakat nomi **ot** vazifasini bajaradi.

Ravishdosh. Ravishdosh ravish kabi ish-harakat va holatning belgisini bildiradi., ja'ng so'rog'iga javob bo'lib, sintaktik vazifasi (hol va ba'zan kesim) ni bajaradi, shu bilan birga, harakat-holat ma'nosini saqlaydi. Demak, unda ravishlik va fe'llik xususiyati uyg'unlashgan bo'ladi: U **ikkilanib** javob **berdi. Ishning boshi boshlanguncha.**

Ma'no turi:

Holat ravishdoshi -(i)b, -a/y; -gancha/kancha/qancha; -gudek/kudek/qudek: o'qib, yozib, sevinib, yura–yura, yig'lay–yig'lay, yeb qo'ygudek, bitirib yuborgudek, shoshgancha.

> Eslatma
> *-a/y ko'rsatkichli ravishdosh takror holda qo'llanadi. bora-bora, chopa-chopa. Uning bo'lishsiz shakli yakka qo'llanaveradi.*

Ho'lat ravishdosh shakli holni kesimga bog'lasa, ma'no va shakl jihatdan ravishdosh bo'ladi: **sevinib gapirdi.** U, shuningdek, boshqa vazifani ham bajaradi:

– yetakchi fe'lni ko'makchi fe'lga bog'laydi: ***o'qib chiqdi, yoza boshladi.***

– ergash gapni bosh gapga bog'laydi: ***Bahor kelib, men ta'tilga chiqdim.***

-fe'lga shaxs-son qo'shimchasini biriktiradi: **boribman, boraman.**

Bunda ravishdosh shakli bo'lsa-da, ravishdosh ma'nosi yo'q. Demak, bunday holda u fe'lning vazifa shakli bo'lmaydi.

Payt ravishdoshi: -gach/kach, -guncha/kuncha: ko'rgach, tikkach, kelguncha;

Maqsad ravishdoshi: -gani/kani/qani (ba'zan -(g)ilikali/qali) 1. Siz bilan maslahatlashgani keldim. 2. Bu gapdan so'z ekan, so'z ustiga so'z etgali keldik.

Eslatma

Ravishdoshning barcha ko'rsatkichi uchun -may/mayin bo'lishsiz shakl. Faqat maqsad ravishdoshi bo'lishsiz shaklga ega emas.

Sintaktik vazifasi. Ravishdosh quyidagi sintaktik vazifani bajaradi

payt holi. Kelguncha o'yladim;

maqsad holi. So'z etgali keldik,

ravish holi: Kulib gapirdi;

kesim: Ishning boshi boshlanguncha.

ergash gap kesimi Bolta tushguncha, to'nka dam olar.

Sifatdosh. Fe'lning sifatdosh shakli sifat kab. predmet–hodisaning belgisini bildiradi, shu bilan birga, harakat-holat ma'nosini saqlaydi. Demak, unda sifatlik va fe'llik xususiyat mujassam bo'ladi: o'qigan, o'qiyotgan, chopadigan. Sifatdoshda nisbiy zamon mavjud. Ya ni, u kesim zamoniga nisbatan belgilanadi,

O'tgan zamon sifatdoshi. -gan/kan/qan (kelgan odam, kechikkan o'quvchi, olmiqqan gilam)

Eslatma

yot, tur, o'tir, yur fe'l -gan affiksi bilan qo'llanganda hozirgi zamon ma'nosi ifodalanadi: derazasi ko'chaga qaragan uy, sochi o'sgan bolakay, so'rida yotgan odam, tokchada turgan gulduvak, yonimizda o'tirgan tabib, shaharni aylanib yurgan sayyoh.

O'tgan zamon sifatdosh shakli kesimda fe'l zamonini ko'rsatadi. Bunda sifatdosh shakli bor bo'lsa da, sifatdosh ma'nosi yo q. Masalan:

Men	}		{ man
Sen			-san
U		kelgan	–
Biz			-miz
Siz			-siz
Ular			-(-lar)

Eslatma

-mish - o'tgan zamon sifatdoshining kam uchraydigan shakli: ***O'zbek adabiy tilining asoschisi bo'lmish Navoiy....***

Eslatma

O'tgan zamon sifatdoshi fe'lning uzoq o'tgan zamon qo'shimchasi bilan shakldosh. ***Qilgan bola*** *(sifatdosh) –* ***bola o'qigan*** *(tuslangan fe'l)*

Hozirgi va kelasi zamon sifatdoshi quyidagicha hosil bo'ladi.

1) -a shakli ravishdoshiga **-yotgan** qo'shimchasini qo'shish bilan hosil bo'ladi, faqat bunda -y tushib qoladi: **o'qiyotgan** bola, **chopayotgan** olapar.

-a/y shakliga **-digan** qo'shimchasini qo'shish bilan **bor-a-digan, o'qi-y-digan;**

-(a)r, -mas: oqar suv, borar joyimiz, so'nmas hayot;

-(g)(u)vchi: ishlovchi, tanuvchi, xohlovchi, boruvchi, uyg'onguvchi.

-g'lik, -rlik, -gullik yasatig'lik xontaxta, yopig'lik qozon, qorin to'ydirarlik bir kasb, arzigulik ish.

Eslatma

1) -(u)vchi, -g'lik, -rlik, -gulik shakli uchun -ma+gan ko'rsatkichi bo'lishsiz shakl: ***yasatig'lik – yasatilmagan, to'ydirarlik – to'ydirmaydigan.***

2) bu shakldi sifatdosh sifatga ko'chadi.

3) sifatdoshning **-(g)(u)vchi, -g'lik, -rlik, -gulik** shakli bo'lishsiz qo'llanmaydi.

Sifatdoshning otlashishi. Otga bog'lanuvchi boshqa so'z kabi sifatdosh ham otlashib otning shakl yasovchisi va sintaktik vazifasini oladi: **Ko'rgan** (sifatdosh, aniqlovchi) **kishilar** (ot, bosh kelishikda ko'plikda, ega) **gapirsin – Ko'rganlar** (sifatdosh, bosh kelishikda, ko'plikda, ega) **gapirsin. Ko'rgan** (sifatdosh, aniqlovchi) **paytda** (ot, o'rin-payt kelishigida hol) **gapiradi - Ko'rganda** (sifatdosh, ot, o'rin-payt kelishigida, hol) **gapiradi.**

Sifatdoshning sintaktik vazifasi

1) sifatlovchi-aniqlovchi: **Uyg'onguvchi bog'larni kezdim**

2) **-(a)r, -mas** qo'shimchali bo'lishli-bo'lishsiz shakli juftlashib hol. **Bemor bilinar-bilinmas nafas olar edi.**

Otlashganda.

3) ega: **Qumrilagan** qir oshar;

4) qaralqich-aniqlovchi: O'qiganning tili ko'p uzun bo'ldi;
5) to'ldiruvchi: Aytadrganingni ayt
6) kesim: Kambag'alning ko'chgani – to'zonqani.
7) hol: Ko'rgan tovrida gapiradi.
8) undalma: Eshitqanlar, qolmanglar.

Eslatma

*Sifatdoshning istaksi ifodalovchi (kelasi zamonni ifodalovchi) **guri/kuri/ qurig'ur** shakli ham qayd etiladi. **bo'yning uzilgur bola, qurg'ur yigit, bo'lmag'ur gap.***

Eslatma

*Ayrim darslikda ravishdoshning **-(i)b, -a/y**, sifatdoshning barcha shakli tuslanadi deyiladi. **boribman, boraman, borganman, borajakman, borurman** kabi. Bunda ravishdosh va sifatdoshning faqat shakli mavjud, ravishdosh ma'nosi esa yo'q. Shu mazmundagi test topshirig'ida faqat shakl nazarda tutiladi.*

Harakat nomi. Harakat nomi otning xususiyatiga ega bo'lib, ish-harakatning bajarilish/bajarilmasligi, harakat-holatning nomi kabi ma'noni bildiradi va otning shakl yasovchisini olib, unga xos sintaktik vazifani bajaradi.

Eslatma

Harakat nomi otning shakl yasovchisini olib, otga xos sintaktik vazifani bajarishi o'zlashish deganı emas.

Qo'shimchasi
-moq: o'qimoq, yozmoq, tanishmoq;
-(i)sh: o'qish, yozish, tanishish;
-(u)v: o'quv (o'q[+v), yozuv, tanishuv.
-rlar: ucharga qanot, turarga joy, ko'rarga ko'z.
-rlar qo'shimchasi sifatdoshdagi shunday qo'shimcha bilan shakldosh.

Eslatma

*Ko'pincha, diniy matnda **-moq** va **-(i)sh** qo'shimchasi **-lik** so'z yasovchisi bilan qo'llanadi: **o'qimoqlik, borishlik, bormoqlik, kelishlik, kelmoqlik**.*

(-(u)v qo'shimchasi bilan yasaluvchi shakl kam qo'llaniladi, ya'ni u arxaiklashmoqda. U qo'shilganda fe'l oxiridagi i o'rnida u, o o'rnida o ishlatiladi: bil – biluv, o'qi – o'quv, tashi – tashuv, qirsha – qurshov.

Eslatma

-(u)v shaklidagi harakat nomi asosning ko'pchilik qismiga qo'shilgan: o'quv, bilim, uqtiv, qidiv, tanlov, o'qitiv shaklida.

Eslatma

-moq shakli harakat nomi fe'lning bosh shakli, asosiy shakli nomi deyiladi.

Bo'lishli-bo'lishsizlik. Aytilganidek, ravishdosh, sifatdosh va harakat nomida bo'lishli-bo'lishsizlik mavjud. Bo'lishlilik asl shakli yordamida ko'rsatilsa, bo'lishsizlik ravishdoshda *-maylmasdan* (o'qib – o'qimasdan), sifatdoshda *-ma* (o'qigan – o'qimagan), harakat nomida *-maslik* (o'qish – o'qmaslik) qo'shimchasi yordamida yuzaga chiqadi. Bu shakllar *-ma* yordamida hosil qilingan murakkab qo'shimchadir.

Fe'l shakli yasovchisi bilan hosil qilingan ayrim murakkab shakl maktab darsligida qayd etilmagan. Ularning tarkibi va ma'nosi quyidagicha:

Murakkab shakl	Tarkibi	Ma'nosi	Misol
-a/-i ...-gan bo'l	sinf mayishuv modasi so'z sifatdosh shakli + bo'l fe'li	qonun tasnifi yuzaki bajarish	bo'sh kovak tugatasan kerak qaragan bo'l achirayotgan bo'lsa
-(u)v/-ish bo'lish -(u)v da	ravishdosh shakli + egalik qo'shimchasi + bo'l fe'li buyruq shakli + da yuklamasi	jadal qilish harakat chaqirganga	tanqidni tashlab qilmasdan bo'lsin tugaydi uchmoq-da!
-ish kor	-(i)sh qo'shimchasi + egalik shakli + kel fe'li	harakat istagi	borish kerak kelgan edi
-gani	sifatdosh va ravishdosh takrorlanishi	surunkali davomiylik	o'qigani o'qigan yurgan yurgan ketayotganidan ketayotgan

Ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi (birikish) – Ayrim fe'l bosh qo'shilishning ma'nosini bir oz o'zgartirgan uchun xizmat qiladi va shakl yasovchi qo'shimcha deb ham ataladi. Bunday fe'l ko'makchi fe'l deyiladi va ular bir oz o'zgargan ma'noni yuzaga keltiradi. Masalan, bir oz o'zgartirgan fe'l yetakchi fe'l deb nomlanadi. Masalan, Sabir kitobni o'qib chiqdi gapidagi o'qib fe'lining ma'nosi ni ifodalash uchun xizmat qilmoqda. Yetakch. va ko'makchi fe'l orasini ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi deyiladi

Yetakchi fe'l va ko'makchi fe'l uch xil bir'ladi:

- ravishdosh + -(i)b shakli orqali o'zaro bir-biriga tutashadi, aytib qoldi,
- ravishdosh + -a/-y shakli orqali o'zaro bir-biriga tutashadi, yozay deb,
- ravishdosh + -gach, -guncha, -ganda, -kach, -kanda, -ganday, -kandek, -gani, -kani, -gali, -kali, -gudek, -kudek, -gunday, -kunday, -gandek, -kandek, -gudek, -kudek, -gunga, -kunga, -gandagi, -kandagi, -gunchalik, -kunchalik, -gandayin, -kandayin, -gandayoq, -kandayoq, -gandaroq, -kandaroq, -gandagina, -kandagina, -gandagidek, -kandagidek, -gandagiday, -kandagiday, -gandagiga, -kandagiga, -gandagilik, -kandagilik, -gandagisi, -kandagisi, -gandagiyoq, -kandagiyoq, -gandagiroq, -kandagi

Demak, 10 ta ko'makchi fe'l -a/y shaklidagi ravishdosh qo'shimchasini olgan yetakchi fe'l bilan ko'makchi fe'lda so'z qo'shimchasi hosil qilmaydi, yo'nalish bilan qo'shimchasini olgan yetakchi fe'lga birikadi. bit (bitir), ber, be'r, yet, yor, kel, tashla, tush, o'tir, yubor, yor, o'l, o'tir, qara, qo'y.

9 ta ko'makchi fe'l ravishdoshining turli shakllariga birikib, turlicha ma'no qo'shadi. ber (qilib ber, ayta ber), bil (yozib bildi (shoshildi), yozib qo'ydi, ber (o'qib berdi, o'qiy berdi), ket (ish ketdi, qaqrab ketdi), ko'r (yozib ko'r, ayta ko'rmoq), ol (yozib ol, yozma ol), set (do'kon solici, xona solish), tur (o'qib tur, yoza tur), qot (tugab qoldi, ayta qol)

Ko'makchi fe'llar ko'pincha – (-i)b shakli bilan boshqa -a/y shaklli bilan boshqa ma'no ifodalaydi: yozib oldi – yoza oldi, kelib qoldi – kela qoldi, aytib ko'r – ayta ko'rmoq, o'qib berdi – o'qiy berdi, nonig'izoq qilib tur – qo'ng'izoq qilib tur. Ayrim hollarda ma'no farqi kuzatilmaydi: o'qib berdi – o'qiy berdi.

Eslatma

77 ta ko'makchi fe'ldan 2 tasi -(i)b, 11 tasi -a/y, 9 tasi ham -(i)b, ham -a/y shaklli yetakchi fe'lga birika oladi.

Ko'makchi fe'l ifodalaydigan ma'no

Shakl	Ma'nosi	Misol
-(i)b bir	harakat natijasining o'zgaga yo'nalishi	qo'yib ber, tuzib ber
-a/y ber	davomiylik	ko'tarver, o'ylayver
-a/y olbil	qobiliyat	bilsa oldi, tayinlasa bo
-(i)b bilbeur	ishni bajarish	yonib bitgan, qilib bit
-(i)b...-a/y berdi	harakatning davomiyligi	unutib berdi, o'ynashib ket
-a/y kechir	bajarilish	yem berib, o'qiy berdik
-(i)b bo'g'dirma	sabab	o'qitib bos, olvitib qam, yo'qotib
-(i)b bol	ishni bajarish	yozib bo', yozib bo', qo'yib bo'
-(i)b yot	ishni bajarish	qarab yotib, qilib yotibsan
-a/y yaz	bajarishga tayinlash	qata yozdi, yoda yozdi
-(i)b yot-a/bilyur	davomiylik	o'qiy yot, o'qib tur, yozib o'r
-(i)b ket	ishni, kuchni bajarishni boshlash va davom etish	qarab ketdi, ishga berib ketdi, gapirib ketdi, maqtab ketdi
-a/y ket	boshlash va davom etish	o'qiy ketdi, gapira ketdi

-(i)p qol	bo'lishli bajarish	[illegible]
-a qol	tezkorlik	[illegible]
-(i)b [illegible]	takrorlanish yuzaga kelishi	[illegible]
-(i)b ket	tugallik	[illegible]
-(i)b tush	sodirlik	[illegible]
-(i)b o'l	[illegible]	[illegible]
-(i)b ol	[illegible]	[illegible]
-(i)b qol	[illegible]	[illegible]
-ish qol	[illegible]	[illegible]
-(i)b+ravishdosh	[illegible]	[illegible]

Ko'makchi fe'l – fe'l so'z turkumiga oid shunday mustaqil va qo'shimcha vazifa bajaruvchi so'z turkumiki, u ayrim holda mustaqil fe'l bo'lib kelishi mumkin: aytib bermoq – bermoq, unutib olmoq – olmoq.

Ko'makchi fe'lli so'z qo'llanmasiga ko'ra ikki turdan iborat bo'lishi mumkin: aytib bermoq tipiga oid, aytib bera olmoq qabil. Ularda keyingi ko'makchi fe'l o'zidan oldingi ko'makchi fe'lli so'z qo'llanishini yo'naltiradi. Bu holda *aytib* (yordamchi fe'l) *ber* (ko'makchi fe'l), aytib berib (yordamchi fe'l) *tur* (ko'makchi fe'l). Bu ko'makchi fe'lli so'z qo'llanishi mustaqil ravishdosh+fe'lli so'z qo'llanishidir.

Eslatma:

Ko'makchi fe'lli so'z qo'llanmasi fe'l+fe'l tipidagi qo'shma fe'l va ravishdosh+fe'l tipidagi so'z birikmasiga o'xshaydi. Farqi:

1) ko'makchi fe'lli birikmada, ravishdosh fe'lli birikmadagidek yozib berdi – yozdi, isib ketdi –isidi; qo'shma fe'llardagi yordamchi va fe'l qismlari ma'nolaridan o'zgaradi: sotib ol – sot; isitib chiqardi – isitdi;

2) so'z birikmasida turkum ma'no mustaqil ravishdosh: Gavharni [ko] qo'rqitib ol-gan. ko'makchi fe'li so'z birikmasida fe'l gap bo'lagi bo'lib kelgan: O'ylab qolsa yaxshi.

Eslatma

Ravishdosh shaklidagi ko'makchi fe'l so'z qo'shilmasida nisbat va bo'lishsizlik ko'rsatkich yo'nalkich va boshqalar fe'lning birortasiga yoki ularning birikmasiga qo'shilishi mumkin: to'xta-t-ib qo'y-ish-di; aytib qo'y-ma, ayt-may tur, ayt-may tur-ma; qarab-moyl, yiqi-ta yor-gi'lanmas; ikki ko'makchi fe'lden iborat. Ikkala fe'l bir shaklda yo'dalashsa - sanalgan qo'shimcha ikkalasida ham va bo'lishsizlik ravishdosh tarkibida qo'yiladi.

Yakkalanish qoidaviy xarakterga ega bo'lmagan va shakl hamda ma'no jihatdan ajralib chiqishi qiyin bo'lgan qo'shimchalar mavjud. Ularni barcha qismlarga bo'lgan holda ajratish:

1) harakatning kuchsiz darajasini bildiruvchi qo'shimchalar:

- ma-/-ma-:	qiyinsimsa, ko'rinmas
- qirsiliqsa:	ishqiyasa, oqimsiz, o'qimas
- shlish:	ko'rish qiyin, eshitish qiyin
- oqlikli:	kuchsiz, ko'p, ko'p, ko'p

2) harakatning kuchli darajasini bildiruvchi qo'shimchalar:

-kal-/-kal-:	quvlaqiyasa, ishqiyasa, sevgi, sevgi, chiqiq, chayqiq, sillab, qochib
-qil-/-g'il:	yulqi, sizg'i, to'zg'i, bji-bijg'i
-chil:	ko'rinish, qochish, to'qnash
-a:	bor - bora, qovon - qovona, uno - una
-g'ilas-/-g'il- -qila/-g'ila:	yugurgan, tikka, tepasi, chayqiq, sudrab, tortqila, orqida, chayqiq
-gal-/-kal-qal-:	surg'i, surkal, chayqal

Mustahkamlash uchun savollar

1.Fe'lning lug'aviy shakl hosil qilish haqida gapiring. 2.Fe'l nisbat nima? 3.Nisbat va uning shakli haqida gapiring. 4. Orttirish nisbati va uning shakli haqida gapiring. 5. Majhul nisbat va uning shakli haqida gapiring. 6. Ortoqlish nisbati va uning shakli haqida gapiring. 7. Birgalik nisbati va uning shakli haqida gapiring. 8. Fe'lning ravish shakli nima? 9.Ravishdosh shakli haqida gapiring. 10. Ikki ravishdosh shakli haqida gapiring. 11. Ravishdoshning inkor, shaklidagi va sintaksik vazifasi haqida gapiring. 12. Sifatdoshning o'rni nasl shakllar hosil va sintaksik vazifasi haqida gapiring. 13. Harakat

namuning ma'noli, shakl tizimi va sintaktik vazifasi haqida gapiring. 13. Ko'makchi fe'li so'z qo'shilmasi haqida gapiring. 14. Yetakchi fe'lning xususiyatlarini bayon qiling. 15. Ko'makchi fe'llarni xususiyatlarini bayon qiling. 16. Ko'makchi fe'llarni ma'nosi va vazifasi haqida gapiring. 17. Ko'makchi fe'l, so'z birikmalarini va so'z birikmasi qanday farqlanadi? 18. Qilib olmoq yetakchi fe'lga bog'lanib, qo'makchi fe'l qaysilar? 19. ...ni y shaklli yetakchi fe'lga birikuvchi ko'makchi fe'llar qaysilar? 20. Yetakchining kamsiz darajasini, bildiruvchi qo'shimchalarini sanang va ma nosini izohlang. 21. Harakatning kuchli darajasini bildiruvchi qo'shimchasini sanang va ma nosini izohlang.

Topshiriq

1. Bir vaqtlar Gulomjon tuyuqdan o'qib chiqqanga bitunga qarab so'zlardi. (Mirm.) 2. So'ng uzun bo'yli bo'lib o'sib, ko'zlari ochildi. (P.Qod.) 3. Yigit ko'zini yashnatib gapirar, boy qiyofada. (S.Zunn.) 4. Siz bo'sha bo'lib ko'rinib yurar edim, aslida qizg'anchiq ekan. (H.Stan.) 5. Qushlar nozik va tashvishlar. (O.Yash.) 6. Qishloq bilanoqda ko'rinishdadir. (A.Qod.) 7. O'qituvchiga nimalar sodir bo'yotganidi. 8. Yo'l chiqishlarmahalga qalin qolardi. 9. Yuzlari tanishlardan o'tdan eshik darazalar ochildi. 10. Mashinalar xayriga berildi. 11. Intizomli, a lochi talaba ...ga muddat berildi. 12. Masala ikki yo'l bilan ishlandi. 13. Bahorda yerlar ishlanib, ekinlar qadaldi. 14. Yerning mamlakatlari ko'rsatdi. 15. Parda yopiqda o'tirib qarash ko'rsatdi. 16. Qizlar nurlarga sundi. 17. Ish qizlar ilg'ab ketdi. 18. Qanot o'qildi. 19. Dunyo chuqur ma. 20. Ko'z qiyanishga yozildi. 21. U yosh bosmachilar to'g'risidagi yozildi. 22. Qush o'lganga e'tibor berishdi. 23. Uning ayblari ochib tashlangan edi. 24. Qor qary uyga ...ndek o'zi ko'rinar edi. 25. Inson tirik ekan, umidsizlanmaslik kerak.

1. *Fe'lni ajrating.*
2. *Fe'lning lug'aviy shaklini aniqlang.*
3. *Nisbat shaklini aniqlang.*
4. *Bo'lishli-bo'lishsiz fe'lni guruhlang.*
5. *Sifatdosh ravishdoshi, harakat nomi shaklini aniqlang.*
6. *Yetakchi ko'makchi va bo'lishsiz fe'lni aniqlang.*
7. *Infinitiv fe'l qanday so'z bilan ma'lumotlanadi kuchaytiradi.*
8. *Kelasilik, o'tgan shaklini olgan fe'lni, uning sintaktik vazifasini aniqlang.*

9. Quyidagi so'z birikmada yozilgan so'zni nisbat shaklini ajrating. Nisbat shaklining o'tish-o'timsizlikka ta'sirini aniqlab, qavs ichida izohlang:

tortinmoq, qarshimoq, ko'nishmoq, yoqtirmoq, bo'lishmoq, yoqtirmoq, cho'chimoq, botinmoq, oshinmoq, sevinmoq, kechirmoq, o'ynashmoq, ta'kidlamoq, ong'irmoq, kelin, qiyin, kirish, tuzuk, yomon, surishtir, uyg'ot, uyg'on, ro'parla.

21- DARS
FE'LNING SINTAKTIK (MUNOSABAT) SHAKLI

Kesimlik shakli. Fe'lning munosabat shakli – tasdiq-inkor, zamon, mayl va shaxs-son. Bu shakl hosil bo'lib kelgan fe'l analitik bo'lib va boshqa so'z turkumiga o'xshab fe'l kategoriyasiga xos shakl-yasovchi qo'shimchalarni turkum bo'lagidagi uchun bu shakl unga erkin va chastotaga ega bo'lgan holda birikadi.

Tasdiq-inkor. Tasdiq-inkor harakatning yuz berishiyoki bermasligini ko'rsatadi. Tuslangan fe'l tasdiq yoki inkor shaklida bo'lishi shart.

Tasdiq quyidagicha ifodalanadi:

a) sof shakl orqali (O'qiyman. Keldim);

b) ko'makchi fe'l + so'z qo'shilmasining har ikki qismiga bo'lishsizlik ko'shimchasini qo'shish orqali (aytmay qo'ymas, yozmay turmas, bolmay qolmaymas);

d) kinoya orqali (Bormaytgan-a, bormaysan!)

Ifodalanadi

Inkor quyidagicha ifodalanadi

-1) -ma orqa ko'p qo'llaniladigan shakl orqali: o'q – o'qima, kel(k) – kelmadi, borgan – bormagan, yuryapti – yurmayapti, to'xtabdi – to'xtamabdi kabi

2) -mas, -may, -maslik ko'rinishiga ham ega: aytmas (so'z), aytmay, aytmaslik;

2) emas fe'l-kesimdagi -gan/-kan/-qan va -moqchi qo'shimchasidan keyin bo'lishsiz shaklni hosil qiladi: kelgan – kelgan emas, borganman – borgan emasman, o'qimoqchisan – o'qimoqchi emassan.

3) yo'q modal so'zi -gan/-kan/-qan va -yotgan/-ayotgan qo'shimchali fe'lning kesimdagi bo'lishsiz shaklini vujudga keltiradi. Bunda egalik shakli ham qo'shiladi: **Borgani yo'q.** Aytayotganiniz yo'q!

4) na inkor yuklamasi yordamida ham ifodalanadi. Bugun na o'qidim, na yozdim.

5) inkor tasdiq (kinoya ohangi asosida) orqali ham voqelanadi. Boraman-a, bormasam! Boriq bo'libsan!

Mayl fe'l orqasida ifodalangan harakat-holatni har xil kayfiyatlarda, ya'ni xabar, buyruq-istak, shart, maqsad va orzu-xohish kabi turlicha munosabatda bo'lishini ko'rsatuvchi fe'l shakli mayl deyiladi. Maylning quyidagi turlari bor:

1) xabar;
2) buyruq-istak;
3) shart;
4) maqsad.

Eslatma

Mayllarning soni bir xil emas. Masalan, Q.Sa'dulla 3 ta mayl (xabar, buyruq-istak, shart mayli), E.Ubaydov 4 ta mayl (xabar, buyruq-istak, shart, maqsad mayli), A.Hojiyev 5 ta mayl (xabar, buyruq-istak, shart, maqsad, orzu-istak mayli) deb ko'rsatadi.

Xabar mayli harakat-holatning zamon bilan bog'liq ravishda bajarilishi/bajarilmasligini ifodalaydi. Bu mayl fe'l asosiga zamon va shaxs-son qo'shimchalarini qo'shish orqali ifodalanadi: keldi, kelyapti, kelardi kabi. Xabar maylining ko'rinishlari:

Men Sen U Biz Siz Ular	}	bor	{	-ay(-in) -(-gin) -sin -ayl k -ing -sin(-lar)	o'q { -y(-in) (-gin) -sin yl k -ng -sin(-lar)

Buyruq-istak maylining inkor shakli -ma qo'shimchasi orqali hosil qiladi: bormay, borma(gin), bormasin kabi.

Maqsad mayli maqsad, niyat, mo'ljal ma'nosini shaxs-son qo'shimchasidan oldin kelgan -moqchi qo'shimchasi orqali ifodalaydi.

Men Sen U Biz Siz Ular	}	bormoqchi	{	-man -san – -miz -siz -(-lar)

Shart mayli shart, payt, ilak, iltimos, maslahat, shuningdek, to'siqsizlik (asosan **ham** va **-da** yuklamasi bilan) kabi ma'noni shaxs-son shaklidan oldin kelgan **-sa** qo'shimchasi yordamida bildiradi



Mayl qo'shimchasi ma'nodoshligi. Mayl qo'shimchasi bir-birining o'rnida qo'llanadi:

a) xabar mayli buyruq maylini ifodalaydi: 1. **Qani, yozamiz, bola**lar. 2. **Ketdik, yigitlar.** 3. **Bugun ish ko'p, bolam.** 4. **Mehmonlarning qo'liga suv quyasan, joy-joyiga o'tqazib, avval choy berasan**

b) xabar mayl. shart mayli o'rnida Va'da **berdingmi, bajar.**

d) buyruq mayli xabar mayli o'rnida: **1. O'zingiz o'ylab ko'ring.** 2. **Mehnatni ular qilsin-u, foydani siz ko'zlaysiz.**

Zamon Zamon shakli harakatning uch zamondan birida sodir bo'lishini ifodalaydi. Shunga ko'ra, uch zamon farqlanadi

1) **o'tgan zamon;**
2) **hozirgi zamon;**
3) **kelasi zamon**

Eslatma
*Hozirgi zamon **hozirgi-kelasi zamon** ham deyiladi.*

O'tgan zamon. O'tgan zamon harakatning gap aytilayotgan paytdan oldin sodir bo'lganligini bildiradi. Uning quyidagi turi bor

1) yaqin o'tgan zamon (**-di**) :



2) uzoq o'tgan zamon (**-gan/-kan/-qan+shaxs-son**):

3) o'tgan zamon hikoya (**-b/-ib+shaxs-son**):



4) o'tgan zamon davom (**-b/-ar/ayotgan/moqda edi+shaxs-son**): Bo'lishsiz shakli **-mas edi** ko'rsatkichi orqali hosil qilinadi.

Bunda bo'liqsiz fe'l **-di** shaklini olishi mumkin: **borardim, bormasdim, borarding, bormasding, borardi, bormasdi** va hokazo.

> ***Eslatma***
> *O'tgan zamonning yana quyidagi ko'rinishi bor:*
> *- (i)b sof (-uvdi/-ovdi): **ko'ribdi, o'quvdi;***
> *-ytib/-ayotib edi: **borayotib edi, o'qiyotib edi;***
> *-guvchi edi: **qaraguvchi edi;***

Hozirgi zamon. Hozirgi zamonning uchta ko'rsatkichi bor:

1) **-yap** (-yol b).
2) **-yotir/-ayotir;**
3) **-moqda.**



Hozirgi zamon shakli o'zaro ma'noviy emas, uslubiy qo'llanishi bilan farqlanadi.

Eslatma

To'rtta fe'l ***(yot, tur, o'tir, yur)*** *- (il)b qo'shimchasini olib, hozirgi zamonni ifodalaydi:* ***Salim uyda yotibdi. Qalam stol ustida turibdi. Kitob o'qib o'tiribman. Imtihonlarga tayyorlanib yuribmiz.*** *Shuning uchun bu 4 fe'lning o'tgan zamon ifodalashini ajrata bilish kerak. Afandi yo'l* ***yuribdi,*** *yo'l yursa ham non'* ***yuribdi.*** *Qari chorchoh, bir daraxtning soyasida bepas* ***o'tiribdi.***

Kelasi zamon. Kelasi zamon **-ar-y** shaklidagi ravishdoshni shaxs-sonda tuslash va orqali hosil qilinadi.

Men	yoza	-man	o'qiy	-man	o'qimay	-man
Sen		-san		-san		-san
U		-di		-di		-di
Biz		-miz		-miz		-miz
Siz		-siz		-siz		-siz
Ular		-di		-di		-di

Bu shakl 2 xil.

1) hozirgi-kelasi zamon (**qush uchadi, odam gapiradi, kollejda o'qiydi**);

2) sof kelasi zamon (**ertaga boraman, uch-to'rt kun chidaysan**) ma'nosini ifodalaydi

Eslatma

Kelasi zamon shakli umumzamonni ham ifodalaydi. Yer o'z ***o'qi atrofida aylanadi. Baliq suvda yashaydi.***

Sifatdoshning **-r/-ar** (-mas) ko'rsatkichi bilan hosil bo'luvchi shaklini shaxs-sonda tuslash orqali **kelasi zamon gumon fe'li** ifodalanadi.

Men	o'qir	-man	yozar	-man	yozmas	-man
Sen		-san		-san		-san
U		–		–		–
Biz		-miz		-miz		-miz
Siz		-siz		-siz		-siz
Ular		-(lar)		-(lar)		-(lar)

Hozirgi-kelasi zamonning **-gay/-kay/-qay, -gu/-ku/-qu** qo'shimchasi orqali hosil bo'luvchi shakli ham bor. U asosan she'riyatda shoirlarga o'xshab, o'g'uz lahjasida ishlatiladi: **bor-gay-man, bor-gu-m** kabi.

Zamon shakli ma'nodoshligi. Zamon shakli ko'chma ma'noda bir-birining o'rnida ishlatiladi. U quyidagicha:

1) aniq o'tgan zamon kelasi zamon o'rnida: **Hozir qorong'ida qayoqqa <u>bordingiz</u>, nimayam <u>qildik</u>!**

2) hozirgi zamon kelasi zamon o'rnida: **Bugun Qarshi poezdi bilan Toshkentga jo'nab <u>ketyapman</u>.**

3) hozirgi-kelasi zamon o'tgan zamon o'rnida: **Alisher Navoiy 1441-yilda Hirotda <u>tug'iladi</u>.**

4) o'tgan zamon kelasi zamon o'rnida: **Qani, yozdik.**

5) hozirgi zamon o'tgan zamon o'rnida: **Tashqariga qarasam, ikki bola urishyapti.**

Shaxs-son. Fe'ldan ifodalangan harakat-holatni bajaruvchi shaxsni bildirib, fe'lni va boshqa mustaqil so'zni kesim sifatida shakllantiruvchi, ega bilan bog'lab keluvchi shakl **shaxs-son** shakli deyiladi. **So'zning shaxs va sonda o'zgarishi tuslanish deyiladi.**

Hozirgi o'zbek tilida shaxs-son ko'rsatkichlarining 4 ta guruhi mavjud:

1) birinchi (**-man, -san**, nol shakl yoki **-di/-ti, -miz, -siz**(lar) guruh **-(lar) -yap, -yotir, -moqda, -gan/-kan/-qan, -i)b, -a/-y, -moqchi** ko'rsatkichidan keyin qo'shiladi:

Men	}	borgan	{	-man	boryap	{	-man	bora	{	-man
Sen				-san			-san			-san
U				–			-ti			–
Biz				-miz			-miz			-miz
Siz				-siz			-siz			-siz
Ular	}		{	-di		{	-ti		{	-(lar)

2) ikkinchi (**-m, -ng, -k, -ngiz, -(lar)**) guruh **-di, edi, -sa** ko'rsatkichidan keyin qo'shiladi:

Men	}	bordi	{	-im	borgan edi	{	-im	borsa	{	-im
Sen				-ing			-ing			-ing
U				–			–			–
Biz				-k			-k			-k
Siz				-ngiz			-ngiz			-ngiz
Ular	}		{	-(lar)		{	-(lar)		{	-(lar)

2) uchinchi (-im, -ing, -i, -imiz, -ingiz, -(lar)i) guruh o'tgan va hozirgi zamon ko'rsatkichi bilan yo'q so'z orasida bo'ladi:



Shaxs-son qo'shimchasining uchinchi guruh -kelasi zamonning sintetik usuliga xos -gul-kul-qu va fe'l modal shakl dan bir bo'lgan -gi/-ki/-qi (xel) ko'rsatkichidan keyin ham qo'shiladi. men borgum, borgim keldi. son **borgung, borging keldi** va hokazo.

4) to'rtinchi guruh buyruq-istak mayl bilan birgalikda ifodalanadi: bor, **boring** borsin, boray, borayilik kabi.

Eslatma

Shaxs-son shakli kesim vazifasida kelgan to'liq fe'l bo'lmish murakkab ot bo'lgan fe'lni ishlatilsa, o'tkazilsa, bitiruvchilik xos.

Shaxs-son qo'shimchasining ko'chma ma'noda qo'llanishi. Shaxs-son qo'shimchasi ko'chma ma'noda ham qo'llanadi.

Son ko'chishi:

1) birlik o'rnida ko'plik. **1.Biz ko'rganmiz** (Men ko'rganman). **2.Ayam keldilar** (U keldi). 3.Dada, **boring** (bor).

2) ko'plik o'rnida birlik. **Sonlar bilmaysan** (Siz bilmaysiz). **Ular** keldi (Ular keldilar).

Shaxs ko'chishi.

3) II shaxs o'rnida I shaxs: Qani, bola'lar, yozamiz.

1. Ot+ot: **jo'rabosh, zaharxanda, ishtonbog', karvonsaroy, karvonboshi, kinodramaturgiya, kinolenta, ko'zmunchoq, lolaqizg'aldoq, makkajo'xori, namozshomgul, oshqozon, otquloq, oshqovoq, piyozdog', sachpopuk, toshbo'ron, tilxat, tomorqa, toshbaqa, tog'oldicha, tuyaqush, tuyatovon, xontaxta, xo'rozqand, shakarqamish, shamchiroq, shaftolipoqi, yurtboshi, qo'zigorin, qo'ypechak, ajdargul, ayiqtovon, atirgul, arpabodiyon, baqatarak, belbog', billaguzuk, bo'yinbog', gugurtcho'p, gulbarg, gulbahor, gultojixo'roz, gulbog', guldasta, gulqaychi, gulg'uncha, gulhamishabahor, yer yong'oq, joynamoz, , qo'llarra, qo'lltiqtayoq, temiryo'l**

2.Sifat+ot: ko'ksulton, kaltakesak. Sho'rko'l, ko'rsichqon, ko'rshapalak, oqsoqol, xomtok, qoradori, boychechak.

3.Ot+ot: sochoʻsar, echkiemar, ko'zboylog'ich, kallakesar husnbuzar, beshiktervatar, dunyoqaroch, mushtketdi, o'rinbosar.

4.Son+ot: yettisuv, beshbarmoq, beshqarsak, Oltiariq, ochbuqchak, ming'oyoq, qirqog'iyna.

5.Son+ot: beshotar.

6.Ot+sifat: ustabuzarmon, gulbeor, oshko'k.

7.Fe'l+ot: iskabtopar, ishlabchiqarish.

8.Fe'l+ot: savatcho'p

Sintema xususiyatiga ega bo'lgan Markaziy Osiyo, Janubiy Amerika, O'zbekiston Respublikasi, Fanlar akademiyasi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti kabi qo'shma otlar ham bor. Uning bir qismi qisqargan holda ham qo'llanadi.

Juft ot: Juft ot qismining yakka ishlatilishi/ishlatilmasligiga ko'ra uchga bo'linadi

1) har ikki qismi yakka ishlatiladi.

2) faqat bitta qismi yakka ishlatiladi

3) har ikki qismi ham yakka ishlatilmaydi.

Har ikki qismi yakka ishlatiladigan juft ot tarkibidagi so'z ma nosir

1) o'zaro sinonim.

2) o'zaro antonim.

3) ma'nodosh yoki

bo'lishi mumkin

Misol

1.Qismi yakka ishlatiladigan juft ot.

1.1 Qismi o'zaro ma'nodosh so'z: rang-qut, rahm-shafqat, rohat-farog'at, sabr-jodu; tag-tub, talon-taroj, tuz-namak; ta'rif-tavsif; urush-janjal, urug'-oyimoq, urf-odat; fisq-fasod, fahm-farosat; xayr-ehson, xayr-baraka, xayr-saxovat, xavf-xatar, xesh-aqrabo, xulq-atvor; chang-g'ubor, cho'l-biyobon; shovqin-suron, shak-shubha, sharaf-shon//shon-sharaf, sharm-hayo, shon-shuhrat, shon-sharaf; es-hush, el-ulus, yuz-bet, yarog'-aslaha; o't-olov, o'ch-adovat, o't-o'kin; azob-uqubat, azm-u qaror, aysh-ishrat, alam-hasrat, amr-farmon, asbob-uskuna, atrof-tevarak//tevarak-atrof, aft-bashara, aql-zakoval, aql-idrok, aql-hush; baxt-saodat, bog'-u bo'ston, va'z-nasihat; gap-gashtak, gard-g'ubor; yo'l-yo'riq; kayf-safo, kibr-havo; lutf-u karam, lutf-marhamat, lutf-ehson; maza-ta'm, makr-hiyla, mol-mulk, murod-maqsad; nazar-pisand, nasl-nasab, nola-fig'on; or-nomus,

osmon-u falak, ochna-og'ayni, oziq-ovqat; pand-nasihat, ozod-o'g'il; qavm-qarindosh, qaddi-qomat, qahr-g'azab, qurol-aslaha; g'am-alam, g'am-g'ussa, his-tuyg'u, hazil-mutoyiba, huzur-halovat; dori-darmon, diqqat-e'tibor, davr-davron, dasht-biyobon; jabr-zulm, jabr-sitam; zeb-ziynat, ziyon-zahmat, zavq-shavq; ilm-fan, inon-ixtiyor, izzat-hurmat, izzat-ikrom, izn-ixtiyor, ishq-muhabbat.

1.2.Qismi o'zaro zid ma'noli so'z: avra-astar, avlod-ajdod, achchiq-chuchuk; **bor**di-keldi (fe'ldan ko'chgan), bosh-oyoq; do'st-dushman, yer-osmon, yer-ko'k, yoz-u qish/qish-u yoz; ko'ylak-ishton; oshiq-ma'shuq, savol-javob, salom-alik, choi-kampir, shoh-u gado; oguchi-singil, er-xotin; o'g'il-qiz; quf-kalit;

1.3 Qismi uyadosh so'z: chang-to'zon, shahd-shakar; ogir-jabduq, evara-chevara, el-yurt; yuz-xotir, yuz-qo'l//qo'l-yuz, yara-chaqa; o'q-yoy, o'q-dori, o'yin-kulgi, o'lim-yitim; qoci-qurta, qovoq-tamshuv, quloq-miya, qurt-qumursqa, qiz-quvon, qo'y-qo'zi; harb-zarb, hisob-kitob, hol-jon, ariq-zovur; baxt-taxt, baqir-chaqir, boj-xiroj, bosh-ko'z, go'sht-yog'//yog'-go'sht, izohlovchi-izohlanmish munosabatida: general-mayor, general-polkovnik; dala-dasht, dur-javohir, dard-u balo, dev-alvasti, domla-imom; yem-xashak, yetim-yosir, yer-suv; jon-u dil, jon-joho; zahar-zaqqum; idish-tovoq, ilm-ma'rifat, ish-harakat, igna-ip; kalla-pocha, kasb-kor, ko'rpa-to'shak, ko'rpa-yostiq, karnay-surnay, lab-lunj, mol-hol, munkar-nakir, mushk-anbar; nevara-chevara, nom-nishon, non-tuz, non-nasiba, ota-bobo, ot-ulov, orzu-havas; sa'y-harakat, sovg'a-salom; toj-taxt, tosh-tarozi, tashviqot-targ'ibot, tish-tirnoq; uy-ro'zg'or, ur-yiqit, ur-sur, ust-bosh, fikr-zikr; xas-xashak, kat-savod, xor-xas, xotin-qiz, ot-ulov.

1.4.Qismi o'zaro bolish-bo'lak ma'noli so'z: tog'-toch, gap-so'z, vaqt-soat, hovli-joy.

2. Qismidan bir yakka ishlatilmaydigan juft so: idish-oyoq, yig'i-sig'i, kiyim-kechak, ko'ch-ko'ron, kam-ko'st, ko'cha-kuy, latta-putta, maza-matra, mehmon-izlom, murosa-madora, meva-cheva, narx-navo, pardoz-andoz, rizq-ro'z, temir-tersak, to's-to'polon, fe'l-atvor xotin-xalaj, shox-shabba, ekin-tikin, erka-tinka, yasan-tusan, qo'ni-qo'shni, qirg'in-barot, quda-anda, qand-qurs, qiyomat-qoyim, g'ala-g'ovur, hayot-mamot, aldam-qaldam, bozor-o'char, bola-baqa, boq'-roq', bo'y-bast, bosar-tusar, vaj-korson, dov-darext, dabdaba-as'asa, dov-dastgoh, yog'in-sochin, ilm-chirim//rirm-sirim, non-pon, qo'y-po'y, paxta-maxta, bug'doy-mug'doy, tosh-posh.

3. Ba'zi hollarda ikki qismi yakka holda ishlatilmaydigan juft ot: **ya'juj-ma'juj, qalang'i-qasang'i, g'ildi-bidi, adi-badi, ashqol-dashqol, zar-zabar, ikir-chikir, tashvish, tom-tom, shara-shara, shikast-rext.**

Takroriy ot. Takroriy otning quyidagi siyasama hisoblanadi: ich-ichi(ga kirib bormoq), yor-yor, kazo-kazo, mish-mish, jag'-jag' (o'simlik nomi), dedi-dedi, mindi-mindi, ko'tar-ko'tar, yugur-yugur, chopa-chop.

Eslatma

1.Barcha takroriy ot ham yasama hisoblanavermaydi: **varaq-varaq, tog'-tog', xona-xona, paqir-paqir** kabilar ravish emas.

2.Takroriy otning bir xil bo'lishi shart emas: **dedi-dedi, mindi-mindi, mishmish.**

3. Ayrim takroriy ot boshqa turkumga o'tib ketgan.

a) ravishga: **qop-qop, takror-takror, gul-gul, es-es;**

b) sifatga: **yo'l-yo'l;**

Mustahkamlash uchun savollar

1.Qo'shmacha qo'shib ot yasash haqida gapiring. 2. Yasalma ismi? 3.Asos so'z haqida gapiring. 4.Qo'shmchaning xususiyati haqida gapiring. 5. So'z qo'shib ot yasash haqida gapiring. 6. Qo'shma ot va uning turi haqida gapiring. 7. Juft ot va uning turi haqida gapiring. 8. Takroriy ot va uning turi haqida gapiring.

Topshiriq

Kishanda, dadil, sizib, hozirlik, salomlashi, afsuslan, yaltira, o'yma, qiyoa, qaray, ozar, gumonsira, yo'liq, kechik, tinchi, ehtiyor qilmoq, ado bo'lmoq, ayyuhannos solmoq, javob bermoq, xalal bermoq, qaror solmoq, tartibga keltirmoq, ch'urmoq, tush ko'rmoq, qaror topmoq, farrosh, suyunchi, minorai obunachi, to'polonchi, ishchi, tayyorlov, jonivorlash, duoxon, mahsido'z, mantpaz, arizabaz, ziolik, ishonk, vorrig', qonun, kodeksi, dimlama bo'g'in, zavq'lan, sevinch, g'urur, g'ayrat, dovvos, snaryas, hoshuv, kashtachar, kunayga, qonunul arziqdom, xo'jayinlik, prezident, O'rta Osiyo, saltokesak, Markaziy Osiyo, Sirdaryo, ko'ksulton, qoradori, Oltiariq, ushqunchak, oqqopoyon, ekabirgaz, ishlab chiqarish, savanno'o, gavdali yaylovli, elonator, nasldor, sarg'ish, beg'ubor, yashovchan, urinchoq, qizg'anchiq, vayamon, vag'loq, so'g'in, ko'chma, erzak, jirkanch, imtiyoz, ichki, daromad, badnazar, uzoq, forsiy, gapdon, qonun, sog'lom, qisqa, davomli, kafansoz, cho'ponboshi, shohmushuk, xunobazor, kamgap,

kampon, cho'tkasor, yoldoyma, o'zbaldurmoq, hoyg'irma, o'zbolarmon, qirqyamoq.

1. So'zni turkumga ajrating.

2. Ot turkumiga mansub so'zni lug'at va yasamaga ajrating.

3. Ajratilgan so'zni tuzilishiga ko'ra guruhlang.

4. Yasama otni ma'nosi qismiga ajrating.

5. Ajratilgan qo'shimcha asosida yangi so'z yasang.

6. Yasama ot o'zagining qaysi turkumga mansubligini aniqlang.

7. Qo'shimcha qo'shilganda so'z bergan ravishni o'zgartirishni aniqlang.

8. Qo'shimcha ohangi tarkibini aniqlang va shunday ohangli qo'shimcha ot yasang.

26- DARS
SIFAT

Ma'noviy xususiyati. Sifat, asosan, predmet-hodisaning qismon harakatning belgisini bildiradi va **qanday, qanaqa, qaysi** so'roq'iga javob bo'ladi. Predmet-hodisaning belgisi: <u>yaxshi</u> bola <u>katta</u> kitob, <u>shirin</u> taom, **qizg'in bahs.** Harakatning belgisi: Salim <u>yaxshi</u> o'qiydi. Hayot **abadiy davom etadi.** Otlashganda uning so'roq'ini oladi: **Qizilini qo'yib, ko'kini berdi. Yaxshi bilan yurding – yetding murodga.**

Morfologik xususiyati. Daraja, ozaytirma shaklni olish – sifatning morfologik xususiyati. **go'zal – go'zalroq – eng go'zal. baland – balandroq – eng baland**

Maktab darsligida darajaning uch ko'rinishi berilgan.

1) oddiy (asl shakl) **qizil, qaysar, shirnam.**

2) qiyos y (-roq) **qizilroq, qaysarroq, shirnamroq.**

3) orttirma

1) eng, juda, g'irt, jiqqa tim, naq, zap, behad ma'noyalda, beqiyos so'zi orqali (leksik usul) **eng qizil, juda qaysar, nihoyatda shirnam;**

2) bosh arg'ich tovushini olib, unga **p, m, s** tovushini qo'shish va von dun sifatning o'zini keltirish (fonetik usul) : **qop-qora, sap-sariq, ko'm-ko'k, yam-yashil, bus-butun;**

3) dastlabg: tovushi bilan so'zning o'zi juftlashtirish (fonetik usul) **pak-pakana, dum-dumaloq;**

4) dastlabgi qismiga **-ppa** unsurin qo'shish va so'zning o'zini juftlashtirish (fonetik usul): **teppa-teng, oppa-oson, tuppa-tuzuk, to'ppa-to'g'ri, soppa-sog', quppa-quruq**

Eslatma

So'zni ko'proq vaziyatda qo'llash orqali ortiqcha darajani ifodalash leksik-sintaktik usul ham deyiladi: olov bola (juda shoxi bola), zahar xotin (juda yomon xotin), shakar qovun (juda shirin qovun), asal qiz (juda yoqimtoy qiz).

Ozaytirma sifat. Ozaytirma sifat -ish/-g'ish, -imtir/-kimtir, -tob, -gina/-kina/-qina qo'shimchasi (morfologik usul), och, nim so'zi (leksik usul) va birdan-ga har ikkala usul (leksik-morfologik usul) yordamida hosil qilinadi: **ko'kish, oqish, sarg'ish, qizg'ish, ko'kimtir, oqimtir, qoramtir, yashiltob, qo'ng'irtob, kattagina; och sariq, nimpushti, bir oz ko'kish, sal qoramtir.**

Ozaytirma shakl faqat rang-tus sifatida mavjud. oq – oqish, oqimtir – oppoq (toza oq rang bo'lgani), qora – qoramtir – qop-qora, ko'k – ko'kish, ko'kimtir – ko'm-ko'k.

Otlashishi. Ot bilan ifodalangan belgilarga sifatlovchi-aniqlovchi bo'la oladigan har qanday so'z otlashadi. Sifat otlashganda u birikkan ot faqat qo'llanish vaziyati va grammatik shakllari sifat egallaydi: Yomon kishidan yaxshilik kutma gapida yomon sifati qanday darajada sifatlovchi-aniqlovchi vazifasida kelsa, ot esa ot qismi kelishigida birikkan to'ldiruvchi vazifasida. **Yomondan yaxshilik kutma gapidagi yomon** sifati esa ot ifodalagan ya'ni tushungan otning qanday kelishigi, birlik soni shakli va kelganmi, vazifasini egallaydi.

Eslatma

Otning har qanday grammatik shaklini olgan so'z otlashgan bo'laverma-ydi. Otlashuv uchun so'z bog'langan ot tushirilishi ham lozim. Buni aniqlash uchun tushirilgan ot, albatta, ko'rish kerak. Bilimli o'zadi – bilimli kishi o'zadi. Lekin Olmaning qizilini yeyman gapida ot tushirilganligi tufayli ot hidat bo'lmaydi. Olmaning qizil olmasini yeyman kabi. Demak sifat otlashmagan.

Grammatik ma'no turi. Sifat grammatik jihatdan asliy yoki nisbiy bo'ladi.

Darajalar. Asliy sifat – asliy sifat: katta (kattaroq • eng kattasi), yaxshi (yaxshiroq – eng yaxshi), yaqin (yaqinroq – eng yaqin), achchiq (achchiqroq – eng achchiqi), qizil (qizilroq – eng qizil).

Darajalanmaydigan sifat nisbiy sifat: qishloq, tonggi, kuzgi, kechki, keyingi, avvalgi, qishki, yozgi, ertangi, bugungi, dastlabgi, ilk, sobiq, yuqorigi, ayrim, quyi, pastki, tuban, oyi, tungi, to'ng'ich, konja, chetki, o'rtancha, kuzgi, burungi. Ot va paytga bog'liq bo'lgan sifat, avval sifat bo'lmaydi.

Lug'aviy ma'no turi. Sifat 8 ta lug'aviy ma'no turiga ega

1) xarakter-xususiyat sifati (inson va jonivorning xarakter-xususiyati, jonsiz predmet xususiyati): **vositali, vositasiz** (to'ldiruvchi) **gajir** (jangar), **gapdon, garang, go'l, dadil, daydi, dali-g'uli, dangasa, yeb to'ymas, ochofat, parishonxotir, yovvoyi, jo'n, zab, zabardast, zakiy/zukko, ziyrak, yo'rg'a, kamgap, lalmi, maxfiy, mahmadona, mechkay, merov, mudhish, muttaham, muqaddas, nodir, nodon, noyob, nonlepki, nonko'r, no'noq, ovsar, odil, odmi, oddiy, ojiz, olifta, ofatijon, pismiq, puch, rahmdil, samimiy, saranjom-sarishta, sarxil, tajang, tanbal, tansiq, tanqis, tentak, tepsa-tebranmas, teran, tetik, tuzuk-quruq, tuyg'un, turli, to'pori, tulgurji, umumiy, faol, foniy, xayrixoh, xasis, xokisor, chakki, chaqqon, cho'rtkesar, shallaqi, sheryurak, shinam, sho'x, shaddod, yuvosh, yanglish, yaxlit, yaxshi, yashirin, yaqin, o'jar, o'gay, qat'iyatli, qaltis, abadiy, abjir, avom, adabiy, ajib, ajnabiy, azaliy, aziz, ayyor, alamli, ardamchi, aldoqchi, aloqador, amaliy, asosli, asriy, afsonaviy, ahmoq, babaq** (xo'roz) **badbin, badgumon, badjahl, badiiy, badnafs, badrashk, bo'sh-bayov, baynalminal, balandparvoz, baroq, battol, bashariy, bebosh, begona, bezbet, biyron, bilag'on, bo'lmag'ur, bo'tana** (suv), **vazmin, vaysaqi, vatanparvar, vafodor, va'daboz, vijdonli, qiyin, g'arafli, g'irrom, harom-harish.**

2) holat sifati **ko'hna, luchchak, maf'un, marhum, mast, mast-alast, mashhur, mosuvo, muallaq, mulzam, muntazir, mushtoq, muhtoj, noqulay, navqiron, ochiq, olazarak, obod, ozod, osoyishta, osuda, pajmurda, palag'da, paxmoq, pachoq, pinhon, pokiza, semiz, sovuq, sokin, so'lg'in, tayyor, shay, hoziru nozir, toza, tarang, tashna, to'q, farovon, xom, xarob, xasta, xufa, xijil, xomush, xor, xursand, shalabbo, eski, qaram, qizg'in, qistalang, abgor, aybdor, alag'da, alamzada, ayanchli, apoq-chapoq, baravj, barkamol, barqaror, boxabar, bexabar, baxtiyor, bedor, besaranjom, bo'liq, vayron, voqif, gavjum, giryon, dabdala, darg'azab, yopiq, issiq, iliq, kir, ho'l;**

3) rang-tus sifati **moviy, nafarmon, ol** (rijil), **oq-qora, pushti** (och qizil), **jigar rang, kul rang, novvot rang, rang-barang, targ'il, ola, chilpor, ola-chipor, shafaq rang, zarg'aldoq, mosh-guruch** (oldan-ko chgan), **tilla rang, gunafsha rang.** Ot tusini ifodalaydi: **saman, to'riq, chovkar, jiyron, bo'zto'riqoq, qora, qizil, sariq, ko'k, zangori, alvon** (rang-barang), **go'los** (to'q jigar rang), **gungurt** (qora-sariq);

4) shakl-ko'rinish sifati: **dumaloq, yassi, uzunchoq, cho'zinchoq, qiyshiq, to'garak, do'ng, tekis, do'mboq, do'ndiq, qabariq, botiq, jingalak, jikkak, lo'nda, lo'ppi, miqti, silliq, g'adir-budir, egri, adil** (qomat), **naysimon, sharsimon;**

5) hajm-o'lchov shakli: **muazzam, mo'jaz, katta, kichik, og'ir, vazmin, yengil, so'ngsiz, bepoyon, tubsiz (ummon), teng, ulkan, keng, tor, uzun, chuqur, chog' (choqqina uy), yirik, jimiljday, jajji, hayhotday, ixcham, mayda, mitti, azim, ulug';**

6) maza-ta'm sifati: **achchiq, shirin, sho'r, nordon, chuchuk, taxir, kakra, laziz, xushta'm, chuchmal, talxa; shakar, novvot, namakob, zahar.**

7) hid sifati: **xushbo'y, muattar, qo'lansa, ifor, sassiq, badbo'y.**

8) o'rin va payt bilan bog'liq belgi bildiruvchi sifat: **tonggi, kuzgi, kechki, keyingi, avvalgi, qishki, yozgi, ertangi, bugungi, dastlabgi, ilk, sobiq, yuqorigi (qavat), quyi (polato), tuban (joy), tungi, to'ng'ich, konja, chetki, o'rtancha, bulturgi, burungi.**

Eslatma

*Sifatlar tug'ma ravishda turlarga ajratish nisbiy. Ma'no ko'chishi natijasida ma'no turi ham o'zgaradi. **achchiq gap** (maza-ta'm emas, xil-xususiyat), **qizil so'z** (rang-tus emas, xil-xususiyat).*

Sintaktik xususiyati. Sifat otlashmagan va otlashgan holda barcha gap bo'lagi vazifasida keladi.

Otlashmaganda:

– sifatlovchi-aniqlovchi: **Oq paxtalar ochildi. Qobili bola elga manzur.**

– ravish (tarz, vaziyat) holi: **U qiziq kular ekan. Qobil bobo dardli xo'rsindi.**

– ot-kesim: **Gul gizil. Devor oq. U o'ychan, asabiy edi.**

Otlashganda:

– ega: **Yaxshi oshini yer, yomon – boshini.**

– qaratqich-aniqlovchi: **Saxiyning ehsoniga baxilning boshi og'rir.**

– to'ldiruvchi: **Yaxshidan adashma, yomonga yondashma.**

– undalma: **Azizim, dunyoga bevaqt kelibmiz.**

Tuzilish turi. Sifat tuzilishiga ko'ra sodda, qo'shma, juft va takroriy bo'ladi:

1.Sodda:

a) sodda toh: **yaxshi, shirin, go'zal, baland, keng, mo'rt, ko'kimtir, sarg'ish.**

b) sodda yasama: **ishchan, devoriy, maqtanchoq, noo'rin, hiylagar, ozg'in, sezgir.**

2.Qo'shma: **darveshsifat, devsifat, devqomat, dilozor, dilorom, dilpora, izzattalab, kafangado, xomkalla, sho'rpeshona, kaltafahm, ochofat, maydagap, og'iroyoq, shikastahol;**

3.Juft: **aql-hushli, ajoyib-g'aroyib, boy-badavlat, och-nahor, yiroq-yovuq, tanish-notanish, uzoq-yaqin, xom-pishiq, chappa-rosta, quyuq-suyuq.**

4 Takroriy: **yaxshi-yaxshi, katta-katta, shirin-shirin, burda-burda, yo'l-yo'l (otdan ko'chgan). oppoq-oppoq.**

Mustahkamlash uchun savollar

1.Sifatning ma'noviy xususiyati haqida gapiring 2 Sifatning morfologik xususiyati haqida gapiring 3 Sifatning sintaktik xususiyati haqida gapiring 4. Sifatning grammatik ma'no turi haqida gapiring 5 Asliy sifat nima? 6 Nisbiy sifat nima? 7.Sifatning lug'aviy ma'nolari haqida gapiring 8. Xarakter-xususiyat sifati haqida gapiring. 9.Holat sifati haqida gapiring. 10.Rang-tus sifati haqida gapiring. 11.Shakl-ko'rinish sifati haqida gapiring 12.Hajm-o'lchov sifati haqida gapiring 13 Maza-ta'm sifati, hid sifati haqida gapiring. 14.O'rin va payt sifati haqida gapiring 15 Sifat darajasi haqida gapiring 16.Oddiy daraja va uning ifodalanishi haqida gapiring. 17 Qiyosiy daraja va uning ifodalanishi haqida gapiring 18 Orttirma daraja va uning ifodalanishi haqida gapiring 19 Ozaytirma sifat haqida gapiring

Topshiriq

1 Samimiy do'stsiz bo'lmagan odam, haqiqatdan ham yolg'izdir (F.Bekon) 2 Ufq qizg'ish tusga kirib, tong yorishardi. (Sh.Rash.) 3 Yaxshi fikrlar ham eng yaxshilariga joy bo'shatib bermog'i lozim. (V.Shekspir) 4. Torgina dunyo, kenggina keng dunyo. 5. So'z sehridan kuchliroq sehr yo'q. 6. Bir otim bor ajabgina dumlari gajakkina, Hali kelsa ko'rasiz kula-kula o'lasiz. («Topishmoqlar»dan.)

1 Gaplar tarkibidagi sifatlarni kuzating.

2 Sifatning grammatik ma'no turini aniqlang.

3. Sifatning lug'aviy ma'no turini aniqlang

4. Oddiy, qiyosiy, orttirma darajadagi va ozaytirma sifatni ajrating

5 Sifatning yasalishi xususiyatlini aniqlang.

6 Sifatning tuzilish turini aniqlang

7. Sifatning sintaktik vazifasini aniqlang

8. Matnda qo'llangan sifatning ma'nodosh, shakldosh vazifadosh va zidlari qatorini tuzing

27- DARS
SIFAT YASALISHI

Sifat yasalishi haqida. Sifat qo'shimcha qo'shish va so'z qo'shish usuli yordamida yasaladi. Bu usul bilan yasalgan sifatning asosi quyidagicha

1. Ot: **bama'ni, hosildor, odobli, gorizontal.**
2. Sifat: **g'ayritabiiy, noto'g'ri, xomaki.**
3. Son: **beshchi, ikkichi.**
4. Olmosh: **hammabop, o'zaro, sizbop**
5. Ravish: **kechki, avvalgi, kamchil, oldingi.**
6. Fe'l: **so'lg'in, boshlang'ich, ochiq, erinchoq**
7. Undov: **dod-voysiz, oh-vohli**
8. Taqlid: **po'rsildoq, sharros, so'lqildoq, shartaki**
9. Modal: **zaruriy, kerakli**

Sifat yasovchi qo'shimcha. Sifat yasovchi qo'shimcha, uning xususiyati, yasalma va uning asosi quyidagi jadvalda berilgan.

Qo'shimcha	Xususiyati	Yasalma	Asosi
-a:		lola, aylana, ko'hna (savr)c).	fe'l
-avon.	unumsiz	zo'ravon.	sifat
-aki:		og'zaki, qalbaki, yuzaki	ot
		so'nma-so'nsiz xomaki;	sifat
		shartaki, ertaki.	taqlid
-al:	unumsiz	regional, gorizontal, monumental, patriarxal.	ot
-ara:	affiksoid	xalqaro, davlatlararo,	ot
		o'zaro.	olmosh
-ag'on:	unumsiz	bilag'on, topag'on, chopag'on.	fe'l
ba-/bo-:		basavlat, bedavlat, bama'ni, bahaybat, baodob yoki boadab	ot
bad-:		badhazm, badbaxt, badnafs, badbashara, badavlat	ot
bar-:		barjamol, barkamol, barhayot	ot
-baxsh:	affiksoid	dorubaxsh, bayotbaxsh, shifobaxsh	ot
be-:		beg'ubor, bedavo, betashvish, bexavotir, beor.	ot
-bin:	unumsiz	kaftabin, neshbin (badbin — o'zbek til nuqtai nazaridan o'zak)	sifat
-boz:		vijdanboz, safsatabоz, xolinboz.	ot
-bon:	unumsiz	mehribon (-Horti'rgan).	ot
-bop:		omonabop, qishbop;	ot
		hammabop, sizbop.	olmosh
-vash:		tayivash devonavash, parivash.	ot

-vor;	unumsiz	ulug'vor;	sifat
		ummavor,	ot
-vuchi/-ovuch;		ekovuch, hurkovuch.	fe'l
-gaynl/-kay;	unumsiz	kungay;	ot
		leskay,	sifat
-gor;		sitamgar, g'iybatgar, hiyonagar.	ot
-g'i/-kil/-ci;		kurgi, bahorgi, qishki, so'nggi, birinchi, boshqa;	ot
		evvalgi, oralig'i.	ravish
-g'ir/-kir/-qir /-g'ir/-qur;		sezgir, keskir, topqir, olg'ir, o'tkir.	sifat
-giv/-guv;	so'roq	g'amgin, g'ujg'on	ot
-go'y;		xushomadgo'y.	ot
-diq;		kishilardiq.	sifat
-dan;	amaldan	ildamkina, gapdan qaytmas.	ot
-dor;	amaldan	azador, nikohdor, aybdor, vafodor, g'ildor, dardkor.	ot
-dosh;		otangdosh, birgadosh, ikkidosh, o'zaklidosh.	ot
-zada;		afsonazada, yuraksizada.	ot
-i;		qurbi (ish), ukrainoshi (kishi), kelasi (haftaga), qayerni (o'rinli, bodom (non).	ot
-iy;		oqsoqoliy, sujudiy.	ot
-iy/-diy;		ilmiy, shaxsiy, adabiy, atoqli, mo'jiziy, oniy (jinoiy, mo'minliy, lug'aviy, siyosiy, madaniy kabi so'zlarda bunday shimcha ajratmaydi);	ot
		zaruriy	modal
-ik;	amaldan	falsafik, geologik, realistik.	ot
-ikdoq;		so'roqdoq, ekkidoq, tilmoq, chiyloq.	bog'lov
-imli;		bo'yoqli, sevimli, yoqimli, o'limli.	fe'l
-in (i);	amaldan	bo'lajak, to'qin, sog'lom.	fe'l
		ertalabki	ot
-ir (il);	so'roq	rangin, g'ishtin.	ot
-inki;	unumsiz	kuzatishni.	fe'l
-inch;		shoshinch, o'qinch.	fe'l
-ki/-qi/-g'i/-ik /-iq/-uq;		chiki, o'tkir, ipaki, yanug', o'ti-, egik, yopiq, ochiq, buzuq, yumuq.	fe'l
-kash;		zahmatkash, jafokash, qandakash, qiyosh, haqiqatsh.	ot
-kin/-qin/-g' in/-ikuv/ -g'un;		tashnun, g'ishoin, so'ng'in, borg'in, tug'un.	fe'l
-kor;		zulmkor, isyonkor, g'amkor, fuqkor, cho'qintkor.	ot
-l;	unumsiz	hozal	fe'l
-li;		ach gul, kuch'li, odobli;	ot
		kerakli	modal
-lik;		yaxlik (paxta); kompaklik (mato), bayramlik (kiyim).	ot
-lom;	unumsiz	sog'lom.	sifat
-m;	unumsiz	qaram	fe'l
-ma;		quyushma ko'chma, qo'shma, terma, tug'ma.	fe'l

-mand		oyilmand, ajdahamand, qiyinchoq	ot
-mas		so'roqmas, bo'linmas, yaramas, yenglmas, o'lmas, qaytmas	fe'l
-mas		biriktirmon, ishtirokmas, o'zlanish, hamkorlikdamon	fe'l
-mas/-imtsiq		cheksiz, achchiqsiz	fe'l
-mayo		qaryashmasdan, qilmaganday	ot
		kechiktirmay	sifat
-mi		mehmon!, rahmat!	ot
		nolibo'l, nemand, hech qisman,	sifat
-mok		ekkinok, qaynatkich,	ot
-ndi	unumsiz	tanimsiz (bola),	fe'l
-ng		qaxqoq(ot, qo'shiq, ruhsat(ruh — hamroz, hamsifat),	ot
-og		sherzod, guldasta,	taqlid
-ovuz		kirayapmiz, shikoyatmiz, hayratdamiz, hayratlanmiz	ot
-ong'ich/-ng ich		so'roqgich, tepinchoq, ishlanchoq	fe'l
-oq		qutuloq, boshloq, ariqoq,	ot
-parast		insonparvarlik, mamlakatparvar, xalqparvar, shaxsiyatparast,	ot
-parvar		adolatparvar, insonparvar, vatanparvar	ot
-r/-ar/-er		qizil, qizarish, ishonch, qadam	fe'l
-sara	unumsiz	mehnatsevar	ot
ser-		xotira, qarorni, xalqchil, so'roqsiz, sarhisobi,	ot
-siz		o'rmas, bosiq, ishsiz, samarasiz,	ot
-simon		odamsifatsiz, sharafsizlik, hayronsiz,	ot
-xon		lavozim	sifat
		parvoz	ot
-xush	qilmoq	xushmuomala, xushbo'y, xushsurat, xushxabar — qil,	ot
-ch		ishtirokchi,	fe'l
-cha		o'zbekcha, inglischa,	ot
-chak/-choq /-ckiq		kuyunchak, boshchoq, qirchoq,	fe'l
-chan		kurashchan, izlabchan, hamkorlikchan	ot
		yashovchan, o'quvchan	fe'lning harakat nomi shakli
-chi		qurolchi,	ot
		ishchi, bekorchi	sifat
-chil		qandchi, lirchil, xalqchil, ekinchi,	ot
		kamchil	ravish
-shka	unumsiz	o'rnashka	fe'l
-shunos		o'lkashunos, jahonshunos,	ot
-q		ochiq, po'lat, quruq,	fe'l

-lik:	unumsiz ummiz	qisqa; kenja.	fe'l ot
-gil:		vaysaki, sayroq, g'ynaki.	fe'l
-qoq:		yopishqoq, uchqoq, tayanchoq, tashqoq, gapchoq.	fe'l
g'ayri:	(arabcha, so'kinish)	g'ayrioddiy, g'ayritabiiy	sifat
ham-:		hamfikr hamkasb hammafkir	ot

Sifat turkumida daraja shakli, sifat yasovchi qo'shimchada ishtiroy xususiyat yaqqol ko'zga tashlanadi.

1) sifatdagi qiyosiy darajani yasovchi -roq qo'shimchasi o'rnida -mtir, -imtil, -ish qo'shimchasi qo'llanishi mumkin: ko'kroq – ko'kish, qararoq – qoramtir, sarg'imtil;

2) sifat yasovchi qo'shimcha orasida ma'nodoshlik hodisasi ko'plab uchraydi: aybdor = aybli, sarg'ayrat – g'ayratli, chopqir – chopag'on, beg'ubor = g'uborsiz, bama'ni – ma'noli;

3) bu qo'shimcha orasida zid ma'nolilik hodisasi ham uchraydi: suvli – suvsiz.

So'z qo'shish yo'li bilan hosil qo'shma, juft va takroriy sifat hosil bo'ladi.

Qo'shma sifat:

1. Ot+ot: sheryurak, xumkalla, ofatijon, bodomqovoq, jigarrang, havo rang, darvesasifat, devsifat, devqomat, dilozor, dilorom, dilpora, izzatlalab, kafangado, otashnafas, sohibjamol.

2. Sifat+ot: sho'rtumshuq, sofdil, qattiqqo'l, chalasavod, chalamulla, sovuqqon, balandparvoz, uzunquloq, olijanob, xomkalla, sho'rpeshona, kaltafahm, ochofat, maydagap, og'iroyoq, shirinsuxan.

3. Ot+sifat: jig'ibiyron, tepakal, xonavayron, xudoboxabar, otabezori, dilxasta, nonko'r, boshqorong'i, yoqavayron.

4. Ravish + ot: hozirjavob, kamgap, kamsuqum, kamqon, kamxarj.

5. Ravish + fe'l: cho'rtkesar, tezpishar, kechpishar.

6. Fe'l + fe'l: yebto'ymas.

7. Olmosh + ot: o'zboshimcha.

8. Ot + fe'l: gadoytopmas, tilyog'lama, .

9. Olmosh + sifat: o'zbilarmon.

10. Son + ot: qirqyamoq, ikkiyuzlamachi.

Juft sifat:

I. Har ikki qismi yakka ishlatiladigan juft sifat:

1. Qismlar o'zaro sinonim: saranjom-sarishta, sog'-salomat, telba-teskari, fahm-farosatli, yakka-yolg'iz, yakka-yu yagona, g'arib-benavo, aql-hushli,

ajoyib-g'aroyib, boy-badavlat, och-nahor, ola-chipor, pishiq-puxta, son-sanoqsiz, sarson-sargardon.

2. Qismi o'zaro antonim: uzoq-yaqin, xom-pishiq, quyuq-suyuq, achchiq-chuchuk, baland-past/past-baland, vayron-u obod, issiq-sovuq, yiroq-yaqin, yiroq-yovuq, tanish-notanish.

3. Qism ning ma'nosi yaqin: och-yalang'och, soya-salqin, tinch-totuv, uzuq-yuluq, xor-zor, ezma-churuk, o'ydim-chuqur, g'oyaviy-borliiy ijtimoiy-siyosiy, mo'min-qobil, ochiq-oydin.

II. Bir qismi yakka holda ishlatiladigan juft sifat: nest-nobud, ola-bula, ola-kula, siniq-martik, topar mon-tutarmon, tuppa-tuzuk, tilka-pora, teng-tush, tep-tekis, to'kin-sochin, uvun-to'da, xom-xatala, chatakon-chatti, egri-bugri, eski-tuski, entak-tantak, yum-yumaloq, yamoq-yasqoq, qarama-qarshi, qari-quri, qora-qura, harom-harish, aralash-quralash, achchiq-tizziq, burma-chirma, bo'ltak-so'ltak, devor-darmiyon (qo'shni), yengil-yelpi, yolg'on-yashiq, yosh-yalang, ilma-teshik, yirtiq-sirtiq, kalta-kulta, kir-chir, mayda-chuyda, mast-alast.

III. Har ikki qismi yakka holda ishlatilmaydigan juft sifat: zim-ziyo, ilang-bilang, poyintar-soyintar (gap), dati-g'uli, zim-ziyo, ilang-bilang, aji-buji (yaqinda), almoyi-aljoyi, apoq-chapoq, aloq-chaloq (tush), uvali-juvali, o'poq-so'poq.

Takroriy sifat: burda-burda, yo'l-yo'l (oldan ko'chgan), oppoq-oppoq, yaxshi-yaxshi, katta-katta, shirin-shirin.

Mustahkamlash uchun savollar

1.Qo'shimcha qo'shib sifat yasashga misol keltiring. 2.Yarcha turi? 3.Asos so'z nima? 4. Qo'shimchaning xususiyati haqida gapiring. 5. So'z qo'shib sifat yasashga misol keltiring. 6. Qo'shma sifat nima va uning qanday turi bor? 7.Juft sifat nima va uning qanday turi bor? 8. Takroriy sifat va uning turi haqida gapiring.

Topshiriq

kishanla, dasta, sizla, hozirla salomlash sifatsiz, yelkir, o'yca, qyda, qaray, oqar, gumansira, yo'lq kechik, lancha, qisqartma, nogor olmoq, da'pak, aqa qo'lmoq ortiqcha ayyuhannos eslmoq javob bermoq, xalal bermoq qiron solmoq, tartibga keltirmoq, kuchik, oh urmoq, tush ko'rmoq bedo, qo'nim topmoq nomsol, tomchi, o'tirishik, suyunchi, majbonnema ninachi, magtanchoq, obunachi to'polonchi, kamsuxan, lofchi, rajovuzkor nomunosib, janjalkash, duoxon, noqulay, mahsido'z shikoyatchil, manfaat, arzahar, otalik, kekirik, yonig'i, chappa-rosta,

qo'rqoq, kechirim, dimlama, bo'g'in, savag'ich, jonkuyar sevinch, g'urrak, g'org'ara, chuvvos, sharros, kechuv, toshko'mir, harmaygul, qoraqurt, mingoyoq, qo'ziqorin, sochpoduk, piyozdog', O'rta Osiyo, yangroq, kaftakosak, Markaziy Osiyo, tinchliksevar, Shoirku'l, kasalmand, ko'ksuiak, qoradori, Olloma, uchburchak, murg'ak, boyitar, ukalatpoya, qilich chiqarish, sovchi-o'k, qovdak, yayrash, afsonaviy, nasldor, sarg'ish bog'ubor, yashovchan, uricholiq, qizg'aniq, yoyqirrali, dig'dirqi, so'g'in ko'chma, arzak, jukaroh, uloviy, ildiz, dahanak, bodhozam, jahil, terakay gapdon, qaram, sog'lom, qaqa, revoqonal, kalongaro, sho'rqashona, sho'rtumshuq, xudabozor, kontyor, iromqori, chi'rikesar, yobto'vas o'zboshimcha, tiyog'lama, o'zbilarmon, qirqyorrog

1. *So'zni turkumga ajrating*
2. *Sifat turkumiga mansub so'zni lug va yasalishiga ajrating*
3. *Ajratilgan so'zni tuzilishiga ko'ra guruhlang.*
4. *Yasama sifatni ma'noli qismga ajrating*
5. *Ajratilgan qo'shimcha asosida yangi so'zlar yasang.*
6. *Yasama sifat o'zagining qaysi turkumga mansubligini aniqlang.*
7. *Qo'shimcha qo'shilganda yuz bergan tovush o'zgarishini aniqlang*
8. *Qo'shma, juft va takroriy sifatning tarkibini aniqlang va shunday tarkibli sifat yasang.*

28- DARS
SON

Ma'noviy xususiyati. Son – asosan predmet-hodisa, qisman harakat-holatning ko'pincha aniq miqdori, sanog'i va tartibini, shuningdek, mavhum sanoqni bildiruvchi mustaqil so'z.

Aytilganidek, **ko'p, oz, ancha, talay,** bir **oz** kabi ravishli **uncha, buncha, shuncha, qancha, bir qancha** kabi olmosh **savat-savat, quchoq-quchoq, qop-qop** kabi hisob so'zi bo'lib kelguvchi ot ham noaniq ma'noni bildiruvchi yoki unga ishora qilishi mumkin. Bu ko'plik hisoblanadi.

Son **necha, nechta, nechanchi, qancha, qanchadan, qanchalab** kabi so'roqqa javob bo'ladi. **Qancha** so'roq olmoshi bir vaqtning o'zida ravishga ham xizmat qiladi: **qancha – ko'p.** Ba'zan otning so'rog'ini oladi: **Ikki odamning biri** (kim?) hali ham **kutib turibdi. Necha** so'rog'i esa faqat songa tegishli.

Son odatda raqam va so'z bilan yoziladi:

1) arab raqami bilan: 0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9;

2) rim raqami bilan:

a) birlik: I, II, III, IV, V, VI, VII, VIII, IX;

b) o'nlik: X, XX, XXX, XL, L, LX, LXX, LXXX, XC;

d) yuzlik: C, CC, CCC, CD, D, DC, DCC, DCCC, CM;

e) minglik: M, MM, MMM.

Morfologik xususiyati. Son turkumining ma'no turini hosil qiluvchi barcha qo'shimcha – tug'uvchi shakl yasovchi -(i)nchi, -ta, -tacha, -lab, -tadan, -larcha, -avi-ovlon, -alab kabi.

Son kilo, metr, dona, hovuch kabi hisob so'zi bilan ishlatiladi.

Otlashish (3 rinchi kishini chaqir = birinchisini chaqir) va olga ko'chish (yetti, qirq, yigirma, to'qqiz-to'qqiz kabi ma'nosam ob) xususiyati ga ega. Bunda olga xos lug'aviy va sintaktik shakln hamda uning sintaktik vazifasini qabul qiluvchi o'rinchisini, o'rinchigacha. Olga xos shakl yasovchi qo'shimcha sonning hamma turiga ham birday qo'shila olmaydi: o'nlarcha(ni), uchala(ga) kabi.

Sintaktik xususiyati. Son otlashmagan va otlashgan holda turlicha bo'lgan bo'lak bo'lib keladi.

Otlashmaganda:

– Sifatlovchi-to'ldiruvchi: Bir chetda gulzor oralab ikkita chiroyli qiz gul terib yuribdi;

– to'ldiruvchi: Samarqandni to'rt bosh mucha ko'rganmiman. U mazraga birinchi yetib keldi.

– ega: Bu xotinning joni bitta emas, ming bitta.

Otlashganda:

– ega: Dutorim tori ikkidir, biri dilkash, biri dilxun.

– qaratuvchi: aniqlovchi: Ikkalamizning gapimiz bir joydan chiqsin. Ikki uchoq qoldiqsiz bo'linmaydi.

Grammatik ma'no turi. So'zning ma'no turi asosan shakl yasovchi qo'shimcha vositasida hosil qilinadi. Barcha olga xos lug'aviy shaklni hosil qiluvchi qo'shimchalar sonning ana mavjud guruhi, ham qo'llanmaydi bo'ladi. Grammatik xususiyatiga ko'ra son, avvalo, ikkiga bo'linadi:

1) miqdor son;

2) tartib son.

Miqdor son predmet-hodisa hamda harakat/holatlarning miqdori va sanog'ini, tartib son esa tartibini bildiradi.

Tartib son -(i)nchi va -lamchi (kam qo'llanadi) qo'shimchasi yordamida sanoq sonidan hosil bo'ladi: birinchi, o'ninchi, yigirmanchi, birlamchi, ikkilamchi.

Miqdor son quyidagi turga bo'linadi

1) sanoq;
2) dona;
3) chama;
4) jamlovchi;
5) taqsim.

Sanoq son. Sanoq sonning ko'rsatkichi yo'q: bir, ikki, o'n, qirq besh.

Dona son. Bu ma'no turi -ta qo'shimchasi va dona, nafar, bosh hisob so'zi orqali hosil qilinadi: **beshta kitob, ikkita daftar, uch dona qalam, o'n besh nafar o'quvchi, yigirma bosh sovliq**. Qo'shimcha bir so'zga qo'shilganda, u tovushni t bilan almashadi: **bir – bitta, o'n bir – o'n bitta**.

Chama son. Bu son **-tacha, -lab, -larcha** qo'shimchasi, sanni ajratish, **taxminan, qariyb, taqriban** ravishi vositasida hosil qilinadi: **o'ntacha ishchi, minglab vatandoshlarimiz, yuzlarcha bola, soat o'n birlar edi, taxminan o'nta**. -cha qo'shimchasini sondan keyingi hisob so'zi qabul qilsa ham, chama ma'nosi voqelanaveradi: **ming yilcha burun, besh milcha narida**.

Jamlovchi son

1) sanoq son + -ov/-ev/-on: uchov, to'rtov, beshovlon (birov so'z bundan mustasno)

2) sanoq son + -ala: ikkala (qo'shilgan), uchala, to'rtala.

Jamlovchi son birdan yettigacha bo'lgan sondan hosil qilinadi. Bunda besh sonidan boshqalarida tovush o'zgarishi yuz beradi.

Taqsim son: -tadan: **bittadan qalam, o'ntadan ruchka**

Son butun va qismni ifodalashiga ko'ra uch guruhni tashkil etadi

1) butun;
2) kasr;
3) aralash.

Butun son narsa-buyumning bo'linmagan holdagi sanog'i va miqdorini ifodalaydi: **bir, o'n, ikki yuz** kabi.

Kasr son butunning bo'lagini, ulushini ifodalaydi: **yarim, chorak, nimchorak** kabi.

Kasr son ikki ko'rinishda bo'ladi:

a) qo'shma so'z ko'rinishidagi matematik kasr ifodasi: **ikkidan bir, o'ndan ikki, to'qqizdan besh** kabi;

b) soddalashgan so'z ko'rinishidagi oddiy kasr ifodasi: **yarim, chorak, nimchorak**.

v) butun va kasr sonlarga aralash sonni tashkil qiladi: **bir yarim, ikki butun o'ndan besh, bir butun to'rtdan uch**.

Eslatma

1 Butun, kasr va aralash son ajratib yoziladi: bir yarim kilogramm, nol butun o'ndan besh.

2 Faqat sanoq son nisbat so'zi bilan keladi.

3 -ov, -ala shaklli jamlovchi songina ottashmasdan kelishik va egalik shaklini oladi. *uchovini, to'rtlasiga, beshalamiz.*

4 To'rtlik son sifatga, jamlovchi son olgi yaqinlashadi.

5 Juft son ohamo, takroriy son taqsim ma'nosini bildiradi.

Tuzilish turi. Son ham tuzilishiga ko'ra sodda, qo'shma, juft va takroriy bo'ladi:

1. Sodda. Hozirgi o'zbek adabiy tilida ko'p ishlatiladigan 23 ta **sodda son**: bir, nol, bir, ikki, uch, **to'rt, besh**, olti, yetti, sakkiz, to'qqiz, o'n, yigirma, o'ttiz, qirq, ellik, oltmish, yetmish, sakson, to'qson, yuz, ming, million, milliard. Yarim, chorak so'z- ham sodda songa misol.

2. Qo'shma. Qo'shma son bir can ortiq o'zakning birikuvidan hosil bo'ladi: **o'n besh**, uch yuz besh, **to'rtdan uch, o'n olti yarim.** Tarkibidagi yirik qo'shma son sodda sonlar ashib borgani: **sakkiz o'n - sakson, to'qqiz o'n - to'qson.**

3. Juft. Bir son ohamo takrorin ma'nosini oldiradi. Sanoq, dona va taqsim son juft qo'llanadi: **bir-ikki joy, o'n-o'n beshta savol, uch-to'rttadan yo'lliq.**

4. Takroriy. Takroriy son jamlash, taqsimlash kabi ma'nolarni ifodalaydi. Sanoq, dona va taqsim son takroriy holda ham qo'llanadi: **beshta-beshta, yuzta-yuzta, bir-bir** (gaplarib chiqdi), **to'rtta-to'rttadan.**

Hisob so'zi. Sanoq son u lahovni bildiruvchi so'z bilan kelishi mumkin. Bunday so'z hisobni bildirgani uchun **hisob so'zi** (numerativ) deyiladi. Hisob so'zi 8 turkumdan bo'ladi: **hovuch, dona, nusxa, bog', siqim.** Gapda son hisob so'zi bilan birga gap bo'lagi bo'lib keladi.

Hisob so'zining qo'llanish davriga ko'ra turi

1) eskirgan hisob so'zi: **gaz (bir gaz chit), jon, vaqt (besh vaqt namoz), mahal (uch mahal ovqat), paysa, pud (o'n pud bug'doy), sarjin, so'lkavoy, tanob, tosh (to'rt tosh yo'l), enlik (ikki enlik xat), yumaloq (uch yumaloq choy), qadoq;**

2) zamonaviy hisob so'zi: **gradus, kilovatt-soat, kubometr, metr (santimetr, millimetr), mehnat kuni, minut, par, sotix, sentner;**

3) yangi hisob so'zi: **bayt, megabayt, gegabayt, dyum.**

Hisob so'zining qanday hisoblashga ko'ra turi:

1) yakkalab hisoblash uchun: **bosh, dona, nafar, nusxa, tup;**

2) juftlab hisoblash uchun: **juft, parla);**

3) to'dalab hisoblash uchun: **bog'/bog'lam, gala, guruh, dasta, to'da, to'p, shoda, quchoq, hovuch;**

4) bo'laklab hisoblash uchun: **burda, varaq** (bet, sahifa), **luqma, og'iz** (bir og' z gap), **parcha, poy, siqim, tilim** (**karch**), **tomchi** (qatra), **to'g'ram, chaqmoq, chimdim, shingil, qultum**;

Hisob so'zining nimani hisoblashiga ko'ra turi:

1) og'irlik: **gramm, kilogramm**, litr, **pud, tonna, sentner, misqol, qadoq, botmon** (ariq o'lchovini bildiradi); **kosa, piyola, choynak, qop** (xalta), **qoshiq, quti** (taxminiy o'lchovni bildiradi),

2) uzunlik **qadam, qarich,** quloch:

3) yosh **yashar, yoshdagi, yoshli**;

4) vaqt **asr**, yil, **kun, kecha-kunduz, oy, hafta, daqiqa, soat, soniya**;

5) qiymat. **so'm, tiyin, miri, paqir, dinor, yevro, dollar**;

6) sh-harakat: **marta/martaba/marotaba, karra, qatla, sidra** (bular tartib son bilan ham qo'llanadi. **bir marta – birinchi marta** kabi).

Shakl va ma'no munosabati. Sonda shakldoshlik, ma'nodoshlik, ko'pma'nolilik hodisasi mavjud

Shakldoshlik. Ba'zi son boshqa turkum so'zi bilan omonim bo'ladi: **uch** (son) – **uch** (fe'l), **qirq** (son) – **qirq** (fe'l) **yuz** (son) – **yuz** (ot). **yigirma** (son) - **yigirma** fe'l.

Urug' nomini bildiruvchi **qirq, yuz, ming** kabi otga ko'chgan so'z shu shakldagi songa omonim bo'ladi. **Ma'nodoshlik**. Bu hodisa kam uchraydi. **o'n ming – tuman, yuz ming – lak**. Tuman, lak - eskirgan so'z.

Ba'zan **bir** soni o'rnida **yakka, yolg'iz** so'zi. **birinchi** so'zi o'rnida **ilk, dastlabgi, avvalgi, to'ng'ich, bosh, asosiy, katta** kabi so'z, **ikki** soni o'rnida **qo'sh**, juft so'zi. **yarim** o'rnida **nol butun o'ndan besh, chorak** o'rnida **nol butun yuzdan yigirma besh** ishlatilishi mumkin.

Zid ma'nolilik. Sonda bu hodisa yo'q. **Ikki** va **besh** soni bahoni bildirganda, nutqiy zid ma'nolilik kasb etadi, xolos

Ko'p ma'nolilik. Sonda ko'p ma'nolilik hodisasi mavjud. Bu **bir** sonida yaqqol ko'zga tashlanadi:

1) noaniqlik: **Sizni ko'chada bir kishi chaqiryapti**;

2) yolg'izlik: **Darsga bir Karim kelmadi**;

3) ayiruv. **Bir qor yog'adi, bir yomg'ir**:

4) kuchaytirish: **Ertaga bir dam olsam. Bugun bir charchadim.**

5) bir xillik: **Tiling bilan dilingni bir tut**;

Sondan boshqa turkum so'zining yasalishi. Sondan ot, sifat, fe'l, ravish yasalishi mumkin:

– ot. **birlik, to'rtlik; uchburchak, to'rtburchak, Yettisuv, Ettiariq.**

– sifat **Ikkinchi, beshinchi, uchli, to'rtsiz; ikkiyuztomachi, qirqyamoq, beshotar.**

– fe'l: **birik, birlash**, ikkilan;

– ravish **bittalab; ikkiyoqlama. bir kuni, birpas, bir zumda.**
– olmosh **bir kishi, bir nima, bir narsa.**

Eslatma

Bir *so'zi* ***-ov,*** *-on, -or qo'shimchasini olib gumon olmoshiga aylanadi:* ***birov, biron, biror.***

Mustahkamlash uchun savollar

1 Sonning ma'noviy xususiyati haqida gapiring. 2. Sonning morfologik xususiyati haqida gapiring 3 Sonning sintaktik xususiyati haqida gapiring 4 Sonning tuzilish turlari qanday? 5 Sonning grammatik ma'no turi haqida gapiring 6 Miqdor son va uning shakli 7. Tartib son haqida gapiring 8 Sanoq son qanday hosil qilinadi va nimani anglatadi? 9 Dona son qanday hosil qilinadi va nimani anglatadi? 10 Jamlovchi son qanday hosil qilinadi va nimani anglatadi? 11 Chama son qanday hosil qilinadi va nimani anglatadi? 12 Taqsim son qanday hosil qilinadi va nimani anglatadi? 13 Qanday son sodda son deyiladi? 14.Qo'shma son deb nimaga aytiladi? 15.Juft sonni ta'riflang? 16 Takroriy son qanday son? 17. Hisob so'zi nima? 18 Hisob so'zining qo'llanish doiraga ko'ra turini ayting. 19 Hisob so'zining qanday hosobloshiga ko'ra turini bayon qiling 20 Hisob so'zining nimani hisoblashga ko'ra turini sanang. 21 Son shakldoshligi haqida gapiring. 22 Son ma'nodoshligi haqida gapiring 23. Son zid ma'noliligi haqida gapiring. 24 Son ko'p ma'noligi haqida gapiring 25 Sondan boshqa qaysi turkum so'zi yasalishi mumkin? Misol keltiring

Topshiriq

1. Bir yil tut ekkan kishi yuz yil gavhar teradi. (Maqol) 2. Bir yigitga yetmish hunar oz. (Maqol) 3. Hozir planolarimizda nashr qilinayotgan barcha kitob mahsulotlarining deyarli uchdan bir qismi rus tilida bosilmoqda (Gazetadan) 4. Sizga ma'lum paxtani birinchi yil ekishimiz. (Sh.Rash.) 5 Shu orada to'rtinchi samolyot oldirma-kotsi g'izillab ketdi. (S. Ahm.) 6. Og'irligi 70 kilogramm keladigan odam Oyga chiqsa, uning vazni 11,7 kilogrammdan oshmaydi (»Qiziqarli geografiya«) 7. Bir zumda ikkov uchov, to'rtov, beshov bo'lishdi (P.Tur.) 8. Non daraxtining 15-20 yillik resmana bir tupi bir-ikki kishini, besh-olti tupi esa katta bir oilani bemalol bir yil boqa oladi. (»Qiziqarli geografiya.«) 9. Adolat mastavedan bir-ikki qoshiq ichdi. (S.Zun.) 10. Bir hovuch yerdagi poliz ham la'nati bo'rondan sog' qolmadi. (Sh.Rash.) 11. Manzilning chorag'i ham bosilmagan edi. (J.Shar.) 12. Er kishining so'zi billa. (Maqol.) 13. To'rtovlon, ayniqsa

G'ulomjon nosa dam oldi. (M.Ism.) 14. Har kim uchtadan mashina tanladi (Gazetadan).15. Oltinchiga kirgan oladan osh so'rama. (Maqol) 16. Mendan besh-olti chaqirim narida, ikki bola kelib borishardi. (Gazetadan) 16. Birinchidan, men senga opa emasman. 17. «Uchinchisi meni eshityapsizmi?» 18. Bu gapni bir aytding, ikkinchi aytma. 6. Unga ming maslahat bergan, foydasi yo'q.

1. Berilgan gapdagi sonni aniqlang.

2. Son qaysi ma'noviy guruhga mansubligini ayting.

3. Sonning so'z tarkibini ko'rsating.

4. Lug'aviy shaklini aniqlang.

5. Hisob so'zini aniqlab, qaysi guruhga kirishini belgilang.

6. Sonning sintaktik shakl olgan holatini tushuntiring.

7. Tuzilishiga ko'ra turini aniqlang.

8. Son qatnashgan so'z birikmasini ajratib yozing.

9. Gapdagi sintaktik vazifasini ko'rsating.

10. Matnda qo'llangan sonning ma'nodosh, uyadosh, sinonimlarini qatorini tuzing.

11. Bir sonining ma'nosini aniqlang.

29- DARS
RAVISH

Ma'noviy xususiyati. Ravish, asosan, harakat-holatning bajarilish tarzi, payti, o'rni, daraja-miqdori, shuningdek, qisman predmet-hodisaning hamda belgining belgisini bildiruvchi va **qanday, qachon, qayer, qancha** singari so'roqqa javob bo'luvchi so'z **sekin yurmoq, kech tugamoq, asloydil o'qimoq, ko'p kitob, harbiychasiga qasamyod, hamisha navqiron.**

Ravish 6 la lug'aviy ma no turiga ega.

1. Holat: fidoyilarcha, chaqqancha(siga), chambarchas, elan-qaran, yaxsh likcha, boshdan-oyoq, och-qchasiga, chista, paydar-pay, piyoda, pinhona, surunkasiga, sidirg'asiga, tekin, to'g'ridan-to'g'ri, tiriklayin, tikkama-tikka, tekinga, to'satdan, tez, tezda, tezlikda, teskarisiga, uzurasiga, boshma-bosh, butunicha, butunligicha, vahshiyona, vijdonan, dabdurustdan, darrov, darhol, daf'atan, zo'rg'a, zimdan, yo'l-yo'lakay, ko'r-ko'rona, nari-beri, oldinma-keyin, yangicha, yangitdan, o'zidan-o'z, o'zicha, qayta, qat'iyan, qiyg'os, asta, arang, badastir, bekami-ko'st, bajonudil, bahuzur, bazo'r, baloday (oldan ko'chgan),

bamaylixotir, bamaslahat, banogoh, baravarига, baralla, basma-bas, baforja, bahamjihat, bahodirona, beayov, bevosita, bedarak, beijozat, beixtiyor, bekitiqcha, beso'roq, betinim, betma-bet, beto'xtov, bexos/bexosdan, bilmay-bilinmas, aksincha, ora-sira, burma-burn, birvarakayiga), birga(likda), birdaniga), birin-ketin, bosmi tishlamoq), qo'qqisdan.

2. **O'rin:** u yerga (-da, -dan), bu yerga (-da, -dan), shu yerga (-da, -dan), u yoqqa (-da, -dan), olga, orlagu (-da, -dan), narigi yoqqa (-da, -dan), nari-beri (surmoq), ilgariga (-da, -dan), teshqariga (-da, -dan), quyiga (-da, -dan), chapga (-da, -dan), o'nggа (-da, -dan).

3. **Payt:** tongla, bazokun, umrbod, unda-bunda, endi, erta, ertalab, ertaindin, ertа-indin, ertoyu kech, eskidan, yaqinda, o'qtin-o'qtin, qarimdan, hali, halidan, hali-beri, hozir, hamisha, hamon, hanuz, avval, ahyon-ahyonda, bugun, darvaqt, ba'zan, bazda, birpas, boyu, bultur, vaqtincha, go'rda, goho, dastavval, dastlab, doimo/doimo, dalabad, ilgari, olmga (-da, -dan), kuyin, kecha-kunduz, kechasi-kunduzi, mangu, muqaddam, muddam, ora-sira, oxir, onda-sonda, so'ng/so'ngra,

4. **Daraja-miqdor:** arang, batamom, banarixol, bahaqqidal, bag'oyat, bimavjі, beadad, bir muncha, bulutlay, bazo'r, deyarli, illa, jichcha, juday, juda (ham), zarracha, zinhor-bazinhor, ko'p, mutlaqo, mo'l-ko'l, rosa, uzmi-ko'pmi, uzmuncha, sal-sal-pal, sira, taxay, tegishlicha, yetarlicha, umoqcha, xyol-xiyla, o'lguday, qtrak.

5. **Maqsad:** atay, ataylab, ataylaki, azza-bazza, jo'rttaga, qasddan.

6. **Sabab:** nolo, noilojlikdan, bekordan-bekorga, chor-nochor.

Eslatma

*Sifat kabi ravishni ham ma'no turiga ajratish nisbiy. Chunki ko'pincha ma'noda qo'llangan ravish bir ma'no turidan boshqasiga o'tib ketadi. Ishxonasiga **yaqinda** joylashgan – o'rin ravishi. **Yaqinda** qishloqqa boraman – payt ravishi. Partalarni **nari-beri** surdik – o'rin ravishi. U **nari-beri** dars qildi – holat ravishi.*

Morfologik xususiyati. Ravish – murakkab va bahsli turkum. Ayrim so'z ilgari ravish turkumida qaraladigan bo'lsa, yangi avlod darsligida sifat turkumiga kiritilgan va sifatning: **makon, zamon, miqdor** ma'no guruhi ajratilgan: **ko'p, uzoq, devoriy, erta, ancha,** ro'para kabi.[1]

Ravish – o'zgarmas so'z. An'anaviy ona tili darsliklarida ajratib kelingan daraja shakli ravishda yo'q. Joriy ona tili darsligida ravishning daraja lanishiga doir mavzu berilmagan.[2] Demak, o'quvchi ravishni darajalanmaydigan turkum sifatida bilishi maqsadga muvofiq.

Eslatma

*Ba'zi ravish darajalanish xususiyatiga ega: **ko'p, oz, sekin**. Shuning uchun ayrim grammatikaga doir manbada ravishning uch darajasini ajratishni ko'rish mumkin:*

*1)oddiy daraja: **tez, kech, sekin, burun**.*

*2) qiyosiy daraja: **tezroq, kechroq, sekinroq, sal burunroq***

*3)orttirma daraja: **juda tez, eng kech, juda sekin, eng burun***

Ravish otlashish oldingi shakl yasovchisi va sintaktik vazifasini ega bo'lishi mumkin. **Ko'p** (ravish, ot bosmaydan, an qiluvchi) kishini (ot tushum kelishigida, to'ldiruvchi) **yomonlagan ko'muvsiz** qolar – **Ko'pni** (ravish, otlashgan, tushum kelishigida, to'ldiruvchi) **yomonlagan ko'muvsiz qolar.**

Ravish boshqa so'zga bo'lishuv yo'li bilan birikadi. Demak, ravishga uchraydigan egalik shakli (**kechasi**), kelishik qo'shimchasi (**unda-bunda, olg'a, jo'rttaga, to'satdan, birdan**) so'z bilan yaxlitlangan va sintaktik munosabatni shaklini hosil qiluvchi sifatida ajratilmaydi. Umuman olganda, bu so'z oxiriga hech narsa qo'shilmaydi: **keyin – keynida – keyinga, oldin – oldinga – oldinda – oldindan, hozir – hozirdan, tez – tezda, ilgari – ilgarilari, kechqurun – kechqurunlari.**

Ravish o'ziga xos yasalish tizimiga ega.

Demak, ravish

1) daraja shakliga ega emas;

2) yasalish xususiyatiga ega.

Sintaktik xususiyati. Ravish gapda, asosan, hol, qisman sifatlovchi-aniqlovchi bo'lib kelishga xoslangan, boshqa so'zga faqat bo'lishuv yo'li bilan birikadi.

Bundan tashqari, otlashsa, ot turkumiga xos vazifani bajaradi

Otlashmaganda.

1) ega: **Yomg'ir birdan** tindi. **Ikkisi** do'stlarcha **ko'rishdi;**

2) sifatlovchi-an qiluvchi: **Uzoq yo'l qaynab qo'ymaydimi? Uning** yuzida **bolalarcha kulgi paydo bo'ldi.**

3) o-ko'rsim: **Bemaslahat qilingan ishning pushaymoni ko'p.**

Otlashsa:

4) ega: **Ko'p** nima desa, o'sha bo'ladi.

5) to'ldiruvchi: **Ko'pni yomonlagan ko'muvsiz qolar.**

6) qaratqich-an qiluvchi. **Ko'pning duosi – ko'l.**

Tuzilish turi. Ravish tuzilishiga ko'ra sodda, qo'shma, juft va takroriy turga ega.

1. Sodda:

1) sodda tub: oz, erta, indin, bukun, kecha, uzuvel; bir'dan, birga, qo'qqisdan, yaqinda, bugun, tez, sekin, sal, yo'q, kechasi;

2) sodda yasama: tirikloyin, yangicha, mardona, qahramonlarcha, ko'pincha, betnim.

2. Qo'shma:

1) ubu/shu+o'sha+yer yo'q/ora o'rin+u yerga, shu yerda, shu yurdan, o'sha yoqdan, bu orada, shu o'rtada;

2) shu+o'sha+kun+zamon/vaqt/mezon: shu zamon, shu zahoti, shu onda, shu kuni, shu asnoda, o'sha zamon;

3) har+boshqa so'z turkumidagi so'z: har dam, har zamonda, har gal, har yoqdan, har kuni, har yili, har yoqqa, har yerda, har lahza, har taraf;

4) bir+boshqa so'z turkumidagi so'z: bir pas, bir on, bir onda, bir boshdan, bir zamon, bir tekis, bir oz, birmuncha, bir talay, bir nav, biryo'la, bir kuni, bir dam, bir zumda, bir nafas;

5) o'zlashma so'z: baqadnihol, bajonudil, baholiqudrat

3. Juft:

1) ikki qism ham yakka holatda: ozmi-ko'pmi, erta-yu kech, kecha-kunduz, qishin-yozin/yozin-qishin, tun-kun, erta-indin, uzil-kesil, ura-sura, unda-bunda, asta-sekin, yana-tag'in, eson-omon;

2) qismidan biri yakka ishlatilmaydigan: ora-chora, ro'y-rost, sal-pal, chala-chulpa, omin-erkin, huda-behuda, oz-moz, dom-daroksiz, mo'l-ko'l, ora-sira;

3) ikki qismi ham yakka holda ishlatilmaydi: onda-sonda, eran-qaran, o'lda-jo'lda, azza-bazza, apil-tapil, imi-jimida.

4. Takroriy:

1) takroriy yasama: galma-gal, birma-bir, yo'l-yo'lakay, o'qtin-o'qtin, es-es, qayta-qayta;

2) takroriy tuz.: asta-asta, birga-birga, darajama-daraja, sekin-sekin, zinhor-bazinhor, tez-tez, to'g'ridan-to'g'ri, sira-sira, ahyon-ahyonda.

Mustahkamlash uchun savollar

1.Ravishning ma'noviy xususiyatini bayon qiling. 2. Ravishning lug'aviy ma'no turini sanang. 3.Holat ravishining ta'rifini aytib va misol keltiring. 4. O'rin ravishining ta'rifini aytib va misol keltiring. 5.Payt ravishining ta'rifini aytib va misol keltiring. 6.Daraja-miqdor ravishining ta'rifini aytib va misol keltiring. 7.Maqsad ravishining ta'rifini aytib va misol keltiring. 8.Sabab ravishining ta'rifini aytib va misol keltiring. 5. Ravishning morfologik xususiyatini bayon qiling. 6.Ravish o'zgarmasligi nimada ko'rinadi? 7. Ravishning ma'nosini bayon qiling va misol keltiring. 8.Ravishning boshqa so'zga bo'lish usuli qanday? 9.Ravishning sintaktik xususiyati qanday?

10.Olinishgan ravishning sintaktik vazifasi haqida gapiring. 11.Ravishning tuzilish turi qanday? 12.Qanday ravish sodda ravish deyiladi? 13.Sodda tub ravish haqida gapiring va misol keltiring. 14.Sodda yasama ravish haqida gapiring va misol keltiring. 15.Qo'shma ravish va uning turi haqida gapiring va misol keltiring. 16.Juft ravish va uning turi haqida gapiring va misol keltiring. 17.Takroriy ravish haqida gapiring va misol keltiring. 18.Takroriy yasama ravish haqida gapiring va misol keltiring. 19.Takroriy tub ravish haqida gapiring va misol keltiring.

Topshiriq

1. Sizni Ustoz va murabbiylar kuniga bag'ishlab o'tkaziladigan fakultetimiz shodiyonasiga to'la va qalban taklif etamiz. 2. Mastura ko'zlarini maksurona o'ynatib javob berdi. (Oyb.) 3. A kurs talabalari pastga qisman bo'sinmadi. 4. Kundan-kun bo'yi bizniki ilgari. 5. Pan'u boshqa qalmashmaganlarini aniqlash uchun tezkor tadqiq ishlab chiqilgan. Undan ajrash ta'minlashga kirishildi. 6. Aziza shaxsan o'zidan ishonch do'st yo'qoldi. 7. Xonaga bemalol to'g'ri uzoq kirib uzoq boshlarga. 8. Keyin o'zini uzoqqa gaplashib olamiz. 9. Sohada qat-nashuvchi ko'pchiliklar ustunlikni o'tkazib edi. 10. U hozir shu yerda edi-kan. 11. Yo'lim, songa shoir bildim ne kuch. Oynasiga boqmoqdan oshi. Shoirlar nor o'z zotan bilan. Olam ani qizg'an tanam. (A Orip.)

1. Ravishni aniqlang.

2. Ravish qaysi ma'noviy guruhga mansubligini aytng.

3. Ravishning so'z tarkibini ko'rsating.

4. Ravishning yasalishiga ko'ra turini aniqlang.

5. Qo'shimcha qo'shilishiga ko'ra ziddiyatini aniqlang.

6. Ravishning sintaktik vazifa olgan holatini tushuntiring.

7. Tuzilishiga ko'ra turini aniqlang.

8. Ravish qatnashgan so'z birikmasini ajratib yozing.

9. Ravishning gapdagi sintaktik vazifasini ko'rsating.

10. Matnda qo'llangan ravishning ma'nodosh, uyadosh shakldoshini qatorini tuzing.

30- DARS
RAVISH YASALISHI

Ravish yasalishi haqida. Ravish ham qo'shimcha qo'shish va so'z qo'shish usuli bilan yasaladi.

Qo'shimcha qo'shish ravish yasalishining keng tarqalgan usuli. Bu usul bilan yasalgan ravishning asosi quyidagi

1. Ot: **yaxshilikcha, dom-daraksiz, do'stona, boixtiyor.**
2. Sifat: **qat'iyan,** mardlarcha, yaxshilab, tiriklay
3. Son **bittalab.**
4. Olmosh **butunlay, o'zicha, yalpisicha**
5. Ravish **ko'pincha, hozircha, ko'plab, keyincha.**
6. Fe'l. **erkalangansimon,** uyalganmano, to'xtovsiz.
7. Modal. **keragicha,** boricha.

Ravish yasovchi qo'shimcha. Ravish yasovchi qo'shimcha, uning xususiyati, yasalma va uning asosi quyidagi jadvalda berilgan:

Qo'shimcha	Xususiyati	Yasalma	Asos
-an:	umumiy	bepoyon, ajdodan, ozodan, Sirdan xayolan, nihon, fikran, nepton	ot
		qat'iyan	sifat
		ma'lum	modal
bar-:	umumiy	barvaqt	ot
be-:		bejoiz, beixtiyor, bevosita, bexatar, bemalol, bexosdan, bexavf	ot
-dek/-day:	murakkab	yashindek, o'qdek	ot
		avvalgiday, dongdek	sifat
		o'qdek	fe'l
-igal/-siga:		sutkasiga, mahsiga, qishinsiga	ot
		uzunasiga, rostasiga, ko'ndalangiga, bikiniga, chuqurligiga	sifat
		betaniga	ravish
		ishdagidek, yo'lakka	olmosh
-lab:		o'ylab, donolik, hazillab, hollalab, to'g'rilab	ot
		yaxshilab	sifat
		bittalab	son
		ko'plab	ravish
-lay/-layin:	umumiy	birkayin, yoshlayin	sifat
		butunlay	olmosh
-larcha:		qahramonlarcha, bolalarcha, do'stlarcha, otalarcha	ot
		vahshiylarcha, mardlarcha, yovvoyilarcha,	sifat

		kabalarcha	
-ilgicha:		kengaytirsha, xomilgicha, bo'lungicha	sifat
-namo:		nazilnamo;	ot
		bitiramo (gerdaymoq)	sifat
		uyalganmamo (yuzim cheiga surmoq)	sifatdosh shakl
-nWin:	tanuv yasalishga oid	yozen-qishin, qidin,	ot
		qdin-in-qi;	sifat
		ertan, kechin,	ravish
-ona:		do'stona	ot
		mardona, xalqona, odona, fidokorona, laatkorona	sifat
-sin:	yasama so'z sifatlovchi, keyin ravishga ko'chgan	dam-darakso, navbatsiz	ot
		o'rtasida	harakat nomi shakli
-simon:		hazilsimon	ot
		xalqsimon	sifat
		ertaklarqusimon	fe'lning sifatdosh shakli
-cha:		bmoqcha, qshkoptin, yosmicha, osonlicha o'yinchoq (-ni oltirilgan), o'zbekcha, vaqtincha (-in oltirilgan)	ot
		o'zgacha, boshqacha, yangicha, yashirincha	sifat
		sizcha, o'zicha	olmosh
		istaganicha	fe'lning sifatdosh shakli
		ko'pincha (-in oltirilgan), hozircha, kechcha,	ravish modal
		keragicha, borcha	
-chasiga:		qishloqchasiga, dehqonchasiga, soldatchasiga, yigitchasiga, mo'g'ulchasiga	ot
		ochiqchasiga, halollarcha	sifat
-chang.	unumsiz	mahsichang, ko'yakchang	ot
- ak	unumsiz	yodak	ot
		zorak	ot

So'z qo'shib ravish yasash. Bu yo'l bilan qo'shma, juft va takroriy ravish yasaladi

1. **Qo'shma**

1) u/bu/shu/o'sha ko'rsatish olmoshi + **yer/yoq/ora/o'rta** oti: **u yerga, bu yerda, shu yerdan, o'sha yoqdan, bu orada, shu o'rtada;**

2) shu/o'sha ko'rsatish olmoshi + **kun/zamon/vaqt/on/asno** oti: **shu kuni, o'sha zamon, shu zamon, shu zahoti, shu onda, shu asnoda.**

3) **har** belgilash olmoshi + **bosh/o'rin** kelishigidagi so'z: **har kuni, har yili, har yoqqa, har yerda, har taraf, har dam, har zamonda, har gal, har yoqdan, har lahza;**

4) bir son+**bosh/o'rin** kelishigidagi so'zlar: **biryo'la, bir kuni, bir dam, bir zumda, bir nafas, bir pas, bir on, bir onda, bir boshdan, bir zamon, bir tekis, bir oz, birmuncha, bir tafay, bir nav;**

5) **hamma** olmoshi+**yoq/vaqt/zamon/joy/yer: hamma yoq, hamma vaqt, hamma zamonda, hamma joy, hamma yer;**

6) **qay** olmoshi+ **vaqt/choq/zamon/payt/mahal: qay vaqt, qay choq, qay zamon, qay payt, qay mahal;**

7) **alla** olmoshi+ **mahal/nechuk/payt/zamonlar: allamahal, allanechuk, allapayt, allazamonlar.**

2. Juft

1. Har ikki qismi yakka ishlatiladi

1)qismi o'zaro sinonim: **asta-sekin, yana-tag'in, eson-omon**

2)qism o'zaro antonim: **nari-beri, ochin-to'qin, oldinma-keyin, ozmi-ko'pmi, erta-yu kech, kecha-kunduz, qishin-yozin/ yozin-qishin, tun-kun;**

3) qismlarning ma'nosi yaqin: **uzib-kesib, tirа-sura, unda-bunda;**

4) qismlarning biri yakka ishlatilmaydi: **dam-daraksiz, mo'l-ko'l, ora-sira, ro'y-rost, sal-pal, chala-chulpa, emin-erkin, huda-behuda, oz-moz;**

5) har ikki qismi yakka ishlatilmaydi: **azza-bazza, imi-jimida, onda-sonda, eran-qaran, o'lda-jo'lda.**

3.**Takroriy asta-asta, ahyon-ahyonda, gul-gul, qop-qop, chaqqon-chaqqon, uzundan-uzoq, birma-bir, birga-birga, galma-gal, daraja-jama-daraja, zinhor-bazinhor, yo'l-yo'lakay, sekin-sekin, to'g'ridan-to'g'ri, tez-tez, es-es, o'qtin-o'qtin, qayta-qayta.**

Eslatma

*Kelishik qo'shimchasining so'z bilan yaxlitlanishi asosida ham ravish vujudga keladi. **birga, birdan, o'z-o'zidan.** Bunday ravish ma'noli qismga ajratilmaydi.*

Mustahkamlash uchun savollar

1.Qo'shimcha qo'shib ravish yasash haqida gapiring va misol keltiring. 2 Yasalma haqida gapiring va misol keltiring 3.Asos so'z haqida gapiring va misol keltiring 4.Qo'shimchaning xususiyati haqida gapiring va misol keltiring. 5 So'z qo'shib ravish yasash haqida gapiring va misol keltiring. 6. Qo'shma ravish va uning turi haqida gapiring va misol keltiring 7 Juft ravish va uning turi haqida gapiring va misol keltiring 8.Takroriy ravish va uning turi haqida gapiring va misol keltiring.

Topshiriq

kishanla, dodla. sizla. hoziria, salomlash, alsuslan. yaltira. o'yna. qayra, qoruy, oqar. gumonsira. yo'liq. kechak lloqni, erta-indin. alqor qilmoq, ado bo'lmoq. po'lkol ayyuhannos solmoq javob bermoq. xalal bermoq, ejil-tapil. qiron solmoq tartibga keltirmoq. bir oz, birmuncha, ora-chora, oh urmoq, bir tekis tush ko'rmoq, qo'nim topmoq, farrohi. suyunchi, ninachi, ubunachi, to'polonchi. eskicha. tafchi. tajovuzkor jonqolkash, sira sira. duoxon. mahsido'z. mantiqsiz, arizaboz, oralik kekirik, yonilg'i, qo'lqop. kechirim, dimlama, bo'g'in. savag'ich, sevinch g'urrak, g'arg'ara, chuvvos, sharros. kechuv. loshko'mir, karnayguI. qoraqon, bir zamon, bu tokay, bir nav, mingoyoq, go'ziqorin. sochpopuk, piyozdog' O'rta Chirchiq, kaltakesak, Markaziy Osiyo, Sho'rvoI, yigitlarasiga ko'ksulton qoradori Oltiariq. uchburchak mingoyoq, iskabtopar, ishlab chiqarish, tikkesigir. savacho'p. kamtarona. qavdali. yeyishli. alomaonr nasiaor. sergo shi, beq ubor. yashovchan, urinchoq, qizg'anchiq, yeyarmon yig'loqi so'g'in ko'chma, arzirli. jirkanchi. imlovy. ichki, dahanaki, badiazm. izchil. terskay gapdon. qarorm, sog'lom, qisqa. devqomat kofergaoo. sko'rposhona. sko'rinmoq. xudobezor, kamgap. kamqori cho'rtkesar, yebin ymas o'zboshimona. tilyog'lama, o'zbilarmon. qirqyamoq. baravariga.

1 So'zni turkumga ajrating

2 Ravish turkumiga mansub so'zni tub va yasamaga ajrating.

3 Ajratilgan so'zni tuzilishiga ko'ra guruhlang

4 Yasama ravishni ma'noli qismga ajrating

5 Ajratilgan qo'shimcha asosida yangi so'z yasang.

6 Yasama ravish o'zagining qaysi turkumga mansubligini aniqlang

7. Qo'shimcha qo'shilganda yoz bo'gin tovush o'zgarishini aniqlang.

9 Qo'shma ravishning tarkibini aniqlang va shunday tarkibli qo'shma ravish yasang.

31-DARS
OLMOSH

Ma'noviy xususiyati. Olmosh mustaqil so'z turkumi sirasida oxirgi o'rinda turadi. Chunki u **boshqa barcha mustaqil so'z, shuningdek, so'z birikmasi va gap o'rnida qo'llanadi, ularga ishora qiladi yoki so'rog'ini bildiradi.** Misol:

– ot o'rnida: **Ukam** (ot) **keldi** – **U** (olmosh) **keldi.**

– sifat o'rnida: **qiziq** (sifat) **kitob** – **shunday** (olmosh) **kitob, qanday** (olmosh) **kitob.**

– son o'rnida: **o'nta** (son) **qalam** – **shuncha** (olmosh) **qalam, qancha** (olmosh) **qalam.**

– fe'l o'rnida: **kitobni o'qimoq** (fe'l) – **kitobni nima qilmoq** (olmosh).

– ravish o'rnida: **bugun** (ravish) **keldi** – **qachon** (olmosh) **keldi.**

– taqlid o'rnida: **taq-tuq** (taqlid) **ovoz** – **qanday** (olmosh) **ovoz, shunday** (olmosh) **ovoz.**

– so'z birikmasi o'rnida: **Insho yozmoq** (so'z birikmasi) – **nima qilmoq** (olmosh).

– gap o'rnida: **Istagim shuki** (olmosh) **dunyoda tinchlik bo'lsin** (gap).

Olmosh nutqni ixcham ifoda qilishning muhim vositasi. Hamma **kursin. Bularni yig'ishtiring.**

Olmosh mustaqil turkum bo'lsa-da, o'ziga xos so'rog' yo'q. U qaysi turkumga xos so'zni almashtirsa, shu turkum so'rog'ini oladi. Shuningdek, olmoshning o'z so'roq so'zi (so'roq olmoshlaridan iborat).

Morfologik xususiyati. Olmosh qaysi turkumga xos so'zni almashtirsa, shu turkumning morfologik xususiyatiga ega bo'ladi.

Otning morfologik xususiyatiga egalik:
- birlik: **men, sen, kim,**
- ko'plik: **kimlar, ular,**
- kelishik: **kimni, bizga, allakimdan,**
- egalik: **haramamiz, o'zimiz, kimingiz;**

Eslatma

*Olmosh otning ko'rsatish shaklini olmaydi. Ayrim holda –gina orttirish shaklini oladi: **Shuginamni o'ylayman.***

Sifatning morfologik xususiyatiga egalik:
- daraja: **shunaqaroq**

Sonning morfologik xususiyatiga egalik:
- tartib: **nechanchi;**

- doira: **nechta**.
- chama: **nechtalar**;
- taqsim. **nechtadan**;
- jamlovchi. **nechov**

Fe'lning morfologik xususiyatiga egalik:
- nisbat: **nima qilishdi, shunday qildirdi**;
- ravishdosh: **nima qilgach, shunday qilib**;
- sifatdosh: **nima qilgan, shunday qilajak**;

Eslatma

1. Olmosh o'zi almashtiruvchi so'zning barcha morfologik xususiyatiga ega bo'la olmaydi

2. Kishilik olmoshi egalik qo'shimchasini qabul qilmaydi

Sintaktik xususiyati. Olmosh o'zi almashtiradigan so'z turkumining sintaktik xususiyatiga ham ega bo'ladi:
- ega: **Men kecha Stokgolmdan keldim**
- ot-kesim. **Firma rahbari – o'zim.**
- sifatlovchi-aniqlovchi: **Qanaqa** surat chizding?
- qaratqich-aniqlovchi: **Sening familiyang nima?**
- to'ldiruvchi: **Kimga kimni maqtading?**
- hol:**Majlis qachon boshlandi?**
- kirish so'z. **Menimcha, ishni bugun tugatish kerak**

Grammatik ma'no turi. Olmosh grammatik jihatdan 7 turga bo'linadi:

1. Kishilik olmoshi. Kishilik olmoshi shaxsga ishora qiladi. **men, sen, u, biz, siz, ular**. Shuning uchun ular ot o'rnida qo'llanuvchi olmosh deyiladi.

Eslatma

1. ***Men** olmoshining **kamina, banda, qulingiz** kabi tarixiy o'rni hozirda bor.*

2. ***Men** olmoshidan mavhum ot **(menlik)**, takrorlanishidan sifat **(manman)** va undan mavhum ot **(manmanlik)** yasaladi.*

*3.Kishilik olmoshi shakl yasovchi olib kirish so'z vazifasida keladi **menimcha, seningcha**.*

Xususiyati:

1) Hurmat ma'nosida **sen** o'rnida **siz** ba'zan maqtanish yoki kamtarlik ma'nosida **men** o'rnida **biz** qo'llanadi: Buni biz yasadik. Bizga navbat qachon kelar ekan?

2) men olmoshi ko'plikda qo'llanmaydi. **Sen** olmoshiga esa **-lar** qo'shilib, hurmatsizlik ma'nosi anglashiladi: **Senlar ham keldinglarmi?**

3) ko'plik ma'nosini ta'kidlash uchun **biz** va **siz** olmoshi **bizlar** va **sizlar** shaklida qo'llaniladi.

4) kishilik olmoshi kelishikda kela oladi. **Men** va **sen** olmoshiga **-ning, -ni, -niki** qo'shimchasi qo'shilsa, -n tovushi tushib qoladi. U olmoshiga **-ga, -da, -dan** qo'shimchasi qo'shilsa, -n tovushi orttiriladi: **mening, meni, meniki, sening, seni, seniki, unga, unda, undan.**

2. O'zlik olmoshi. Bu olmosh bir o'z so'zidan iborat bo'lib, shaxsni ta'kidlash yoki yolg'izligini ifodalash uchun qo'llanadi. Qaratuvchi kelishigidagi so'zdan keyin kelsa, ta'kidni (**mening o'zim, uning o'zi, Karimning o'zi, kitobning o'zi**), ega kelsa uch shaxsdan birigа shorani (**o'zi** (u), **o'zim** (men), **o'zing** (sen)) bildiradi.

Xususiyati:

1) egalik shaklini olib uch shaxsni ham anglatadi: **o'zim, o'zing, o'zi, o'zimiz, o'zingiz, o'zlari.** O'zlik olmoshi ot kabi turlanadi;

2) o'rin turli shakllari egalik qo'shimchalaridan keyin qabul qiladi: **o'zimning, o'zingni, o'zga, o'zimizda, o'zingizda, o'zlariday, o'zimniki, o'zigacha.**

Eslatma

O'zlik olmoshidan mavhum ot yasaladi: o'zlik.

3. Ko'rsatish olmoshi quyidagilar: **u, bu, shu, o'sha, ana, mana, ana shu, mana bu, anovi, unday, unaqa, uncha, bunday, bunaqa, buncha, o'shanday, o'shanaqa, o'shancha;**

Xususiyati:

1) u ko'rsatish olmoshi **u** kishilik olmoshi bilan shakldosh. Uning kim so'roqiga javob bo'lgani kishilik, **qaysi** so'roqiga javob bo'lgani ko'rsatish olmoshini hisoblanadi.

2) **bu, shu, u, o'sha** olmoshiga **-ga, -da, -dan, -cha, -day** qo'shimchasi qo'shilsa, billa -n tovushi orttiriladi: **unda, unga, undan, shunday, o'shanday, shuncha.**

4. So'roq olmoshi. Bu tur olmosh har bir mustaqil so'z turkumiga daxldor: **kim, nima, qayer, qanday, qanaqa, qaysi, qancha, nechta, necha, nechanchi, qachon, qayerda, qayerga, qayerdan, qayoqqa, qayoqda, qayoqdan, nega, nechun.**

Xususiyati:

1) **kim, nima, qayer** olmoshi ega daxldor bo'lgani uchun ko'plik, egalik va kelish **-n** qo'shimchasini qabul qiladi: **kimlar, kimlarim, kimingiz, kimga, kimlardan.**

2) **qanday, qanaqa, qaysi** olmoshi belgini aniqlash uchun ishlatiladi, gapda aniqlovchi, hol bo'lib keladi va ba'zan qiyosiy daraja qo'shimchasini oladi **qandayroq, qanaqaroq**;

3) **necha, nechta, nechanchi, qancha** olmoshi son va ravish so'rog'i bo'lganligi uchun bu turkumni aniqlashda qo'llanadi;

4) **qachon, qayerga** (-da, -dan), **qayoqqa** (-du, -dan), **qani, nega, nechun** so'roq olmoshi ish harakatining bajarilish tarzi, payti, o'rni, sababi va maqsad ni bildirish uchun ishlatiladi, gapda hol yoki kesim bo'lib kelad i.

5. Belgilash-jamlash olmoshi quyidag i: **hamma, barcha, bari, jami, yalpi, butun, har kim, har nima, har bir, har qaysi, har qachon, har qayerda**;

Eslatma
Har doim, har kuni, har yili so'zlari ravish turkumiga mansub.

Xususiyati

1) **hamma, barcha, jami, jamiyki, yalpi, butun** – jamlash olmosh i;

2) jamlash olmoshi aslida sifat va fe'ldagi olmosh bo'lib, ko'plik, egalik va kelishik qo'shimchasini ham olishi mumkin: **hammalari, hammamiz, hammalaringizga**;

3) **"har+so'roq olmoshi"** ko'rinishidagi belgilash olmoshi ot, sifat, son va ravish vazifasida qo'llanuvchiga bo'linadi. Ot vazifasida dagalarning grammatik qo'shimchasini oladi. **har kimlarga, har nimadan, har qayerni.**

Bo'lishsizlik olmoshi. Bu olmosh turi hech so'zini so'roq olmoshlariga qo'shish asosida hosil qilinadi va inkor ma'nosini bildiradi: **hech bir, hech narsa, hech kim, hech nima, hech qanday, hech qanaqa, hech qaysi, hech qancha, hech qachon, hech qayerda.**

Xususiyati:

1) **hech** so'zining o'zi ham olmosh,

2) bo'lishsizlik olmoshi qatnashgan gap kesimi bo'lishsizlik shaklida bo'ladi: **hech kim kelmadi, hech qayerga borma**

Gumon olmoshi noaniqlik, gumon ma'nosini bildiradi. U 4 shaklga ega:

1) so'roq olmoshi+**-dir**: **kimdir, nimadir, qandaydir, qanaqadir, qaysidir, qachondir, qayerdadir**;

2) **alla+so'roq olmoshi**: **allakim, allanima, allaqayer, allaqancha**;

3) **bir+narsa/kishi/nima/qancha/necha** so'zi: **bir narsa, bir kishi, bir qancha, bir necha**;

4) boshqa turkumdan ko'chirish: **birov, biron(ta), biror(ta), falon(chi), filon(chi)**;

Tuzilish turi. Olmosh tuzilishiga ko'ra sodda, qo'shma, juft, takrorly bo'lad

1 Sodda: **men, sen, u, qanday;**
2 Orttirma: **har kim, mana bu, shunday qilmoq;**
3 Juft: **u-bu, unga-bunga;**
4 Takroriy: **kim-kim, nima-nima, shunday-shunday.**

Eslatma

Nima, bir narsa, nimadir, hech narsa, har nima, hech nima *olmoshi belgisiz to'ldiruvchi kelishigida qo'llanishi mumkin.*

Olmoshdan boshqa turkumga mansub so'z yasalishi. Olmosh - yasalmaydigan turkum. Biroq undan boshqa turkum so'zi yasaladi.

- ot: **manmanlik, butunlik, o'zlik;**
- sifat: **hammabop, bizbop.**
- fe'l: **mensimoq, sensiramoq, senlamoq, sizsiramoq, sizlamoq, o'zlashmoq.**
- ravish: **har doim, har kuni, har yili, o'zicha, o'z-o'zidan.**

Olmosh turkumiga xos quyidagi uslubiy xususiyatni ajratish mumkin.

1) **u, bu, shu** olmoshi o'rnida bir so'zi (yoki **bir xil** so'z) qo'llanadi: 1.**Bir (shunday)** chamanki, atrofida bulbul giryon. 2.**Bir** xil **(shunday) odam** tushunmaydi;

2) **men** olmoshi o'rnida **kamina, siz** o'rnida **o'zlari** so'zi qo'llanadi: 1 Bu ishda **kaminaning zarracha** tajribasi yo'q. 2 **Siz** va'da **bergan edingiz** – **O'zlari** va'da **bergan edilar;**

3) ilmiy ish, rasmiy hujjat, yig'ilishda **men** olmoshi o'rnida **biz** ishlatiladi: **Bizning (mening) bu ilmiy ishimizda ko'rsatish olmoshining xususiyati haqida so'z yuritiladi;**

4) hurmatni ifodalash uchun **sen** olmoshi o'rnida **siz** olmoshi qo'llanadi. **Siz bugun kelasizmi?** Aksincha, hurmatsizlikni ifodalash uchun esa **sen** olmoshiga ko'plik qo'shimchasi qo'shiladi. **Senlar buni tushunmaysanlar;**

5) ko'rsatish olmoshi ta'kidlash, ajratish ma'nosini beradi: **Kitob – bu dono maslahatchi.**

Mustahkamlash uchun savollar

1.Olmoshning morfologik xususiyatini bayon qiling. 2. Olmoshning qanday morfologik xususiyati bor? 3. Olmoshlarning sintaktik xususiyati haqida gapiring va misol keltiring. 4. Ot o'rnida qo'llanuvchi olmosh qaysilar? Sifat o'rnida qo'llanuvchi olmosh haqida gapiring va misol keltiring. 5.Son o'rnida qo'llanuvchi olmosh haqida gapiring va misol keltiring. 6.Fe'l o'rnida qo'llanuvchi olmosh haqida gapiring va misol keltiring. 7.Ravish o'rnida qo'llanuvchi olmosh haqida gapiring va misol keltiring. 8.Taqlid o'rnida

qo'llanuvchi olmosh qaysilar? 9. So'z birikmasi o'rnida qo'llanuvchi olmosh haqida gapiring va misol keltiring. 10.Gap o'rnida qo'llanuvchi olmosh haqida gapiring va misol keltiring. 11 Olmoshdan voseqinan so'z haqida gapiring va misol keltiring.

Topshiriq

1. Har bir narsa shu bo'lar takror. Har bahor ham shunday o'tadi. Qancha insonsan hem u bor. Yelar meni oldab ketgan. (H.Olim.) 2. Insonga hamma narsa, yuz ham kiyim ham, oab ham, fikr ham qichqa bo'lishi o. (A.Oliex.) 3. Xalq har kim o'z qiyofasin ko rsatadigan ko'zgudir. (I.Sycle.) 4. Oyisining chehrasida faqat tushish emas oldaqanday qo rqov ham bor edi. (O.Yoq.) 5. Notanish gapirish bor doim muhim bo'lavermaydi qanday gapirish esa bor doim muhim. (Cog.) 6. Men sening ko'changdan o'tmasman ziohor. (A.Orip.) 7. Siz, o'sharmi? (A.Qod.) 8. Men senga shunchalar ixlos qo'ygurman. 9. Buyuklar buyuk ishlarga uning qanday ulug'ligini bir qigin uchun emasdir esa uning qanday oyildigini anglay olmagan uchun ham. (L.K Vovenarg) 10. Meni nazarga ilmaydi birov. Sizga shu gapimni aytaylik ikki. (A.Orip.) 11. Hamma bir narsaga ishonsa, Kanda mazha yigin, kimda-kimga. (A.Oq.) 12. Dunyoni o'zgartirdi insonlar, o'zlari. Men senmi o'zgartirgan o'tmasman zuhur. Bu yorug' olamda o'z oylar so'zim. Va o'zi n sig'mas mahsharim bor. (A.Orip.) 13. Bu nima ko rguliк? 14. Unda nima ishing bor? 15. Bu gapni unga qanday aytaman?

1. Olmoshlarni aniqlang.

2. Olmosh qaysi ma nioviy guruhga mansubligini aniqlang

3. Olmoshning so z tarkibini ko'rsating

4. Go'shimcha qo'shilishidagi tovush o rgamshni aniqlang.

5. Lug avy shaklini aniqlang

6. Olmoshning ruxsatsiz shakl olgan noglos tushunchang

7. Tuzilishiga ko'ra t rini aniqlang

8. Olmosh qatnashgi n so'z birikmasini qrotib yozing

9. Olmoshning gapdagi sintaktik vazifasini ko rsating

10. Matnda qo'llangan olmoshning mo'rodosin, uyadosh, shakldoshlari qatorini tuzing

32- DARS
YORDAMCHI SO'Z
KO'MAKCHI

Xususiyati. Ot, olmosh, sifatdosh va harakat nomidan keyin kelib, uni hokim so'zga bog'lash uchun xizmat qiluvchi yordamchi so'z – ko'makchi.

Ko'makchi o'zidan oldingi mustaqil so'zga vosita, maqsad, sabab, vaqt, makon kabi grammatik ma'no va munosabatlarni berish uchun qo'llanadi va u bilan birga gap bo'lagi vazifasini bajaradi.

1) vosita: **Ismat bobo hassasi bilan** (to'ldiruvchi) **eshikni ochdi.**
2) sabab: **O'qiganligi uchun** (sabab holi) **javob berdi.**
3) maqsad: **O'qish uchun** (maqsad holi) **keldi.**
4) payt: **Kelgandan so'ng** (payt holi) **gaplashamiz.**
5) makon: **Tom boshida** (o'rin holi) **tog'ora.**

> ***Eslatma***
> *Ko'makchili so'z to'ldiruvchi va hol, ayrim holda kesim bo'lib keladi.*

Tabiatiga ko'ra turi. Hozirgi o'zbek tilida ko'makchilarning ikki turi ajratiladi:

1) sof ko'makchi: **bilan, uchun, sari, sayin, kabi, singari, yanglig', qadar, dovur, to, dek, oid**. Bular mustaqil lug'aviy ma'noni butunlay yo'qotgan, faqat grammatik ma'no ifodalaydi.

2) ko'makchi vazifasidagi so'z: **tomon, qarab, qaramay, qaraganda, qaramasdan, boshqa, bo'lak, tashqari, sababli, tufayli, so'ng, oldin, keyin, beri, ko'ra, bo'yicha, uzra, chog'i, osha, bo'ylab, ichra, bo'yi, chamasi, haqida, to'g'risida, holda, yo'sinda, qarshi, yarasha, asosan, binoan, muvofiq, qarata, o'zga, buyon, burun, ilgari, boshlab, badaliga, davomida, vajdan, evaziga, borasida, bobida, misoli, tortib; ko'makchi otlar: ost, ust, tepa, old, orqa, yon, ich, ora, bosh, o'rta (-i/-si egalik va -ga/-da/-dan kelishik qo'shimchasi bilan).**

Ko'makchi vazifasidagi so'z aslida mustaqil turkumga mansub lug'aviy ma'noli so'z, lekin ko'makchi vazifasini bajarayotganda faqat grammatik ma'no ifodalaydi.

Asosiga ko'ra turi. Ko'makchi vazifasida qo'llanuvchi so'z quyidagi turkumdan ko'chib o'tgan:

1) otdan: **tomon, haqida, chamasi, misoli, holda, yo'sinda, bo'yi; osti, tagi, usti, oldi, orqasi, yoni, bo'yi, ichi, orasi, o'rtasi + -ga/-da/-dan;**

2) sifatdan: **boshqa, bo'lak, o'zga, tashqari, sababli, chog'li, to'g'risida, qarshi, muvofiq;**

3) ravishdan so'ng, **oldin, burun, ilgari, keyin, beri**, narl. **bo'yicha, uzra, ichra, asosan, binoan**;

4) fe'lning sifatdosh shaklidan: **qaraganda, qaramasdan**;

5) fe'lning ravishdosh shaklidan: **qarab, qaramay**, ko'ra, **osha, bo'ylab**, yarasha, qarata, **boshlab, tortib**.

4. **Qo'llanish turi.** Ko'makchi biror kelishik bilan birga qo'llanadi:

1) bosh kelish kidagi so'z va ba'zan qaratqich kelishigidagi olmosh bilan: **bilan (qalam bilan, sening bilan, sening-la), uchun, kabi, singari**, yanglig', sayin, sari, **sababli**, orqali, **tufayli, chog'li**, osha, **bo'ylab, uzra, ichra, bo'yi**, chamasi, **haqda/to'g'rida, haqida/to'g'risida, holda/ yo'sinda**;

2) qaratqich kelishigidagi so'z bilan: **ost, tag, ust, ust, old, orqa, yon, qarshi, bo'yi, ich, o'rta, bosh**;

3) jo'nalish kelishigidagi so'z bilan: **tomon, qadar**, ko'ra, **qarshi, qarab, qaraganda, qaramasdan/qaramay, yarasha, doir, asosan, binoan, muvofiq, qarata**;

4) chiqish kelishigidagi so'z bilan: **so'ng, keyin, boshqa, bo'lak, tashqari, o'zga, beri**, buyon, **nari/nariga, burun, ilgari, oldin, avval, boshlab**, tortib.

BOG'LOVCHI

Xususiyati. Bog'lovchi – qo'shma gap tarkibidagi sodda gap va uyushgan bo'lak o'rtasidagi munosabatni ifodalash uchun qo'llanadigan yordamchi so'z.

Qo'llanish turi. Bog'lovchi qo'llanishiga ko'ra 2 turga bo'linadi:

1) yakka qo'llanadigan bog'lovchi: **a, va, hamda, ammo, lekin, biroq, balki, holbuki**, vaholanki, **garchi/agarda/agarda, basharti, chunki, garchi/ garchand, go'yo/go'yoki, -ki/-kim**, esa, ya'ni, **shuning uchun**;

2) takroriy qo'llanadigan bog'lovchi: **dam-dam, ba'zan-ba'zan, ham-ham, bir-bir, xoh-xoh, goh-goh**.

Eslatma

*1) Takroriy bog'lovchi o'zi bog'lagan qismlar oldida keladi: **Goh u, goh men keldim. Ham o'zi bog'lagan qismdan oldin kelsa, bog'lovchi (ham o'qidim, ham yozdim) keyin kelsa yuklama (o'qidim ham, yozdim ham) sanaladi.***

2) Takroriy bog'lovchining bir qismi faqat takror kelganda bog'lovchi hisoblanmaydi: Yakka qo'llanganda

ham – yuklama. Men ham boraman
ba'zan – ravish. Ba'zan borib turaman
bir – son. Bir ko'rdim men uni
dam – ot: Dam oldim.
3) yo, yoki, yoxud, yoinki bog'lovchisi yakka holda ham takroriy holda ham qo'llanadi.

Vazifa turi. Vazifasiga ko'ra bog'lovchi ikkiga bo'linadi:
1) teng bog'lovchi;
2) ergashtiruvchi bog'lovchi.
Teng bog'lovchi
1) gaplarning uyushiq bo'lagini bog'laydi. Kecha sokin va iliq edi;
2) qo'shma gap tarkibidagi teng huquqli sodda gapni bog'laydi: Quyosh chiqdi, lekin havo isimadi.
Teng bog'lovchining ma'no turi:
1) biriktiruvi: va, hamda, bilan (ko'makchi), ham, -u//-yu, -da (yuklama);
2) zidlov: ammo, lekin, biroq, esa, balki, holbuki, vaholanki, a;
3) ayiruv: yo//yoki//yoxud//yo-nki, yo-yo, goh-goh, dam-dam, ba'zan-ba'zan, bir-bir, xoh-xoh
Ergashtiruvchi bog'lovchi, asosan, qo'shma gap tarkibidagi ergash gapni bosh gapga bog'laydi.
Ergashtiruvchi bog'lovchining ma'no turi:
1) aniqlov: ya'ni, -kki//-kim;
2) sabab: chunki, shuning uchun;
3) shart: agar//garda//agarda, basharti, mabodo, garchi//rapchand, modomiki;
4) chog'ishtiruv: go'yo//go'yoki.

Eslatma
bilan, bordi-yu, deb, negaki, toki – bog'lovchi vazifasidagi so'z

YUKLAMA

Xususiyati. Yuklama – ayrim so'z yoki gapga qo'shimcha ma'no yuklash uchun qo'llaniladigan yordamchi so'z.
Tuzilish turi:
1) qo'shimcha-yuklama: -a//-ya, -mi, -chi, -oq//-yoq, -ki//-kim, -gina//-kina//-qina, -dir, -u//-yu, -ku, -da;

2) so'z-yuklama: **faqat, axir, hatto/hattoki, na–na, xuddi, naq, nahot/ /nahotki, ham, xolos.**

Ma'no turi:

1) so'roq va taajjub: **-mi, -chi, -a//-ya;**

2) kuchaytiruv: **axir, hatto//hattoki, -oq//-yoq, nahot//nahotki; tim, qoq, liq, lim, g'irt, g'orq, shilta, jiqqa;**

3) ta'kid: **-ku, -da, -ki//-kim, -u//-yu, ham;**

4) ayiruv va chegaralov: **-gina//-kina//-qina, faqat, xolos; yolg'iz** (so'zi), **bir** (soni).

5) qiyoslov: **xuddi, naq;**

6) gumon: **-dir;**

7) inkor: **na**

Yozilish turi:

1) so'zga qo'shib yoziladi: **-mi, -gina//-kina//-qina, -oq//-yoq, -dir, -ki// -kim;**

2) chiziqcha bilan yoziladi: **-chi, -a//-ya, -ku, -da, -u//-yu;**

3) so'z-yuklama ajratib yoziladi: **xuddi menday, faqat sen.**

Mustahkamlash uchun savollar

1.Ko'makchiga ta'rif bering. 2. Ko'makchining tabiatiga ko'ra qanday turi bor? Misol keltiring. 3.Sof ko'makchi nima? Misol keltiring. 4. Ko'makchi vazifasidagi so'z nima? Misol keltiring. 5. Ko'makchi vazifasidagi so'zning asosiga ko'ra qanday turi bor? 6. Otdan ko'chgan ko'makchi haqida gapiring va misol keltiring. 6 Sifatdan ko'chgan ko'makchi haqida gapiring va misol keltiring. 7.Ravishdan ko'chgan ko'makchi haqida gapiring va misol keltiring. 8. Fe'lning sifatdosh shaklidan ko'chgan ko'makchi haqida gapiring va misol keltiring. 9. Fe'lning ravishdosh shaklidan ko'chgan ko'makchi haqida gapiring va misol keltiring. 10. Ko'makchining qo'llanish turi haqida gapiring va misol keltiring. 11 Bosh kelishiklarga so'z va ot zarur qaratqich kelishigidagi otni ish bilan qo'llanadigan ko'makchi qaysilar? Misol keltiring. 11. Qaratqich kelishigidagi so'z bilan qo'llanadigan ko'makchi qaysilar? 14 misol keltiring. 12. Jo'nalish kelishigidagi so'z bilan qo'llanadigan ko'makchi qaysilar? Misol keltiring. 13. O'rinpayt kelishigidagi so'z bilan qo'llanadigan ko'makchi qaysilar? Misol keltiring. 14 Bog'lovchiga ta'rif bering. 15. Bog'lovchining qo'llanish o'rni turi haqida gapiring. 15.Yakka qo'llanadigan bog'lovchi haqida gapiring va misol keltiring. 17. Takroriy qo'llanadigan bog'lovchi haqida gapiring va misol keltiring. 18. Bog'lovchining vazifa turi haqida gapiring va misol keltiring. 19.Teng bog'lovchi haqida gapiring va misol keltiring. 20.Ergashtiruvchi bog'lovchi qaysilar?Misol keltiring. 21. Teng bog'lovchining ma'no turi qaysilar? Misol keltiring. 22 Birikturuv bog'lovchisi qaysilar? Misol keltiring.

23.Zidlov bog'lovchisi qaysilar? Misol keltiring. 24.Ayiruv bog'lovchisi haqida gapiring va misol keltiring. 25.Fuqarolik bog'lovchisining ma'no turi haqida gapiring va misol keltiring. 26. Aniqlov bog'lovchisi haqida gapiring va misol keltiring. 27. Sabab bog'lovchisi haqida gapiring va misol keltiring. 28. Shart bog'lovchisi haqida gapiring va misol keltiring. 29.Chog'ishtiruv bog'lovchisi haqida gapiring va misol keltiring. 30. Yuklama nima? 31. Yuklamaning fazifasi turi haqida gapiring va misol keltiring. 32.So'z-shirkatli yuklama haqida gapiring va misol keltiring. 33.So'z-yuklama haqida gapiring va misol keltiring. 34. Yuklamaning ma'no turi haqida gapiring va misol keltiring. 35. So'roq va inkor yuklamasi haqida gapiring va misol keltiring. 36. Kuchaytiruv yuklamasi haqida gapiring va misol keltiring. 37.Ta'kid yuklamasi qanday ma'noga ega? Misol keltiring. 38.Ayiruv va chegaralov yuklamasi qanday ma'noga ega? Misol keltiring. 39.Aniqlov yuklamasi qanday ma'noni ifoda? Misol keltiring. 40.Gumon yuklamasi qanday ma'noga ega? Misol keltiring. 41. Inkor yuklamasi haqida gapiring va misol keltiring. 42.Yuklamaning yozilish turi haqida gapiring va misol keltiring. 43. So'zga qo'shib yoziladigan yuklama haqida gapiring va misol keltiring. 44. Defiziqcha bilan yoziladigan yuklama haqida gapiring va misol keltiring. 45. Ayrim yozmadigan yuklama haqida gapiring va misol keltiring.

Topshiriq

1. Toshpo'latov uch kundan beri shu yerda. Kecha kun bo'yi bo'ralab yonda-yondagilardan bilolmagach bo'lsa kerak, (R.Fay.) 2. Jurnal shu tadbirlarga maqsad sari bevosita xalq safida ekanligini ko'rsatdi. 3. Xalq kuchli yer bilan chegaralangan darajadagina ijodkor bo'la oladi. (Oyb.) 4. Ularning ko'rkam, go'zal qo'shiq qo'shib yoki ijro etib, o'ynab kelgan raqslarining yaralishiga Tohir bilan Zuhra kabi sof muhabbat timsollari sabab bo'ldi. (Oyb.) 5. Erta bilan o'rab chaqmoqdan burun bo'yalib bo'lishda shu arava poyga bo'ldi. (S.Ahm.) 6. U akasi haqida to'lib-toshib gapirardi. 7. Xatni pochta orqali yuborganini esa ham qildi. 8. Sen uchun olaigan qiziqarli ko'p. 9. Ilmning ofati – endan eniqmaydigik va unga tag'bat bo'lmagan kishilarga o'rgatib, uni zoe ketkazmoqdir. 10. Otam Toshkentga ozi bo'lsa otamning rozi bo'lishiga va uning g'azabi ham otamning g'azabiga bog'liqdir. 11. Hali haydovchilardan, hal maktabdoshlardan bir-ikkitasi bo zamonga borib yoki u yoki bu ahvol qurishda qatnab kelmish. Shularni uchun umbardan ovul olib kelayotganday. (Sh.Ra.) 12. Fuqarolik nomini olishga yo majburlashga umuman bu ishlarda ham fakultativ yondoshuv. 13. Ko'kdagi Yetti qaroqchi, ana yulduz, qay oy bo'lishi kerak. (Oyb.) 14. Azizaning bu gapga ko'pgacha o'zi bir hafta oldin uyiga chiqayotganida «Olim ham bir dam olib kelaman» degan edi. Dam olish qayoqda qoysin, vaqtida ovqat yeyishga ham qo'l tegmaydi-ku. Bu

yerga ikki yuzdan ortiq bola dam olish-ya. Bir-ch, cho'milish shomolla sa toshqes mayin qiyo teranan deb oyoq-qo'lin imdalohh kelad-en. Bularning hammasi shifokorga topshirish. Ayniqsa, futbol degan narsasi bolalarning o'ziqini aytmaysizmi? Bolalar-ku mayli-ya, kunige sovat-sovat narsa tashib, uzoq-yaqindan keladigan ota-onalarning xarxashasini aytmaysizmi? Mana oshik oldida velosiped ruliga sovat ilgan o'rta yoshlar bir kela navbat turibdi.

1. Yordamchi so'zni aniqlang va guruhlang.

2. Gap tarkibidagi sof, yoki qo'shmachasamga ko'ra bo'linishi qiyinlig Ko'makchining qaysi kelishikdagi so'zi boshqada kelayotganiga diqqat qiling.

3. Ajratilgan ko'makchini kelishik shakli yoki boshqa ma'nodosh ko'makchi bilan almashtirib ko'ching

4. Bog'lovchilarning ma'no va vazifasini aniqlang. Yakka yoki takror qo'llanishiga e'tibor qiling.

5. Bog'lovchi vazifasida qo'llanuvchi ko makchi va yuklamani bog'lovchi bilan almashtirib ko chiring. Tinish belgisi qo'llanishiga diqqat qiling

6. Gap tarkibida qo'llangan teng va ergashtiruvchi bog'lo vchilarga qaysi so'zlarga bog'lanib kelganligini aniqlang

7. Yuklamaning tuzilishi va ma'no xususiyatiga ko'ra turini aniqlang Yuklama qo'shilishi bilan gapga qo shimcha ravishda yuklamayergan ma'noni aniqlang. Yuklamaning ajratib ushda ishlang

33- DARS
ALOHIDA SO'Z TURKUMLARI
MODAL

Ma'noviy xususiyati. So'zlovchining bildirgan fikriga qo shimcha munosabatini ifodalovchi so z guruhi modal deyiladi . Bu so'z sirasi tahlil ga ko ra 2 ga bo'linadi

1) sof modal so'z: **albatta, chamasi, aftidan, tabiiy, mazmuni, ehtimol;**

2) modal ma'noli so'z: **bor, yo'q, kerak, darkor, zarur, lozim, mumkin, iborat.**

Modal boshqa turkumdan o sib chiqib, alohida bir guruhni hosil qilgan.

1) oldan: **ehtimol, chog'i, chamasi, mayli, go'rgaligo'r, mazmuni, haqiqatdan, haqiqatda, darhaqiqat, darvoqe, fihaqiqat, aslida, aftidan, xayriyat, vassalom:**

2) sifatdan: **shubhasiz, shekilli, rostirosti, to'g'ri/to'g'risi/ to'g'rirog'i, so'zsiz, tabiiy/tabiiyki, ma'lumki, muhaqqaq, ochig'i;**

3) ravishdan: albatta, rostdan, chindan, avvalo, zotan, umuman;

4) bog'lovchidan: balki;

5) olmoshdan: o'z-o'zidan, har qalay;

6) fe'ldan: keltkeling, qo'y!qo'ying!qo'yingki, hoynahoy, demak, deylik, olaylik;

7) sintaktik birikkan: har holda, baytovur, ishqilib, bari bir, nafsilambiriga.

Ma'no turi. So'zlovchi ifodalaydigan ma'nosiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi:

1) fikrning aniqligini bildiradigan modal: darhaqiqat, darvoqe, haqiqatan/ haqiqatdan(ham), rost, to'g'ri/to'g'risi, rostdan, chindan;

2) fikrning noaniqligini bildiruvchi modal: balki, ehtimol, chamasi, aftidan, mazmuni;

Morfologik xususiyati:

1) o'zgarmaslig;

2) mustaqil so'zga ajralmaslig.

Sintaktik vazifasi. Modal gap bo'lagi bilan sintaktik aloqaga kirishmaydi.

So'l modal:

1) kirish so'z: 1.Bu, shubhasiz, bizning yutug'imiz. 2.Tabiiy, bir kun oldin ekkan hafta burun o'radi. 3. Balki bu biz bilmagan yangi elementdir.

2) so'z-gap:

– Bemorni kasalxonaga yotqizish kerakmi?

– Albatta.

– Majlis bir soatda tugarmikin?

– Ehtimol.

Modal ma'noli so'z:

1) ko'sm. Kitob bor. Daftar yo'q.

2. Fe'lsimonning tarkibiy qismi: Bugun borishim kerak. Kitobning keragi yo'q.

3) gapdoshcha aniqlovchi: Yo'q narsani yo'qotib bo'lmaydi.

Oltoshsa: bor, yo'q, kerak so'zlarning sintaktik vazifasini bajaradi: Bor maqtansa topilar, yo'q maqtansa chopilar.

Modalda shakl va ma'no munosabati. Modal ma'nodoshlik, shakldoshlik, ma'nolarning munosabatida bo'ladi.

1) sinonim modal: chamasi – chog'i – mazmuni, shubhasiz – shaksiz – so'zsiz; o'z-o'zidan – tabiiy; haqiqatda – haqiqatdan – darhaqiqat; voqean – darvoqe – aytqancha – deganday, ehtimol – balki.

2) antonim modal: bor – yo'q, ha – yo'q.

3) omonim modal: to'g'ri, rost, tabiiy (sifat) – to'g'ri, rost, tabiiy (modal); albatta, rostdan, chindan (ravishi) – albatta, rostdan, chindan (modali)

Eslatma

*Modal ma'noli qismga ajratilmaydi: **aftidan, shubhasiz.** Lekin unda o'rnashib qolgan mustaqil so'z ajratiladi: **Uning tobi qochganligi** aftidan **bilinardi** (**aftidan** – ot, **aft-i-dan**). Bu haqiqat shubhasiz (**shubhasiz** – ot, **shubha – siz**)*

Eslatma

Modal so'zni mustaqil so'zning kirish so'z vazifasida kelishi bilan chalkashtirmaslik kerak.

Ayrim modalga o'tish bosqichida turgan so'zni modal yoki modal emas deyish qiyin. Shuningdek, **xullas, xullasi kalom, demak, bas, binobarin, qisqasi, umuman:** masalan, shuningdek, jumladan, chunonchi; aksincha: avvalo, avvalambor, nihoyat; aytganday, aytmoqchi, zotan; xususan, ayniqsa, asosan, **koshki**, zora, yaxshiki, xayriyat, shoyad kabi so'zlar ko'proq so'zlovchining qo'shimcha munosabatini ifodalashga xoslanayotganligi kirish bo'lak vazifasini bajarayotganligi uchun modal so'z deyish mumkin.

Topshiriq

*Berilgan modal so'zni jadvalga joylashtiring. Har bir guruhdagi so'z birikmasini davom ettiring: **Menimcha, demak, albatta, xaytiyat, mutlaqo, koshki, xullas, qaniydi, har holda, aytishlaricha, tabiiy, yaxshisi, rosti, mazmuni, chamasi, shekilli, to'g'ri, yaxshi, haqiqatdan***

ishonch	gumon-umid	xulosalash, yakunlash	nisbatlash	navbat

1. Har ishning chamasi bor, har dangasaning kemasi ?. Chamasi, u mendan ikki yosh katta. 3. Haqiqatdan yuz o'pirmang. 4. Haqiqatdan, u anchalik ketdi. 5. Mato tabiiy ipaklar to'qilgan edi. 6. Tabiiy, ertaga u o'z sinasida ham turmaydi. 7. Jang tugaganidan keyin qahramon ko'payishi tabiiy. 8. Demak, ularning gapiga yo'q'on! 9. Ko'p desmak nodonning ushi, ko'p yemak hayvonning. 10. U menga so'zsiz ikkilib turardi. 11. So'zsiz, bu ma'noda aytganini yo'q! 12. Bugun yomg'irning yog'ishi shubhasiz. 13. Men shubhasiz, usiz yasholmasdim. 14. Yaxshi, qizga javob beramiz. 15. Yaxshi qizga javob beramiz.

1. Mustaqil so'zning modalga siljishini aniqlang.

2. So'zlarning qaysi turkumga mansubligi, qaysi gapning bo'lagi bo'la olishini qo'llanayotgan misollarda aniqlang.

3. Tinish belgilarining ishlatilishini izohlang.

UNDOV

Ma'noviy xususiyati. Kishining his-hayajon, xitob, haydash-chaqirish ma'nosini va rasm-odat bilan bog'liq vaziyatlarni ifodalaydigan so'z undov deyiladi.

Undov otash, yasalish xususiyatiga ega emas, morfologik jihatdan o'zgarmay va gap bo'lagi bo'lib kelolmaydi. U bilan sintaktik aloqaga kirishmaydi. Gohida, ohang shakl yasovchisini qabul qilishi va sintaktik vazifasini bajarishi mumkin.

Undov demak, solmoq, tortmoq, urmoq kabi fe'l bilan birlikda qo'shma fe'l hosil qiladi: oh demoq, dod solmoq, uf tortmoq, ah urmoq.

Ma'no turi. Undov ma'nosiga ko'ra 2 guruhga bo'linadi:

1) his-hayajon: iye, eh, o, uh, uf, bay-bay, ho, o'h-ho', ehe, e, hay-hay, e-ha, e-he, ha-ya, o', i, e, o'h, obbo, iyu, ho, iye-voy, ura, va, vodarig', esiz, evoh, vah-vah, ajabo.

2) haydash-chaqirish.

a) shaxsga qaratilgan: hoy, oy, ay, allo, oy, ma, tss, marsh, qani, jim, tek, fisht;

b) hayvonlarga nisbatan qaratilgan: boh-boh, pish-pish, pisht, tu-tu, guh, kuch-kuch, mah-mah, xo'sh, tak, dirr, ish, xix, chu(h), kisht, hayt, huyt.

Bunday tushuncha undovning yana ikki kichik guruhi bor:

3) rasm-odat: assalomu alaykum, salom, assalom, vaalaykum assalom, xayr, xo'sh, xo'p, marhamat, marhabo, rahmat, tashakkur, shukur, qulluq, balli, afarin, barakalla, qoyil, hormang, bor bo'ling, esonmisiz, omonmisiz, uzr.

4) so'rsatish ta'kid: hu, huv, ha, hmm, hov.

Morfologik xususiyati:

1) o'zgarmaslik;

2) tasrifga, shaklga ega emaslik;

3. Tuzilish turi:

a) soddalar: eh, o, uf, kisht, xayr, uzr, oh, ma, pisht, obbo;

b) qo'shmalar: bor bo'ling, assalomu alaykum, vaalaykum assalom;

d) juftlar: o'h-ho, eh-he, eh-ha, voy-bo', voy-dod, e-voh; e-ha-a, voy-voy-ey;

e) takror y: bay-bay, oh-oh, mah-mah, p'sht-pish; e-e-e, bay-bay-bay, hay-hay-hay.

Sintaktik vazifasi:

1) kirish so'z: Voy, bu o'zimizning Salim-ku. E, sekinroq gapir.

2) undalma: Boy, qayoqqa ketyapsan? Ey, nimaga qaro bo'lyapsiz?

3) so'z-gap: Eh! Hayot bir lahza ichida o'nlab yuraveradi. He-e! Buni o'zimga oldim.

Oltashsiz:

4) otning sintaktik vazifasini bajaradi. Ortiqcha oh-voh (ega) o'rinsiz. **Dod-voydan** (to'ldiruvchi) nima foyda?!

Topshiriq

1. Men yetim o'syapman, oh, u yetimlik — voy, bechora jonlar desam arziydi. (G.G'ul.) 2. Ey oliy'g' nasilmning yuragi, jonli Kipriginggа ilinmas yig'idan zarra. (G'.G'ul.) 3. Bay-bay zap choy bo'libdi-da... (A.Qod.) 4. Uf, endi qayta yuzim bilan o'sha uyga boraman. (S.Zun.) 5. Oi-qo qizlar-a! Do'ppimni o'zim tikdim dagal! 6. Hormang endi, qiznr – dedi ayol, qattiq uzun qo'llari bilan Elmurodning yelkalaridan silab. (P.Tur.) 7. O, Alisher! Kuch kelibsiz ichkariga mamamat. (Uyg' va I.Sul.) 8. Oha! Oha! Oakiy ukamiz? Pichoqni avval o'zingga ur, oy'lmasa, birovga. (I.Huk.) 9. E! Bu xomxor menga shama qilyaptimi? 10. O... uzoqing yuq chiroyli. Quv menga ocht! 11. Ehhe, ish katta-ku! (Oyb.) 12. Uning fikrini ma'qullovchi ovozlar eshitildi: Beli, Otangizga rahmat! (P.Tur.) 13. Faqat sendan bitta ilmas. Kelajakda unutmasang bas. 14. Siz-chi, oy, sadoqat sotishdan nolib nafaqaga chiqqan kishiga bolganlar, ayting! (A.Orip.) 15. Mening kulgilarimni eshitib otam to'rtdi. 16. Sabrlilik musiqaning birinchi darajalimdayoq olinadi. Sovuq odam salgina ozor chekka dod soladi. 17. Oh uraman, oh uraman, onajonim-oy, voy soni! (Qo'shiqdan) 18. Cho poplar qur-hayolab qo'yni haydagan. (•Alpomish•) 19. Mahkam Oshiga «ayol» deganday olayib qaradi... 20. «Tak», dedi-yu «shuvha» dedi, jo'nadi. Qarajon o'z yo'lidan qolmadi. (•Alpomish•) 21. Kampir negadir voy-voylab qoldi.

1. Undovni topib tagiga chizilsin, ushiga qaysi ma'no guruhiga kirishini yozing.

2. Sintaktik shakliya munosabatini va gapdagi vazifasini aniqlang.

3. Qanday holda so'z gap, qanday holda gap bo'lib kelishini izohlang.

4. Tinish belgisining ishlatilishiga diqqat qiling va ishlatilish sabablari sharhlang.

5. Tarkibida undov qo'llangan qo'shma va sodda yasama fe'lni analoglq imlosi ustida ishlang. Undov so'z haqidagi fikringizni xulosalang.

TAQLID

Ma'noviy xususiyati. Kishi, jonli va jonsiz predmet hodisa ch qaradigan tovush va uning turli holat ga taqlidan ifodalovchi so'z **taqlid** deyiladi. Taqlid **qanday** so'roq'ga, nimasha, nima so'rog'iga javob bo'ladi.

Ma'no turi. Taqlid ma'nosiga ko'ra 2 ga bo'linadi:

1) tovushga taqlid: **ak-ak, ang-ang, ar-ar, afshu, baka-baka, baqir-buqur, bag'-bug', biq-biq, bit-biddiq, vang-vang, vov-vov, gangir-gungur, gijbadabang, guv** is'rdjal'i, bo'g'iq tovush), **guldur, gurs, jaz-buz, jiz-biz, ingq-ingq** miyov-miyov, **patir-putur, tapaka-tapar,** taraqa-turuq, **tars, tars-turs, tars-tars, tasira-tusur, taqir-tuqur, taq-taq, taq-tuq, tiq-tiq, xir-xir, xur-xur, chak-chak, chalp-chulp, chilp-chilp, cho'lp-cho'lp, chirs-chirs, chars-churs, shapir-shupur, qars, qars-qars, qars-qurs, qart-qurt, qasir-qusur, qa-qaq, qiy-chuv, qisir, g'arch, g'arch-g'urch, g'at, g'at-g'at, g'iz, hingir-hingir, ho'ngir-ho'ngir;**

2) holat/obrazga taqlid **atak-chechak, alang-jalang, bij-bij, bijir-bijir,** vij-vij, **vijir-vijir, gar-gar, gir-gir** (aylanmoq), **guv-guv, gup, dik-dik-dik, dikir-dikir, duv-duv, jmir-jmir, jilpang-jilpang, zirq-zirq, yilt-yilt,** lapang-lapang, **lim-lim, limmo-lim, lov-lov, lop, lo'q-lo'q, milt-milt, mo'lt-mo'lt, pildir-pildir, shart-shurt, yum-yum** (yig'lamoq) **sim-sim** (ingʻnamoq) **yalt, yalt-yalt, yalt-yult, yaraq, yarq, g'ij-g'ij** (aql), **g'lm-g'lq, g'ir-g'ir** (esnamoq) **hang-mang, hil-hil** (pishmoq).

Morfologik xususiyati.

1) egalik va kelishik shakli qabul qilmaydi: **taqir-tuquri, g'ovur-g'uvurra;**

2) yasalish xususiyatiga ega emas, ammo boshqa turkum yasalishiga xizmat qiladi: **jizza** (ot), **sharros** (sifat) **yaltira** (fe'l), **tappa, chippa** (ravish);

Tuzilish turi. Sodda, qo'shma, juft va takroriy taqlid mavjud:

1) sodda: **shig', duv, dik, lop, yalt, shuv, tiq; tiqir, tiking, shig'ir, jarang;**

2) juft: **g'arch-g'urch, taq-tuq, tars-turs, vag'ir-vug'ur, sholop-shulup; g'ivir-shivir, chirt-pirt, g'ing-ping; alang-jalang, apir-shapir; qiy-chuv;**

3) takroriy: **guv-guv, duv-duv, zir-zir, lipir-lipir, miyov-miyov, cho'lp-cho'lp, qirt-qirt; taqa-taq, tasira-tusir, gurso-gurs, shaqa-shaq; g'irra-g'irra, guppa-guppa, sharlta-sharlta; bij-bij, vu-vu, dag'-dag',** jav-jav (oxirgi guruhni 3 qismlar yakka qo'llanmaydi).

Eslatma

Taqlid qo'shma shaklda bo'lmaydi. Ular **etmoq, demoq, qilmoq** *yordamchi fe'l bilan birikib qo'shma fe'l hosil qiladi:* **dik etmoq, shir etmoq, mo'ldemoq, taqir qilmoq, g'iz etmoq.**

Sintaktik vazifasi. Taqlid sintaktik vazifasiga ko ra s fat va ravishga yaqin turadi va uning so'rog'iga javob bo ladi

1)sifatlovchi-aniqlovchi: **Gangir-gungir suhbatga quloq solib o'tirdi. Dahlizdan shivir-shivir ovoz eshitildi.**

2) lar.z holi: **Olmalar <u>duv-duv</u> to'kildi. Alamidan <u>piq-piq</u> yig'lar edi Shamol g'ir-g'ir esmoqda;**

3) ot-kesim: **Miyangda aql <u>g'ir-g'ir</u>i Bu yog'i <u>gir-boddaboud</u> ekanda.**

Otlashganda:

1) ega: **Shivir-shivir tindi**

2) qaratq ch-aniqlovchi: **Qiy-chuyning boisi nima ekan-a?**

3) to'ldiruvchi: **Etigining <u>g'archini</u> pasaytirish uchun oyoq uchida yurib keldi.**

Topshiriq

1. Gursillab yiqildi keksa qayrag'och. 2. Dam o'tmay sharros yomg'ir quyib berdi. 3. Zaini guldiros tarsak ovozi tushib ketdi. 4. Sochi o'rtasi bo. sharshara. 5. Soy sovlan shildirab oqadi. 6. Bu xabarni eshitish yuragim shovillab keldi. 6. Mo'tabar hamnasr ikki qora ko'z. 7. Tukening ip qilib o'tib kelganini sezmay qoldik. 8. Oma tomondan nimadir tars etdi. 9. Qushlar par eb osmonga ko'tarildi. 10. Tashqaridan "miyov" degan ovoz eshitildi. 11. S'ing desang, o'ldiraman. 12. Soat 12 da bomdom degan top ovo esga tushib ketdi

1. Taqlidlarni aniqlang.

2. Mustaqil qo'llanuvchi va mustaqil qo'llanmayotgan taqlidni ajrating

3. Tovushga va holatga taqlidni bildiruvchi so'zni guruhlang.

4. Sintaktik shakl olgan taqlidni va gapdagi vazifasini aniqlang

5. Taqlidning ma'noviy guruhini, qaysi so'zga bog'lanayotganini aniqlang

Mustahkamlash uchun savollar

1.Modal haqida gapiring va misol keltiring. 2.Modal qanday ma'noviy xususiyatga ega? 3. Sof modal qaysilar? 4.Modal ma'noli so'z qaysilar? 5. Boshqa turkumdan o'tib o'tgan modal fe modal, sifat modal, ravish modal, bog lovchi modal, olmosh modal fe l modal, sintaktik birikkan o'tgan modal, haqida gapiring va misol keltiring. 6 Modalning qanday ma'no turi bor? 7 Fikrning aniqligini bildiradigan modal qaysilar? 8. Fikrning noaniqligini bildiruvchi modal qaysilar? 9. Modalning sintaktik vazifasi qanday? 10.Sinonim modal haqida gapiring va misol keltiring. 11 Antonim modal haqida gapiring va misol keltiring. 12. Omonim modal haqida gapiring va misol keltiring. 13 Undovning ta'rifini aytng. 14 Undovning qanday ma'no turi bor?

15. Hisobiyga undov qaysilar? 16.Haydash-chaqirish undovi qaysilar? 17.Rozim-odat undovi qaysilar? 18. Ko'rsatishda'kid undovi qaysilar? 19. Undovning tuzilish turi haqida gapiring va misol keltiring. 20.Sodda undov haqida gapiring va misol keltiring. 21. Qo'shma undov haqida gapiring va misol keltiring. 22. Juft undov haqida gapiring va misol keltiring. 23. Takroriy undov haqida gapiring va misol keltiring. 24. Undovning sintaktik vazifasi haqida gapiring va misol keltiring. 25. Tinish belgilarini keltiring. 26. Taqlidning undov ma'no turlari? 27. Undovga taqlid haqida gapiring va misol keltiring. 28. Hayvonlar ovozi orqali hamda gapiring va misol keltiring. 29. Taqlidning tuzilishi haqida gapiring va misol keltiring. 30. Sodda taqlid haqida gapiring va misol keltiring. 31. Qo'shma taqlid haqida gapiring va misol keltiring. 32.Juft taqlid haqida gapiring va misol keltiring. 33 Takroriy taqlid haqida gapiring va misol keltiring. 34. Taqlidning sintaktik vazifasi haqida gapiring va misol keltiring.

34- DARS
SINTAKSIS. SO'Z BIRIKMASI

Sintaksis haqida. So'zning tildagi muayyan qonun-qoida asosida o'zaro birikuvidan so'z birikmasi va gap hosil bo'ladi. So'z birikmasi va gap qurilishi hamda ifoda mazmuniga ko'ra farqlanadi.

Sintaksisda **so'z birikmasi** va **gap qurilishi** masalasi o'rganiladi. Sintaksis grammatikaning tarkibiy qismi bo'lib, yunoncha ***syntaxis*** "qurish, tuzish" so'zidan olingan.

So'z birikmasi haqida. Mustaqil so'z birikuvi 2 ko'rinishda bo'ladi.

1) barqaror birikuv (turg'un birikma);

2) nutqiy birikuv (erkin birikma).

Mustaqil so'zning barqaror birikuvi nutq uchun avvaldan tayyor qilib qo'yilgan bo'ladi: **sadarayhon, uchburchak, sotib oldi, Qarshi davlat universiteti**, ko'rsatma so'z), **kalavasining uchini yo'qotdi** (iboraj), **yetti o'lchab bir kes** (maqol). Bu birikuvning har birida kamida ikkitadan mustaqil so'z bo'lib, ular o'zgarmas, buzilmas qilib bog'langan. Sanalgan birliklar sintaktik qurilma emas, balki lug'aviy birlik bo'lib, ularni tildan tayyor holda olamiz.

Mustaqil so'zning nutqiy birikuvi nutq jarayonida yuz berib, shu jarayon paytidagina yashaydi, vaqtinchalik hodisa ekanligi bilan ajralib turadi: **olma va anor, kitobni o'qidi, Otam – o'qituvchi, mening oyim kab**. Nutqiy birikuv erkin **bog'lanish** deyiladi.

Eslatma

Turg'un birikuv xalq tomonidan, erkin birikuv esa bir kishi tomonidan yaratiladi.

Mustaqil so'zn ng erkin bog'lanishi 2 x I bo'ladi

1) teng bog'lanish;

2) tobe bog'lanish;

Mustaqil so'zning teng bog'lovchi (bog'lovchi vazifasidagi so'z) yoki sanash ohangi yordamida teng bog'lanishi natijasida so'z qo'shilmasi vujudga keladi: **olma va anor, qalam bilan ruchka** yoki **o'qidi, yozdi** kabi. Teng bog'lanishda bir so'z boshqasiga tobe bo'lmaydi: **erkak va ayol; erkak, ayol.**

Teng bog lanish so z qo'shilmasi hamda bog'langan va bog'lovchisiz qo shma gap tarkibida uchraydi.

Sintaksis tobe bog'lanishga asosiy e'tibor qaratadi.

Tobe bog'lan sh natijasida so z birikmasi (**qo'lamda yozdi, qishloqdan keldi**) va gap (**Salim – mustaqil, Yil yozshi bo'ldi**) hosil bo'ladi.

Birdan ortiq mustaqil so'zning ma'no va grammatik jihatdan tobe bog lanishi so'z birikmasi deyiladi: **maktabga borish, daftarning varog'i** kabi. Soz birikmasida bosh va ergash so'z bo'ladi. Bunda ma'noan izohlanayotgan so'z **bosh (hokim) so'z**, uning ma'nosini ravshanlashtirib kelayotgan, izohlayotgan, to'ldirayotgan so'z **ergash (tobe) so'z** hisoblanadi. So'roq hamma vaqt bosh so'zdan beriladi, so'roqqa javob bo'lgan so'z ergash(tobe) so'z: **Shirin olma** (qanday olma?).

Eslatma

Ega va kesim bog'lanishi so z birikmasi hosil qilmaydi: Salim keldi. Lola o'qidi.

Eslatma

Gapdagi bir so'z faqat bir so'zga tobe bo'ladi. Lekin bir so z ko'plab so'zga hokim bo'lishi mumkin.

O'zbek tilida, odatda, ergash so z oldin, bosh so z keyin keladi. Ba'zan gap bo'lagi tartibi o'zgarganda, ergash va bosh so'zning o'rni almashishi mumkin: **o'qidim** (bosh so'z) **tarixni** (ergash so'z), **vatanim** (bosh so'z) **mening**(ergash so'z) kabi. Bunday hol ko pincha she'riy nutqda bo'ladi.

Bosh so'zning ifodalanishiga ko'ra so'z birikmasi ikkiga bo linadi:

1) otli birikma;

2) fe'lli birikma.

Bosh so'z ot, sifat, son, olmosh, ravish, modal so'z bilan ifodalansa, **otli birikma** hisoblanadi: **baland bino, asalday shirin, intizomda birinchi, bolalarning hammasi, menda ko'p, senga kerak.**

Bosh so'z fe'l va uning ravishdosh, sifatdosh va harakat nomi shaklibilan ifodalansa **fe'lli birikma** deyiladi: **kitobni o'qish, ishni bajarib, tez kelgan, daftarga yozmoq.**

Ergash so'zning qanday sintaktik vazifada kelayotganligiga ko'ra so'z birikmasi uch turga bo'linadi:

a) aniqlovchi birikma: **qizil qalam, ukamning daftari;**

b) to'ldiruvchili birikma: **kitobni o'qimoq, qalam bilan yozmoq**

d) hol li birikma: **tez kelmoq, yuzakdan kuylamoq;**

So'z birikmasi tuzilishiga ko'ra ikki xil bo'ladi

1) **sodda so'z birikmasi.**

2) **murakkab so'z birikmasi.**

Sodda so'z birikmasida mustaqil so'z ikkitadan ortiq bo'lmaydi: **beshta daftar, bugun keldi, o'zining uyi, shaharda yashaydi, akasi haqida so'radi.**

Eslatma

Ayrilmas birikma, qo'shma so'z, ibora qatnashgan birikma ham sodda so'z birikmasi hisoblanadi: qilich bo'yin ot, borsa kelmas oroli, turib javob bermoq, ichi qora odam, oq ko'ngil bola.

Murakkab so'z birikmasi tarkibida ikkitadan ortiq mustaqil so'z qatnashib, so'z birikmasi ichida yana so'z birikmasi bo'ladi. **g'ayratli yosh bolalar, yangi ommabop kitob, katta qora qo'y, asfalt yotqizilgan keng ko'chalar, katta mevali daraxt, bugun kelgan ishchilar** kabi. Masalan, **g'ayratli yosh bolalar** birikmasida **g'ayratli** - ergash so'z, **yosh bolalar** - bosh so'z. Bosh so'z o'z ichida yana ikkiga bo'linadi: **yosh** – ergash so'z, **bolalar** – bosh so'z. Bunda sodda so'z birikmasi kengayadi. Bunday birikma **so'z birikmasi zanjiri** deb atalgan: **katta yangi chiroyli guldor shefon ko'ylak kiygan qiz.**

So'z birikmasining so'z, ibora, sintagma va gapdan farqi. So'z birikmasi ma'nosi bilan so'zga, shakli bilan ibora, sintagma va gapga o'xshaydi, ammo o'ziga xos farqqa ega.

So'z birikmasi va ibora. So'z narsa, belgi, shaxs, ish-harakatni umumiy ifodalash uchun xizmat qiladi. Masalan, **kitob** deganda umuman kitobni, **bordi** deganda umuman borilganlikni tushunamiz. So'z birikmasi ham narsa, belgi, ish-harakatni ifodalaydi va bu jihatdan so'zga o'xshab ketadi, ammo so'z birikmasi narsa, belgi, ish-harakatni boshqa narsa, belgi, ish-harakatlardan ajratib, aniqroq qilib ifodalaydi. **o'quvchi – a'lochi o'quvchi,**

yozish – tez yozish. Demak, so'z umumiy, so'z birikmasi nisbatan aniq tushunncha beradi.

Qo'shma so'z va so'z birikmasi o'zaro quyidagicha farqlanadi: qo'shma so'z bir so'roqqa javob bo'ladi, chunki u bitta so'z. so'z birikmasi (erkin) dagi har bir so'z esa alohida-alohida so'roqqa javob bo'ladi: **sotib olmoq** (nima qilmoq?) – qo'shma so'z: **jo'shib kuylamoq** (qanday kuylamoq? jo'shib nima qilmoq?). So'z birikmasi – qo'shma so'zning ilk bosqichi. U o'sib qo'shma so'zga aylanadi: **ko'zning oynagi – ko'zoynak. sarv qomatli – sarvqomat. dunyoga qarash – dunyoqarash** kabi.

So'z birikmasi va ibora. Ibora (barqaror birikma) – ma'no jihatidan bir so'zga teng, ajralmas holatga kelib qolgan turg'un birlik. Uning tarkibidagi so'zlar borib yoki o'zgashgan o'zlarish mumkin emas: **tanyozi qo'ltig'idan tushdi, oq yo'l, og'zi bo'sh.** Ibora bir so'zga teng, shuning uchun gapda bitta gap bo'lagi bo'lib keladi: **Sizga oq yo'l** (ibora – to'ldiruvchi) tilayman. So'z birikmasidagi mustaqil so'z ning joylanishdagina tarkibiy hosil qiladi va hosh so'z ham, o'zgash so'z ham alohida gap bo'lagi bo'lib kelishi mumkin: **A'lochi** (o'zgash so'z) **o'quvchilar** (bosh so'z) **kelishdi.** Bu erda o'zgash so'z aniqlovchi, bosh so'z esa vazifasida.

So'z birikmasi va sintagma. Sintagma fanetik hodisa bo'lib, unda ikki so'z o'zaro birikkanda mazmun yetakchi hisoblanmaydi. Ba'zan mustaqil yoki bitta yordamchi so'z ham sintagmani tashkil etishi mumkin yoki bir so'zning o'zi ham sintagmani tashkil etishi mumkin. Sintagma – gap tarkibidagi erkin pauza bilan ajratilgan qism. Masalan, **Maktabga borganda Karim bilan gaplashib turibman** gapini olib sintagmadan iborat: **Maktabga borganda** (1) **Karim bilan** (2) **gaplashib turibman** (3). Bunda birinchi sintagma **Maktabga borganda** (1) so'z birikmasiga teng, qolgan ikki sintagma mustaqil so'z va bir mustaqil bo'lmagan so'zdan tashkil topgan. **Karim bilan** (2) **gaplashib turibman** (3). So'z birikmasi esa kamida ikkita mustaqil so'zdan iborat bo'ladi. Sintagmadagi so'z ketma-ket joylashishi shart, so'z birikmasida esa shart emas. Masalan, Uyga tez bor gapida ikkita so'z birikmasi mavjud: **uyga bor, tez bor.** Lekin **uyga bor** birikmasi o'rtasida **tez** so'zi joylashgan.

So'z birikmasi va gap. Gap ikki bo'lak bo'lib, tugallangan ohang bilan aytiladi: **Ko'cha katta.** So'z birikmasi esa tushuncha bildirib, tugallanmagan ohang bilan aytiladi: **katta ko'cha.** Gap bitta so'zdan ham iborat bo'lishi mumkin va u kesimlik qo'shimchasi bilan shakllangan bo'ladi. So'z birikmasi esa hech qachon doim kamida ikkita mustaqil so'zdan iborat bo'ladi. **Bahor.** (gap). **Atrof yam-yashil libosga burkangan.**

3. Ergash va bosh so'zning birikish usuli. Ergash va bosh so'z quyidagi usul yordamida birikadi:

a) boshqaruv:

b) moslashuv;
c) bitishuv.

Boshqaruv. Ergash va bosh so'zning tushum'jo nalish o'rin-payt holatlarida kelishigi va ko'makchi yordamida bog'lanishi **boshqaruv** deyiladi. Demak, boshqaruvda ergash so'z bilan bosh so'zning birikish ikki xil:

1) kelishikli boshqaruv: **ilg'orlarni tabriklash, uyga ketish, shaharda yashash, qishloqdan kelish;**

Eslatma

*Ayrim holda kelishik bo'lmasa ham mumkin: **olma terish, shahar borish**. U holda kelishik boshlang'ich deyiluvchidir.*

2) ko'makchili boshqaruv: **Sayr haqida suhbat, paxta uchun kurash, sayohat to'g'risida gapirish.**

Moslashuv. Bosh va ergash so'zning qaratqich kelishigi va egalik qo'shimchasi yordamida bog'lanishi **moslashuv** deyiladi. Bunda qaratqich kelishigi qo'shimchasi ergash so'zni bosh so'zga, egalik qo'shimchasi esa bosh so'zni ergash so'zga bog'lovchi: **ukamning kitobi**. Bunday birikma otlar, sifatlar va sonlar moslashadi. Ega va kesim ham moslashuv usulida yordamida bog'lanadi: **Men keldim**. Lekin ega gap bo'lganligi uchun so'z birikmasi darajasida o'rganilmaydi.

Eslatma

*Moslashuvda ba'zan qaratqich kelishigi yoki egalik qo'shimchasi tushirilishi mumkin: **maktab hovlisi, bizning maktab**. U holda moslashuv deyiluvchi.*

Bitishuv. Ergash so'zning bosh so'z bilan grammatik vositasiz, o'qish va intonatsiyadan yoki so'z tartibi yordamida bo'lishi **bitishuv** deyiladi. Bitishuvda deyarli ergash so'z avval: bosh so'z sayin kelsa, **tiniq suv, katta ko'cha**. Ularning o'rni o'zgartirilsa, gap hosil bo'ladi: **Suv tiniq. Ko'cha katta.**

Bitishuvda ergash so'z vazifasida shu vazifaga xoslangan sifat, ravish nomida ular vazifasidagi boshqa so'z keladi: **qizil gul, tez yurmoq, tilla bilaguzuk, bunday odam, o'qigan odam, jo'shib kuylamoq.** Bosh so'z ot va fe'l turkumidan iborat bo'ladi.

Eslatma

***birga o'qish, birdan gapirish, qunt bilan tinglash, zavq bilan kuylash, yolg'ondan gapirmoq** kabi birikmaning ergash so'zida o'rin-payt holatidagi kelishigi qo'shimchasi yoki ko'makchi bo'lishiga*

qaramay boshqaruvli emas, bitishuvli birikma sanaladi, chunki bu birikma tarkibidagi kelishik va egalik ko shimchasi 'uol.o' qolgan va so'zni bog'lashda hech qanday roli yo'q

Mustahkamlash uchun savollar

1.Barqaror birikuv nima? Misol keltiring. 2. Notiqiy birikuv nima? Misol keltiring 3.Erkin bog'lanish haqida gapiring va misol keltiring. 4.Teng bog'lanish haqida gapiring va misol keltiring. 5. Ergash bog'lanish haqida gapiring va misol keltiring. 6. So'z qo'shilmasi qanday xususiyatga ega? Misol keltiring. 7. So'z birikmasi nima? 8. Ergash so'z qanday xususiyatga ega? Misol keltiring. 9.Bosh so'z qanday xususiyatga ega? Misol keltiring. 10. Bosh so'zning ifodalanishiga ko'ra so'z birikmasining qanday turi bor? 11. Olli birikma qanday xususiyatga ega? Misol keltiring. 12. Fe'l birikma xususiyatga ega? Misol keltiring. 13.Ergash so'zining bosh so'zga bog'lanishiga ko'ra so'z birikmasining qanday turi bor? 13. Boshqaruv nima? Misol keltiring. 14. Kelishikli boshqaruv nima? Misol keltiring. 15. Kelishiksiz boshqaruv nima? Misol keltiring. 16.Moslashuv nima? Misol keltiring. 17.Bitishuv nima? Misol keltiring. 18. So'z birikmasi va so'z ning o'xshash va farqli tomonlari haqida gapiring. 19. So'z birikmasi va iborani ng o'xshash va farqli tomonlari haqida gapiring. 20. So'z birikmasi va soltagmaning o'xshash va farqli tomonlari haqida gapiring. 21.So'z birikmasi va gapning o'xshash va farqli tomonlari haqida gapiring.

Topshiriq

Tinch yon bo'ki, nimanegadir haqda yashaydi. Eq odamlarni ne'matlarga solmaydi. Chunki ilinj – nimanidir qo ga kiritish o'ch degani. Prezident, insoniyat qavmining ko'plab qayg u-sitamlari olish evaziga berish muvozanatining buz'ishidan kelib chiqadi. Zero,tanki, olish va berish dunyoni oslin-ustin bo'lib ketishidan saqlab turgan pasangi bu ikki pasangi teng saqlangan joyda farovonlik, xotirjamlik mavjud ass hoida. , kimdir olayin, kimdir orgsin – ixtiyorsiz ravishda bu ikki pasangi muvozanatini buzadi. Bu yorug' dunyoda otalu bolalarning to'xtamasligi inson zot dingmaning ayrim ona shu o'ta jo'n va o'ta mushkul hikmatn Ins xam bilmaslik tufayli to'lgandan dalolat beradi.Bu tamg'a «nafs» deb ataladi. Har qanday aql ham aql idrok qiladigan ham, orolil k – xotirjamlik xushnudsizga oy berad gan ham ana shu nafs. *(X.Do'st.)*

Gap tarkibidagi so'z birikmasini tahlil qiling

Tahlil tartibi

1. Gapni birikmaga ajratish;

2. So'zlarnnn aloqasining erkin yoki turg'unligiga ko'ra birikma turi:
a) bo'sang'i birikma.
b) erkin birikma;
3. Erkin birikmaning fikr yoki tushuncha ifodalashiga ko'ra turi
a) fikr ifodalovchi (gap+kesim).
b) tushuncha ifodalovchi (so'z birikmasi, so'z qo'shilmasi).
4. Tushuncha ifodalovchi birikmaning sintaktik aloqaga ko'ra turi:
a) teng aloqali.
b) tobe aloqali.
5.Tobe aloqaning turiga ko'ra:
a) boshqaruv.
b) moslashuv;
d) bitishuv
6. Bosh so'zning qaysi so'z bilan ifodalanishiga ko'ra:
a) otli;
b) fe'li
7. Birikmaning tuzilishiga ko'ra turi
a) sodda.
b) murakkab.
8. Bog'lovchi vositalarning turiga ko'ra
a) grammatik qo'shimcha yordamida bog'langan.
b) yordamchi so'z vositasida bog'langan
d) so'z tartibi vositasida bog'langan

35- DARS
GAP

Gap haqida umumiy ma'lumot. Til birligi bo'lgan gap grammatik jihatdan shakllangan holda tugallangan ohang orqali nisbiy tugal fikr ifodalaydi. **Paxta terimi qizg'in davom etyapti. Oltin kuz qanday go'zal!**

Gap kesimga ega bo'lib, bir mustaqil so'zdan yoki birdan ortiq mustaqil so'zning ko'makchi va kelishik yordamida bog'lanishidan hosil bo'ladi. Masalan, *Xatni qalam bilan yozdi* gapida *-ni bilan -di* bog'lovchi vosita hisobanadi. Bu – gap tarkibining grammatik jihatdan shakllanganligi.

Gap ohang jihatdan tugallangan bo'lishi lozim: **Kuz. Hamma yoqda ish qaynayapti.** Bu gapdagi kuz so'zi tugallangan ohang bilan aytilgani uchun gap hisoblanadi.

Demak, gap

1) **muomalaning eng kichik birligi**;
2) **nisbiy tugallangan fikrni ifodalaydi**;
3) **grammatik jihatdan shakllangan bo'ladi**;
4) **tugallangan ohang bilan aytiladi.**

Ko'rinadiki, tugallangan ohang va fikrga ega bo'lib, grammatik jihatdan shakllangan, muomalaning eng kichik vositasi, nisbatan yakka so'z yoki so'z birikuvi **gap** deb ataladi.

Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turi. Gap ifoda maqsadiga ko'ra uch turga ega: **darak gap, so'roq gap, buyruq gap**

Darak gap orqali biror narsa-hodisa haqidagi xabar beriladi, uning oxiriga nuqta qo'yiladi. **Navoiy ruboiylaridan yodladim.**

Darak gapdagi xabar ko'pincha ma'noli bo'lib, darak-xabar, o'zgarmaslik, ishonch, to'liq, g'urur, maqtanish, tashvish, sevinch, taajjub, gumon, achinish, tashvish, g'azab, norozilik, kinoya kabilarni ifodalaydi.

So'roq gap orqali so'zlovchi o'zi suhbatdoshidan yangi ma'lumot olishga urinadi. **Bugun keldingizmi?** Yozuvda so'roq gapning oxiriga so'roq belgisi qo'yiladi. Bu gaplar ko'proq dialogik nutqda qo'llanadi.

So'roq gap so'roq elementi (**kim? nima? qanday? qancha? necha? qaysi?** – bunday gap so'roqqa javob bo'luvchi so'zni talab qiladi), so'roq yuklamasi (**-mi, -chi, -a, -ya**) yoki so'roq ohangi bilan hosil bo'ladi. Bu xil gap ha yoki yo'q degan javobni talab qiladi. Quyidagi misolda so'roq ohangi so'roq vositasi sifatida qo'llanilgan: **Sost ikki bo'ldi. Ikki bo'ldi?**

So'roq gap ikkiga bo'linadi:

1) **sof so'roq gap** javob talab qiladi. **Siz ertaga kelasizmi?**

2) **ritorik so'roq gap** javob talab qilmaydi, javobi o'zida yashiringan va barcha uchun ma'lum bo'ladi: **Men uning to'satdan kelib qolishini qaydan bilay?** Ritorik so'roq gap quyidagi ma'nolarni ifodalashi mumkin:

– "tasdiq": **Bu Vatanda nimalar yo'q!**
– "inkor": **O'zingdan chiqqan balogа, qayga borasan da'vogal**
– "taajjub": **Bu nimasi?!**
– "tashvish": **Meni tashlab ketmaysanmi?!**
– "g'azab": **Maqsad nima, maqsad?!**
– "gumon": **Paxta ham yaxshi ochilmagandir?**
– "kuchli hayajon": **Tokaygacha ezilamiz, ota?!**

Buyruq gapda suhbatdoshni nimanidir qilishga undash maqsad qilib qo'yiladi. Bunday gapda iltimos, buyruq, taklif, maslahat, hayratlanish, tashvish, gumon, tashvish, hayajon, g'azab yalinish tarzida bo'lishi mumkin. **Avval o'yla, keyin so'yla** (maslahat). **Dadil barakat qil!** (buyruq) **Ashuladan yana bo'lsin** (iltimos). **Qani hamma odam sizday bo'lsa!** (orzu) **Nahotki, bu siz bo'lsangiz!** (hayratlanish) **Sovqotib qolma, issiqroq yot** (g'amxo'rlik)

Kunning tig'ida nima qilasan, bu yerga kelib, salqinda o'tirsang-chi! (tashviq). **Qo'rqqan bo'lsa kerak!** (gumon) **Xatdan o'chir o'g'limni hozir!** (g'azab, do'q)

Yozuvda buyruq gapning oxiriga ko'pincha undov belgisi, nihoyasiga qarab esa nuqta ham qo'yilishi mumkin.

Eslatma

*Ayrim darslikda gap ifoda maqsadiga ko'ra to'rt turga ajratiladi: darak gap, so'roq gap, buyruq gap, istak gap. Istak gapga quyidagicha ta'rif berilgan: "Kesimi -sa shaklidagi fe'l bilan ifodalangan gap istak gap hisoblanadi. **Xorijiy tilni yaxshi o'rganib, chet elga o'qishga borsam!**". Istak gap oxiriga nuqta (.) qo'yiladi."*

Bundan istak gap buyruq gapning ichidan ajralib chiqqanligi ko'rinib turibdi.

Gapning his-hayajon ifodalashga ko'ra turi. Gap o'zining ma'no-tuyg'usini ifodalashiga ko'ra 2 xil bo'ladi:

1) his-hayajonli gap,

2) **his-hayajonsiz gap.**

His-hayajon gap **eh, oh, uh, o, uf, obbo** kabi undov, **qanday, qancha, naqadar, shunday** kabi so'z yoki faqat his-hayajon ohangi bilan hosil bo'ladi: **Eh, bahorning gashtiga nima yetsin! Farg'ona vodiysi naqadar go'zal! Paxta terimi boshlandi!** His-hayajon ohangi bilan aytilgan darak, so'roq, buyruq gaplar his-hayajonli darak, so'roq, buyruq gapga aylanadi: **Dalada qancha odam bor? Dalada qancha odam bor!**

His-hayajon gap so'roq gap bo'lsa, unisi belgisi quyidagicha qo'yiladi:

1) so'roq mazmuni kuchli bo'lsa, oldin so'roq, keyin undov belgisi qo'yiladi: **Nima bo'ldi, gapirsangiz-chi?!**

2) his-hayajon kuchli bo'lsa, oldin undov, keyin so'roq belgisi qo'yiladi: **Farzand qanday oqlar ona haqqini!?**

3) ayrim holda his-hayajonning o'ta kuchliligini ifodalash uchun uchta undov belgisi xam qo'yiladi: **O'lim – yovga!!!**

Biror sabab bilan uzilib qolgan his-hayajon gapning oxiriga undov belgisi va undan keyin kelma-ket ikkita nuqta qo'yiladi: **Men yetim o'sganman, oh, u yetimlik!..**

Gapning grammatik asos miqdori (tuzilishi)ga ko'ra turi. Ega va kesim birgalikda bir bosh bo'lakli gapda kesimning o'zi gapni ng grammatik asosini tashkil etadi. Gap tuzilishi, ya'ni grammatik asos miqdoriga ko'ra ikkiga bo'linadi:

a) **sodda gap,**

b) **qo'shma gap**

Sodda gap. Sodda gapda bitta kesim, ya'ni bitta grammatik markaz mavjud bo'ladi: 1.**Dars boshlandi.** 2.**Yomg'ir yog'madi.** 3.**Bahor keldi.** Ba'zan sodda gap ega siz bo'lib, boshqa bo'laklar kesimga birlashadi: **Bugun Moskvadan Ukam bilan uchib keldim.**

Qo'shma gap. Qo'shma gapda ikki va undan ortiq kesim, ya'ni kamida ikkita grammatik markaz mavjud bo'ladi. **Qo'ng'iroq *chalindi* va *dars boshlandi*.** Qo'shma gap faqat kesimdan iborat bo'lishi ham mumkin: **Qarasam, qaramaysan.**

Ayrim gap turi orasidagi ma'nodoshlik:

Ayni bir fikr gapning har xil turi bilan ifodalanadi.

a) sodda gap – qo'shma gap: Har **kim ekkanini o'radi** – Kim nimani **eksa, shuni o'radi**

b) yig'iq gap – yoyiq gap: **Hamma keldi – Sobirjon, Halimaxon, Saida, Sojida va boshqalar keldi.**

Gapning bosh bo'laklar tarkibiga ko'ra turi. Gapda bosh bo'laklar tarkibi to'liq (ega ham, kesim ham mavjud bo'lishi) yoki to'liq bo'lmasligi (ega yoki kesim tushirilgan bo'lishi) mumkin. Shunga ko'ra gap ikkiga bo'linadi:

1) **bir bosh bo'lakli gap.** Uning grammatik asosi bir bosh bo'lakdan iborat bo'ladi: **Ota-onalarga <u>yordam berdik</u>.**

2) **ikki bosh bo'lakli gap.** Uning grammatik asosida ega ham, kesim ham qatnashadi: **Biz maktabga <u>bordik</u>.**

Gap yoyiq/yig'iqligiga ko'ra ikkiga bo'linadi:

a) **yig'iq gap;**

b) **yoyiq gap.**

Yig'iq gap faqat kesimdan iborat bo'ladi: **Keldim. O'qituvchiman.** Ajoyib va so'z gap ham yig'iq gapdir: **Qish. Rahmat.** Yoyiq gapda boshqa bo'laklar ham qatnashadi.

Gapning zarur bo'lagi mavjud/mavjud emasligiga ko'ra turi. Gap zarur bo'lagining barchasi qatnashmayotganligi yoki qatnashmayotganligiga ko'ra ikkiga bo'linadi:

a) **to'liq gap;**

b) **to'liqsiz gap.**

To'liq gapda fikrni ifodalash uchun zarur bo'lgan bo'lakning barchasi qatnashadi: **Ulardan xat keldimi?**

To'liqsiz gapda nutq vaziyatidan ma'lum bo'lgan ayrim bo'laklar tushiriladi: **– Siz maktabga borasizmi? – Boraman** (ega (men), hol (maktabga) tushirilgan).

To'liqsiz gapning quyidagi turi mavjud:

a) dialogik nutq tarkibidagi to'liqsiz gap: **– Kim kelmadi? – Ahmad;**

b) ibora shaklidagi to'liqsiz gap: **Tug'ilgan kuningiz bilan! Navro'zingiz muborak!**;

d) qo'shma gap tarkibidagi to'liqsiz gap: **Yaxshilab o'qi qolad, yomondan dod (qolad)**

Gapning murakkablashtiruvchi vositasiga ko'ra turli. Undalma, kirish so'z, kirish birikma, kirish gap va kiritma qurilma bilan murakkablashishi mumkin. Shunga ko'ra:

a) murakkablashmagan gap;

b) murakkablashgan gap

farqlanadi.

Murakkablashmagan gap tarkibida undalma, kirish so'z, kirish birikma, kirish gap va kiritma qurilma ishtirok etmaydi: **O'quvchilar maktab bog'iga to'planishdi.**

Murakkablashgan gap tarkibida undalma, kirish so'z, kirish birikma, kirish gap va kiritma qurilma ishtirok etadi. Shunga ko'ra murakkablashgan gapning:

a) undalmali gap;

b) kirish so'z/birikma/gapli gap;

d) kiritma qurilmali gap

turi farqlanadi. Bu murakkablashtiruvchi vositalar qo'shilsa ham gap bo'lagi bilan sintaktik aloqaga kirishmaydi.

Undalma. So'zlovchining nutq qaratilgan shaxs/narsa/mavjudotni bildirgan so'z undalma deyiladi. Undalma, odatda, ikkinchi shaxsga qaratilgan bo'ladi: **Kel, ey, dilbar, kel bo'ston vaqti bo'ldi.** She'riy asarda shoir ba'zan o'ziga, ya'ni so'zlovchiga ham murojaat qilishi mumkin: **Nazm tuz. Erkin, axir, erkin zamondur bu zamon.** Undalma boshqa gap bo'lagi bilan faqat intonatsiya bilan bog'langan bo'ladi.

Undalma ko'pincha bosh kelishikdagi ot bilan ifodalangani uchun ergaga o'xshab ketadi, chunki u ishtirok etgan gapda ko'pincha ega tushiriladi. Biroq ega kesim bilan shakl va son (birlik va ko'plikda) bog'langan bo'ladi, undalma esa bog'lanmaydi: **Karimjon** kega. (3-shaxs, birlik) **ertaga keladimi** (kesim 3-shaxs, birlik)? **Karimjon** (undalma, 3-shaxs, birlikda), **ertaga kelasizmi** (2-shaxs, ko'plikda)?

Ayrim holda ayniqsa she'riy asarda hayvon, qushjonsiz narsaning nomini bildirgan so'z ham undalma bo'ladi: **Quyosh, nuring to'kib ber mo'l-ko'l! Bahor, ketma bizning bog'lardan!** Bir so'z bilan ifodalangan undalma **yig'iq undalma** (**Bugun menga bir qaraishib yubormaysanmi, Otabek**), so'z birikmasi bilan ifodalangan undalma **yoyiq undalma** (**Ey, usta Parfi, keling, bormisiz?**) deyiladi. Undashni kuchli ifodalash uchun undalmadan oldin **o, ey, hoy, obbo** kabi undov ham qo'llanadi, keyin vergul qo'yiladi.

Undalmaning ifodalanishi:

1) ot: Hamid, badiiy o'qish to'garagiga qatnashasanmi?

2) olmosh: Hoy, sen, menga qara-chi.

3) otlashgan sifat: **Shunday demaysizmi, azizim!**

4) otlashgan son: **To'rtinchi**, birinchiga javob bering.

5) so'z birikmasi: Hoy, **imonsiz qari chol**, aroq-paroq ichdingmi?

6) ibora: Yigit tushmastur, **nima qilib qo'ydingiz!**

Undalma gapning boshida kelsa, undalmadan so'ng; gap o'rtasida kelsa, ikki tomoniga; gapning oxirida kelsa, undalmadan oldin vergul qo'yiladi: **So'zla, ko'zguron, Haqiqatni et bayon!**

Kirish so'z/birikma/gap. So'zlovchining bayon kelgan fikriga munosabatini bildiruvchi so'z **kirish so'z**, shunday so'z birikmasi esa **kirish birikma** deb yuritiladi. Kirish so'z va kirish birikma asosan modal so'z bilan ifodalanib, quyidagi ma'nani bildiradi:

1) "ishonch/tasdiq": **albatta, shubhasiz, ma'lumki, haqiqatan, darhaqiqat, haqiqatan ham, so'zsiz;**

2) "gumon": **ehtimol, shekilli, chamasi, balki, taxminimcha, mumkin;**

3) "xoxlash/xohlamaslik": **Baxtimga, baxtga qarshi, attang, afsus;**

4) "bayon qilingan fikrning kimga qarashli ligi": **menimcha, mening fikrimcha, uning aytishicha, aytishlaricha, sizningcha;**

5) "bayon qilingan fikrning tartibi": **birinchidan, ikkinchidan...**

6) "bayon qilingan fikrning oldingi fikr bilan bog'liqligi": **demak, shunday qilib, umuman, aksincha, ba'zan, aks holda, xullas, shuningdek, ayniqsa, asosan, binobarin, xususan;**

7) "bo'lish/bo'lishsizlik": **ha, yo'q, mayli, to'g'ri.**

Kirish so'z yoki birikma gapning boshida kelsa, undan keyin, gapning o'rtasida kelsa, ikki tomoniga, gapning oxirida kelsa, undan oldin vergul qo'yiladi: **Nihoyat**, ular jo'nashdi. Ular, **nazarimda**, ketishdi. Hali-beri **qishning keti ko'rinmaydi, shekilli.**

Kirish gap so'zlovchining o'zi bayon qilgan fikrga qo'shimcha mulohazasini bildiradi. Kirish gap asosiy fikrni to'ldirish, izohlash uchun ishlatiladi. U odatda vergul bilan ajratiladi: **Biz, sinf rahbarimiz aytdi**, ertaga **sayohatga boramiz.**

Kirish gap yoyiq bo'lsa, tire bilan ajratiladi yoki qavs ichiga olinadi: 1. **Mirzakarimboy boshqalarga maqtanmasa ham (maqtanchoqlikni yomon ko'rar edi) ba'zi vaqt ichidan faxrlanardi.** 2. **Qabulxona – bu yer ilgari katta boyning mehmonxonasi bo'lgan bo'lsa kerak – qorong'i edi.**

Kirish gapning tuzilish turi:

a) bir bosh bo'lakli: **U yog'ini so'rasang, aytayni – men bunga rozi emasman;**

Ig ikki bosh bo'lakli **Ibrohimov, Qudbon_ota aytmoqchi, gullarni o'z ilmidan bahramand qildi.**

Mustahkamlash uchun savollar

1 Gap va uning belgisi haqida gapiring. 2 Darak gap nima? Misol keltiring. 3 So'roq gap gap nima? Misol keltiring. 4.Buyruq gap gap nima? Misol keltiring. 5 Sof so'roq gap gap nima? Misol keltiring. 6.Ritorik so'roq gap gap nima? Misol keltiring. 7 His-hayajonli gaplar qanday turlarga bo'linadi? 8.His-hayajonli gap haqida gapiring va misol keltiring. 9 His-hayajonli gap haqida gapiring va misol keltiring. 10. So'roq his-hayajon gapda kirish bo'lagini haqida gapiring va misol keltiring. 11 Gapning grammatik asos miqdori (tuzilishiga ko'ra) turi haqida gapiring va misol keltiring. 12. Sodda gapning ta'rifini ayting. 13 Qo'shma gapning ta'rifini ayting. 14 Gapning grammatik asos tarkibiga ko'ra qanday turi bor? 15 Bir bosh bo'lakli gap haqida gapiring va misol keltiring. 16 Ikki bosh bo'lakli gap haqida gapiring va misol keltiring. 17.Yoyiq ikki bosh bo'lakli gap haqida gapiring va misol keltiring. 18.Yoyiq ikki bosh bo'lakli gap haqida gapiring va misol keltiring. 19 Gapning zarur bo'lagi mavjudligi munosabatiga ko'ra qanday turi bor? 20 To'liq gap nima? 21 To'liqsiz gap nima? Misol keltiring. 22. Gapning murakkablashish(o'sish) xossasiga ko'ra qanday turi bor? Misol keltiring. 23 Murakkablashmagan gap nima? Misol keltiring. 24 Murakkablashgan gap nima? Misol keltiring. 25 Undalmali gap nima? Misol keltiring. 26 Undalmaning ifodalanishi haqida gapiring. 27 Kirish so'z(bo'lim)li gap nima? Misol keltiring. 28.Kirish gapdagi qanday ma'noni bor? 29 Bir bosh bo'lakli kirish gap nima? Misol keltiring. 30 Ikki bosh bo'lakli kirish gap nima? Misol keltiring.

Topshiriq

1. «Jonim!» – Kapitan Faragut buyurdi. (J.Vern.) 2 Sport musobaqa. Shun – musobaqaga (A.Mux.) 3. Shunday qilibdir qo'rqoqni sarmoh uyda og'rib yotsak, ro'zimiz (A.Mux.) 4 Bizdaga odam bir og'iz eshitdimi, ko'zlari 10 dona (A.Mux.) 5 Shu zahoti mayna-o-on qildi. (Mirm.) 6 Kula-o-ol, uyg'onise-san? (Mirm.) 7. «Kenalga-a!» – degan ovozlar ko'kka ko'tarildi. (N.Beh.) 8 Qoraposh qichqirdi: «Lenta! Lenta-a!» (I.Rah.) 9.Bu hisobmas, boshqa narsalar endi xalqimizda. Yetaligan bo'l-ib. (A.Mux.) 10 «Kim?», – deb so'roq o'rnida (ruxsat) «O-ochi», – deb baqirdi Yo'ldosh. (S.Ahm.) 11 U qoshi ochiq-yu omon bu baxtning bir qismi kemlik edi. (S.Ahm.) 12.Qizig, hozir yuzim pardozsiz bo'lgani uchun xushlamaydi, lekin yuvi qo'ldan chiqqan bezak unga yaqin kelgan kimsa borki, o'z izmga-yo'qiga solib ongor qiladi. (X.Dav.) 13.Biz gulning nafisligini suvning zaifligini oppoq bulutlarning go'zalligini, oydin tunlarning zavq bakshligini bilamiz-u, nima

uchunligini chuqur sezavermaymiz. (K.Sot.) 14.Zero xalq shunday dirijyor azonki, u toshsa, uning mavjoan na shohning qasri, na daraxtining kunosi qolur. (Oyb.) 15.Esiz, taqdir ekan qaydan bilamiz. Azizim, dunyoga bevaqt kelibsiz. (Uyg' va I.Sult.) 16.Shunday ekan, hech ikkalasidan ayrilgandek, hech bir aqlli odam o'zining tabiiy, go'zal fazilatini yo'qotib, o'z aqlini mol-dunyoga almashtirmaydilar. (K va D.)

Gaplarni tahlil qiling

Tahlil tartibi:

1. *Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turi*

1) darak gap;
2) so'roq gap:
a) sof so'roq gap;
b) nolank so'roq gap
3) buyruq gap:

a) maslahat ma'noli. b) buyruq ma'noli d) illimos ma no'li; e) orzu ma'noli ; l)hayratlanish ma no'; g) g amxo'rlik ma'noli, h) iltimos ma no'li; i) gumon ma noli j) g'azab ma noli; k) do'q ma'noli.

2. *Gapning his-hayajon ifodalashiga ko'ra turi:*

a) his-hayajonli gap.
b) his-hayajonsiz gap

3. *Gapning grammatik asos miqdori jihatidan ko'ra turi:*

a) sodda gap
b) qo'shma gap.

4 *Gapning grammatik asos tarkibiga ko'ra turi*

a) bir bosh bo'lakli;
b) ikki bosh bo'lakli gap.

5 *Gapning zarur bo'lagi mavjud/mavjud emasligiga ko'ra turi*

a) to'liq gap
b) to'liqsiz gap
1) dialogik nutq tarkibidagi to liqsiz gap
2) ibora shakl idagi to' iqsiz gap:
3) qo'shma gap larkibidagi to liqsiz gap

6 Gapning murakkablashiruvchi vositasiga ko'ra turi.

a) murakablashmagan gap,
b) murakkablashgan gap
1) undalamali murakkablashgan gap;
2) kirish so'z/birikma/gapli murakkablashgan gap

36- DARS
GAP BO'LAGI. BOSH BO'LAK

Gap bo'lagi haqida umumiy ma'lumot. Sodda gapning **tarkibiy qismi** gap bo'lagi deyiladi. Gap bo'lagini ajratishda asosiy belgi - ular orasidagi sintaktik aloqa. Gapdagi so'zga so'roq berish, uning qaysi turkumga mansubligi, gap ichida joylashish tartibi, ohangday qo'shimcha olishi ham ma'noda gap bo'lagi turini belgilashda asos bo'la olmaydi.

Gap bo'lagining kesimini aniqlashdan boshlanadi. Chunki asosiy xabar kesimda mujassamlangan bo'ladi. Gapdagi boshqa barcha bo'lak olib tashlansa ham, mazkur xabar saqlangan bo'ladi. Lekin birorta kesimni olib tashlash, boshqa bo'lak saqlansa, bu xabar yo'qoladi.

Kesim orqali ega va hol, ular orqali esa to'ldiruvchi va aniqlovchi aniqlanadi. Gap bo'lagining turlicha bir biriga nisbatan aniqlanadi: hol va ega kesimga nisbatan, ega qiluvchi aniqlanmishga nisbatan, to'ldiruvchi to'ldirilmishga nisbatan. Umuman olganda, qolgan barcha bo'lak bevosita yoki bilvosita kesimga bog'lanadi. Shuning uchun u **gapning grammatik markazi** deyiladi.

Ega va hol kesimga bog'lanadi. Lekin aniqlovchi bilan to'ldiruvchi har qanday bo'lakka bog'lanishi mumkin.

Gap bo'lagi darajasiga ko'ra ikki xil:

1) bosh bo'lak.

2) ikkinchi darajali bo'lak.

Bosh bo'lak. Aytilganidek, ega va kesim - bosh bo'lak. Boshqa bo'lak ega va kesimga tobelanadi. Ega o'z navbatida kesimga tobe. Kesim esa gapning markaziy bo'lagi.

Kesim. Kesim - tasdiq, inkor, mayl, zamon, shaxs-son ma'nosi va shakliga ega bo'lgan, gapning egasi haqidagi xabarni ifodalovchi bo'lak. Kesimsiz gap bo'lishi mumkin emas. Gapda kesim bo'lmasa, u o'zbek tili uchun to'liqsiz gap hisoblanadi. Kesim qaysi turkum so'zi bilan ifodalansa, shu turkum so'roq'iga javob bo'ladi. Ifodalaydigan xabarning tabiatiga ko'ra ikki xil:

1) **mustaqil kesim;**

2) **nomustaqil kesim.**

Mustaqil kesim. Mustaqil kesim sodda gap tarkibida ham, qo'shma gap tarkibida ham bir xil ma'no beradi. Masalan: **Karim keldi.** Lekin **Salim kutmadi** gapidagi mustaqil kesim shu qo'shma gap tarkibida ham, sodda gap tarkibida ham bir xil ma'noga ega. Qiyos'ang: **Karim keldi. Salim kutmadi.**

Nomustaqil kesim. Ayrim kesim sodda gap tarkibida boshqa, qo'shma gap tarkibida boshqa ma'no beradi. **Salim kelsa** (shart), **men boraman**

gapi tarkibidagi ergash gapning kesimi. "shart" ma'nosini ifodalanmoqda. Lekin qo'shma gap sodda gapga ajratilsa, bu kesimning ma'nosi o'zgaradi: **Salim kelsa**(shart). Bunday kesim nomustaqil kesim deyiladi. –sa shart mayli qo'shimchasi, uning –sa edi, -ganda edi o'rnida zamon ko'rinishi, -di hamda **-ganicha yo'q, -ganicha yo'q edi, -gan edi, -ardi, -ar ekan** o'rnida zamon qo'shimchasi kabilar nomustaqil kesimni shakllantiradi.

Qo'shma gap tarkibida	Sodda gap tarkibida
Havo ochilsa, ishni boshlaymiz.	Havo ochilsa.
Kitobim bo'lsa edi, tezda bajarar edim.	Kitobim bo'lsa edi.
Salim kelganda edi, bir zumda hal qilar edik.	Salim kelganda edi.
U aytardi (aytsa edi), men bajarardim.	U aytardi.

Kesimning ifodalanishi. Kesim ifodalanishiga ko'ra ikki xil:

1) fe'l kesim;

2) ism kesim.

Fe'l kesim. Harakat nomidan boshqa fe'l shakli bilan ifodalangan kesim fe'l kesim deyiladi. Fe'l kesimning quyidagi turi bor:

a) sof fe'l kesim: **Men maktabga boraman;**

b) ravishdosh kesim: **Motor** <u>**gurillab**</u>**, mashina oldinga intildi. Ishning boshi** <u>**boshlanguncha**</u>.

c) sifatdosh kesim. **Po'lat xatni kecha yuborgan.**

Ot kesim. Fe'ldan boshqa turkum (ot, sifat, son, olmosh, ravish, taqlid, modal) va harakat nomi bilan ifodalangan kesim ot kesim deyiladi:

1) ot kesim: **Qarg'a nima deyotganini bilmaymiz, chunki u – qarg'a, biz – odam;**

2) sifat kesim: **Ertaqsir, qissamiz uzun,**

3) son kesim: **Ikki karra ikki – to'rt;**

4) ravish kesim: **O'ztashtirishing – yodaki**

5) taqlid kesim; **Hamma tomon** <u>**g'uvur-g'uvur**</u>,

6) olmosh kesim: **Sen –** <u>**mensan-u**</u>**, men –** <u>**senmen**</u>**, qissamni bayon etsam;**

7) modal kesim: **Tinchlik yo'q.**

Kesimning tuzilishi. Kesim tuzilishiga ko'ra ikki xil:

a) **sodda kesim;**

b) **murakkab kesim.**

Sodda kesim bir so'z bilan ifodalanadi: 1.**Sen bahorni** <u>**sog'inmadingmu?**</u> 2. **Majlis shunga** <u>**qaror qildi.**</u>

Eslatma

Qo'shma, juft fakrony so'z. Ularo bilan ifodalangan kesim ham sodda kesim deyiladi. Chunki u yaxlit holda bitta so'z yoki unga teng hodisa.

Murakkab kesim undan ortiq so'z bilan ifodalanadi. 1. Ayozli kunlar birin-ketin **o'tib boryapti**.

Murakkab kesim tarkibidagi ikkinchi so'z ko'makchi fe'l bog'lama, nisbiy so'z bo'lishi ham mumkin.

Murakkab kesimga misol:

a) qo'shmalik: **Bu kun biz uchun og'ir kun; O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat;**

b) to'liqsiz fe'l so'z. **Anjir kulchaday yirik va halvatarday yumshoq edi;**

d) ko'makchili so'z: **Hammasi sen uchun, dilovar uchun;**

e) bog'lamali: **Bunday odamlarni nedan hisoblashadi;**

f) ko'makchi fe'li:**Hamma ham xalqqa xizmat qilgisi keladi.**

Murakkab **ot-kesim** quyidagi xususiyatga ega:

a) ot+sifat+son+olmosh+ravish+ bo'lmoq fe'li yoki to'liqsiz fe'l: **Mehnat qancha qiyin bo'lsa, noni shuncha shirin bo'ladi;**

b) yo'q,bo'lmoq,zarur,lozim kerak+bo'lmoq fe'li yoki to'liqsiz fe'li: **Uzoqda ko'ringan sharpa bir zumda yo'q bo'ldi;**

d) harakat nomi +kerak,lozim,shart,darkor. **Choyxona yangi solingan qishki binoga ko'chib kirishi va bayramda ochilishi kerak edi.**

Kesimni shakllantiruvchi va uni ega bilan bog'lovchi ko'makchi fe'l, to'liqsiz fe'l (**edi, ekan, emish**) va shuningdek, **bo'lmoq, hisoblanmoq, sanalmoq, deyilmoq** kabi vaqtincha o'z asl ma'nosini yo'qotgan ayrim mustaqil so'z, **kerak, lozim, zarur, shart, darkor** kabi modal ma'noli so'z **bog'lama** deyiladi.

Eslatma

Mustaqil so'z -moq, -(i)sh qo'shimchali harakat nomi bilan kelib kesim tarkibida qatnashganda kesimlik so'zi ham deyiladi. Ular yuklamaga aylangan ot (ishart), modal (kerak, zarur, lozim, darkor, mumkin, muhim) lukumga to'ldirib ko'lishi mumkin.

Bog'lama. Kesim **ot, sifat, son, olmosh, bor, yo'q** so'z, turli **modal**dan, **undovdan** ifodalansa, ega bilan moslashtirish uchun bog'lamadan foydalanamiz.

a) **-dir**. **Tamagirlik bilan topilgan eng kichik narsa ham bebaqodir.**

b) to'liqsiz fe'l: **Shu shaharning mevasi erurmiz. Deydilar sog'liq hayot bergan ehson ekan.**

d) **bo'ldi, qildi, etdi** yordamchi fe'l: Harom mol kishini halok etadi. **Kecha biz bakovul bo'ldik. O'qituvchimiz majlis qildi.**

e) ayrim mustaqil fe'l: **Muallim ulug' zot sanaladi. Ozodlik buyuk ne'mat hisoblanadi.**

Ega. Gapdagi xabarning kim yoki nima haqida ekanligini bildirib, kesimga tobe bo'lgan bo'lak **ega** deyiladi. Ega kim, nima, qayer so'rog'ga javob bo'ladi. Kishilar (kim) **Hakimani va boshqa qizlarni maqtashdi. O'tloqda bedana** (nima) ko'p. Atrof (qayer?) jimjit.

Ega bosh kelishikda bo'ladi va ifodalanishi, odatda, quyidagicha:

1) o: Shamol gul hidlarini atrofga taratdi;

2) olmosh: **Ular to'garak mashg'ulotiga muntazam qatnashadi:**

3) harakat nomi: **O'qish tugadi;**

4) otlashgan (sifat, son, sifatdosh, ravish, taqlid so'z) so'z: Yaxshilar (sifat) ko'paysin, yomon qolmasin. Ikkovimiz (son) dala aylandik. Bilgan (sifatdosh) bilganin ishlar, bilmagan (sifatdosh) bamog'in tishlar. Kelgan (ravish) qatnashdi. **Uzoqdan to'plarning gumbur-gumburi** (taqlid) eshitilardi;

5) ibora: Uning yuziga oyoq qo'yish axloqimizga zid;

6) kengaygan birikma: Otlarning otkonaga olib o'tilmagani Ziyoditani **taajjublantirdi.**

Ba'zan kesim bilan bog'langan bir necha so'z ham butunicha yoki bo'lak-bo'lak ravishda ega bo'lib kelishi mumkin: Otam bilan akam bozorga ketishdi.

Eslatma

Ba'zan ega chiqish kelishigidagi so'z bilan ham ifodalanishi mumkin. Bunda haqiqiy ega tushirilgan bo'lib, undan oldin kelayotgan chiqish kelishigidagi so'z ega vazifasini bajarayotgan bo'lib qoladi. Unda ham bu kitobdan bor. Bu qoidagi haqiqiy egani tiklash mumkin. Unda ham bu kitobdan biri bor tarzida

Egali va egasiz gap. Gapning egasi bor yoki yo'q bo'lishi mumkin. Shunga ko'ra:

a) **egali** (shaxsli);

b) **egasiz** (shaxssiz)

gaplar farqlanadi.

Egali gap. Egasi ifodalangan gap egali gap deyiladi. Bunday gapning egasini kesim orqali so'roq berish yo'li bilan aniqlash mumkin va u gapda mavjud bo'ladi: 1. **Salim shu vazifani bajarishi shart.** 2 **Bugun Samarqandga boramiz.** Egali gap o'z o'rnida ikkiga ajraladi:

a) egasi voqelangan gap: **Salim shu vazifani bajarishi shart.**

h) egasi yashirinqan gap: **1. Bugun Samarqandga boramiz. 2. So'zimning ustidan chiqaman** (men) **3. O'ylab ko'rsin** (u) **4. Hurmat qilsang, hurmat topasan** (hammasi).

Egasi yashirinqan gap quyidagi turlarga ega:

a) egasi (shaxsi) ma'lum gap;

b) egasi noma'lum gap;

d) egasi (shaxsi) umumlashgan gap.

Egasi ma'lum gapda egani kesimdagi shaxs-son qo'shimchasi orqali tiklasa bo'ladi. Bunday gapning kesimi odatda 1-, 2-, qisman 3- shaxsda bo'ladi: **1.Masalani yechdingizmi? 2. Shaftolizor bog'larni ko'rdim. 3. Derazadan ko'chaga tikilgani tikilgan.**

Egasi noma'lum gapning egasi mavjud, lekin anig bo'lmaydi. **1. Farg'onada kichikkinasi nam sizlashadi. 2. Bu ishni ma'qul deyishadimi-ka?**

Egasi umumlashgan gapda ega ikkinchi va uchinchi shaxsga qarat lganda (ba'zida, aniqlik hamda uchun) anig bo'ladi. Bunday eganing umumlashish maqsadi, odatda, kitobxonni, odat tusiga kirgan rasm-rusumni bayon etuvchi gapda uchraydi: **1.Hurmat qilsang, hurmat topasan. 2. Sog'liq tilasang ko'p yuma. 3. Yaxshilikni minnat uchun qilmaydilar. Avtobusga orqa eshikdan kiriladi.**

Egasiz gap. Egasiz gapda ega tamoman bo'lmaydi va gap ma'nosidan anglashilmaydi. Egasiz gapning

a) shaxsi topilmas gap,

b) atov gap;

d) so'z-gap

turi farqlanadi.

Shaxsi topilmas gapning kesimi fe'l bilan ifodalanadi va ish-harakatni bajarishga imkoniyat, zaruriyat, shart, tilak, istak ma'nosini ifodalab keladi. Bunday gap kesimining eng muhim formasi kesimdagi **shart, lozim, darkor, joiz** kabi so'z bilan kelgan harakat nomi. shaxs-sonni ko'rsatuvchi vositaga ega bo'lmaydi. **1. Dam olish kuni kitobxonlar yig'iniga borish kerak. 2. Ko'ngilda armon qolmasin deb, chilyosin qilishga ham to'g'ri keldi. 3. Bu yerda o'rtoq Ergashevning hushyorligiga tan berish kerak.**

Shaxsi topilmas gapning kesimi

a) ma'lum nisbatdagi fe'l: **borildi, o'qiladi, berilayotir.**

b) **-ga to'g'ri kelmoq** ko'rinishda murakkablashgan fe'l: **borishga to'g'ri keldi. aytishga to'g'ri keladi.**

d) **harakat nomi + kerak/zarur/shart** kabi modal: **borish kerak. bilish shart, aytish zarur.**

Eslatma

Bunda harakat nomi egalik shaklini olsa, egalik gapga aylanadi: **Borishi kerak** (u), **aytishim zarur** (men).

o'qisa bo'ladi, -ib **bo'lmaydi** kabi murakkablashgan holda: **Mana buni o'qish desa bo'ladi. Oyni etak bilan yopib bo'lmaydi.**

Aloy gap narsa-hodisaning nomini o'tgan yoki hozirgi zamonda qayd etish bilan cheklanadi: 1.**Amu-Buxoro kanali.** 2.**Sentabrning boshlari edi.** 3.**Hamon yodimdadir: gul chog'i erdi.**

Aloy gap yig'iq yoki yoyiq bo'lishi mumkin: **Bahor** (yig'iq) – **Erta bahor** (yoyiq). U turli sodda va murakkab shakllarda, to'liq va noto'liq bo'lib qo'llanaverib kengayadi: 1.**Tog' bag'rida qad ko'targan yam-yashil o'tov.** 2. **Qip-qizil saraton quyoshi.** 3. **Qaqragan ming-ming gektarga hayot suvi olib kelgan qudratli inshoot.** 4. **Hali ona suti og'zidan ketmagan qizni qari bir cholga berish.** 5.**Ilk bahorning serzavq kunlari.**

Aloy gap badiiy va publitsistik nutqda keng qo'llanadi.

So'z-gap. Bir so'zdan iborat bo'lib, tarkibiy qismga ajralmaydigan boshqa so'z bilan kengaymaydigan gap **so'z-gap** deyiladi: 1.**Mayli.** 2.**Yo'q.** 3.**Assalomu alaykum.**

So'z-gap tasdiq, inkor, so'roq, taajjub, his-hayajon kabini ifoda etib, ko'proq dialogik, ba'zan monologik nutqqa xos bo'ladi, modal yoki undov bilan ifodalanadi: **Xo'p. Albatta.** Ba'zan takrorlanib qo'llanadi: **Nima-nima? Yo'q-yo'q.**

Eslatma

*So'z-gapdan keyin vergul qo'yilib, uni izohlovchi birlik kengaysa, so'z-gap kirish so'zga o'tib qoladi: **Mayli** (so'z-gap) – **Mayli**, kirish so'z), **boraman**.*

Ega bilan kesimning shaxs-sonda moslig'i. Ega bilan kesimning shaxs-sonda mos'gini ikkiga bo'lib o'rganish mumkin:

a) **shaxsda moslik;**

b) **sonda moslik.**

Shaxsda moslik. Ega va kesim bir-biri bilan shaxsda hamma vaqt mos bo'ladi. **Biz maktab jamoat ishida faol qatnashamiz.**

Eslatma

*Nutqda **Hayron bo'lasan kishi** tarzidagi gap qo'llanadi. Bu gapda ega va kesim shaxsda moslashmagan: ega **(kishi)** III, kesim esa II shaxsda. Bu - kam uchraydigan hodisa.*

Sonda mostlik. Sonda qo'yidagi holat muhim:

a) fe'l-kesim I va II shaxsda ega bilan hamma vaqt sonda mos bo'ladi: **Biz yordam berdik.**

b) kesim III shaxsda ega bilan hamma vaqt sonda moslashavermaydi:

1) kishi ni bildiruvchi III shaxsdagi ega bilan fe'l-kesim sonda mos bo'ladi: **Dehqonlar ishni boshlab yubordilar;**

2) ko'p kdagi ega kishini emas, narsa-buyumni bildirsa, fe'l-kesim odatda, ega bilan sonda mos ashmay, birlikda ishlatiladi. **Kitoblar olindi.**

3) fe'l-kesim ko'plikdagi ega bilan ko'pincha mos ashmaydi: **Uyda akam, opam va singlim bor edi.**

4) gapda egani ng aniqlovchisi miqdor son bilan ifodalansa, kesim va ega birlik shaklida bo'ladi: **Uchta qiz yordamga keldi.**

Ega va kesim mosligini yuzaga kelishida oralig'ni ahamiyatli o'rin tutadi. **1.Yer xazina – suv oltin. 2.Qo'l – yaratuvchi. 3.Bu – maktab, do'stim.**

Ega bilan kesim orasida tirening ishlatilishi. Quyidagi holatlarda ega bilan kesim orasiga tire qo'yiladi:

1) gapning kesimi bosh kelishikdagi ot bilan ifodalanib, bog'lama yoki kesimlik qo'shimchasi bo'lmasa: **Toshkent – go'zal shahar;**

2) gapning egasi yoki kesimi yoxud ikkisi ham harakat nomi bilan ifodalansa va bog'lama bo'lmasa: **Kulish – umrni uzaytirish vositasi;**

3) gapning egasi yoki kesimi birikma bilan ifodalanib, tenglik, o'xshatish, kabi ma'noni bildirsa va bog'lama bo'lmasa: **Yaxshi qiz – yoqadagi qunduz;**

4) ega yoki kesim ko'rsatish olmoshi yoxud miqdor son bilan ifodalanib, oldinda qaratib ko'rsatilsa, bog'lama yoki qo'shimchasi bo'lmasa: **1.Ana shu – mening uyim. 2.Uch karra uch – to'qqiz;**

5) ega bilan kesim **bu, u, mana bu** so'zi bilan ajratilganda tire shu so'zdan oldin qo'yiladi: **Istiqlol – bu o'zbek xalqining azaliy orzusi.**

Quyidagi holatda ega bilan kesim orasiga tire qo'yilishi lozimdek bo'lsa ham qo'yilmaydi:

1) ega kishilik olmoshi bilan ifodalangan bo'lsa va bog'lama bo'lmasa ham: **U tajribali iqtisodchi;**

2) kesim bosh kelishikdan boshqa kelishik qo'shimchasini olgan bo'lsa: **Butun umidimiz sendan;**

3) ega bilan kesim orasida **ham** yordamchi so'zi bo'lsa: **Men ham kichik paxtakor;**

4) kesim sifat, son (miqdor-sondan tashqari), ravish bilan ifodalansa: **1.Shahrimiz go'zal. 2.Kitoblar soni beshta. 3.Mening orzularim ko'p.**

5) ta'kidlash uchun yuklama qo'llanganda: **1.Men ham talaba. 2.Yer xazinami? 3.Bu kitob-ku?**

Eslatma

*Sa'zan ta'kidni kuchaytirish uchun kesimlik qo'shimchasi bo'lishiga qaramay, egadan keyin tire qo'yilishi mumkin. **Adabiyot – hayotning badiiy ifodasidir.***

Mustahkamlash uchun savollar

1.Gap bo'leklarini nima? 2.Bosh bo'laklarga ta'rif bering. 3.Kesim nima uchun gap markazi deyiladi? 4.Kesimning ifodalanishiga ko'ra turi haqida gapiring. 5.Qanday so'z bilan ifodalangan kesim ot kesim deyiladi? 6.Qanday kesim fe'l kesim deyiladi? 7.Bog'lama haqida gapiring? 8.Qanday kesim sodda kesim deyiladi? 9.Qanday kesim murakkab kesim deyiladi? 10.Qanday kesim mustaqil kesim deyiladi? 11.Nomustaqil kesimni ta'riflang va misol keltiring. 12.Qanday hollarda ega bilan kesim orasida tire albatta bo'ladi? 13.Qanday gap egali gap deyiladi? 14.Qanday gap egasiz gap hisoblanadi? 15.Egasi yashirinmagan gap haqida gapiring va misol keltiring. 16.Egasi ma'lum gap deb qanday gapga aytiladi? 17.Egasi umumlashgan gap qanday gap? Misol keltiring. 18.Egasiz gapni ta'riflang va misol keltiring. 19.Egasiz gapning qanday turi bor? 20.Egasi noma'lum gapni ta'riflang va misol keltiring. 21.Atov gap nima va uning qanday turi bor? 22.Yig'iq atov gapga misol keltiring. 23.Yoyiq atov gapga misol keltiring. 24.So'z-gapga misol keltiring. 25.So'z gap qanday holda kelib so'zga aylanadi?

Topshiriq

1. O'g'lingiz kelganidan ovoz berdi. – Otang! (T.Mur.) 2. «Voy onaa! Sho'rim qurdi! Kuyman bilsa! Endi nima qilmasam?» – deb o'kira yig'lab Abduvali. (N.Qil.) 3.Kampir o'g'lining ovoziga «Hozir» deb javob berdi. (O.Hoj.) 4.Otu eso tog'lar bir ovozdan jar solib yig'layverdi. Mahhabbatxon, mastonaga o'ylan, onamcheey!.. (N.Qil.) 5. Ochkiz ojena, sizga xabar! Kalta konvertdan xabar! (N.Qo.) 6. Akao! Meni tashlab, o'zlaring ketmoqchisizlar. (S.Ahm.) 7. Yordaam! – qichqirdi Gulsanam. (Ham.) 8. O'g'y jonuki otlar olib borsin, – dedi. (T.Mur.) 9.Bir tarafi darvoza bo'z otliq qizar bilmoyerdi. Qora otliqlarga ikkinchi darvoza berilgan. O'yanoldan farq qilish oson bo'lishi uchun bo'z otliq uzlari sariq rangli cholvor va ormoqli kiyishgan. Qora otliqlar esa qizil kiyarda. Imomul muzzamning yoshqina xotini Sultonbibi begim maydon atrofida somon otiq yo'lidi, o'yinga hakamlik qildi. Uning qo'lida zarg'aldoq bilan o'ynashga chiroyli qilib yasalgan otin bor edi. Qo'shni bo'zgorlar shu hushtak bilan ogohlantirildi. Bir payt to'p bo'z otliqlarning darvozasiga kirdi-yu, o'yinning shiddati oshib ketdi. Xonzoda begim cho'ziqcha piyolaning bo'-bo'siga shoq-shoq urilayotgan bo'z otliqlar juda qattiq hujumga o'tganini ko'rarda.

«biron kor-hol bo'lmasin tag'in», deb beixtiyor xavotirlanar. Bu xavotirlik endi uning e'tiborini o'ziga tortdi. Taqa-tuqu ot chopayotganlar – boy yetgan xushro'y qizlar. Ularning orasida Gulbadan begim ham bor. Qizlarning hech biri Xonzoda begimning ko'z oldida mag'lub bo'lib, uyalib qolishni istamaydi, hammasi to'pni boshqalardan tortib olishga intiladi.

Gapni bosh bo'laklari bo'yicha tahlil qiling.

Tahlil tartibi:

1. Kesimning turi:

a) mustaqil kesim;

b) nomustaqil kesim.

2. *Kesimning ifoda usuliga ko'ra turi:*

a) ot kesim: 1) ot bilan ifodalangan kesim; 2) sifat bilan ifodalangan kesim; 3) son bilan ifodalangan kesim; 4) ravish bilan ifodalangan kesim; 5) taqlid bilan ifodalangan kesim; 6) olmosh bilan ifodalangan kesim; 7) modal bilan ifodalangan kesim.

b) fe'l kesim: 1)sof fe'l bilan ifodalangan kesim; 2) ravishdosh bilan ifodalangan kesim; 3) sifatdosh bilan ifodalangan kesim;

3. Kesimning tuzilishiga ko'ra turi:

a) sodda kesim;

b) murakkab kesim.

4. Gapning egasiga ko'ra turi:

a) egali (shaxsli); b) egasiz (shaxssiz). 1) egasi topilmas gap: a) shaxsi noma'lum gap; b) atov gap; d) so'z-gap; 2) egasi yashiringan gap: a) egasi (shaxsi) ma'lum gap; b) egasi (shaxsi) umumlashgan gap.

5. Ega bilan kesimning shaxs-sonda moslig'i. a) shaxsda mos, b) sonda mos; d) shaxs-sonda mos.

37- DARS
IKKINCHI DARAJALI BO'LAK

Ikkinchi darajali bo'lak haqida. Gapning ikkinchi darajali bo'lagi bosh bo'lakka tobe bo'lib, uni to'ldirib, aniqlab, izohlab keladi. Ikkinchi darajali bo'lak 3 xil: to'ldiruvchi, aniqlovchi va hol.

To'ldiruvchi. Kelishik va ko'makchi bilan shakllangan **kim**? yoki **nima**? so'roqlariga (**kim/nima+ni/ga/da/dan/chun/orqali/sababli** va h.) javob bo'luvchi va gapda fe'l bilan ifodalanuvchi bo'lakka boshqaruv yo'li bilan bog'lanadigan ikkinchi darajali bo'lak **to'ldiruvchi** deyiladi: 1. **Men bu gapni <u>ukamdan</u> eshitdim**. 2. **Seni eslayman**. Demak, to'ldiruvchi

1) predmetni (kimni, nimani, kimga, nimaga va h. so'roqlarni oladi) ifodalaydi;

2) kelishik va ko'makchi bilan shakllanadi;

3) fe'l bilan ifodalangan bo'lakka (ko'pincha kesimga) bog'lanadi;

4) bosh so'zga boshqaruv yo'li bilan bo'ysunadi.

To'ldiruvchining ikki turi bor:

a) vositali to'ldiruvchi;

b) vositasiz to'ldiruvchi.

Vositasiz to'ldiruvchi o'timli fe'l bilan ifodalangan bo'lakka tobelanib, belgili yoki belgisiz tushum kelishigi qo'shimchasi bilan shakllanadi. **1. Yosh havaskorlar asbobdan zavq bilan aytdilar. 2. Bo'linganni bo'riyer. 3. O'ziga birovning oz-moz til tegizishini ko'tarmasdi. 4. O'quvchilar hozir kitob o'qishyapti.**

Vositali to'ldiruvchi o'timli yoki o'timsiz fe'l bilan ifodalangan bo'lakka tobelanib, jo'nalish, o'rin-payt va chiqish kelishigi shakli yoki ko'makchi bilan shakllanadi. **1. Ravshan sen bilan boradi. 2. Yaxshiga yondash, yomondan qoch. 3. Og'zi bo'shga ishonib bo'lmaydi. 4. Paxta mashina bilan terildi.**

Eslatma

Jo'nalish, o'rin-payt va chiqish kelishigidagi so'z doimo to'ldiruvchi bo'lib kelaveravmaydi, ular ma'no vazifasini ham bajaradi, bunda ham olov savolidan qanday farqlanadi. U yolg'ondan hayron bo'ldi (qanday? – hol). U akasidan eshitdi (kimdan? – to'ldiruvchi). U maktabga bordi (qayerga? – hol). Menga gapirdi (kimga? – to'ldiruvchi).

Umuman olganda, to'ldiruvchi va hol shakllari ko'pincha o'xshash. Lekin asosiy farqi shundaki, to'ldiruvchi predmetni ifodalab, mantiqiy so'rog'ga javob bo'ladi, hol esa bunday xususiyatga ega emas.

Aniqlovchi. Gapdagi biror bo'lakning belgisini yoki bir narsa-buyumning boshqasiga qarashli ekanligini bildirgan bo'lak aniqlovchi deyiladi. Aniqlovchi gapda har doim o'ziga yoki o'xshashgan har qanday bo'lakka bog'lanadi. **1. Mayda qor yog'yapti. 2. Qo'yning og'iri, tovuqning yengili shirin bo'ladi. 3. Oppoq mashina keng ko'chada navbatdagi chorrahani kesib o'tmoqda edi. 4. Toshkent juda chiroyli shahar.**

Aniqlovchi uch xil:

1) sifatlovchi aniqlovchi;

2) qaratuvchi aniqlovchi;

3) izohlovchi.

Sifatlovchi-aniqlovchi predmetning belgisini, miqdorini, tartibini bildiradi va *qanday? qanaqa? qaysi? qancha? nechanchi? necha? qayerdagi?* kabi so'roqlarga javob bo'ladi.

Sifatlovchi-aniqlovchi jonsizdan aniqlangan bo'lak **sifatlanmish** deb yuritiladi. Sifatlovchi va sifatlanmish bitishuv yo'li bilan bog'lanadi. **Notanish kishi** unga qaradi.

Sifatlovchi-aniqlovchining ifodalanishi:

1) so'z turkumi bilan: sifatdosh, ravishdosh, taqlid. **1. Biz** <u>sariq</u> **va** <u>sergo'sht</u> **qo'ylarni ko'paytiryapmiz. 2. O'ninchi yillarning sargardonligi. 3. Taqir-tuqur ovozdan uyg'onib ketdim. 4. O'qigan kishi o'zar. 5.** <u>Ko'r</u> **odamning duosi kor!.**

2) **or.** <u>Asfalt</u> **yo'ldan mashinalar g'iz-g'iz o'tib turibdi. Bunday aniqlovchilar ba'zan majoziy (ko'chma) ma'noni ifodalashi mumkin. Kumush choyshab yopib dalalar ..**

3) **ibora: Unda** <u>og'zining tanobi qochadigan</u> **odat bor. U qo'y og'zidan cho'p olmagan bola.**

4) **so'z birikmasi bilan: 1.U birinchi** <u>kengash</u> **ishni yakunladi. 2.Ukamning uyidagi mollarni ham olib ketishibdi. 2.**<u>Menga tegishli</u> **bo'lakni qoldiring. 3.**<u>Ertaga</u> **bo'ladigan majlis qoldirildi.**

Eslatma

Ba'zan sifatlovchi-aniqlovchi ingichkaygan ma'nolardanki, sifatlovchi-ravishni noaniq bekama-bir farqlanib, yaqin holda kelishi mumkin: Misdek qizarib turgan yuzini ikki kafti orasiga olib, peshonasiga yuzini bosdi.

Qaratqich-aniqlovchi. Qaratqich predmetning boshqa predmetga bo'lgan munosabatini bildiradi va belgi sanoqda belgisiz qaratqich kelishigidagi so'z bilan ifodalanadi. Qaratqich aniqlovchi tomonidan aniqlangan bo'lak qaralmish deyiladi.

Qaralg'on va qaralish munosabati orqali birlik, shaxs va sanoq, albatta, moslashgan holatda: <u>Odamning</u> **qo'li gul.**

Qaratqich aniqlovchining ifodalanishi:

1) **ot bilan: Gulnor** <u>yigitning</u> **so'zlarini diqqat bilan tingladi.**

2) **olmashgan so'z: O'ninng yarmi – besh.**

3) **ibora: Og'zi bo'shning ichida gap yotmas.**

Izohlovchi. Izohlovchi aniqlovchining alohida bir ko'rinishi bo'lib, bunda izohlovchi ot boshqa bir otni izohlaydi. Izohlovchi izohlagan ot izohlanmish bo'ladi. **Grigoriy Sobir Rahimov.**

Izohlovchi va izohlanmish umumiy va aniq ma'noni bildiruvchi turdosh otlar, borat bo'lsa, aniq ma'noni bildiruvchi ot izohlovchi, umumiy ma'noni

bildiruvchi ot izohlanmish bo'ladi. Yozuvda u bir orasiga chiziqcha qo'yiladi: **mexanik-haydovchi**. Izohlovchi unvon, kasb, laqab, qarindoshlik, jins, o'xshatish, taxallus kabi ma'lumotlarni ifodalash uchun xizmat qiladi. O'xshatishni bildirgan izohlovchi bilan izohlanmish orasiga chiziqcha qo'yiladi: ona – Vatan.

Gazeta, jurnal, korxona, muassasa va hokazoning nomini bildirgan atoqli ot ham izohlovchining bir turi hisoblanadi: "Yoshlik" jurnali, "Turkiston" gazetasi. Bunday izohlovchi shaxs nomi bilan ifodalansa, qo'shimchaga o'rnatmay, **nomli, nomidagi** so'zi bilan birga qo'llaniladi: Oybek nomli maktab.

Eslatma

*So'zning o'rni almashtirilsa, izohlovchi bilan izohlanmish mazmuni ham almashadi. **Ayol** (izohlovchi) **hamshira** (izohlanmish), **hamshira** (izohlovchi) **ayol** (izohlanmish).*

Hol. Ko'pincha fe'l-kesimga bog'lanib, uning bo'lgusini bildirgan bo'lak hol deyiladi. **Minbarga notiqlar birin-ketin chiqa boshladilar.**

Eslatma

*Hol ko'pgina fe'llar bosh*qa *turkumga ham bog'lanadi: Ko'chada **odam** ko'p.*

Holning ma'no turi:

1) **vaziyat (ravish, tarz) hol**i *qanday, qaysicha, qay tarzda* kabi so'roqqa javob bo'ladi va har doim fe'lga bog'lanadi. Vaziyat holi ravish, ravishdosh, ot, sifat, olmosh, taqlid, ibora bilan ifodalanadi: 1.U **diqqat** bilan tinglardi. 2.Ukam chiroyli yozardi. U shoshmasdan so'nadi. 3.Reis bilan o'zini do'stlarcha xayrlashdi. 4.U qorovul bo'lib ishlaydi. 5.Derazt bo'ylari duv to'kildi. 6.Buni qanday bajarasiz? 7.Boshini egasan, holda kelardi.

Ravishdosh bilan ifodalangan vaziyat holiga lobe bo'lgan bo'lsa, bu so'z birikmasini hosil qilishi mumkin: Eshikni sekin ochib, ichkariga qaradi. Bu **yoyiq vaziyat hol**i deyiladi.

2) **o'rin hol**i *qayerga, qayerda, qayoqda, qayerdan* kabi so'roqqa javob bo'ladi va ko'pincha o'rin ravishi, ot, olmosh bilan ifodalanadi: 1.Bolalar **ko'chaga** chiqib ketishdi. 2.U **eggadan** qochdi. 3.Bunda bulbul kitob o'qiydi.

3) **payt hol**i *qachon, qachongacha, qachondan beri, qay vaqt* kabi so'roqqa javob bo'ladi va ko'pincha o'rin ravishi, olmosh, payt ravishi, ot, sifatdosh, harakat nomi, son, sifat bilan ifodalanadi: 1.Imtihonlar yozda bo'ladi. 2.Bugun maktabim yonidan o'tdim. 3.Shunda men bir sapchib tushganman. 4.Nafasimni rostlagach, tikilibroq qaradim. 5.Buni

o'qiyotganimda sezib qoldim. 6.Qaytishda siznikiga kirib o'tamiz. 7.Qo'lim bo'shida o'qiymon. 8.Yiqilish uchun bo'ladi.

4) **miqdor holi** *qancha, qanchalik, qanchalab, necha, necha marta* kabi so'roqqa javob bo'ladi va ko'pincha miqdor-daraja ravishi, son, sifat va miqdor-daraja ma'nosini bildirgan so'z birikmasi bilan ifodalanadi. 1.Men juda ko'p qayg'urdim. 2.O'n marta eshitgandan bir marta ko'rgan afzal. 3.Bir onda o'z kuchining o'lchovsiz darajada o'sganini sezdi. 4.Siz qancha terdingiz? 5.Bular qop-qop terib qo'yishdi. 6.Meni o'ylagan darajada qilishar ekan?

5) **sabab holi** *nima sababdan, nima sababli, nima uchun, nimaga, nega* kabi so'roqqa javob bo'ladi va quyidagicha ifodalanadi:

a) sabab ravishi. Otasi hojatga ko'ndi.

b) *-lik, -sizlik, -ganlik* qo'shimchali otlar bilan kelishigidagi so'zlardan keyin *-dan* qo'shimchasini ketma-ket bilan. Sulima opa quvonganidan hech gapira olmas edi;

d) *-gani, -ganligi* qo'shimchali so'zdan keyin *tufayli, uchun* so'zlarini ishlatish bilan. U o'qimaganı uchun bilmadi.

6) **maqsad holi** *nima maqsadda, nima uchun, nima qilgani, nima qilgali, nega* so'roqlariga javob bo'lib, quyidagicha ifodalanadi:

a) maqsad ravishi. Men atayin gapirmadim.

b) jonli predmetning aniq bir harakati nomidan keyin *uchun* ko'makchisi ishlatilishi bilan. U o'qishi uchun ketdi.

d) maqsad ravishchasi. U o'qigani keldi.

e) *bilgan so'ng uchun, deb* so'zlari ishlatilishi bilan. O'qiymagach keldi.

f) harakat nomidan keyin *maqsadida, maqsadda, maqsadi bilan* so'zlari ishlatilishi yordamida. Gulnor opa bafurja gaplashishi maqsadida keldi.

7) **shart holi** *nima qilsa (u, -ng, -k, -ngiz) nega javob bo'lib*, ikki harakatning bajarilishi uchun shart bo'lgan boshqa bir harakatni bildiradi. Eksang, o'rasan.

8) **to'siqsizlik holi** *nima qilsa (u, -ng, -k, -ngiz) ham-da?* so'roqlariga javob bo'lib, bir harakatning bajarilishi uchun to'siq bo'la olmaydigan harakatni bildiradi va shart fe'lining *-(s)a* ravishdosh/sifatdosh+*bilan* ko'makchisi, *qaramay, qaramasdan* so'zi qatnashgan qurilma orqali ifodalanadi. Chaqirilmasa ham, qatnashdi. Kichik bo'lgani bilan ancha og'ir edi. Shoshganiga qaramay kutib turdi.

Eslatma

Ayrim darslikda gapda vosita hol qo'llaydi. Bu ma'no nima bilan, qanday usul bilan degan so'roqqa javob bo'ladi: Xat qalamda (qalam bilan) yozilgan edi.

Gap bo'lagi tartibi ikki xil:

a) odatdagi tartib;

b) o'zgargan tartib.

Odatdagi tartib. Bunda quyidagi holat kuzatiladi:

1) ega (o'z aniqlovchisi bilan) oldin, kesim gapning oxirida keladi: Yosh havaskorlar to'planardi.

2) payt holi egadan oldin keladi: Bugun yosh havaskorlar to'plandi.

3) to'ldiruvchi o'z aniqlovchisi bilan egadan keyin kelsa: Bugun yosh havaskorlar dehqonlarga katta tomosha ko'rsatdi.

4) vaziyat holi kesimdan oldin keladi: Daryo uzoqdan tovlanib ko'rinardi.

O'zgargan tartib (bu inversiya ham deyiladi)da quyidagi holat kuzatiladi:

1) ega kesimdan keyin keladi. Yashasin mustaqillik!

2) to'ldiruvchi kesimdan keyin keladi. To'xtat suvni!

3) vaziyat holi fe'l-kesimdan keyin keladi. Shamol esadi g'ir-g'ir.

Gap bo'lagi tartibi o'zgarishi quyidagi hollarda kuzatiladi:

1) baqiriq, qichqiriq, ko'pincha she'riyatda: Senga bo'lsin azaliy oshiq. Bunga berar o'lim xotima.

2) hayajon kuchli bo'lganda: Oling qo'lingizni!

3) shior va undovlarda: Yashasin mustaqillik!

4) mantiqiy urg'u talabi bilan: Bordik biz. Ayting o'zingiz.

Gap bo'lagining uslubiy xususiyati:

1) ega bilan kesimni moslashtirishda bog'lama (shaxs-son qo'shimchasi, to'liqsiz fe'l: bo'ldi, qildi, etdi yordamchi fe'li, sanaldi, hisoblanadi kabi fe'l) dan foydalanilmaydi. Men o'quvchiman. U talaba bo'ldi. Bu tarix hisoblanadi.

2) qaratqich-aniqlovchidagi -ning qo'shimchasi she'riyatda ba'zan -im tarzida qo'llanadi: O'zbekiston - vatanim manim.

3) sifatlovchi aniqlovchi ot bilan ifodalansa, majoziy ma'no kasb etadi: Kumush) choyshab yopib dalalar, qor tagida uxlab yotadi,

4) sifatlovchi-aniqlovchi so'z turkumidan tashqari sifatlovchi vazifasini bajargan ibora va so'z birikmasi bilan ifodalanadi: Oqsoqolotar, tog'lar, bag'ri keng inson, cheki yo'q qirlar, fikri tiniq insonlar.

5) qaratqich-aniqlovchi o'rnida sifatlovchi-aniqlovchi qo'llanadi: Bahorning sarin yellarini sog'indim – Bahordagi sarin yellarni sog'indim.

Mustahkamlash uchun savollar

1. Ikkinchi darajali bo'laklarni sanang. 2. To'ldiruvchi nima? 3. To'ldiruvchining qanday turi bor? 4. Vositasiz to'ldiruvchi deb nimaga aytiladi? 5. Vositasiz to'ldiruvchini ta'riflang. 6. Aniqlovchi nima va uning qanday turi bor? 7. Sifatlovchi-aniqlovchi nima va u qanday ifodalanadi? 8. Qaratuvchi

aniqlovchi nima va u qanday ifodalanadi? 9.Izohlovchi nima va u qanday ifodalanadi? 10 Hol nima va uning qanday ma'no turi bor? 11. Vaziyat holi nima, qanday so'rog'i bor va ifodalanishi qanday? 12.O'rin holi nima, qanday so'rog'i bor va ifodalanishi qanday? 13 Payt holi nima, qanday so'rog'i bor va ifodalanishi qanday? 14.Miqdor holi nima, qanday so'rog'i bor va ifodalanishi qanday? 15 Sabab holi, maqsad holi nima, qanday so'rog'i bor va ifodalanishi qanday? 16 Shart holi nima, qanday so'rog'i bor va ifodalanishi qanday? 17 To'siqsizlik holi nima, qanday so'rog'i bor va ifodalanishi qanday? 18 Gap bo'lagi tartibi qanday? 19.Odatdagi tartib haqida gapiring va misol keltiring. 20.O'zgargan tartib haqida gapiring va misol keltiring

Topshiriq

Shunda otlar bir-biriga urilib, aylashib ketadi, gobo biron ot urilish zarbidan gandirakiab yiqilgudek bo'ladi. Bu qattiq hoqatlar Xonzoda begimni iztirobga sola boshladi. Axir bu qizlar eng nufuzli bek-u a yonlarning otasidan 4qa: biron-tasining yuz ko'zga chaviyonchoq tegib yaralar qoldi, chandiq bolarsa yoki birontasi otdan yiqilib tuyoq tagida ezilsa muraasesh shayxlar yana fsy-u fasodni ko'paytiradi. Ular qoidaning dubu parda ichida - uy asirasi bo'lib o'tirishini talab qiladilar. Lekin perda ichida zonoriishi bo'lib bo'lmasligini yashaydigan ayollar nafaqat o'z mo'ri bo'lishini, balkiuvat nasl berolmasligini Xonzoda begim yaxshi bilardi. Begim otlar bilan birga bu yerlarga kelgan elchilarning qizlari esa nacnamon qilib yurib o'rganganlar. Hozir ham Xonzoda begim bilaolgan ayollarning bir yerda muqim turadiganlari oz. Erlar qahori ayollar ham bali Xorasanda, bali Kobulda yashaydilar, hali Badaxshonga ketib, hali Agraga keladilar. Bu uzoq o'lkalar orasida ikki-uch oylik yo'llarni ko'pgina qizlar qilib nasir o'tadi. Taqdir taqozosi shundoq bo'lgach, ota-bobolar urfu-odatini yana qizlarga ham yashigidan chavandozlikka o'rgatish, otlar orasida nam polygalar, musobaqalar o'tkazish joiz emasmi? Albatta, qizlarni otdan yiqilish u mayib bo'lishdan ham ehtiyot qilish kerak! Xonzoda begim shuni o'ylab, o'ynab bo'lgan bilan kuzatgani sari qizlar xavf-xatarni unutib, to dega dadil tashlanishar, qamchi o'rniga chavgonchoq'a bilan otlari sag'risiga urib, muvozat tomonga hamla qilishardi. Bo'z otliq qizlardan Hamida degani o'yinchilar o'ti-bij bo'lib turgan to'dadga o'qday yorib kirdi-yu jilovini qo'yib yubordi. Chavgonchoq'ani ikki qo'llab tutgancha, uzangiga oyoq in tiradi-da, ringchilardek, pastga engashdi. Bir qiz qopon kabi chaqqonlik bilan to'pni chavgonchoq'aga ilintira lo tautan olib chiqqanda, Xonzoda begimning zavqi kelib «o'» deb yubordi. Nenqi darvoza himoyasiz qolgan edi. Hamida «go'y» deb ataladigan to'pni o'sha tomonga chi-qarak qilib otib o'tdi. Uning ot ham shamolday uchmoqda edi. (O. Yor.)

Gaplarni ikkinchi darajali bo'lak bo'yicha tahlil qiling.

Tahlil tartibi:

1 Gap bo'lagi va uning turi.
2 Gap bo'lagi ning ifodalanishi
3.Gap bo'lag ning tuzilishi
4 Bog'lovchi vositasi
5 Gap bo'lagi tartibi:
a) odatdagi tartib;
b) o'zgargan tartib.

38- DARS
GAPNING UYUSHIQ VA AJRATILGAN BO'LAGI

Uyushiq bo'lak. Gapda bir xil shakllangan, o'zaro teng bog'langan va boshqa bitta bo'lakka tobelanadigan bo'lak birdan o'ttiq bo'lishi mumkin. Bunday bo'lak **uyushiq bo'lak** Masalan: **Bola goh nenga, goh unga qarar edi.** Gapning barcha bo'lagi uyushadi:

1) ega: **Bugun Anvar yoki Sobir navbatchilik qiladi**;

2) kesim: a) fe'l kesim: *U asta joyiga o'tirdi va gapira boshladi;* b) ot kesim: **Yo'l keng va tekis edi;**

3) to'ldiruvchi: a) vositasiz to'ldiruvchi: **Kitob(larni) va daftarlarni keltirdi;** b) vositali to'ldiruvchi: **Akamga va opamga xabar qildik.**

4) aniqlovchi: a) sifatlovchi-aniqlovchi: **Salqin va bahavo bog'da dam oldik;** b) qaratqich-an qlovchi. **Olma(ning) va shaftolining hosili mo'l bo'ldi;**

5) hol: a) vaziyat hol: **Topshiriqni tez va puxta bajardik.** *b)* payt hol: **Bugun va ertaga men navbatchilik qilaman;** d) o'rin hol: **Shahar va qishloqda qurilish avjiga chiqqan.** e) sabab hol: **Quvonch va shodlikdan tili aylanmas edi;** f) maqsad hol: **U shaharga o'qish va ishlash maqsadida kelgan edi.** g) miqdor hol: **Men sizga o'n marta, yuz marta gapirdim;** h) shart hol: **Agar mehnat qilmasang, qiynalmasang o'z maqsadingga erisha olmaysan;** i) to'siqsizlik hol: **U charchasa ham, yiqilib qolgudek bo'lsa ham yurishdan to'xtamadi.**

Uyushiq ega shaxsni anglatsa, kesim bilan ham, ko'plikda ham bo'lishi mumkin: **Karim, Salim va Ahmad keldi(lar).** Uyushiq ega jonsiz narsani ifodalasa, kesim, odatda, birlikda bo'ladi: **Stol va stul tartibga keltirilgan.**

Gapda ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi uyushiq kesim bo'lib kelganda ba'zan ko'makchi fe'l yetakchi fe'lning eng so'nggisiga bog'lanib kelishi mumkin: **U allaqachon yozib, chizib bo'ldi.**

Uyushiq bo'lak yoyiq holda ham bo'ladi: **Ma'ruzachiga qiziq, kishini hayratda qoldiradigan savollar berishdi.**

Uyushiq bo'lak juft-juft bo'lib ham qo'llanadi: **Shahrimizda keng va toza, toza va yorug' ko'chalar ko'paymoqda.**

Uyushiq bo'lakda ko'plik, egalik va kelishik qo'shimchalarining qo'llanishi. Bu qo'shimchalarning qo'llanishi ikki xil:

1) son (ko'plik), egalik va kelishik qo'shimchasi uyushiq bo'lakning oxirgisiga qo'shiladi: **Noma va arizalarning ba'zisi mirzo, muftilarga hovola qilinar edi;**

2) gapdagi uyushiq bo'lakning har birida son, egalik, kelishik qo'shimchasi alohida-alohida takrorlanadi: **Qor sovug'i qo'llarimni va oyoqlarimni, peshonamni yalab tursa-da, menga juda yoqimli tuyuldi.**

Nutqda son, egalik va kelishik qo'shimchasi uyushiq bo'lakda har xil ishlatilishi ham uchraydi. **Bolalar yasliari va bog'chalarida, maktablarda mehnatkashlarning farzandlari tarbiyalanmoqda.**

Gapda uyushiq bo'lak bog'lovchi so'z, so'roq yuklamasi ohangi bilan, bo'lishsiz bog'lovchisiz (va, hamda), ular vazifasidagi -u, -yu yuklamasi bilan ko'makchisiz zidlov bog'lovchisiz (ammo, lekin, biroq), na ...da yuklamasi, goh, yoki, yoxud, dam, ba'zan, yo kabi ayiruv bog'lovchisiz bilan bog'lanib keladi: **Mashina sekinladi, lekin to'xtamadi.**

Gapning uyushiq bo'lagi guruh-guruh bo'lsa, bir-biridan nuqtali vergul bilan ajratiladi: **Yo'lni chiqish uchun ot chopqir, zotdor bo'lishi, yaxshi toblanib sayqallishi; chavandoz usta_epchil bo'lishi kerak.**

Umumlashtiruvchi so'z (qism) va undan tinish belgisi. Uyushiq bo'lakli gapda so'zni jami ovrni umumlashtiruvchi so'z bo'lishi mumkin. Ko'pincha belgilash, no'tuglanlik olmoshi va jamlovchi ot, jamlovchi son shunday so'z bir kelsa, kengaygan birikma umumlashtiruvchi so'z bo'lib kelgan: **Uylar, daraxtlar, ko'chalar – hammasi qorong'ulik qa'riga cho'mdi. Ishga yangi qabul qilinganlar: Ahmad, Salim va Akbar boshliqning oldiga kirishsin.** Umumlashtiruvchi so'z bilan uyushiq bo'lak birxil sintaktik vazifani bajaradi.

Umumlashtiruvchi bo'lak uyushiq bo'laklardan oldin kelsa, undan keyin tire nuqta qo'yiladi: **Qudratning oldidan ikki o'rtoq: Ilhom va Rustam chiqib keldi.** Umumlashtiruvchi bo'lak uyushiq bo'laklardan keyin kelsa, undan oldin tire qo'yiladi: **Shu hovli-joy, mana shu daraxtlar, kursi, so'ri – hammasi menniki.**

Uyushiq va uyushmagan sifatlovchi-aniqlovchi hamda hol. Ketma-ket kelgan, lekin sanash ohangi bilan ajralmaydigan, yozuvda orasiga vergul qo'yilmaydigan aniqlovchi va hol uyushmagan aniqlovchi va uyushmagan hol hisoblanadi. Uyushmagan sifatlovchi-aniqlovchi va uyushmagan hol o'zi

hog'langan bo'lakning turli tomoniga oid belgini anglatadi **Qop-qora** shirin (uyushmagan aniqlovchi) uzum g'arq pishgan. **Bugun maktabda** (uyushmagan hol) **ota-onalar majlisi** bo'ladi.

Ajratilgan izoh bo'lak. Gapda biror bo'lakning ma'nosini to'ldiruvchi nazarda tutilmagan bo'ladi va uning ma'nosini aniqroq berish, izohlash maqsadida xuddi shunday boshqa bo'lakni gapga kiritadi. Masalan, **Men ishni mana shundan boshladim** gapida **shundan** to'ldiruvchisining ma'nosi noaniq. Shuning uchun so'zlovchi aniqroq ma'noli boshqa bir to'ldiruvchini gapga kiritadi: **Men ishni mana shundan, ya'ni tushuntirishdan boshladim.** O'zidan oldingi bo'lakni izohlagan hunday bo'lak ajratalgan izoh bo'lak deyiladi.

Ajratilgan bo'lakning uyushiq bo'lakdan farqi shundaki, u bir tushunchaning ikkita nomi yoki bir shaxs/narsa/belgi/harakat ikki marta nomlanadi. Uyushiq bo'lak esa bir nechta shaxs/narsa/belgi/harakatni ifodalaydi.

Gap bo'laklarini ajratishda so'z birikmasining o'zgarishi gap bo'laklarining kengayishi, bir bo'lakning o'zidan oldingi bo'lakni izohlashi, bir bo'lakni boshqasidan ajratib, bo'rttirib ko'rsatish zaruriyati kabilar sabab bo'ladi: 1.Ko'chada borar, g'amgin va o'ychan. 2.Ukasi, ko'zlari chaqnagan, unga g'azab bilan qaradi. 3.Oldinda, muyulishda, bir qora ko'rindi. 5.U har kuni, quyosh tikka kelganda, shaharga tushadi.

Quyidagi gap bo'lagi ajratilgan.

1) ega: **Biz, yoshlar, buni** esdan chiqarmasligimiz kerak.

2) kesim: a) fe'l-kesim: **Men uni** ko'ndirishga harakat qildim – yolindim, yo'vordim, hatto tiz cho'kdim; b) ot-kesim: **U** shoir – inson ruhining bilimdoni.

3) to'ldiruvchi: **Oyimni**, ya'ni **Xosiyat Suyunovani**, mukofotlashdi.

Eslatma

To'ldiruvchi ***tashqari, boshqa, o'rniga, bilan, birga*** *kabi so'zli birikma bilan ham ajratiladi:* ***Mendan tashqari****,* ***u ham bor.***

---

4) aniqlovchi: 1)qaratqich-aniqlovchi: Bir necha kishining ayol va erkakning qorasi ko'rindi; 2) sifatlovchi-aniqlovchi (bu o'rinda sifatlovchi-aniqlovchi deb ataladi: Gullar terdim, chiroyli;

5) hol: 1) o'rin hol: **Uning** qo'lidan ushlab ichkariga, mehmonxonaga, **boshladi**; 2) payt holi: **Anjuman bugun**, soat beshda, **boshlanadi**; 3) ravish (vaziyat) holi: **Qo'llar ishlar tez** – mo'jizakor; 4) maqsad holi: **Shaharga borish uchun**, ya'ni o'g'lini ko'rish uchun, ular **qidirdi**; 5) miqdor-daraja: **Bugun sizni yana, ikkinchi marta kechirishdi.**

Eslatma

*Ko'pincha muvofiqlash va sifatdosh bilan ifodalangan hol ham ajratilishi mumkin: **O'zidan o'zi hadiksirab, atrofga olazarak boqadi. Otasi, ikki qo'ltig'ida narsa ko'targan holda, yo'lga tushdi.***

Ajratilgan izoh bo'lakda tinish belgisi Yozma nutqda izoh bo'lak ko'pincha vergul va tire bilan ajratiladi:

1) izoh bo'lak ikki tomondan vergul bilan ajratiladi: **Kanal bo'yidagi choyxonada, avtobus bekatida, A'zamjon uchradi;**

2) izoh bo'lakning o'z ichida vergul bo'lsa, «<» tomonga tire qo'yiladi: **Endi odamlar – otliq, piyoda, yosh-qari – uchray boshladi;**

3) ajratilgan bo'lak kengay b. uyushib, ana oxir da ko'su. undan oldin tire qo'yiladi: **Mening o'z muhabbatim bor – toza va musaffo!;**

4) bosh kelishikdagi sifatlik almoshlar izohlagan bo'laklardan avval tire, keyin vergul qo'yiladi: **Men – Menoliyeva Munira, VII sinfda o'qiyman.**

5) yozma nutqday **Otam – Ilyos Tohirov, zavodda ishlaydi** kabi gapda ham shunday.

Mustahkamlash uchun savollar

1.Uyushiq bo'lakning talifini ating. 2.Eganing uyushishi haqida gapiring va misol keltiring. 3.Kesimning uyushishi haqida gapiring va misol keltiring. 4.To'ldiruvchining uyushishi haqida gapiring va misol keltiring. 5.Aniqlovchilarning uyushishi haqida gapiring va misol keltiring. 6.Holning uyushishi haqida gapiring va misol keltiring. 7.Qanday bo'lak joyi uyushiq bo'lak deyiladi? 8.Uyushiq bo'laklarda ko'plik, ogahlik va ko'plik qo'shimchasining qo'llanishi haqida gapiring. 9.Umumlashtiruvchi so'z (qism) nima va unda nima belgisi qanday ishlatiladi? 10.Uyushmagan sifatlovchi-aniqlovchi haqida gapiring va misol keltiring. 11.Uyushmagan hol haqida gapiring va misol keltiring. 12.Ajratilgan izoh bo'laklar ta'riflang va misol keltiring. 13.Ajratilgan ega haqida gapiring va misol keltiring. 14.Ajratilgan to'ldiruvchi haqida gapiring va misol keltiring. 15.Ajratilgan aniqlovchi haqida gapiring va misol keltiring. 16.Ajratilgan hol haqida gapiring va misol keltiring. 17.Ajratilgan izoh bo'lakda tinish belgisi qanday qo'llanadi?

Topshiriq

1.Do rmon viloyatining Kanlug'mish degan qishlog, qovonning Qoraqoy degan singlisi, duxtaro'y, bor edi. Kanlug'mish o'n to'rtga kirguncha ilm-hunar, kasb-korsakol hasd qilib o'n to'rtdan keyin sipohlik ishlarga yuz keltirib, qilich chopishay, otda qimor, chirishbozlik, ko'pkaribozlik, nayzadastlik,

gamxo'rlik ishlariga berilib, qirqta yigitni yoniga olib mastu qilib, tog'ga, ovga, cho'lu yurar edi. (Ertuzg'rmishx.)

II.Sohib miltig'ni otgach qayiq g'arq bo'lganda, Shoshanushon bortga ro'y bergan joyda bo'lib, hamma hodisani o'z ko'zi bilan ko'rdi – amin bo'ldi. U ag'darilgan qayiq oldiga dethoi suzib borib, qayiqchi va oshpazlarni halokatdan qutqardi – insoniy burchini bajardi. Faqat bir kishini qutqazib bo'lmadi, u falokat yuz bergan choy'da qayiq ayvonchasi ostida zinavor yanchib o'lgan ekan. (R.Tbok.)

Berilgan gaplardagi ajratilgan so'z uyushiq bo'lak bo'lib, turli qiladi.

Tahlil tartibi:

1.Ajratilgan bo'lak uyushiq bo'lak va uning turi. Umumlashtiruvchi so'z.
2.Ifodalanishi.
3.Tuzilishi
4.Bog'lovchi vositasi
5.Erkin bog'lanish turi

39- DARS
QO'SHMA GAP. BOG'LANGAN QO'SHMA GAP

Qo'shma gap Birdan ortiq sodda gapning mazmun, grammatik va ohang jihatidan birikuvidan tuzilgan gap **qo'shma gap** deyiladi: **Eshik sekin ochildi-yu** (birinchi sodda gap), **Qalandarovning yuzi ko'rindi** (ikkinchi sodda gap).

Sodda gap tarkibida bir grammatik markaz (kesim hirligi) ishtirok etsa qo'shma gap tarkibida u birdan ortiq. Buni uyushgan kesimli sodda gapdan farqlash kerak. **Yomg'ir yog'ib, yerlarni loy qildi**. Bu gapda kesim uyushgan, uyushgan bo'lak bilan bo'lak sanaladi.

Qo'shma gapning turi Qo'shma gap tarkibidagi sodda gap o'zaro bog'lovchi, yuklama ko'makchi va ko'l shakli hamda ohang orqali bog'lanadi. Shunga ko'ra, qo'shma gapning 3 turi farq etiladi:

1) **bog'langan qo'shma gap;**
2) **ergash gapli qo'shma gap;**
3) **bog'lovchisiz qo'shma gap.**

Ayrim darslikda qo'shma gap bog'lovchi vositasiga ko'ra 2 guruhga bo'linadi.

1) **qismlari teng bog'lovchi vositasida bog'langan qo'shma gap;**
2) **qismlari ergashtiruvchi bog'lovchi vositasida bog'langan qo'shma gap:**

3) qismlari bog'lovchi-yuklama vositasida bog'langan qo'shma gap;
4) qismlar fe'l shakllari vositasida bog'langan qo'shma gap;
4) qismlari nisbiy so'z vositasida bog'langan qo'shma gap;
5) qismlari faqat ohang vositasida bog'langan qo'shma gap.

Quyida qo'shma gapning an'anaviy tasnifini beramiz.

Bog'langan qo'shma gap. Sodda gaplarni o'zaro bog'lovchi yordamida bog'lanishdan tuziladigan qo'shma gap bog'langan qo'shma gap deyiladi: **Kechasi qalin qor yog'di, lekin havo ayozli edi.**

Turk tilidagi sodda gapning o'zaro munosabatiga ko'ra bog'langan qo'shma gap quyidagi turga bo'linadi:

1) biriktiruv munosabatli bog'langan qo'shma gap;
2) zidlov munosabatli bog'langan qo'shma gap;
3) ayiruv munosabatli bog'langan qo'shma gap;
4) inkor munosabatli bog'langan qo'shma gap.

Biriktiruv munosabatli bog'langan qo'shma gap. Bunday bog'langan qo'shma gap tarkibidagi sodda gap o'zaro **va**, hamda bog'lovchisi, ham, **-u(-yu)**, **-da** yuklamasi yordamida bog'lanadi va bir paytda yoki ketma-ket ro'y bergan voqea-hodisani ifodalaydi: 1. **Mashg'ulot tugadi va hamma o'z uyiga tarqaldi.** 2. **Bahor keldi va o'z sepini yoya boshladi.** 3. **Qattiq izg'irin ko'tarildi-da, hech kimni uydan chiqarmay qo'ydi.** 4. **Odam qo'li tegdi-yu, tashlandiq yerlarni obod qildi.** Gapni yuklama bog'lashdan keyin vergul qo'yiladi.

Zidlov munosabatli bog'langan qo'shma gap. Bunday gap tarkibidagi sodda gap o'zaro **ammo**, **lekin**, **biroq** bog'lovchisi **-u(-yu)** yuklamasi yordamida bog'lanadi: **Yurtimning bu kuni chiroyli, lekin ertasi, indini yana chiroyliroq, baxtliroq bo'ladi. Havo achildi-yu, harorat sezilmadi.**

Ba'zan zidlik munosabatini kuchaytirish uchun zidlov bog'lovchisi va **-u(-yu)** yuklamasi birga ishlatiladi: **Kechasi qor yog'di-yu, lekin kunduzi darrov to'xtadi.** Bunday qo'shma gapda zidlov bog'lovchisidan oldin yuklamadan esa keyin vergul qo'yiladi.

Ayiruv munosabatli bog'langan qo'shma gap. Bunday gapdagi sodda gap o'zaro **goh...goh, yo...yo, yoki...yoki, ba'zan...-ba'zan..., dam...dam, yoxud...yoxud** ayiruv bog'lovchisi yordamida bog'lanadi. Ayiruv bog'lovchili bog'langan qo'shma gap voqea-hodisaning galma-gal bo'lishini yoki undan biri bo'lishini ifodalaydi: **Goh osmonni tutib ashula yangrar, goh allaqayerdan garmon tovushi eshitilib qolar edi.** Ayiruv bog'lovchisi, odatda, gapning oxirida keladi. Takrorlanib qo'llangan ayiruv bog'lovchisining keyingisidan oldin vergul qo'yiladi. Bunday bog'lovchi yakka qo'llansa, undan belgisi ishlatilmaydi.

Inkor ravishdosh bog'langan qo'shma gap. Bu turdagi qo'shma gaplarning ikkinchi sodda gapi inkor qo'shimchasi orqali bog'lanadi va gap mazmuniga rad qo'yiladi. **Na suv bor, na biron yemish qolibdi.** Inkor bog'lovchisi ham odatda, sodda gapning boshida keladi.

Mustahkamlash uchun savollar

1.Qo'shma gap nima? 2.Qo'shma gapning bosh va ergash qismlari. 3. Qo'shma gapning bog'lovchi vositasiga ko'ra tasnifini bayon qiling. 4.Qo'shma gapning qismlari orasidagi sintaktik munosabatga ko'ra tasnifini bayon qiling. 5.Bog'langan qo'shma gap haqida gapiring. 6.Bog'lanagan qo'shma gapning qanday turi bor? 7.Ravishdosh munosabatini bog'langan qo'shma gap haqida gapiring va misol keltiring. 8. Zidlov munosabatli bog'langan qo'shma gap haqida gapiring va misol keltiring. 9.Aytuv munosabatli bog'langan qo'shma gap haqida gapiring va misol keltiring. 10.Inkor munosabatli bog'langan qo'shma gap haqida gapiring va misol keltiring. 11.Bog'lovchisiz qo'shma gapni tahlil qilganda qanday qo'llanadi?

Topshiriq

1. Inson ong olish – asrlar osha aniqsonoqlik va ilmga oq bo'lib bo'lmagan kishiga o'rgatsa, uni qayta kafolatsizlik. 2. Otam Toshkentga qaytib kelishlarini xabar berishsa va uning g'azabi ham otasini qo'rqitib yubordi. 3. Garchi kimnidir bo'lsa ham, dengiz insonga shunchalik ulkan e'tiborni qilishi ma'noga ega bo'lmaydi. 4. Kuchli shamolning ovozini eshitgan bo'lsa, unga tomosha yoki ko'rishga ularning umrini uzaytiradi. 5. Hatto bir necha o'n kilometrga kuchli bo'lsadan buyukroq narsa – dengiz qoldi. 6. Oltinga vafodan keyin ularga ko'rsatdi bilan birgalikda qaytdi. 7. Sayrash ishqibozlarga kunduzi ko'rib qolgan, ya'ni qilgan ishlarini o'ylab, o'z xato bo'lganiga demak, uni haqiqiy mehnatdan o'lmas bilan, ularni ko'rishga yaqin vaqtda. Otam Toshkentda ekanligini eshitishimni edi. 8. Hovuz boyliklarimizni ko'rsatuvchi misollardan biriga, bu zot yarim hudud va u yoki bu chiqindi qismlarini solib ochardi. Shuning uchun ombordan navbatchini qo'ysa ziyon ko'rishi kerak.) 10. Hakadir o'qituvchisidagi yer maydoniga borish va ikkinchi kuni boshidan qaytdi. 11.Na ko'kning farqini qilmasdan, na yulduz sayr etib ko'rmasdan – o'ylay. 12. Do'st bilan dushmanning ko'rinishi farqli. 13. Sovuq, mana shunaqa havoda u o'zini ancha yengil his etdi (Sirtqi.) 14. Garchi dunyo ko'rgan bo'lsang ham suvni isrof qilma. (=Hadisdan) 15. O'rmonda ya'ni Amur Temur vafot etgan shahrida, so'nggi ovining mozeyi bor.

Bog'langan qo'shma gapni tahlil qiling

Tahlil tartibi:

1. Qo'shma gapning turi: a) bog'langan qo'shma gap; b) ergash gapli qo'shma gap; d)bog'lovchisiz qo'shma gap.

2. Qo'shma gapning bog'lovchi vositasiga ko'ra turi: a) qismi ... teng bog'lovchi vositasida bog'langan qo'shma gap; b) ... qismi teng bog'lovchi vositasida bog'langan qo'shma gap; d) qismi bog'lovchi-yuklamalar vositasida bog'langan qo'shma gap; e) qismlari nisbiy so'z vositasida bog'langan qo'shma gap; f) qismlari faqat ohang vositasida bog'langan qo'shma gap.

3. Bog'langan qo'shma gapning turi: a) biriktiruv munosabatli bog'langan qo'shma gap; b) zidlov munosabatli bog'langan qo'shma gap; d) ayiruv munosabatli bog'langan qo'shma gap; e) inkor munosabatli bog'langan qo'shma gap.

ERGASH GAPLI QO'SHMA GAP

Ergash gapli qo'shma gap haqida. Birdan ortiq sodda gapning mazmun jihatdan tobe-hokim munosabati asosida, ya'ni birining boshqasiga ergashishidan tuzilgan qo'shma gap **ergash gapli qo'shma gap** deyiladi: **Ildiz oziq bersa, novda ko'karar.** Ergashgan qo'shma gapda **bosh gap** va **ergash gap** bo'ladi. Berilgan gapda birinchi gap – ergash gap, ikkinchi gap – bosh gap.

Bosh va ergash gap. Boshqa gapni o'ziga tobe qilib kelgan gap **bosh gap** hisoblanadi. Bosh gapga ergashib, uni izohlab kelgan gap **ergash gap** deyiladi. **Ta'til boshlansa, biz shaxmat musobaqasini o'tkazamiz.** Bu gapning **Ta'til boshlansa** qismi ergash gap. **Biz shaxmat musobaqasini o'tkazamiz** qismi esa bosh gap. Ergash gap bosh gapni batafsilroq yoki aniqroq qilib izohlaydi: **Rais ko'rindiki,** hamma tinchlanadi gapida ergash gap bosh gapni batafsilroq izohlayapti. **Siz shuni unutmangki, kurashchilar yolg'iz emas** gapida esa ergash gap bosh gap tarkibidagi olmosh bilan ifodalangan **to'ldiruvchini** *(shuni)* izohlayapti.

Ergash gap bosh gapdan oldin, undan keyin yoki uning ichida kela oladi: **O'qituvchi, qo'ng'iroq chalinsa, sinfga kiradi.** Bu gapda ergash gap bosh gapdan oldin kelgan.

Ergash gap bosh gapga **chunki, shuning uchun, -ki, agar, garchi, mabodo, go'yoki)** (ayrim darsliklarda **go'yo** bog'lovchisi bog'lovchi vazifasidagi so'z deb olingani kabi) ergashtiruvchi bog'lovchi, bo'lmag'ur ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi shakli, shuningdek, yuklama, ko'makchi, turli vazifadagi ko'rsatish olmoshi, **kim – u, qanday – shunday, qancha – shuncha, qaysi – o'sha, qayerda – u yerda** kabi bir-biriga ishora ma'nosini

bildiradigan so'roq olmoshi va ko'rsatish olmoshidan iborat nisbiy so'z, **sababli, tufayli,** deb so'z orqali bog'lanadi. 1.**Biz kitobni sevamiz, chunki u bilim manbai.** 2. **Hosil to'kin bo'lsa, to'ylar to'xtamas.**

Eslatma

-ki, shuning uchun bog'lovchisi bosh gap tarkibida boshqa bog'lovchi vositasiga ergash gap ko'rinishida bo'ladi. *Bunda ega* hokimligi **-ki** bog'lovchisini olibkelmasligi kerak. Misol.

1.Siz shuni unutmangki (bosh gap), kurashchilar yolg'iz emas (ergash gap)

2.Kitob bilim manbai (ergash gap), shuning uchun biz uni sevamiz (bosh gap).

3.Reis kursa(ergash gap), hamma tinchlanadi (bosh gap)

4.Biz kitobni sevamiz (bosh gap) chunki u bilim manbai (ergash gap)

5. Hosil to'kin bo'lsa (ergash gap), to'ylar to'xtamas (bosh gap).

6.**Kimki yomonlar** suhbatidan **qochsa** (ergash gap), **u yaxshilar suhbatiga erishadi** (bosh gap)

Ergash gap gap bo'lagiga o'xshaydi. Uning quyidagi turi mavjud:

1) ega ergash gap;
2) kesim ergash gap;
3) to'ldiruvchi ergash gap;
4) aniqlovchi ergash gap;
5) hol ergash gap;
a) payt ergash gap
b) o'rin ergash gap
d) sabab ergash gap
e) maqsad ergash gap;
g) shart ergash gap
h) to's qsiz ergash gap;
i) o'xshatish ergash gap;
j) natija ergash gap.

E'tibor q nsa, 5 ta hol ergash gapning turi ilkkinch darajali bo'lak bo'lgan holning ma'no turini es oladi. Aslida aniqlovchi ergash gap ham shaxsni aniqlovchi ergash gap, qaratqich-aniqlovchi ergash gap, to'ldiruvchi ergash gap vositasi tali to'ldiruvchi ergash gap, vositasiz to'ldiruvchi ergash gap kabi turga bo'linishi kerak edi. Lekin o'rtacha tilshunoslikda bunday bo'linish an'ana emas.

1) ega ergash gap bosh gapdagi olmosh o'rnida anga egalik egalik qiladi. U bosh gap bilan birga ega ergash gapni qo'shma gap hisoblanadi. Ega

ergash gap -ki bog'lovchisi va to'liq shart mayli qo'shimchasi -sa hamda so'roq va ko'rsatish olmosh. (kimki – u, kimki – o'sha, kimki – o'zi, nima – o'sha, nimaiki – hammasi) yordamida bog'lanadi. **Kimki yomonlar suhbatidan qochsa, u yaxshilar suhbatiga erishadi.** Ba'zan bosh gap tarkibidagi ko'rsatish olmoshi bilan ifodalangan ega tushirilishi mumkin: **Sizga ayonki, siz o'z oilangizdasiz.** Bu gapda **shu** (ega) tushirilgan.

Sxemasi

Bosh gap	Ergash gap
Shunisi ... ki,	...
... ki,	...

Ergash gap	Bosh gap
Kim ... ...sa,	u ...
Kim ... ...sa,	o'z ...
Kimki ... -sa,	u ...
Kimda-kim ... sa	u ...
Nima ... sa,	o'sha ...
Nima ... sa	o'sha ...

2) **kesim ergash gap** bosh gapdagi olmosh bilan ifodalangan kesimni izohlab, u bosh gap bilan birga kesim ergash gapli qo'shma gapni hosil qiladi. **Uch og'ayni botirlarning eng yaxshi fazilati shuki, ular xalqdan ajralib qolishni istamaydi.** Kesim ergash gap bosh qismda **-ki** bog'lovchisi, o'rin-payt va bosh kelishigidagi **shu, kim**sani olmoshi yordamida bog'lanadi. Ba'zan bosh gapdagi olmosh bilan ifodalangan kesim tushiriladi. **Yaxshisi, sen darsingni tayyorla.**

Sxemasi

Bosh gap	Ergash gap
... shuki.	...
... shu yerdaki	...
shundayki	...
shundayki	...

3) **to'ldiruvchi ergash gap** bosh gapdagi ko'rsatish olmoshi bilan ifodalangan **to'ldiruvchini** izohlaydi. To'ldiruvchi ergash gap bosh gap bilan birgalikda to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gapni tashkil etadi. To'ldiruvchi ergash gap, odatda, bosh gapga **-ki** bog'lovchisi, -sa shart mayli qo'shimchasi yordamida bog'lanadi. **Shuni bilingki, har bir yangilik bexosiyat bo'lmaydi. Kimda gumoning bo'lsa, uni kezdan qochirma.** Bosh gap tarkibida **shuni, shunga, shundan** kabi to'ldiruvchi qatnashadi. Ba'zan bu to'ldiruvchi tushirilishi mumkin. **Ilimos qilamanki, oldin rais so'zlasin.** Bu gapda **shuni** to'ldiruvchisi tushirilgan.

Sxemasi:

Bosh gap	Ergash gap
Shuni..... .... -ki,	.....
Shundan, ... -ki.	.....
Shunga. ....-ki.	.....
.....-ki,	.. ....
Suni... .... **-ki**	

Ergash gap	Bosh gap
Nima (ni)..... **-sa,**	shuni ... .
Kimda... .... **-sa,**	uni..... . .
Nima bilan... **-sa.**	o'shani...

4) **aniqlovchi ergash gap** bosh gapda **aniqlovchi** bo'lib kelgan olmosh va ayrim so'zni izohlaydi. Aniqlovchi ergash gap bosh gap bilan birgalikda aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap deb yuritiladi. Aniqlovchi ergash gap bosh gapga **-ki** bog'lovchisi bilan (bunda bosh gap tarkibida ko'pincha aniqlovchi bo'lib kelgan **shunday, ayrim, ba'zi** so'zi qatnashadi) yoki **-sa** shart mayli qo'shimchasi bilan (bunda ergash gap tarkibida **qanday, qaysi, kimning** kabi olmosh, bosh gap tarkibida esa **shu, shunday, o'sha, uning, ba'zi, bir xil, ayrim, bir, bir qancha** kabi olmosh bo'lad.) bog'lanadi. 1. **Shunday inson haqida xabar keltirdimki, uning har bir so'zi gavhardir.** 2. **Kimning ko'ngli to'g'ri bo'lsa, uning yo'li ham to'g'ri.** Ba'zan bosh gapdagi olmosh bilan ifodalangan aniqlovchi tushirilishi mumkin. (Shunday) **Odam borki, hayvon undan yaxshiroq.**

Sxemasi:

Bosh gap	Ergash gap
Shunday... ... . **-ki.**	

.... shunday... ... -ki,	
... shunday... -ni ... -ki,	unday
... shunday (jonli) ... -ki,	..
... shunday (nobi) ki,	....

Ergash gap	Bosh gap
qaysi sa,	o'sha

5) **payt ergash gap** bosh gapdagi ish-harakatning paytini bildirgan ergash gap. Payt ergash gap bosh gap bilan **payt ergash gapli qo'shma** gapni hosil qiladi. Masalan: **Sobirjon priyomnikni endi qo'ygan edi, eshik taqillab qoldi. Qushlar to'p-to'p bo'lib uchsa, havo ochiq bo'ladi.**

Sxemasi:

Ergash gap	Bosh gap
... -gan edi,	...
... -ganicha yo'q edi,	..
... -ar ekan,	....
... -sa,	... .

6) **o'rin ergash gap** bosh gapdan anglashilgan ish-harakatning bajarilish o'rnini bildirgan ergash gapdir. U bosh gap bilan birgalikda **o'rin ergash gapli qo'shma gap** deyiladi. **Qayerda intizom kuchli bo'lsa, shu yerda tartib bo'ladi.** Bog'lovchi vositasi **-sa (qayerdan, qayga, qayerga, qayerda, shu yerda, o'sha yerda, shunda, shu yerga, shu yerdan, u yerda) -mang, -masin, -ekan. Qaerda suv bo'lsa, o'sha yerda hayot bo'ladi.**

Sxemasi:

Ergash gap	Bosh gap
qayerga -sa,	o'sha yerga ...
qayerda ...-sa,	o'sha yerda.....
... qayga, -sa	o'sha yerda, ...
... -mang,	u yerda ... .
.... -masin,	o'sha yerda ... ...
... qayerda ...	shu yerda

7) **sabab ergash gap** bosh gapdan anglashilgan ish-harakatning sababini bildiradi. U bosh gap bilan birga **sabab ergash gapli qo'shma gap** deb

nomlanadi: **Qayrilishlar tobora ko'paydi, shuning uchun mashinaning tezligi susaya boshladi.**

Sxemasi

Ergash gap	Bosh gap
.....,	shuning uchun....
.....shekilli,	.....
.....-gan bo'lsa kerak,	.....
.....-mi,	.....

Bosh gap	Ergash gap
.....,	chunki.....
.....	negaki.....
.....	sababki.....
.....shuning uchun.....-ki,	.....
.....-ki,	.....

8) **maqsad ergash gap** bosh gapdan anglashilgan ish-harakatning nima maqsadda yuzaga kelishini bildiradi. U bosh gap bilan birga maqsad ergash gapli qo'shma gap deb nomlanadi. Bog'lovchi vositasi: **-deb, -sin deb, -di deb, -ar deb, -sa deb, -mi ekan (deb, deya, uchun), toki:** 1.**Odamlar yaxshi yashasin deb, tinchlikka imzo chekdik.** 2.**G'o'za mirziqib ichsin uchun, suv tekis oqizildi.**

Sxemasi:

Ergash gap	Bosh gap
.....deb,	.....
.....-sin deb	.....
.....-di deb,	.....
.....-ar deb.	.....
.....-sa deb,	.....
.....-mi ekan deb.	.....
.....-deya,	.....

Bosh gap	Ergash gap
.....,	toki.....
.....	.....-sin deb.

Eslatma:

deb *yordamchi bog'lovchisi buyruq va shart mayli, kelasi zamon fe'lidan keyin kelsa, maqsad ma'nosini, o'tgan zamon fe'llaridan keyin kelsa, sabab ma'nosini bildiradi.*

9) shart ergash gap bosh gapdan anglashilgan ish-harakatning qanday shart bilan bajarilishini bildiradi. U bosh gap bilan birga **shart ergash gapli qo'shma gap** deyiladi. Bog'lovchi vositalari: **-sa, -sa edi, agar, mabodo,** bordi-yu, **-ganda**(edi), **-r(-ar) ekan, -gan ekan, -mi, bo'lmasa, yo'qsa, -may, bo'lay desang, -sinki.** Misol: **Agar suv bo'lsa, cho'l-u sahrolar bo'stonga aylanadi.**

Sxemasi

Ergash gap	Bosh gap
(Agar) .....-sa.	.....
(Agar) -sa edi.	.....
(Agar) ganda.	.....
(Agar) -ganda edi	.....
(Bordi-yu) -r(-ar) ekan,	.....
(Mabodo) -gan ekan.	.....
(Agar) -moqchi ekan.	.....
.....-mi.	.....
	bo'lmasa .....
	yo'qsa...
.....bo'lay desang..	.....

Bosh gap	Ergash gap
.....-sinki	.....

10) to'siqsiz ergash gap bosh gapning mazmuniga zid bo'lsa ham, unda ifodalangan voqea-hodisaning yuzaga kelishiga to'siq bo'la olmaydigan fikrni anglatadi. U bosh gap bilan birga **to'siqsiz ergash gapli qo'shma gap** deyiladi. Bog'lovchi vositalari: **-sa ham(ki), qancha, qanchalik, naqadar, garchi, garchand, -gandа ham, -sa-da, -ganda-da, -gani bilan, -masin, qaramay, qaramasdan, -i(ib), -gani holda, -di hamki, xoh...xoh (-sa -masa), -sa.** Misol: **Quyosh yashiringan bo'lsa ham, kunduzning yorug'ligi hali so'nmagan edi.** Ba'zan ***garchi*** so'zi qo'llanishi mumkin.

Sxemasi:

Ergash gap	Bosh gap
Qancha -sa ham,	
Qancha -sa hamki,	
..... .-sa-da,	
.... -gani bilan,	
.... -qaramay,	
..... . -masin,	.....
....qaramasdan,	. . ..
. ...-gani holda	. . .
..... . hamki	
. ..... -sa...-masa,	. . ...
..... . -sa... -diki	. . . .
..... -sa	. .

11) **miqdor-daraja ergash** gap hosil qapdan anglashilgan ish-harakatning bajarilish miqdor-darajasini bildiradi. Bu gap bosh gap bilan birga miqdor-daraja ergash gapli qo'shma gap deb yuritiladi: ***U qancha qizisha, men shuncha sovuqqon tus olardim.***

Sxemasi

Ergash gap	Bosh gap
.. qancha ..... -sa.	.. shuncha
... qanchalik. .-sa,	.. shunchalik
.. qancha .. -sa.	.. shunchalik ...
... qanchalik..-gan sayin,	... shunchalik

12) **o'xshatish ergash gap** bosh gapdan anglashilgan ish-harakatning qay tarzda bajarilish ni o'xshatish yo'li bilan bildiradi. U bosh gap bilan birga o'xshatish ergash qapli qo'shma gap deb nomlanadi. **Chirildoqlaming mayin musiqasi hamma yoqni to'ldirgan, go'yo kechaning o'zi kuylaydi.**

Sxemasi:

Ergash gap	Bosh gap
....qanday....-sa,	shunday .. ..

Bosh gap	Ergash gap
-ki,	go'yo .....
-ki.	xuddi .....

13) natija ergash gap bosh gapdan anglashilgan ish-harakatning natijasini bildiradi. U bosh gap bilan birga natija ergash gapli qo'shma gap deyiladi. Natija ergash gap bosh gapga **-ki** bog'lovchisi yordamida bog'lanadi. Bosh gap tarkibida **shunday, shu qadar, shunchalik, shu darajada, shuncha, chunon** kabi so'z, ergash gap tarkibida esa **natijada, oqibatda, hatto** kabi so'zlar qo'llanishi mumkin: **Do'l bir zumda shunday yog'diki, yer oppoq bo'lib ketdi. Azimboy shunday zulm o'tkazdiki, oqibatda xalqning sabr-kosasi to'ldi.**

Sxemasi:

Bosh gap	Ergash gap
... shunday ... **ki,**	natijada ...
... shu qadar ... **-ki,**	oqibatda ...
shunchalik ... **-ki,**	...
shu darajada ... **-ki,**	...
... shuncha ... **-ki,**	...
chunon ... **-ki,**	...

Ergash gapning turini aniqlashga doir. Ergash gapning turini aniqlashda qo'shma gapni sodda gapga aylantirish amaliyoti yaxshi samara beradi. Bu bir necha bosqichdan iborat.

Qo'shma gapni sodda gapga aylantirganda, ergash gap bosh gapning tarkibiga kirib, bitta gap bo'lagiga aylanadi. Masalan, **Qayerda intizom kuchli bo'lsa, shu yerda tartib bo'ladi** qo'shma gapini sodda gapga aylantirish uchun dastlab undagi bosh va ergash gapni aniqlab olish lozim. Ushbu gapda ikkita gapni **–sa** shart mayli qo'shimchasi bog'lamoqda. Bog'lovchi vosita bo'lgan **Qayerda intizom kuchli bo'lsa** qismi ergash gap, **shu yerda tartib bo'ladi** qismi esa bosh gap. Ergash gapni bosh gap ichiga kiritamiz: **Intizom bor joyda tartib bo'ladi.** Ko'rinadiki, ergash gap bosh gap tarkibidagi izohlari shu talab qilayotgan **shu yerda** bo'lagi o'rnini egallaydi. U o'rin holi edi. Demak, ergash gap bosh gap tarkibidagi o'rin holi joyini egallaganligi uchun o'rin ergash gap deyiladi. Misol keltiramiz:

1. **Kimki yomonlar suhbatidan qochsa, u yaxshilar suhbatiga erishadi** – **Yomonlar suhbatidan qochgan** (ega) **yaxshilar suhbatiga erishadi.** Gap ega ergash gapli qo'shma gap. 2. **Chambil obod bo'ldi deb, kelayotir Avazxonday zo'ravon** • **Avazxonday zo'ravon Chambil obod bo'ldi deb** ravish holi **kelayotir.** Demak, bu gap ravish ergash gapli qo'shma gap. 3. **Shuni bilingki, har bir yangilik bexosiyat bo'lmaydi** – **Har bir yangilik bexosiyat bo'lmasligini** (to'ldiruvchi) **biling.** Bu qo'shma gap to'ldiruvchi

ergash gapli qo'shma gaplar. Boshqa ergash gap haqida ham shunday deyish mumkin. Faqat shart ergash gapli qo'shma gap sodda gapga aylanmaydi, xolos.

Jadvalda ergash gapli qo'shma gapning sodda gapga aylantirilishiga misol berilmoqda:

№	Ergash gapli qo'shma gap	Sodda gapga aylangan ko'rinishi	Qo'shma gapning turi
1	Kim birovga chuqur qazsa, unga o'zi yiqiladi.	Birovga chuqur qazganning o'zi unga yiqiladi.	Ega ergash gapli qo'shma gap
2	Sizda odat shundayki, uyga kelgan mehmonga nam ko'sak chuvtamiz.	Uyga kelgan mehmonga nam ko'sak chuvtamiz.	Kesim ergash gapli qo'shma gap
3	Men shundan qo'rqamanki, oramizda ham ikkiyuzlamachilar bor.	Men oramizda ikkiyuzlamachilar borligidan qo'rqaman.	To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap
4	Shunday bayot bo'ldiki, u sumkasiyistay olmadi.	Sentabr yaxshi olmaydigan bayot bo'ldi.	Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap
5	U kuchanib qancha qattiq puflasa, pilik shuncha kovlab yonardi.	U kuchanib qattiq puflagani sari qattiq yonardi.	Miqdor-daraja ergash gapli qo'shma gap
6	Quyosh havoni isitsa, nihollik qalbini ishratdi.	Do'stlik ruhini, quyosh havoni isitdi.	Chog'ishtirish-o'xshatish ergash gapli qo'shma gap
7	Gapni cho'zishning hojati yo'q, sababki odamlar tayyor.	Odamlar tayyor bo'lgani uchun gapni cho'zishning hojati yo'q.	Chog'ishtirish-o'xshatish ergash gapli qo'shma gap
8	O'zi tovuqlasang, lekin jazamani kuydirsin, ku qilsin dushmanlarimizni.	Dushmanimizni kul qilish, kuydirish maqsadida o'zi tovuqlasang.	Maqsad ergash gapli qo'shma gap
9	Xolmurod ochiq turgan maktab eshigini berkitishga borsa, ichkaridan ovozlar eshitila boshladi.	Xolmurod ochiq turgan maktab eshigini berkitishga borgan paytda ichkaridan ovozlar eshitila boshladi.	Payt ergash gapli qo'shma gap
10	Gulsum qayerda o'ynasa, Xolmurodning ko'zi ham o'sha yerda.	Xolmurodning ko'zi Gulsum o'ynagan yerda.	Olmosh ergash gapli qo'shma gap
11	Ko'zim ilgan ochilgan bo'lsa edi, men o'z yuragimni bo'lakka yechar edimmi?		Shart ergash gapli qo'shma gap
12	Suqchi haydasa ham, Kurashevich qirq oqchun ayamasdi.	Suqchining haydashiga qaramasdan Kurashevich qirq'oqdan ham kelmadi.	To'siqsiz ergash gapli qo'shma gap
13	Yaproqlar shunday tovlanadiki, ko'zingiz qamashadi.	Yaproqlarning tovlanishi oqibatida ko'zingiz qamashadi.	Natija ergash gapli qo'shma gap

Qo'shma gapning uslubiy xususiyati:

1) bog'langan qo'shma gap tarkibida bikarrov va zidlov bog'lovchisi o'rnida **-u, -yu, -da** yuklamasi ma'nodosh qo'llanishi mumkin: **Havo bulutlandi va yomg'ir yog'a boshladi. Havo bulutlandi-yu yomg'ir yog'a boshladi;**

2) ega, kesim to'ldiruvchi, aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap sodda gapga sinonim bo'ladi: **Shunisi aniqki, biz bugun yo'lga chiqa olmaymiz – Bizning bugun yo'lga chiqa olmasligimiz aniq;**

3) sabab, maqsad o'xshatish ergash gapning kesimi sifatdosh harakat nomi bilan ifodalansa sodda gapga sinonim bo'ladi: **Tog' etagi juda go'zal edi, go'yo chiroyli gilam to'shalganday – Chiroyli gilam to'shalganday tor etagi juda go'zal edi;**

4) payt, sabab, shart, to'siqsiz, natija, ravish ergash gap o'z doirasida o'z nodoshi bilan almashishi mumkin: **U kelsa, hamma ketib bo'libdi.**

5) bog'lovchisiz qo'shma gap bog'langan va ergashgan qo'shma gapga ma'nodosh bo'ladi: **Qor yog'di – don yog'di (Qor yog'sa, don yog'adi. Qor yog'di-yu, don yog'di).**

Mustahkamlash uchun savollar

1 Ergash gapli qo'shma gap nima? 2 Qanday gap bosh gap deyiladi? 3 Qanday gap ergash gap deyiladi? 4 Ergash gapni bosh gapga bog'lovchi vositalar qaysilar? 5.Bosh gap tarkibida taraluvchi vositalar qaysilar? 6.Ergash gap tarkibida turuvchi vosita qaysilar? 7 Ergash gapni ajratishdayoi jihati bilan gap bo'lagini ajratishga o'xshaydi? 8 Ega ergash gap haqida gapiring. 9 Kesim ergash gap haqida gapiring. 6.To'ldiruvchi ergash gap haqida gapiring. 7 Aniqlovchi ergash gap haqida gapiring. 8 Hol ergash gap haqida gapiring. 9 Hol ergash gap va uning turi haqida gapiring. 10.Qo'shma gapni sodda gapga aylantirish asosida ergash gapni aniqlash usuli qanday?

Topshiriq

Sherxonning Ajrasaqi sufiyalari masjidi jomeda Said Xalil bilan aloqa o'rnatib, Bahodir qanday dafn qilishning rejasini tuzdilar. Bahlul ham aslo tanishchilik afg'onlaridan, Sherxon uni taniydi. Lekin Bahlul afg'on ulusini o'rtaga to'playotgan Sherxonga yon bosmasdan, Humoyunga sodiq xizmat qilib yuribdi. Buning uchun Sherxon uni tuzoqqa qoldirib yo'q qilmoqchi bo'ldi. Sherxon yuborgan maxfiy odam Amir Bahlulning nomiga yozilgan maktub keltirgan edi. Sherxon o'z qo'li bilan imzo chekkan va muhrini bosgan bu maktubda Amir bahlulga o'lgan oyda Ganga bo'yiga yuborgan qurolyarog'lari uchun minnatdorchilik bildirilgan, juda ko'p yigitlar Humoyundan ajralib Sherxonga kelib qo'shilayotgani aytilgan, shuning uchun sovutgalqonlardan va qurol-yarog'lardan iloji boricha mo'l yuborilishi

dimos qilingan edi. Sherxonning maktub, ishonarli bo'lishi uchun uni oddiy hurflar bilan emas, dini siyohdan ko'pchilik odamlarga tushunarsiz bo'lgan maxfiy belgilar bilan bitishgan edi. Farangistonda bunday o'ta nozik ishlarni ko'p qilib tajribasi ortirgan Alvaro Pekaviro Sherxon maktubini Amir Bahlulning ishongan mulozimlaridan birining cho'ntagiga yashiriqcha solibqo'ydi. Kechasi bu mulozim Amir Bahlul huzuriga tungi soqchilikka kelayotgan vaqtda Said Xalilning odamlari uni Hindolga tutib berdilar. Ayni vaqtda Amir Bahlulning ruxsati bilan shaharga taxta ortib kelayotgan aravalarga Sherxonning xufiyalari bir talay qilich-qalqon va nayzalarni yashirib qo'ydilar. Hozir mulozim Hindol mirzoga tutib berilgan soatlarda bu aravalar ham qo'lga tushiriladi. Bahlulga uning mulozimi keltirib topshirilgan Sherxon maktubini sirli siyoh yordamida o'qilgandan so'ng Mirzo Hindol taxta tagiga yashirib olib kelinayotgan qurol-yarog'ni ham ko'rib-yo'qlab olgan bo'lgan Amir Bahlulning xiyonat yo'liga o'tganiga shundi. Yarim tunda Mirzo Hindol va Zoridbek o'z navkarlari bilan Amir Bahlul o'tab yotgan hovliga bostirib bordilar. Unga Sherxon yozgan maktubni va taxta ortilgan aravalar tagiga yashiringan qurollarni ko'rsatdilar. Ergash gapli qo'shma gapni topib, tahlil qiling. (O. Y.)

Tahlil tartibi:

1. Gapning grammatik asos miqdoriga ko'ra turi: oddiy gap, murakkab qo'shma gap.

2. Qo'shma gapning turi.

3. Ergash gap va bosh gap.

4. Qo'shma gapni sodda gapga aylantirish.

5. Ergash gapning turi.

6. Sxemasi.

40- DARS

BOG'LOVCHISIZ QO'SHMA GAP. MURAKKAB QO'SHMA GAP. MURAKKAB SINTAKTIK BUTUNLIK. O'ZGANING NUTQI

Bog'lovchisiz qo'shma gap haqida. Sodda gapning bog'lovchi vositasiz, ohang yordamida birikish dan tuzilgan qo'shma gap **bog'lovchisiz qo'shma gap** deyiladi: **Kech kirdi, tevarak-atrofga qorong'ilik tusha boshladi.** Bu qo'shma gapdagi sodda gap o'zaro tenglashuvchi ohang yordamida bog'langan.

Bog'lovchisiz qo'shma gapning quyidagi turi mavjud:

1) bog'langan qo'shma gapga sinonim bo'lgan bog'lovchisiz qo'shma gap: **Tig' yarasi tuzaladi, til yarasi tuzalmaydi.** Bunday gapni bog'lovchi qo'yish

bog'lovchisiz gapga aylantirish mumkin: **Tig' yarasi bitar, lekin til yarasi tuzalmaydi;**

2) ergashgan qo'shma gapga sinonim bo'lgan bog'lovchisiz qo'shma gap: **Qor yog'di – don yog'di.** Bunday gapni ergashgan qo'shma gapga aylantirish mumkin: **Qor yog'di, go'yoki don yog'di** (o'xshatish);

3) bog'langan qo'shma gapga ham ergash qismli qo'shma gapga ham sinonim bo'lmagan bog'lovchisiz qo'shma gap: **Xushxabar olib keldim, garnizon yanchildi.** Bunday gapni bog'lovchi vosita yordamida boshqa turdagi gapga aylantirib bo'lmaydi.

Bog'lovchisiz qo'shma gapda tinish belgisi. Bog'lovchisiz qo'shma gapda tinish muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun tinish belgisining ahamiyati katta.

1) agar bog'lovchisiz qo'shma gap qismi bir paytda yoki ketma-ket yuz bergan voqea-hodisani ifodalasa, vergul qo'yiladi: **Arava g'ijirlab borar, aravakash esa xirgoyisini bir zum ham to'xtatmas edi;**

2) agar bog'lovchisiz qo'shma gap qismi mazmunan bir-biridan ancha uzoq bo'lsa, nuqtali vergul qo'yiladi: **Yomg'ir chelakdan quyganday sharillab yog'ardi; uning xayoli uzoq, yoshlik paytlarida kezmoqda;**

a) bog'lovchisiz qo'shma gapning ikkinchi qismi birinchi qismning sababini bildirsa, izohlasa, to'ldirsa, ular orasiga ikki nuqta qo'yiladi: **Gap shu: ertaga men bilan yo'lga chiqasiz:**

b) agar bog'lovchisiz qo'shma gap qismi o'zaro zidlik yoki o'xshashlik munosabatlariga kirishgan bo'lsa, tire qo'yiladi: **Qor yog'di – don yog'di. Yoshim yetmish ikkida – o'zim yigitman.**

Murakkab qo'shma gap. Nutqda ikkitadan ortiq sodda gapning bog'lanishidan tuzilgan qo'shma gap ham mavjud. Maktab darsligida uch va undan ortiq sodda gapning birikishidan tarkib topgan gap **murakkab qo'shma gap** deyiladi. Ayrim darslikda uning quyidagi turi ajratiladi.

1) bog'lanish yo'li bilan tuzilgan murakkab qo'shma gap, ya'ni tarkibidagi sodda gaplar teng bog'lovchi yoki shu bog'lovchi vazifasidagi yuklama yordamida bog'langan qo'shma gap: **Hamma kelди- yu, Sattor kechikayotgan edi. lekin biz ishni boshlashga qaror qildik.**

2) ergashish yo'li bilan tuzilgan murakkab qo'shma gap (bu haqda quyida so'z yuritiladi);

3) bog'lovchisiz tuzilgan murakkab qo'shma gap, ya'ni tarkibidagi sodda gaplar maxsus bog'lovchi vositasiz, faqat ohang yordamida bog'langan murakkab qo'shma gap: **Nonlar yopildi, qo'ylar so'yildi, o'choqlarga o't yoqildi.**

4) aralash tarkibli murakkab qo'shma gap. (Bu haqda quyida so'z yuritiladi.)

Bir necha ergash gapli qo'shma gap. Birdan ortiq ergash gap bir bosh gapga tobelanib kelsa, **bir necha ergash gapli qo'shma gap** deyiladi. Bunday gap tarkibidagi ergash gap bosh gaplar, shunnidek, bir-biridan vergul bilan ajratiladi. **Tomosha zaligo kirsam, chiroq o'chsa ham, parda projektor nurida porlab turardi.**

Bu gapdagi ergash gap bosh gapga quyidagicha bog'lanadi:

